

74

OILA PEDAGOGIKASI



“ALOQACHI”

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

OILA PEDAGOGIKASI

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtalik maxsus
ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida
tavsiya etilgan**



TOSHKENT – 2007

«Oila pedagogikasi» darsligida oilaning bola tarbiyasidagi muhim o'rni, maqsad vazifalariga, e'tibor qaratilgan bo'lib, u o'z ichiga zamонави油 oila, uning o'ziga xos xususiyatlari, madaniy saviyasi, oilada bola tarbiyasidagi muammolar, ularning yechimi, uslubiy, shakl va tamoyillarini olgan. Shuningdek, oilada sog'lom avlodni tarbiyalashning innovatsion texnologiyasi, ota-onalarning burchi, obro'si, vazifalari, tarbiyachilik san'ati sirlari, mustaqil oilaning ijtimoiy jamoalar bilan hamkorligi, oilada bolalarni mактабга tayyorlashda ota-onaning o'rni qanday bo'lishi kerakligi chuqur tahlil qilib berilgan. «Oila pedagogikasi» darsligi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan.

Ma'sul muхarrir: professor **O.HASANBOYEVA**.

Mualliflar: O.Hasanboyeva, D.Xoliqov,
Rocc Kemibell, Sh.K.Toshpo'latova,
M.Sh.Nurmatova, X.J.Jabborova,
N.Jamilova, Sh.Egamnazarova,
N.Qayumova, M.M.Pirmuhamedova,
L.A.Kulay, Sh.Sodiqova, B.Xojimurodova,
M.A.Rasulxo'jayeva, R.Avezova.

Taqrizchilar: **D.ABDURAHIMOVA** – Nizomiy nomidagi TDPU «BTM va defektologiya» fakulteti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;
K.FARFIYEVA – Respublika «Oila» ilmiy amaliy Markazi katta ilmiy xodimi psixologiya fanlari nomzodi.

ISBN 978-9943-326-16-3

© «ALOQACHI» nashriyoti, 2007-y.

KIRISH

Milliy mustaqillikka erishgach, O'zbekiston Respublikasida pedagogika fani taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Xususan, pedagogik tadqiqotlarning ko'lami kengaytirildi, milliy pedagogik madaniyati, merosi chuqur o'rganilib, shaxsga ta'lif berish va uni tarbiyalash borasidagi jahon tajribalari, yutuqlaridan milliy xususiyatlarga tayangan holda foydalanish borasidagi izlanishlar yuzaga keldi.

Oilalarda tashkil etilayotgan tarbiya o'zining tub mohiyatiga ko'ra milliy xususiyatlarni namoyon etish bilan birga ijtimoiy oila tarbiyasini ijtimoiy pedagogikaning muhim yo'nalishi sifatida o'r ganildi.

Oila, turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi. O'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas balki, oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarini, qo'shnilarining omon esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishini birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliv darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir.

Oila insonni halol va pokiza bo'lishiga, ilm fan asoslarini egallashga, beva-bechoralarni qo'llab-quvatlashga, tabiatni e'zozlashga dav'at etadigan diniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarga alohida e'tibor berishga da'vat etadi. Bu borada buyuk bobokalonlarimiz Imom al-Buxoriy, Baxouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Imom at-Termeziyning

insonni ma'naviy yetuklikka chorlovchi buyuk g'oyalari, hikmatlari katta o'rinn tutadi.

Mazkur darslikdan ko'zlangan asosiy maqsad bevosita oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalangan holda, oila va oiladagi tarbiyaviy jarayonni milliylashtirish-xalqimiz orasida unut bo'layotgan milliy an'analar, urf-odatlar, marosimlarni qayta tiklash, yoshlar qalbida dinimiz, e'tiqodimizga hurmat munosabatini yanada o'stirishdan iboratdir.

Oila pedagogikasi darsligi ma'no va mazmuni bilan uyg'unlashgan yuksak maqsad yo'lida, murakkab vazifani bajarishga qaratilgan ezgulik nishonasidir.

Bo'lajak tarbiyachi va o'qituvchi mutaxassislarni oilada bola tarbiyasi muammolarni hal qilish masalalari haqida bilim va malakalarini shakllantiriladi. Bo'lajak mutaxassislarni oilaviy hayotga tayyorlash imkonini yaratadi. Mazkur darslik faqat pedagogik kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari talabalari uchungina emas, balki ota-onalar va oddiy mehnat ahliga ham xizmat qiladi.

I bob. OILA PEDAGOGIKASINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Komil insonni voyaga yetkazishda oila va jamiyatni o‘rni uni tarbiyadagi uzviyligi, uzlusizlik asosida amalga oshishi bu yaxlit bir qonuniy jarayondir.

Oila pedagogikasi jamiyatning shaxs tarbiyasiga doir muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalarini mukammal bajarishida xizmat qiladi, ta’lim-tarbiyaga doir bilimlar mushtarak holda jamlab farzand tarbiyasiga doir tartib, qoidalarning sinovdan o‘tkazuvchi va amalda tatbiq qiluvchi ota-onanining faoliyatidir.

Oila pedagogikasining predmeti:

Oila pedagogikasi sari, o‘z ustida ishlashi, izlanishi tangan vosita usullarini qo‘llashi va natijasini ko‘ra bilishini hamda tarbiyachilik san’atiga ega bo‘lishi uchun o‘rgatuvchi fandir.

Oila pedagogikasi quyidagilarga amal qiladilar:

- ta’lim-tarbiyaning zamonaviy talab darajasiga va tarbiya qonuniyatlariga amal qiladi;
- oilada beriladigan tarbiya mazmuni;
- oilada farzand tarbiyasida qo‘llanadigan usul va vositalar;
- insoniyatni ma’naviy rivojlanishi bilan oilada farzand tarbiyasining uyg‘unligi;
- oilada farzand tarbiyasidagi mahorat va madaniyatiga amal qilish.

Oila pedagogikasining maqsadi:

- oila tarbiyasiga doir muammolarning holati, qonuniyatlarini o'rganishga qaratiladi.

Oila tarbiyasining vazifalari:

- oila tarbiyasiga doir bir butun muammolarni hal qilish;
- oilaviy tarbiyaning samaradorligini oshirish va uning davlatni ustuvor talablariga javob beradigan komil inson tarbiyalashdir;
- oila tarbiyasida milliy qadriyatlardan o'rinli foydalanish, pedagogik qonun-qoidalarga rioya qilishdir;
- fan va texnika yutuqlaridan unumli foydalanish;
- ilg'or oilalardagi muovaffaqiyatli ish uslublarini o'rganish;
- ota-onalarни pedagog mutaxassislar bilan hamkorlikini o'matish kabilarni amalga oshirish;
- barkamol inson tarbiyasiga doir muammolarni hal qilish doimiy va hayotiy izlanishlarni talab etadi.

Oila pedagogikasini boshqa fanlar bilan aloqasi:

Oila pedagogikasi o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun oilada beriladigan tarbiyaning mazmuni, umumiyligini qonuniyatlar, tamoyil va metodlariga doir bilimga ega bo'lmoq lozim. Oila pedagogikasi umumiyligini pedagogikani bir tizimi bo'lib u umumiyligini pedagogikani qonuniyatlar asosida yaratilgan.

Oila pedagogikasi quyidagi fanlar bilan aloqada o'sib ulg'aymoqda: oila pedagogika fani: falsafa, sotsiologiya, iqtisodiyot, anatomiya – fiziologiya, psixologiya – pedagogika, ijtimoiy pedagogika, maxsus pedagogika, pedagogika tarixi, pedagogik mahorat kabilalar.

Komil inson tarbiyasi juda ko'p qirrali va murakkab bo'lganligi sababli hamma fanlar unga ko'makdosh bo'ladi.

Buyuk alloma Abu Nasr al-Forobiy «Talhizu Navomis» (Aflatun qonuniyatlarini mohiyati) asarida inson kamolotini falsafa fanining ta'sirida rivojlanishini shunday ko'rsatgan edi: «Yaxshi fazilatga ega bo'lgan shahar aholisi eng baxtiyor odamlar bo'lishlari, qonunlarga ixtiyoriy bo'ysunishini ta'minlash uchun qonunlarni takomillashtirish, ulardagi qoidalarni mustahkamlashdir»¹.

Oila pedagogikasining tarixiy ildizlari.

Xalq donishmandlari oila muammosi va tarbiyasi haqidagi qarashlari juda uzoq tarixiy ildizga egadir. Xalq og'zaki va yozma yodgorliklarida: maqol, hikmat, ertak, aytishuvlarda oila, ota-onas, oilaviy barqarorlik o'zaro munosabat masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ota-onas behad bo'ladi xursand,
Farzand bo'lolsa munosib farzand!

Javhar Zamindar

Namozi bomdoddin keyin validangni
Ziyorat qil va xizmatida bo'l.

Rushtiy

Oila va undagi tarbiya usul, vosita va omillari ko'proq yozma pandnomalarda; Kaykovusni «Qobusnama», «Saodatnama», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»si, «To'ti shoxnama», «Odobnama» kabilarda oila muammosiga doir masalalar ilmiy va nazariy, amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Mutafakkir va ma'rifatparvarlarni ijodiy faoliyatida oila muammosi asosiy o'rin egallagan. Buning sababi bo'lajak oila

¹ Abu Nasr al-Forobiy. Nufuzli shahar ahvoli. T., 1998-y. 23-b.

pedagogikasi fanini mazmundorligini ta'minlovchi badiiy adabiyot, san'at asarlari, milliy meros va umumiy insoniy qadriyatlardir.

Oila tarbiyasidagi bolalar hayotini to'g'ri uyuştirish, ularni vaqtidan to'g'ri va unumli foydalanishning asosiy gارو vi ekanligini ota-onalar o'z farzandlariga uqtirishlari lozim. Oila tarbiyasi masalalari bo'yicha maxsus Abu Ali Ibn Sino «Tadbir al-manozil» nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onanining bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritgan. Asarda oilada ota-onanining vazifasi va burchiga va oila munosabatlariiga to'xtalar ekan, ayniqsa, ota-onalarning oilada mehnat-sevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi.

Ibn Sino tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy masalalariga keng o'rinn berilgan.

Ota oilada o'z farzandlariga har tomonlama yurish-turishda, nutq odobida, so'z madaniyatida, o'zaro muomala jarayonida eng muhimi amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va haqqoniylilik, samimiylilikka namuna bo'lmos'i kerak. Oilada farzand tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi uning ma'naviy olamida e'tiqodni shakllantirish, deb hisob-lagan edi olim.

Yusuf Xos Hojib «Qudatg'u bilig» asarida oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e'tibor beradi. U kishi-larni uylanib, oila qurishidan boshlab, farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng zaruriy vazifalarini birma bir bayon etadi. Ota-onalar nazoratida bo'lgan bolaning mas'uliyat hissi rivoj topadi. Shu sababli ham bola tarbiyasida ota-onanining mavqeyi alohida ahamiyat-ga egadir. Ular tanlagan to'g'ri yo'l farzandlarining kelajagi, kamoloti uchun nihoyatda muhim-dir. Jamiyatda farzandlari

hulq atvoriga qarab ota-onalariga baho berishni aytib ularni ogohlantiradi.

Mirzo Ulug‘bekning qarashlarida bolaning bilim olishiga bo‘lgan qiziqishi havasini oshirishda u tarbiyalana-yotgan muhit muhim o‘rin egallaydi. Shunday ekan, avvalambor, bola tarbiyasida oila muhitini to‘g‘ri tashkil qilish darkor.

Unsurul maoniy Kaykovus «Qobusnama» pandnomasida o‘z farzanding sening haqingda qanday bo‘lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo‘lgil, nedinkim sen ota-onang haqida ne ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki farzand mevaga, ota-onsa mevali daraxtga o‘xshaydir» deb yoshlarni ota-onasini hurmat qilishga e’zozlashga, mehr-oqibatli bo‘lishga da’vat etadi. Ota-onsa o‘z farzandi uchun hatto o‘limga ham tayyorigini ta’kidlaydi. Har bir farzand oqil va dono bo‘lsa, ota-onsa mehr-muhabbatini ado etmakdin bosh tortmaydi.

Muhammad Sodiq Koshg‘ariy «Odob as-solixan» asarida uylanadigan yigit nikohdan oldin uylanmoqchi bo‘lgan qizini ko‘rmog‘i, uylanadigan qizining bokira bo‘lmog‘i hamda to‘rt narsa umrda, qomatda, molda va nasabda yerdan past va to‘rt narsada, husnda va jamolda, hulqda, adabda va iffatda yerdan yuqori bo‘lishi zarurligini, ta’kidlaydi. Bu fikr turmushda tinch va totuv yashash, oilada er-xotin munosabatlarda katta ahamiyatga ega.

Davoniyning fikricha: «Ota-onsa bolaga jamiyatda mavjud bo‘lgan hulq-odob qoidalarini singdirishga, yurish-turishga, yekish-ichish, o‘z qilmishi uchun mas’uliyatni sezish, shirinsuxan bo‘lish, yaxshilik, ezgulik kabi axloq qoidalarini egalllashiga yordam berishi lozim». Rudakiy oilada bola tarbiysi, yosh avlod kamolotda ota-onaning burchi haqida ham muhim fikrlarni ilgari suradi. Chunonchi, ruboiylari

zamonasidagi aksariyat odamlar, hatto ma'rifatli zotlar ham farzardlarining tarbiyasiga e'tiborsizlik bilan qarab, donishmandning bolasi johil bo'lib qolayotganligidan afsuslanadi.

Buning uchun oila muhitida ota-onalar bilan bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lgandagina tarbiyada yaxshi natijalarga erishi mumkin bo'ladi. Inson tug'ilgan paytidanoq tarbiyaga muhtojdir. Uning ilk tarbiyachilari albatta, ota-onasidir.

Ma'rifatparvar Munavvar Qorining «Oila a'zolari» nomli darslikninig bo'limlarida ota-onani hurmatlash, aka-uka qarindosh urug'ini e'zozlash kabi g'oyalar alohida o'rin egal-laydi:

Kishining bor ersa ota-onasi
Ganimatdir unga olarning rizosi.
Xudoni qoshida qabul ekandir
Ota va onaning baloga duosi.

Oilada farzand dunyoga kelgandan boshlab oilaning jamiyat oldida javobgarligi kundan kunga ortib boradi. Chunki o'sib kelayotgan avlodning taqdiri ana shu muammoning hal qilinishi bilan uzviy ravishda chambarchas bog'langandir.

Abdurauf Fitrat 1916-yilda «Oila» nomli falsafiy asarini yozgan bo'lib, unda oilaviy hayotni islohotidan bahs yuritilgan va adib najot yo'llarini axtarib xalqlarning umuminsoniy qardoshlik g'oyasini targ'ib etgan.

Fitrat oilani ijtimoiy vazifalari deb, «Avlod tarbiyasi», «Fikriy tarbiya», «Axloqiy tarbiya» kabi qismlarga bo'ladi.

Insonning ma'naviy va aqliy xislatlarini, asosan, uning olgan tarbiyasi, yashagan muhiti belgilaydi, deb hisoblagan. Agar, yaxshi tarbiya insonning eng qimmatli boyligi bo'lsa,

noto‘g‘ri tarbiya uning uchun chinakamiga baxtsizlikka, hatto, halokatga aylanishini uqtirgan. Shuning uchun mактаб tarbiyasi bilan bir qatorda oila tarbiyasiga ham katta ahamiyat bergen. Oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan tarbiya mактаб uchun katta mактабdir va aksincha, oilada tegishli tarbiya ishlari olib borilmasa, bu holda mактабning ta‘lim-tarbiya ishini juda qiyinlashtirib qo‘yadi.

Oilada bola bilan tarbiyachi o‘rtasida juda yaqin va samimiy munosabat o‘zining tabiiyligi va oddiyligi, mazmun-dorligi, iliqligi, hech qanday rasmiyatichilikning yo‘qligi bilan ajralib turishi lozim.

Oila odamzod o‘zining dastlabki ijtimoiy yo‘lini bosib o‘tadigan eng muhim sohadir. Bunday oilada ota-onalar bilan bolalar o‘rtasida ma’lum ma’noda izzat hurmat va qildan ishonch kabi chegara bo‘ladi.

Oilada bolalarning o‘zga bir oilada yotib qolishiga hech bir holda sira yo‘l qo‘ymasligi kerak, bola yotib qoladigan joy aniq tanish va ishonchli bo‘lgan taqdirdagina istisno bo‘lishi mumkin. Oilada farzand yaxshi tarbiyalansa, ota-onaning baxti, yomon farzand esa ota-onaga kulfat keltiradi.

Oila va jamoatchilik hamkorligi yosh avlodni muvaf-faqiyatli tarbiyalashning asosiy shartlaridan biridir, ota-ona e’tiboriga oladigan alohida ahamiyat berish kerak bo‘lgan narsa bolani yoshligidan boshlab biror-bir ishga o‘rgatish, unga o‘ziga xos yumush berib, ishga odatlantirishdir. Vaholanki, bola ham ish o‘rganadi ham jamiyatda, oilada o‘z o‘rnini topishga harakat qiladi. Bolada mehnatga munosabat, ota-onasiga munosabati, oila a’zolariga nisbatan fikri, dunyoqarashi o‘zgaradi.

Oila boshlig‘i ota-ona bola tarbiyasi haqida yetarlicha amaliy va nazariy bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Agar ularda yetarlicha

bilim ko'nikma va malaka bo'lmasa u oila a'zosiga ya'ni farzandlariga yaxshi tarbiya bera olmaydi. Oiladagi yomon tarbiya faqat oilaning o'ziga xos bo'lmasdan balki qo'ni-qo'shni va mahallalardagi tarbiyaga ham salbiy ta'sir qiladi.

Oila pedagogikasining ilmiy-tadqiqot metodlar:

Ilmiy tadqiqot metodlari ko'proq oilaviy muammolarni hal qilish maqsadida tadqiqotchilar tomonidan olib boriladi. Oilaviy muammolarni o'rganish dastlab manbalarga murojaat etiladi, shu jihatdan dastlabki metod.

Adabiyotlarni o'rganish metodi. Oila pedagogikasiga doir adabiyotlarni o'rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, mutafakkir va ma'rifatparvar pedagogik olimlarning asarlari, O'zbekistonning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviyatiga doir adabiyotlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari risola va maqolalar, pedagogik, psixologik, badiiy va ommaviy adabiyotlarni o'rganish.

Kuzatish metodi. Kuzatish adabiyotlarni o'rganishdan keyin boshlanadi. Kuzatishda ota-onada biror maqsadni ko'zda tutib tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi, uning dasturi tuziladi. Bunda kuzatish tezligi, soni, manzili, vaqtini, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish muddatiga ko'ra ikki turga ajraladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish. Qisqa kuzatish obyektning kundalik faoliyatidagi o'zgarishlardan ma'lum xulosaga kelish. Uzoq muddatli kuzatish-qo'yilgan maqsad, reja va dastur asosida olib borilib, ma'lum ilmiy, yakuniy xulosaga kelinadi. Kuzatishning yakunini qayd qilishda kinosyomka, video yozuvi, televiedeniya va boshqa texnik vositalardan foydalanish mumkin. Kuzatish metodidan to'g'ri foydalanish o'quv-tarbiya

jarayonining samaradorligini oshiradi. Yangi ijodiy faoliyatga boshlaydi.

Suhbat metodi. Tadqiqot mavzusining biror tomoni yoki hodisalari haqida bilib olish maqsadida ma'lum mas'ul shaxslar bilan og'zaki savollar berilib, ulardan axborot olish jarayonidir. So'roqlar mavzu doirasida mantiqan, mazmunli, tartibli, aniq ifodasiga ega bo'lishi lozim va uni to'g'ri yoki noto'g'rili giga qarab jadval tuzib natijasi aniqlanadi. Suhbat metodi jarayonida intervyu ham olish mumkin. O'rinli, mantiqan yuksak javoblar yoki noaniq javoblar magnit lentalariga yozib boriladi va tahlil etiladi. Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodi anketa metodi deb ataladi. Anketalar ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda, anketalar anketa ma'lumotlarini EXMdA qo'llab matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi. Hujjatlarning yetarli darajada anqlik bilan shunday tahlil qilinishi aniq pedagogik jamoalarning real faoliyatidagi sababli bog'lanishlari va bog'liqliklarini aniqlashga yordam beradi.

Pedagogik eksperiment. Har qanday ilmiy-pedagogik tadqiqotning asosidir. Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy gipotezalarning ishonchliligi tekshiriladi, pedagogika tizimlarining ayrim elementlari o'rta sidagi bog'liqlik va munosabatlar aniqlanadi. Tabiiy eksperiment va laboratoriya eksperimenti pedagogik eksperiment asosiy turlari hisoblanib, ular ko'pgina turlarga bo'linadi. Tabiiy eksperiment sharoitida yangi o'quv rejalar, dasturlar darsliklar va hokazolar odatdagagi o'quv rejimini buzmay turib tekshiriladi. Pedagogik eksperiment – bu ham kuzatish, lekin u pedagogik jara-

yonning o'tish sharoitlarini muntazam o'zgartirish munosabati bilan maxsus tashkil etilgan bo'ladi. Pedagogik jarayon aniqroq o'rganish uchun eksperimentator o'zi tashkil etgan jarayonni kuzatadi. U pedagogik jarayoniga aralashadi, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi faoliyatining muayyan sharoitlarini yaratadi. Pedagogik eksperiment dastlabki ma'lumotlarini, aniq sharoitlarni va o'qitish usullarini yoki tadqiq qilinadigan materiallarni aniq belgilashni, shuningdek, eksperiment natijalarini har tomonlama hisobga olishini talab etadi. Laboratoriya pedagogik eksperiment ilmiy taqiqotning qat'iy shaklidir. Juda keng pedagogik konteksdan uning muayyan tomoni ajratib olinadi, natijalari aniq tekshirib borishga va o'zgaruvchan kattaliklar o'mini almashtirishga imkon beradigan sun'iy sharoit yaratiladi. Quyidagilar pedagogik eksperimentning bosqichlari hisoblanadi: eksperimentni rejalashtirish, eksperiment o'tkazish va natijalarni sharhlash. Rejalashtirish eksperiment maqsadi va vazifasini belgilash, eksperiment natijasi ta'sir etuvchi omillar va ular darajasining miqdorini aniqlashni, kerakli kuzatishlar soni, eksperiment o'tkazish tartibi, olingan natijalarni tekshirish-metodlarini o'z ichiga oladi. Eksperimentni tashkil etish va o'tkazish belgilangan rejaga qat'iy amal qilgan holda olib borilishi kerak. Sharhlash bosqichida ma'lumotlar yig'iladi va qayta ishlanadi. Eksperiment o'tkazish ishonchlilik tamoyiliga javob berish uchun quyidagi shartlarga rioya qilish kerak, ya'ni:

- 1) tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining optimal bo'lishi;
- 2) tadqiqot metodlarini ishonchliligi;
- 3) farqlarning statistik jihatdan ahamiyatliligini hisobga olish.

Turli metodlarning samaradorligini va sifatini oshirishga imkon beradi. Bunga matematika metodlarining hamda hisoblash-yechish qurilmalari yordamidagi eksperiment natijalarning pedagogikaga kirib kelishiga ham yordam-lashadi. Odatda, o'rtacha arifmetik miqdor, modda, meridiana, dispersiya, tanlab olinadigan to'plam majmuyining o'rtacha kvadratik chetga chiqishi, o'rtacha olingan qiymat xatosi, belgilarni tuzatish koeffitsiyentlari hisoblab chiqiladi. Ilmiy tadqiqot natijalarini amalda qo'lla-nishi. Tugallangan tadqiqotda eng muhim narsa uning natijalarini amalda qo'l-lashdir. Mustaqil O'zbekiston sha-roitida Yangi ilmiy bilimlar juda tez to'planib bormoqda. Biroq ularni amaliy ishga joriy etish yo'lida qiyinchiliklar ham borligi ko'zga tashlanmoqda.

Bu qiyinchiliklar oiladagi tarbiya jarayonini takomillashtirish usullari haqidagi bilimlarining ortib borishi bilan ulardan foydalanishning faol imkoniyatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikdan iboratdir. Shunday bo'lsa-da, bu ularni joriy etish yuzasidan maqsadga muvofiq ishlar olib borishni istisno etmaydi. Joriy etish jarayoni pedagogik tajribani takomillashtirishga qaratilgan foliyat deb qaraladi. Shu sababli joriy qilinishi lozim bo'lgan tavsiyalarga yuqori talablar qo'yiladi. Talablarning ilmiy asoslanganlik darajasi, ular mazmuni **aniqligi** asosiy talablar qatoriga kiradi. Talablar mazmunining **aniqligi** **pedagoglar** bilan o'quvchilarning mo'ljallagan kuch g'ayrati mezonining to'g'ri baholashni nazarda tutadi. Joriy etish butun bir tadbirlar kompleksi bo'lib, u olingan xulosalar haqida pedagogik jamoatchilikni xabardor qilishning yangi o'quv va metodik qo'llanmalar yaratishning metodik yo'l-yo'riq va metodik tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Oila shajarasini o'rgatish tahlil qilish metodi-pedagogika hodisalari va faktlarini tekshirishda oilaning kelib chiqish tarixi

mukammal va chuqur o'rganmoq lozim. Oila haqidagi ma'lumotni tahlil qilishda ta'lim qonuniga amal qilinmog'i lozim.

Bolalarни oilada ijodiy qobiliyatini o'rganish metodi - oilada bolalarни ijodini hamda ularni turli-tuman ishlarini o'rganish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Iqtidorli bolalar aqliy qobiliyatları, oilyjanob axloqiy qiyofalari, estetik didlari, sinchkovliklari va qiziquvchanliklari bilan ajralib turadi. Ta'lim qonunida va milliy dasturida pedagogika fani bolalar ijodining manbalari va faktorlarini chuqur bilishga hamda ularni yanada taraqqiy ettirish va takomillashtirishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatib berishga qaratilgan.

Statistika ma'lumotlarini analiz va sintez qilish metodi – pedagogik tadqiqot kerakli statistika ma'lumotlarini ma'lum bir maqsad bilan sistemali o'rganish mustaqil O'zbekistonda Fan madaniyat, ta'lim – tarbiyani taraqqiy etishga salmoqli hissa qushadi.

Anketalar metodi – oila a'zolari va bolalarни so'rash usuli bo'lib, u oila jamoasining ma'lumotlari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni olish uchun ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun va kasbga yo'llashni belgilash uchun maxsus formada ishlangan bo'lmog'i lozim. Anketada ko'zlangan maqsadga muvofiq savollari bo'lib, ularni javoblaridan pedagogik natijalar kelib chiqmog'i lozim.

Mustaqil ish

Oila pedagogikasiga oid adabiyotlar ro'yxatini tuzing!

II bob. OILADA BOLA TARBIYASI DAVLAT SIYOSATIDAGI USTUVOR VAZIFALARDAN BIRI EKANLIGI

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy jabhalarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jaryonida oila masalasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Albatta, bu bejiz emas, chunki porloq ertamiznnng tamal toshlari oilada qo'yiladi. Yurtboshimiz Islom Karimov aytganlaridek: «Xalqimiz qadim-qadimdan oilani muqaddas deb bilgan. Axir oila ahil va totuv bo'lsa jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oilan farovonligi-milliy farovonlik asosidir». Demak, mamlakatimizda oila farovonligini ta'minlash davlatimizning asl maqsadidir.

Mamlakatimizda 1998-yilning «Oila yili» deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan «Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998-yilda amalga oshiriladigai chora-tadbirlar Davlat Dasturi»ning qabul qilinishi va amaliyotga tatbiq etilishi, Oliy Majlisning XI sessiyasida keng umumxalq muhokamasidan so'ng «Oila Kodeksi»ning bir ovozdan qabul qilinishi, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 2-fevraldagagi 54-sonli qaroriga binoan Respublika «Oila» ilmiy-amaliy Marказining tashkil etilganligi hukumatimiz tomonidan oila farovonligi, tinch-totuvligi va barqarorligini ta'minlashga bo'lgan e'tiboridan dalolatdir.

13949

17



Mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish davlatimiz siyosatining ustuvor o‘nalishlaridan biri ekan, u quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamrab oladi:

— oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, oila manfaatlari huquqiy himoya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalik huquqlarini muhofaza qilish;

— oilaning ijtimoiy manfaatlarini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oila a’zolarining sog‘lig‘ini muhofaza qilish va ta’lim darajasini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash;

— oilaning iqtisodiy manfaatlarini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oilaning daromadlarini, oila a’zolarining ish bilan ta’minlash darajasini oshirish, ro‘zg‘or yumushi va turmush sharoitlarini yaxshilash, kam ta’millangan oilalarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash;

— oilaning ma’naviy-axloqiy asoslarini va madaniy manfaatlarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

— oilaning sog‘lom, aql-zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashda oila va jamiyatning vazifalarini takomillashtirish;

— oila muammolarini ilmiy va ijtimoiy tadqiq, etish, oila, xotin-qizlar va bolalarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini ko‘rsatuvchi statisika hisobotini to‘plash va takomillashtirish.

Darhaqiqat, Vatanimiz mustaqilligining qisqa davri ichida oila, onalik va bolalikni huquqiy manfaatlarini qo-nuniy muhofaza qilish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta’minlash, uy mehnati va madaniy-maishiy turmush sharoitini yaxshilash,

oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini takomil-lashtirish, ko'p bolali, kam ta'minlangan, nochor oilalarni, nogironlarni, qarovchisiz keksalar, yolg'izlarni, yetim-yesirlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilada ma'naviy va jismoniy barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshiriladi.

Darhaqiqat, oila a'zolarining huquqiy savodxonligi va ma'naviy madaniyatini shakllantirish, har tomonlama sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, oilaning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish, cilada tadbirkorlikni keng yo'lga qo'yish, nogironlikning turli ko'rinishlarini oldini olish chora-tadbirlarini belgilash, oilada komil insonni tarbiyalash, yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligida mustaqil hayotga tayyorlash tizimini yaratish va amalga oshirish zamirida oila masalalari bilan shug'ullanuvchi mutasaddi davlat va jamoat tashkilotlari, oila, mahalla, maktab va jamoatchilik hamkorligini mustahkamlash, oilada sog'lom psixologik muhit yaratish zamirida oilada ba'zan uchraydigan jinoyatchilik, nikohning bekor qilinishi, giyohvandlik, nosog'lom e'tiqod, maishiy nopoliklik, axloqsizlikning turli ko'rinishlarga yo'l qo'ymaslik kabi masalalar bugungi kunda oilalarni jamiyat talablari darajasida shakllanishi uchun zamindir.

Mamlakatimizda adolatli, huquqiy, demokratik jamiyat qurish jarayoni shahdam qadamlar bilan borayotgan bir sharoitda qonun ustuvorligini ta'minlash zamirida oila a'zolarining huquqiy madaniyatini shakllantirish oila manfaatlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinayotgan Qonunlar, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mah-

kamasining Qarorlari, oila-nikoh munosabatlari, xotin-qizlar va bolalar huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalar va deklaratsiyalar va boshqa huquqiy hujjatlarning mohiyatini chuqur anglash hamda o'z faoliyatlari jarayonida amal qilishga erishish jamiyatning huquqiy savodxonligini oshirishning garovidir. Buning uchun oilaning turli qatlamlı a'zolari huquqiy ongi va dunyoqarashi darajasini o'stirish mexanizmini yaratish va amaliyotga keng tatbiq etish zarur. Chunki, huquqiy madaniyat darajasi yuksak jamiyatda oila, ona, ota va bola huquq va burchlari hamma vaqt Konsitutsiya bilan himoya qilinib, oila ajrimlariga, oilada uchraydigan sharqona axloq normalariga zid sodir etiladigan ba'zi xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Bu borada davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar butun dunyo tinchliksevar xalqlarning diqqat-e'tiborini jalb qilmoqda. Jumladan, mustaqilligimizning qisqa davri ichida respublikamizda inson huquqlari bo'yicha Milliy Markaz, Oliy Majlis huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari Monitoringi instituti, Adliya vazirligi qoshidagi huquqiy yordam ko'rsatish Markazi, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili-Ombudsmanning tashkil etilganligi oila, ota, ona va bola huquqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan muhim qadamlardir. Inson huquqlarini himoya qilish institutlarining asosiy maqsadi oila deb atalmish kichik jamiyatning huquqiy madaniyatini oshirishga, ularning huquqiy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Mamlakatimizda oila huquqlari xalqaro huquq normalariga mos ravishda m'uhofaza etilmoqda. Mustaqillik yilla-rida hukumatimiz tomonidan oila-nikoh munosabatlari, xotin-qizlar va bolalar huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar va deklaratsiyalarining ratifikatsiya qilinishi buning yaqqol

namunasidir. Jumladan, Inson huquqlari umumiylar deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrdagi 217 ASH rezolutsiyasi), Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (BMT Bosh Assambleyasining 1952-yil 20-dekabrdagi 640-son rezolutsiyasi), bir xil qiymatdagi ish uchun erkaklar va xotin-qizlarga teng haq to‘lash to‘g‘risidagi (100) Konvensiya (XMT Bosh Konferensiyasining 34-sessiyasida 1951-yil 29-iyunda qabul qilingan), onalikni himoya etishga qaratilgan (103) konvensiya (Jeneva, XMT tomonidan 1952-yil 28-iyunda qayta ko‘rib chiqilgan), bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya (BMT 43 Bosh Assambleyasini tomonidan 1989-yil 20-noyabrda), fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (BMT Bosh Assambleyasining 1966-yil 16-yanvardagi 2200-rezolutsiyasi), xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi Konvensiya (BMT Bosh Assambleyasining 1979-yil 18-dekabrdagi 34, 180-son rezolutsiyasi), bolalarning yashashini, himoyalanishini va rivojlanishini ta’minalash to‘g‘risidagi umumjahon Deklarat-siyasi, boshqa mamlakatlarga bolalarni o‘g‘irlab ketishning fuqarolik jihatlari to‘g‘risidagi Gaaga Konvensiyasi (Gaaga 1980-yil 25-oktabr), 1995-yilda Pekinda 4-Butunjahon xotin-qizlar konferensiyasida qabul qilingan xotin-qizlarning ahvoli bo‘yicha asosiy harakatlar dasturi mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni xalqaro huquq normalariga mos holda muhofaza qilish borasidagi dastlabki muhim qadamlardir, maqsad har bir fuqaroning, har bir oila a’zosining huquq-larini himoya etilishini xalqaro huquq normalari doirasida yo‘lga qo‘yishga erishishdir.

Oila a’zolarining huquqiy savodxonligi uning huquqiy himoya qilinishi huquqiy jamiyat barpo etishning negizidir.

Buning zamirida:

- aholi, shu jumladan, oila a'zolarining yosh tabaqa-larga mos huquqiy bilim berish dasturlarini yaratish, huquqiy ong va tafakkurini shakllantirishning samarali shakl va metodlarini aniqlash, bu borada noan'anaviy ta'lif-tarbiya usullaridan keng foydalanish;
- o'quv yurtlari, idora va tashkilotlarda huquqiy mavzuni yorituvchi burchaklar, xonalar tashkil etish, huquqiy bilim kunlari o'tkazish, radio o'quvlari uyuştirish;
- huquqiy mavzuga bag'ishlangan ommabop risolalar, gazeta va jurnal maqolalari, mutaxassis maslahatlarini chop etishni kuchaytirish, ruknlar rang-barangligiga erishish;
- oila huquqi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- joylarda baxt va nikoh uylari qoshida bo'lajak kelinkuyovlar uchun maxsus o'quv kurslari, «Oila» klublari, «huquqiy maslahat» telefonlari tashkil etish va targ'ibot-tashviqot guruhlarini tayyorlash;
- oilalarda huquqiy bilim berishni takomillashtirishga yordam beruvchi sotsiologik tadqiqot ishlari olib borish va uning natijalari asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyatga keng tatbiq etish, bu borada huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan boshqa mutasaddi davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini mustahkamlash kabi masala-larga alohida e'tibor berish yotadi.

Jamiyatda yuz beradigan barcha o'zgarishlar oilaga, oiladagi ma'naviy muhit, uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy darajasi esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotiga ta'sir qiladi.

Har bir davrning o'z dardi, talabi va ehtiyojlari bo'ladi. Mustaqillik odamlar va jamiyat taqdiriga taalluqli juda ko'p

jumboqlarni yechib tashlash bilan barobar ma'naviyatimizning qator muammolarini ko'ndalang qilib qo'ydi. Ayniqsa, axloq-odob masalalari katta ahamiyat kasb etib qoldi. Buning sabablari ko'p: bir tomondan, inson deb atalmish hayot gultojisiga bo'lgan munosabat o'zgardi, uni azaliy va abadiy pok ma'naviyat yo'liga qaytarish rejalar tuzila boshlandi; katta yoki kichik, yaxshi yoki yomon, ilg'or yoki johil millat bo'lmasligi, yomonlikning millati-yu, yaxshilikning chegarasi yo'qligiga qanoat hosil qildik: Inson o'z millati an'analari va umumbashariy qadriyatlar asosidagina kamolotga erishishi qog'ozda emas, amalda tan olindi; ikkinchidan, soxta baynalmilalchilik, qog'ozdagi xalqlar do'stligi g'oyalari odamlar orasida uzoq, zamonlardan buyon shakllanib, rivojlanib kelayotgan birodarlik tuyg'ulariga rahna solib qo'ygani, odamlarning millat ajratmasligi uchun, bir-biriga mehrli-ogibatli bo'lishi uchun urush yoki qahatchilik, zilzila yoki tabiiy ofatlarni boshidan kechirishlari shart emasligi, ijtimoiy adolat o'rnatilgan joyda xalqlar va millatlarning chin insoniy fazilatlari gurkirab unishiga ishonch hosil qila boshladik. Ayrim odamlarni aldash mumkin bo'lsa ham millatlarni uzoq aldab bo'lmasligiga endi hamma tushunib yetdi.

Totalitar tuzum davrida respublikamizda sharqona qadriyatlar asosida oilani barpo etish, shakllantirish va barqarorligini ta'minlashga yetarli e'tibor berilmadi. Oilani jamiyatning asosiy yacheykasi sifatida har tomonlama muhofaza etish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilmadi.

Xalqimizning axloq, andisha, sharm-hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmati to'g'risidagi tasavvurlariga zid bo'lgan o'zga madaniyat an'analari yoshlар ongi, dunyo-qarashi va shuuriga salbiy ta'sir etishi natijasida ba'zi salbiy xollarning paydo bo'lishi yuz berdi.

Milliy an'analar ma'naviy sog'lom oilani barpo etadi.

Sog'lom milliylik barq urchan joyda umumbashariy fazilatlarning qadriga yetish ham ortadi, millatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar ham kamol topadi. O'zimizga ham, boshqalarga ham go'zallik va odob timsoli bo'ladigan kelin tushirish odatimizni olaylik. Karnay-surnay sadolari yangragan ko'chada to'y, shodlik, mahalla ahli to'planadi. Agar to'y kechasini olib boradigan shilqim nasihatgo'ylarning har bir to'yda takrorlayverib siyqasi chiqgan so'zlarini e'tiborga olmasak, qulqlarni kar qiladigan darajadagi baland pardalarda ayuhannos ko'taradigan ansambllarning «Bari gal», «Ey sanam», «Qora ko'z bo'y-bo'y», «Chakra-chakidan girad», «Guloyim» singari xonishlarini mustasno qilganda to'ylarimiz chinakam jamoatchilik ramzidir.

Turmushimizda shunaqa voqealar ham uchrab turadi: to'y qiluvchining aholi nochorroq, hali uy-joy bitmagan, ro'zg'orda kamchiliklar ko'p, bolalar oyoqqa turmagan. Lekin u mahallani va yor-birodarlarni nahorgi oshga taklif qiladi. Shunda ba'zi birovlar «ahvoling shuku, topganining bola-chaqangga sarf qilsang bo'lmaydimi?» degan fikrga boradilar. To'g'ri, shunday qilish mumkin edi. Lekin men bu oilaning kamtarona oshini xalqimizga xos kamtarlik va o'z bolalarini jamoa orasiga olib kirib, ularda ko'pchilik bilan bahamjihat hayot kechirishga o'rgatish deb bilaman. Nahorgi oshga ketadigan sarf bilan ro'zg'orni batamom tiklab bo'lmaydi. Lekin biror kishi yoki oilaning obro'si, insoniyligi, milliy tuyg'usi tiklanadi. Bu ham yaxshi fazilatlarni ro'yobga chiqarish va tarbiyalashning o'zbekona yo'lidir. Men o'z boyligini va mavqeyini ko'z-ko'z qilish niyatida qilinadigan hashamatli to'ylarni ko'zda tutayotganim yo'q. Bunaqa isrofgarchilikka va manmanchilikka asoslangan to'ylar obro'

emas, nafrat keltiradi. O'zbek to'y marosimlari haqida gapirsak, quda-andalarning nozik muomalalari, kelin va kuyovga ko'rsatiladigan mulozamatlar, iliq, bordi-keldilarni ko'rib, nihoyatda ta'sirlanib ketasan, kishi. Ko'chani to'ldirib karnay-surnay sadolari ostida kelayotgan kuyov va uning jo'ralarini tomosha qilish uchun yosh-yalang tashqariga otiladi, derazalarning pardalari orqasidan kelinchaklar nigoh, tashlaydi. Kelin darvozasi oldida ikki tomonga saf tortgan qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar qo'li ko'ksida, ota ko'zlarida yosh qalqigan. Hatto «kuyovning bo'yi past ekan», «kuyov sariq-mi?», «kuyov baland bo'yli ekan-a» singari so'zlarning mahalla oralab tarqalishida ham ajib bir hosiyat bor. Mahalla birgalashib kuyovga baho berayotgandek, uni o'z farzandi qilib qabul qilayotgandek bo'ladi. Mahalla shu daqiqadan boshlab bitta qarindoshga ko'payganday tuyuladi. U shu mahallaning, shu ko'chaning, qo'yingki, hammaning kuyovi. Keyinroq biror joyda uni uchratib qolganda ham «kuyov» deb samimi murojaat qilamiz. Ana shunday go'zal an'analarimizni ba'zan bachkanalashtiradigan qiliqlar ham paydo bo'lib qolmoqda. Kuyov jo'ralarining o'ynab-kulib qaynota darvozasiga kelishi yaxshi. Lekin biroz «qizishib» olgan yoshlarni haddan ortiq, qichqirishlarichi? Kuyov jo'ralar qatorida avtobusni to'ldirib keladigan «zumrasha»-larchi? Ayniqsa, darvozadan kirishdagi ur-to'polonchi? Bu xunuklik va adabsizlikning alomati emasmi? Yoki nikohga jo'nash paytida kelin uyi oldidan jilgan yengil mashinalarning signallarini qo'shni mahallaga yetgudek muntazam chalinishi ham madaniy bezorilikning bir alomati emasmi? Ajoyib milliy an'analarimizni bunday bema'ni zamonaviylash-tirishning oldini olsa bo'ldi. Buning uchun mahalla ahli maslahat chog'i kelishib olishlari mumkin. Axir o'zbek

xonadonlarida kechadigan har bir ma'raka tarbiyaviy yo'naliishi bilan ajralib turadi-ku?

O'zbek xonadonlarida asrlar mobaynida hukm surib kelayotgan ertalabki kelin salom, kelinlarning barvaqt turib hovli va darvoza oldilarini supurib-sidirib qo'yishlari va keksa qaynona-qaynotalarga nonushta tayyorlab, tavoze bilan choy uzatishlari milliy ma'naviy qadriyatlarimizga yorqin misol emasmi? Yaqinda bir oilaviy janjalga guvoh, bo'ldim. Kuyovning o'ta injiq va tirnoq ichidan kir qidirish odatlarini bir yoqqa qo'yib, yoshgina umr yo'ldoshi oldiga qo'yayotgan talablarga quloq tutilsa, uning gaplarida ham jon borligi sezildi. Uning xotiniga e'tirozlar quyidagicha edi: «Ertalab ishga ketayotganimda «yaxshi boring», kechqurun xizmatdan qaytsam, «yaxshi keldingizmi?» demaydi. Biror qarindoshurug'larim kelsa «xush kelibsizlar», ketishayotganda «yaxshi boringlar» demaydi. Piyolaga choy quyib uzatmaydi, har kimning oldidagi piyolaga sharillatib choy quyadi. Shimlarimga vaqtida dazmol urilmaydi, oq ko'ylagimning yirtilgan joyini sariq ip bilan chatib qo'yibdi» va hokazo. Ana shu sabablar bahona yigit yosh bolali xotinini uydan haydab yuborish arafasida ekan. Ikki tomonga nasihatlar qilindi. Yigitning injiqligi, noo'rin gumonsirashi, «erkakcha» muomalasi, uy-ro'zg'or ishlariga aralashmasligi aytib o'tildi. Rus maktabini bitirgan kelin tabiatidagi ayrim sifatlar ham ko'rsatildi. Biror jiddiy sababsiz buzilish oldida turgan oila mahalla oqsoqollari aralashuvi bilan saqlab qolindi. Kattalarning aqli maslahati yoshlarga malhamdek zarur. Agar ona «xudoyo hovlisi qursin, seni ularga cho'rilikka bermaganman, saharda turma, sen borguncha kim supurgan bo'lsa o'shalar supuraversin, o'rgatib qo'yma, ovqat qilishniyam bo'yningga olma, qaynonang o'lgur jodugar, onamnikiga boraman

desang tog‘orada bir nima pishirib ham bermabdi, qurumsoq» singarigaplarni qizining qulog‘iga quysa, kelin tushgan xonadoniga mehr qo‘yarmidi?! Mayda gaplar to‘planib, butun oila parchalanib ketadi.

Mustaqil ish

1. Onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish haqida sotsiologik so‘rovnomalari tashkil qilish.
2. Oila huquqlari qanday xalqaro hujjatlarda muhrlangan?

2.1. Oila – tarbiya maskani

Aynan shu maskanda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi oliy darajadagi qadriyatlar shakllanadi, avloddan-avlodga yetkaziladi. Shu sifatlar ona suti, oila a’zolari mehri va namunasi bilan bola xulqi, xatti-harakati mazmuniga singib boradi.

Darhaqiqat, Prezidentimizning «Tafakkur» jurnali bosh muharririning savollariga bergen javoblarida «g‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma‘rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin» degan fikrlarini oila tarbiyasining metodologik asosi sifatida qabul qilish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunni ham oila ishtirokisiz amalga oshishi mumkin emas. Hayotning o‘zi ta’lim tizimi oldiga yosh

avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligida barkamol qilib shakllantirishni har bir ota-onasiga, pedagog, jamoatchilik oldiga qo‘ymoqda. Shuning uchun respublikamiz fuqarolari oldida turgan endigi vazifa ta’lim-tarbiya tarixini oila davrasida qunt bilan o‘rganish, unda olg‘a surilgan ilg‘or g‘oyalardan bahramand bo‘lishdir. Chunki o‘zbek diyorida dunyo ilm-fan xazinasiga beedad ulush qo‘sghan al-Xorazmiy, al-Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, al-Forobiy, ibn Sino, az-Zamahshariy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Imom al-Buxoriy, at-Termiziyy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy kabi allomalar zamonalr yashab ijod etganlar. Ular qoldirgan madaniy merosni o‘rganish har bir oila a’zosi uchun ham farz, ham qarzdir.

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlab aytganlaridek, «Biz osib kelayotgan yosh avlod ta’limtarbiyasini, ularning zamonaliviy ilg‘or bilimlarga ega bo‘lgan holda ulug‘ bobokalonlarimiz merosiga munosib bo‘lishlarini davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi, deb bilamiz».

Bunda esa inson ulg‘ayishida asosiy davr bo‘lgan o‘smirlilikdagi tarbiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu pallada uning ichki dunyosi, o‘ziga xos xislatlari shakllanadi. Bu davrda ota-onasiga ustozlar ular tarbiyasi bilan uzviy ravishda shug‘ullanishlari lozim. Ularning salomatligiga ham alohida diqqat-e’tibor zarur. Shuni ham unutmaslik kerakki, kamolotga eltuvchi yo‘l ma’rifat, shunga yarasha gayratshijoatdir. Har bir xalq har bir avlodning barkamollik darajasi pirovard natijada shu xalq istiqbolini, taraqqiyoti va taqdirini hal etadi.

Ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash — faqat milliy ehtiyojgina emas, balki umum davlat ahamiyatiga

molik masala — ko‘p millatli Vatanimizda tug‘ilib o‘sgan, tomir yoygan barcha qardosh xalqlar uchun birday ezgu murod maqsaddir. Bu nuqtada milliy va umuminsoniy qadriyatlar, boy ma’naviy merosimizning eng yaxshi an’analari hamda shakllanib kelayotgan yangi udumlar birlashadi, tarbiyaning qudratli omiliga aylanadi. Xalqimiz irstiyatini boyitish, ma’naviy va jismoniy sog‘lom avlodni tarbiyalash jarayonida oila, davlat va jamiyatning mushtarak muddaosi bo‘lmish komil inson shaxsi — XXI asr odami shakllanadi. Tarixchilarining yozishicha, Temurbek bolalik va yoshlik chog‘laridayoq, bugungi kun tili bilan aytganda, harbiy-sport o‘yinlari va mashg‘ulotlari bilan jiddiy shug‘ullanib, badanini va ruhini chiniqtirgan. Agar jismoniy tarbiyani otasiga xizmat qilgan maxsus navkar-murabbiylardan olgan bo‘lsa, ruhniy tarbiyani otasining piri bo‘lmish Shayx Shamsiddin Kulol dargohida egallagan.

Bolaligidayoq o‘zini buyuk ishlarga hozirlagan Amir Temur farzandlari va nabiralarining tarbiyasini ham bir lahma bo‘lsada, nazaridan qochirmadi. Ulug‘ hukmdor o‘z o‘g‘illari va nabiralariga eng avval jangu jadal mashaqqatlariga chidam berishga qodir kuch-quvvat va jasorat, shuningdek, sultanatni boshqarish uchun talab etilgan ilmu donish sohibi bo‘lishlarini talab etardi.

Amir Temur o‘z davrining ma’rifatli kishisi, o‘gmishning ma’naviy saboqlaridan yaxshi xabardor inson sifatida sog‘lomlik faqat jismoniy kuch-quvvat emas, balki oliyjanob insoniy fazilatlar uygunligiga erishmoq ekanligini ham yaxshi anglagan. U barloslarning ulug‘ amirlaridan bo‘lmish padari buzrukvori, muarrix Sharofiddin Yazdiy ta’biri bilan aytganda, «ulamo va sulaho va mutafakkirlarga mushfiq va mehribon» Muhammad Tarag‘aydan olgan saboqlarni bir umr

unutmadi. Muhammad Tarag‘ay o‘z farzandini mardlik va farosatlik, qattiqqo‘llik va mehr-oqibat ruhida voyaga yetkazdi. Agar Amir Temur buyuk sultanatga asos solgan bo‘lsa, bu sharafga mana shu yuksak tarbiya oqibatida erishgan.

Sohibqiron farzandlarida uch xislat mujassam bo‘lishini istardi. Eng avvalo, insonparvarlik, so‘ng mushohadalik va nihoyat, oqibatlik — bosiqlik. Insonparvar odamgina saxiy bo‘lishi mumkin. Mushohadali, bosiq odamgina jangu jadalda xatoga yo‘l qo‘ymaslikka, ulkan sultanatni boshqarishga qodir. Kimki jasur bo‘lsa-yu, insonparvar bo‘lmasa, jismonan baquvvat bo‘lsa-yu, mushoxadalik bo‘lmasa, dono bo‘lsa-yu, bosiqlik bo‘lmasa, unday odam komil inson bo‘lolmaydi, unday odam boshqalarni ham, o‘ziniyam halok etadi. Kimki raqibi bilan olishgandayam insonparvarlikni unutmasa, u albatta yengadi. «Siyosatda maslahaat, mulohazakorlik, o‘ylab ish qilish kuchidan o‘n karra foydaliroqdir», deb ta’kidlaydi ulug‘ Sohibqiron.

Bobokalonimizning farzandlari va avlodining qanday fazilatlarga ega bo‘lish bilan bog‘liq istaklarini bilish uchun, avvalo, «Temur tuzuklari»ni varaqlaylik. Uning dastlabki sahifalaridayoq shunday fikrni uqish mumkin: «Tajribamda ko‘rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir». Bu hikmatda bobomizning sog‘lom va komil inson xususidagi tushunchasi, ya’ni yetuk insoniy fazilat va xususiyatlarga ega insongina mamlakat tayanchi bo‘la oladi, degan mushohadasi mujassamlashgan, deb o‘playman. Boshqa bir o‘rinda Sohibqiron qat’iylik, sabrchi damililik, sog‘ligu sergaklik, ehtiyyotkorlik va shijoat sohibi bo‘lgan inson har qanday mashaqqatli ishni amalga oshirishga qodir, deb ta’kidlaydi.

Sohibqiron bobomiz harbiy safarlarga farzandu nabiralarini birga olib ketardi. Bundan ko‘zlangan birinchi murodi avlodlari suyagini jangu jadallar, uzoq va mashaqqatli yo‘llarda chiniqtirish bo‘lsa, ikkinchi maqsadi farzandu nabiralari o‘z avlodlari qo‘lida tarbiyalansa, erka va tantiq bo‘lib ulg‘ayadilar, degan fikrdan kelib chiqib, ularni onalarining ortiqcha mehru-muhabbatlaridan asrash edi. Zero, asalning ko‘pi zarar, me'yorda bo‘lsa, foydali ekanligi to‘g‘risida o‘tmish donishmandlari ko‘p naql etganlar.

«Mening farzandlarim tantiq bo‘lmasliklari kerak! — derdi Amir Temur. — Tantiqlik irodasizlikni paydo qilgay. Farzandlarimni erkalaydigan yer kurash maydoni bo‘lsin. Arg‘umoq ila qilich ularning jonajon do‘sti, mardlik ularga ustoz bo‘lsin!»

Mana shu niyatda jahongir avlodlarining jismoniy tarbiyasini itoatidagi eng tajribali va taniqli pahlavonlarga ishongan bo‘lsa, farzandlarining ruhiy dunyosiga sayqal berishni oqila malika — asli ismi Saroymulkxonim, xon avlodni bo‘lgan, murg‘aklikdan hukmfarmonlik va bahodirlikdan saboq olgan — Bibixonimga ishongan edi. Qolaversa, malika har doim safardayam, jangu jadaldayam va dorulsaltanatdayam hukmdorga hamroh, bo‘lardi.

Yetti iqlimdan yig‘ilgan san’at va adabiyot ahli tufayli dorulsaltanat Samarqand havosida she’r va musiqa nafasi hukmron edi. Mana shu muhit, malika rahbarligidagi muallimlar sabog‘ini olgan shahzodalar she’r va san’atga yaqin kishilar bo‘lib voyaga yetdilar. Xazrat Navoiy o‘z asarida yigirma ikki temuriy shadzoda (Halil Sulton, Mirzo Ulug‘bek, Boysunqormirzo, Abulqosim Bobur, Sulton Mas‘ud Shoh Barib Mirzo, Abdullatif Mirzo, Xusayn Boyqaro va boshqalar) she’r va musiqaga oshno bo‘lgani tilga olinadi.

O'rta Osiyoda ta'lif-tarbiya haqidagi qarashlar tarixini o'rgangan har bir fuqaro o'zining bilim saviyasi, dunyo-qarashini o'stiribgina qolmasdan, balki o'zligini anglashga, haqiqiy vatanparvar bo'lib shakllanishga muyassar bo'lishi tabiiydir.

Mana hozir mahallalarga juda katta e'tibor berilyapti. Mahallada hamma bir-birini biladi, bir-biriga ko'z-quloq, bo'lib yashaydi: Keksa oqsoqollar, bama'ni odamlarning yoshlarga ta'siri hammamizga ma'lum. Har bir mahallada shunday odamlar borki, ularsiz na to'y, na ma'raka o'tadi. Shunday voqealarning guvohi ham bo'lamiz. Hatto janjal-lashib yoki kelisholmay turgan qo'ni-qo'shnilar «falonchi aka kelyapti» yoki «falonchi akani chaqirib kelish kerak» deyilsa, o'z-o'zidan jimb qolishadi. Shu ma'noda oiladagi keksa ota-onaning fayzi beqiyos ekanligini ta'kidlash lozim. Bir necha oila bo'lib, bir qozondan ovqatlanish, ota-onsa izmidan borib kam bo'lmagan farzandlar sonsiz-sanoqsiz. Lekin oxirgi paytlarda bitta otasi yoki onasini chiqishtirmagan, ularning «ortiqchaligi» sezilib qolayotgan oilalar uchramoqda, keksa ota yoki onanining ko'zi tirikligida uyg'a ajoyib bir tarovat tarqatib turishini faqat ulardan judo bo'lgandan keyingina his qilinadi.

Yoshlar mustaqil turishni sevadilar. Ayniqsa, bu niyat kelinlarda kuchli bo'ladi. O'zi beka bo'lib, eri topganiga bilganicha va istaganicha xo'jayinlik qilishni sevadilar. Goho xotinining bunday nag'malariga uchib, qulog'im tinchisin degan ma'noda ajralib chiqib ketadigan, ota-onasidan xabar olmay qo'yadigan yoshlar ham bor. Bunaqa ishlar nainki milliy urf-odatlarimiz, odobimiz, balki umuminsoniy qadriyatlarga ham to'g'ri kelmaydi. Mehr ko'zi ko'r bo'lgan insonning jamiyat va jamoa uchun ham qalbi berk bo'ladi.

Opa-singil o'rtasidagi bir meros janjalini misol keltirmoq-chiman. Ota-onal tirik paytida chiqib ketgan opa ular olamdan o'tgach, singlisining boshiga ming g'avg'o solib meros talashib yuribdi. Kichik qiz eri bilan ota-onal uyiga ko'chib kelib ularni oq yuvib, oq taradi. Kasalligida boqdi, o'lganda ko'mib, barcha ma'rakalarni o'tkazdi. Hovli-joyni odamshavanda qildi, yangi xonalar qo'shdi, mahalla ahli va qarindosh-urug'larning duosini oldi. Katta opa esa ona o'limidan so'ng hovlining yarmiga da'vogar bo'lib, singlisining boshida yong'oq chaqib yuribdi. Hatto, singlisining «opajon, oramizga sovuqchilik tushmasin, mayli, kuyovin-gizni ko'ndirib, amal-taql qilib biroz pul bera qolaylik, axir biz jigarmizku, ol-dingizda yolg'iz o'g'lingiz bor, vag'ti kelib biz ham qarab turmasmiz» degan iltijolariga «yo'q, men uyni sotib, yarim pulini olaman» deb oyog'ini tirab olgan opaning axloqiy, insoniy qiyofasini qanday tasavvur etish mumkin? Mol-dunyo deb, tekin meros deb mehr bulog'i ko'ziga zahar sochayotgan, o'z jigarbandini qon-qaqshatishdan uyalmay-digan kimsalarni ko'rib nafra-tingiz oshmaydimi? Axir xalqimizda ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, qarindosh-urug'lar o'rtasida shunday mulo-qotlar, samimiyatlar borki, ular hikoya qilinsa, boshqalar ishonmasligi mumkin. Nahotki, ana shu hikmatlar, chin insoniy ezguliklar o'mini qora yuraklar, pajmurda o'pkalar bilan almashtirsak? Nahotki, yo'ldan chiqqan egri niyat, bebosh fe'llarga bobolarimiz, samoviy momolarimiz ma'naviyatini qarshi qo'ya olmasak? ha, qarshi qo'ya olamiz. Bunga jamoa, mahalla, odamlar munosabati zarba bera oladi. Chunki jamoa la'natiga uchragan odamning hech qachon bog'i ko'karmagan. O'zbekona odob, o'zbekona insoniylikning qarzi ham ana shu jamoa va ko'pchilik kayfiyati, munosabati bilan o'lchanadi.

Mahallalar bilan bog'liq, yana bir udum haqida gap yuritmoqchimiz. Bu kishilarning o'z kasbi, tengqurligi yoki mahalladoshligiga qarab, «ran» o'ynash odatidir. Bunday to'planishlar ham o'ziga xos milliy namoyishning bir ko'rinishi. Faqat u bir oyda yoki ikki haftada biror xonadonda takrorlanadi. Bunday yig'inlarning farqi shundaki, unda davlat siyosatidan tortib bozor narx-navosiyu farzandlar tarbiyasi, mahalla ahli hayotidagi yangiligu mamlakat ahvoli xususida bahs, munozara, maslahat bo'ladi. Bu «gap»lar milliy tarbiya maktabimizning yana bir go'zal shakli sifatida davom etib kelmoqda. Qaerda bu «gap»lar manmanlik yoki mayxo'rlik tomon burilsa, odamlar tezda tarqalib ketishyapti. «Gapdan maqsad o'zaro fikr almashuv, birodarlik tuyg'usi, qo'ni-qo'shnichilik hosiyatini mustahkamlash ekan, bunday milliy an'analar avloddan-avlodga o'tib, o'zbekona fazilatlarimizning hayotiyigini ko'rsataveradi.

Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi. Mustaqillikka erish-gunimizcha noto'g'ri mafkuraviy siyosat tufayli ko'pgina chin insoniy qadriyatlarimizga diniy tus berishga, ularni hayotdan siqib chiqarishga rosa harakat qilindi. Biroq bu narsa hech kimning qo'lidan kelmadı. Asrlar davomida, avlodlar ongida shakllanib kelgan odatlar, udumlarni bir zarb bilan yo'qotib bo'lmasligi tan olinmadi. Omma o'rgangan udumni yo'q qilish yo'lida ularga nisbatan ilg'orroq, tabiiyroq va zamonaviy ma'naviy ehtiyojlarni ifodalovchi rasm-rusmlar tarkib topmas ekan, har qanday harakat teskari natijalar beraveradi.

Rasm-rusmlarimiz milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalish evaziga boyib va o'zgarib bordi. Masalan, bayramlarda, turilgan kunlarda yoki quvonchli damlarda odamlar bir-birlariga gul va guldasta taqdim etish odat tusiga kirdi.

Umuman olganda, gul taqdim etish bizda tarixiy an'ana emas. Aksincha, bizda gul o'rniga gul ko'chati berishgan. Qabr ustiga gul qo'yish ham bizda odat bo'limgan. Sharq poeziyasida gul va bulbulga qanchalik ko'p she'r bitilgan bo'lsa ham uni faqat ramziy obrazlar tarzida idrok etilgan. Hayotda, odamlar oldida, oshkora ravishda sevishganlar gul emas, gulday iliq tabassum va ibolarni bir-biriga tortiq etishgan. Hozir gul tortiq qilish ommaviy tus oldi. Lekin shu o'rinda ko'r-ko'rona taqlid ko'zga tashlanmoqda. Biz o'zbeklar gul tortiq qilishda tushunib-tushunmay guldastanning toq yoki juft bo'lishiga ahamiyat bermaymiz. Ruslarda o'lim marosimlarida gullar juft sonda olib kelinadi. To'y, yubiley, uchrashuvlarda esa toq sonli gullar beriladi. Bizda toq va juft sonlarga turlicha munosabat mavjud. Masalan, ma'rakaga yoki o'lgan odamni yo'qlab borishda non toq sonda olinsa, to'yga va mehmondorchilikka borilganda nonlar soni juft bo'ladi. Bunday odat qachon boshlangan va nima uchun shunday bo'lib qolgan — aytish qiyin. Lekin unga xalqimiz amal qiladi. Ammo ruslardan o'tgan gul tortiq qilishda toq sonda gul hadya etamiz. Gul tortiq etishni eng oliyjanob fazilat sifatida qabul qilib, uning toq yoki juft sonlariga ahamiyat bersak bo'lmasmikan? Tug'ilgan kundarda, shodiyona damlarda juft sonli gullar berib, xalqimizning eng porloq duosining ramzi bo'lgan — hamma juft-juft bo'lib, bekamu ko'st va inoq yashashsin degan niyatini bajo keltirgan bo'lmaymizmi? Bizning tasavvurimizda juft son uyg'unlik, birlik, ahillik, totuvlik, hamfikr va hamnafaslik ramzi, toq son esa ayriliq, judo, kelishmovchilik, nizo va firoq ifodasi emasmikan? har qalay gulga, guldastaga ana shunday munosabat milliy tuyg'ularimiz, odob va hulqatvorimizga mos kelsa kerak, deb o'layman. Undagi toq

gullar qolgan tiriklar soni bittaga kamayganini, dunyo butunligi buzilganini, odamlar safi-tasbehi uzelganini anglatmaydim? Xotira kunlarida men marhumlar qabri ustida bahor chechaklari yal-yal yonib tiriklarning ko‘z yoshlari shabnam yanglig‘ gullarning barglarini yuvishini istayman. Ajdodlar xotirasini eslash avlodlar odobini mustahkamlaydigan ruhiyat gavharidir.

Millatning joni uning axloqu odobida. Shuning uchun har bir millat o‘z urf-odatlari, insoniy fazilatlarining jonkuyari, shu fazilatlar uchun o‘zini o‘tga ham, suvgaga ham urib, boringki, hayotning barcha achchiq-chuchuk qismatlariga bardosh beradi. Millat boshiga eng og‘ir kulfat tushganda ham u o‘zining ma’naviyatini bozorga olib chiqmaydi, nomusini sotib, vijdonini poymol etib kun ko‘rmaydi. Tarixning barcha issiq-sovuq zarbalar, tabiatning barcha yorug‘, qora kunlariga millat o‘zining axloqiy-ma’naviy boyligi ila bardosh beradi. Ana shunga ko‘ra biror kimsa orttirgan obro‘, biror inson erishgan yorlig‘, biror odam keltirgan shuhrat ham, kimlarningdir qing‘ir ishlari, nobakorning fisqu fujuri, dilozorning tuxmat xanjari — hamma-hammasi el-yurt, millat yuragiga, ruhiga ta’sir qiladi.

Oxirgi paytlarda keksalarimiz orasida «yoshlarning odobi buzilib ketdi» degan ta’nalarni eshitadigan bo‘lib qoldik. Birovlarning molu mulkiga va joniga qasd qiladigan past nusxalar ilondek izg‘ib qolganini ko‘rib, eshitib yuribmiz. Bir paytlar darvozasi qulf bo‘lmagan, bir necha oylab uy-joyini qo‘ni-qo‘snilarga ishonib dala hovlilariga ko‘chib ketadigan o‘zbegim bugun kelib eshik taqillasa avval derazadan mo‘ralaydigan bo‘lib qoldi. Shunga o‘xshash kasalliklarning ijtimoiy sabablari bo‘lsa-da, axloq-odob borasida yo‘l qo‘ylgan kamchiliklar ham ularga sabab bo‘lmoqda. Bir paytlar

onalar yelkasiga ag'darilgan «erkinlik» yuki ularning oiladagi birinchi navbatdagi tarbiyachi ekanliklarini chippakka chiqardi. Onalar mamlakat iqtisodiy, moddiy boyligini ko'paytirish uchun shunchalik dadil va keng jalb etildiki, pirovardida ular ham jismonan, ham ma'naviy, ham ruhiy boyligidan judo bo'lib qoldilar. Bir necha bolani voyaga yetkazish, tarbiyalash va oyoqqa turg'azishning o'zi ulkan ijtimoiy, milliy va umumbashariy boylik ekaniga ahamiyat berilmadi. Ayollarning o'zlariga qarashga vaqtি bo'limgach, bolalar tarbiyasiga vaqtি bo'larmidi? Ayrim yoshlardagi beandishalik, behayolik va bezoriliklarning ildizi ana shunda.

Oilada yosh avlodni ota-onasi namunasi oila an'analari, shajarasи, kasb-kori, axloqiy-ma'naviy qadriyatları asosida tarbiyalash, ular ongida oilaga sadoqat, o'zaro mehr-muhabbat, hurmat hissini shakllantirish vositasida ularni oilaviy hayotga tayyorlash kutilgan natija beradi. Buning uchun ota-onalarни tarbiya jarayoniga tayyorlash maqsadida ota-onalar universitetlari ishini tiklash va takomillashtirish, umumta'lim maktablari, oliy va o'rtalik maxsus ta'lim mazmuniga «Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash» kursini kiritish maqsadga muvofiqdir. Ota-onalarga oila tarbiyasida metodik yordam beruvchi «Oila kutubxonasi» seriyasidagi kitobchalar va maxsus «Oila» jurnalini nashr qilishni yo'lga qo'yish, barcha yo'nalishlardagi oliy va o'rtalik maxsus ta'lim muassasalariga «Oila psixologiyasi va pedagogikasi» kursini joriy etish oilani namunali tarbiya maskaniga aylantirish vositasidir.

Balog'atga yetayotgan yigit-qizlarimiz o'tkazilayotgan ta'lim, islohotlaridan mamnun bo'lishi tabiiyidir. Shuning uchun, respublikamizning barcha viloyatlari, tumanlari va qishloqlaridagi o'quv dargohlari zamonaviy uslubda jihozlanishi, ta'lim tizimiga esa yangicha ruh kiritilishi, Xalq

ta’limi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirliklari, umumta’lim maktablari, oliy va o’rta maxsus o‘quv yurtlarida ta’lim-tarbiya mazmunini, oila ta’limi va tarbiyasi bilan hamohang ravishda amalga oshirish zarur. Buning uchun esa:

- ta’lim-tarbiya shakllari, usul va vositalarini jahon andozasi talablariga mos tarzda rivojlantirish; ta’lim, maddaniy-ma’rifiy muassasalarini yangi zamонавиy texnika va texnologiya asosida jihozlash;
- o‘qituvchi-murabbiylarning, ota-onalarning ijodiy izlanishlarini va mahoratlarini oshirishning samarali yo’llarini topish;
- qishloq yoshlari uchun ta’lim-tarbiya muassasalarining ilg‘or modellarini hayotga keng joriy etish;
- oila-mahalla-maktab tizimida ta’lim-tarbiya samarali mazmunini va usullari amaliyatga keng joriy etish;
- yoshlarning bo’sh vaqtlarini oila-maktab va jamoat-chilik hamkorligida qiziqarli, maqsadli tashkil etishga erishish zarur.

2.2. Oila ma’naviyati

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan poklanish, oila, oilaviy munosabatlar, oilada ma’naviy va jismoniy barkamol yosh avlodni tarbiyalash borasida ham jiddiy o‘zgarishlar qilishni taqozo etdi. Jumladan: oilaning jamiyatdagi o‘rni, oilaviy munosabatlarga bog‘liq milliy an'analar, sermazmun milliy qadriyatlarning ildizlari ajdodlarimiz merosini o‘rganish va ommalashtirish, milliy oilaviy tarbiyada umuminsoniy qadriyatlarning o‘rnini yuksaltirish va uning oilada uyg‘unlashuvini ta’minlash, o‘zbek oilasiga xos

xususiyatlarni (mentalitetini) yaratish va keng targ'ib etish jamiyatning asosiy negizi hisoblanmish oilani istiqlol maf-kurasiga mos shaklan va mazmunan shakllantirishning garo-vidir.

‘Har bir millatning ma’naviy boyligi milliy va umumin-soniy qadriyatlarning birligidan tashkil topadi. Ma’naviy meros o’tmishning yutug‘i. Uni to‘la, odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodning vazifasidir. O‘z madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik man-qurtlikdir. Ularni boyitib, yuksak darajaga ko’tarishga intil-maslik esa millat va uning istiqloli uchun fojeadir. Ma’naviyati yuksak darajada rivojlangan insongina istiqlol, vatanimizning ulug‘ bir kelajagi uchun mehnat qilishga o‘zida kuch va qudrat topa oladi.

Shaxs ma’naviyati dastlab oila sharoitida shakllanadi va jamiyat ma’naviyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu boisdan, madaniy merosdan, bugungi kun qadriyatlardan to‘g‘ri foydalana olish, tarixdan to‘g‘ri xulosa chiqara bilish, o‘z tarixiga va bugungi ahvoliga, madaniy merosi va ma’naviy qadriyatlariiga, diniga va axloqiga va huquqiy amaliyotiga, turmush tarziga tanqidiy ko‘z bilan qaray olish – mustaqillikni mustahkamlashning muhim ma’naviy assosidir. Mana shu ma’naviy asos har bir ota-onasiga, oilaga kirib borsagina oila ma’naviyati qaror topishi tabiiydir. Aksincha, bo‘lsa esa oiladagi har bir yoshni jamiyatimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarni noto‘g‘ri talqin etishga olib keladi.

O‘zbek oilasida vataniga, xalqiga, oilasiga, istiqlol g‘oya-lariga sadoqatli, fidokor, mustaqil fikrlaydigan, dunyoqa-rashi keng, e’tiqodi yuksak, iqtidorli, tashabbuskor, mas’u-liyatli, ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga

yetkazish kelajagi buyuk o‘zbekistonning gullab-yashnashi uchun garovdir,

Yuksak ma’naviyatga ega ota-onan oilaning mohiyati, qadri, burch, mas’uliyat, oila vazifalari, oilada barkamol farzand tarbiyasi, oilani moddiy jihatdan ta’minlash, uning osoyishtaligini saqlash kabi vazifalarni anglab yetadi va unga amal qiladi.

Yuksak ma’naviyatli ota-onan farzandlarini insonparvar, vatanparvar, axloqiy jihatdan pok, bilimli, kamtar, oliyjanob qilib tarbiyalaydi.

Ma’naviyat ilm-fan, falsafa, axloq, huquq, adabiyot va san’at, xalq ta’limi, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an’analalar, din va boshqa ko’plab tarixiy amaliy va zamonaliviy qadriyatlarning ta’sirida shakllanadi. Aynan shu qadriyatlar oilada ota-onan, katta yoshdagagi oila a’zolari ta’sirida shakllanadi.

O‘zbek xalqi qadimdan oila ma’naviyatiga alohida e’tibor qaratgan. Bugungi kunda ma’naviy merosdan foydalanib, mustaqil respublikamiz talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalash har bir oilaning muqaddas burchidir.

Bu burchni sharaf bilan ado etish oilada yosh avlod ongiga avlodlar shajarasi, kasb-kori, urf-odatlari, an’analari, tarbiya usullari, jamiyat taraqqiyotidagi o’rni, o’ziga xos ijobiliy tarixini singdirish, undan g’ururlanish hissini tarbiyalashdan boshlanadi. O’z ota-onasidan, oilasi, avlod-ajdodlari tarixidan g’ururlangan inson o’z o’lkasi, millati, xalqi, tili, dini, madaniyatidan g’ururlanishi, uni avaylab-asrashi, dunyoga ko’z-ko’z qilishi tabiiydir. Buning uchun oilada bolaning ongiga yoshlikdan boshlab «sen tarixi boy, ulug’ millatning farzandisan», «sen ulug’ mutafakkirlar, allomai-zamonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan bobokalonlarning

ajdodisan», «o'zbek xalqi boy ma'naviyatli, vatanga, xalqqa, sadoqatli xalq», «Bizning mamlakat dunyoda tabiat eng go'zal, boy diyor» kabi tushunchalarni singdirib bormoq lozim.

Yurtboshimiz I.Karimov ta'kidlaganidek: «har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rta ga qo'yilgan maqsadlarga erishishi o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsa ularning sobitqadam shijoatiga, to'la-to'kis fidokorligiga va cheksiz mehnat-sevarligiga bog'-liq ekanini anglab yetishlari kerak. Xuddi shu narsa davlatimiz va xalqimiz ravnaq topishining asosiy shartidir». Shu boisdan ham yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berish, ularni jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida faol ishtirok etishlarini ta'minlash har bir oilaning, fuqaroning, davlat va nodavlat tashkilotlarining burch va vazifasi hisoblanadi.

Yurtboshimiz o'zlarining nutqlarida yoshlar tarbiysi, oilada tarbiya masalasiga barchanening diqqatini qaratayotgani bejiz emas, chunki XXI asrda yashab samarali mehnat qilish, o'zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan bugungi yosh avlod zimmasiga tushadi. Shuning uchun yoshlarni chuqur bilimli, yuksak madaniyatli, mehnatsevar va tashabbuskor shaxslar yetib shakllantirish oilada hayot taj-ribasiga ega, turmushning achchiq-chuchugini qurban, qi-yinchiliklarda toblangan yoshi ulug'larimiz, faxriylarimiz va otonalarning, shu bilan birga, mazkur ishga da'vat etilgan tarbiyachilar va jamoatchilikning asosiy vazifasidir.

Sir emaski, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning mazmun va mohiyatini teran anglamaslik, loqaydlik, mahalliychilik, ma'naviy va moddiy qadriyatlarga beparvolik oila ma'na-

viyatiga salbiy ta'sir etuvchi illatlardir. Buning oldini olishning muhim vositalaridan biri oilada bo'sh vaqt ni samarali tashkil etishdan iboratdir.

I.A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida aytganlariday, «San'atda oshkoraliqni pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida bo'limg'ur lavhalarni aks ettirish, bema'nilik va hayosizlikni, ba'zan esa hatto axloqiy buzuqlikni targ'ib qilishlar ko'rinish qolgan» edi.

Bunday milliy urf-odatlarimiz va axloqimizga zid keladigan qiliqlar qaerdan paydo bo'ldi? Davr taqqozosimi? Insoniyat kamoloti ifodasimi? Yoki ma'naviy-tarbiyaviy ishlarimizning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligimi?

Shuni unutmaslik kerakki, insoniyat va millatlar takomili hech qachon milliy an'analarni poymol etish, axloqu odob pardalarini g'ijimlash evaziga emas, aksincha, insonni yanada balandroq ma'naviyat, poklik va odob cho'qqisiga olib chiqishda namoyon bo'ladi.

Odamlarning ongini, ruhiyatini, ismu jismini poklantirish hozirgi kundagi tarbiyaviy-ma'naviy faoliyatimizning asosini tashkil etmoqda. Bunga sabablar ko'p. Bir o'rinda o'tmish davrlar asoratidan qutilish ko'zda tutilsa, ikkinchi o'rinda inson tabiatida uchraydigan, kezi kelganda xuruj qilib turadigan qusurlardan qutulish ehtiyoji ham mavjud. Mustaqillik zamoni ana shunday obyektiv va subyektiv insoniy xususiyatlar, fazilatlarni poklantirish yo'liga, azaliy va milliy taraqqiyot o'zaniga solib yubordi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz o'zining umumbashariy mohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Milliy an'ana va qadriyatlar rivoji shunday bir dialektik prinsipga asoslanganki, kimki o'z xalqi milliy qadriyatini

boshqa millat qadriyatlariga teskari qo'ymagan holda va aksincha, boshqa millat ma'naviyatini chuqur his qilish darajasiga o'sib chiqsa va o'z milliy qadriyatini bemalol va beminnat namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lsa, milliy munosabatlarda do'stona iqtisodiy va ma'naviy muloqotdan o'zga niyat bo'lmasa, ana shunda turli millatlarning ma'naviyatini ifodalovchi umumbashariy qadriyatlar o'sib boraveradi.

O'z tarixini, ma'naviyatini, qadriyatlarni o'zi bunyod etuvchi xalq, elat va millatlarga endi shunday imkoniyatlar yaratilmoqdaki, xalqimizning ham jahon xalqlariga faxrlanib, istixor tuyg'usi bilan ko'z-ko'z qiladigan fazilatlari qanchalik mo'l-ko'l bo'lsa, yangi tug'ilib, shakllanib qoladigan qusurlarni bartaraf etishga ham aqli va zakovati yetarlidir. Buni milliy urf-odatlarimiz, axloqu odobimiz, chin insoniy ne'matlarimiz taqozo etadi.

Binobarin, «Ajdodlarimizning ruhi poklari va urf-odatlari, bizning eng yaxshi an'analarimiz qayta tiklanganda islohotlar muvaffaqiyatga erishadi. O'ta o'qimishli, ruhan bardam va jismonan baquvvat kishilargina istiqlol va taraqqiyot yo'lini bosib o'ta oladi. Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshla-nadigan xalqimizning ma'naviy qadriyatlari iqtisodiy o'zgar-tirish-larimizning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi».¹

Oilaviy bayramlarni nishonlash, yoshlar tarbiyasida alla, ertak, xalq maqol va matallaridan, qo'shiqlaridan samarali foydalanish, birgalikda madaniy xordiq, chiqarishni, milliy sport o'yinlari va musobaqalarini, tarixiy obidalar va qadamjolarga sayohatlar uyshtirish, boshqa millat ma'naviyatiga

¹ I.A.Karimov. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin». «O'zbekiston», 1994, 104 – 105-betlar.

hurmat bilan munosabatda bo‘lish, oila kitobxonligini tashkil etish, oilada til, muloqot va kiyinish madaniyatiga alohida e’tibor berish, farzandlarga kasb-hunar o‘rgatish, oilada bo‘sh vaqt ni ijtimoiy foydali mehnat vositasida samarali tashkil etish oila ma’naviyatini shakllan-tirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu o‘rinda Vazirlar Mahkamasining «Ma’naviyat va ma’rifat sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha 1998–2000-yillarga mo‘ljallangan Dastur»i muhim dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda har bir fuqaroning ma’naviy-ma’rifiy yuksakligiga erishish davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan birini tashkil etar ekan, bu boradagi ishlarning tamal toshlari aynan oilada qo‘yiladi. Jamiat ma’naviyatini shakllantirish bilan bog‘liq ishlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan ta’limiy va tarbiyaviy tadbirlar vositasida olib borilmoqda, bu albatta oila bilan ham bog‘liqdir:

- mahallalar, oilalar va xotin-qizlar orasida amalga oshiriladigan madaniy-ma’rifiy tadbirlar tarzida;
- maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta’lim maktablari, oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim o‘quvchi, talabalari, yoshlar va boshqa toifadagi fuqarolar o‘rtasida olib borilayotgan tadbirlar;
- ommaviy-axborot vositalari, matbuot vositasida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar;
- ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish, samaradorligini oshirish bilan bog‘liq; ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy va ilmiy-metodik yo‘nalishlarda tadqiqot ishlari olib borish, sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish;

- xalqlar, millatlararo do'stlik-birodarlik, ahillik, totuvlikni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar;
- madaniy-ma'rifiy, ijodiy tashkilotlar tomonidan aholining ma'naviy madaniyatatlilik darajasini oshirish, ularning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish maqsadida amalga oshiradigan tadbirlar.

Mazkur yo'nalishlarda olib boriladigan madaniy-ma'rifiy ishlar oilasiz, oila a'zolarining ishtirokisiz bo'lishi mumkin emas.

Ushbu tadbirlar majmuasi negizida yirik oilaviy sport musobaqalari, qo'shiq bayramlari, oilaviy ansambllarining ko'riktanlovlari, san'at bayramlari iqtidorli ijodkorlar bilan o'tkaziladigan ijodiy kechalar, milliy musiqa, raqs, qo'shiq, milliy estrada san'atini keng targ'ib etishga qaratilgan maxsus teleko'rsatuvarlar, teleradio darslari tashkil etish har bir fuqaro ma'naviy ongi va tafakkurini shakllantirishda ijobiy natijalar beradi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda erishgan yutuqlarimiz, istiqlol g'oyalari bilan sug'orilgan ko'rgazmali targ'ibot vositalarini shakl va mazmun jihatidan rang-barangligini ta'minlash, xalq og'zaki ijodi namunalarini kuylovchi oilaviy baxshilar va ularning sulolalari chiqishlarini tashkil etish va ularning ijodlari asosida hujjatli filmlar yaratish va ularni har bir oilaga kirib borishini ta'minlash ma'naviy barkamol fuqarolarni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish, ma'naviy tubanlik, zo'ravonlik kabi illatlarni batamom yo'q qilishga erishish maqsadida har bir idora va tashkilotda, ta'lim-tarbiya muassasalarida, jamoa xo'jaliklarida maxsus «ma'naviyat kunlari», «ma'naviyat saboqlari»-o'quvlari; muzey, tarixiy

qadamjolarga sayohatlar Vatan mehnat qahramonlari, tarixiy va taniqli shaxslar bilan uchrashuvlar o'tkazish; ijodkor oilalar, yoshlar klublari tashkil etish; ajdodlarimiz madaniy merosi, urf-odatlari, to'y va motam marosimlari, xalq og'zaki ijodi, o'zbek milliy hunarmandchilik namunalarini yig'ish, o'rganish va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida ilmiy ekspeditsiyalar uyuştirish oilada ma'naviy yuksak avlodni shakllantirishda ijobiy rol o'ynaydi.

Oila-mahalla; oila-maktab; oila-jamoatchilik; oila-oliy va o'cta maxsus o'quv muassasalari hamkorligi tizimi asosida o'tkaziladigan tadbirlar albatta ijobiy samara berishi tabiiy.

Xalqimizda shunday milliy odat, an'ana va fazilatlar borki, ular boshqa xalqlarda yo'qligidan tashqari (men boshqa millatlarning yaxish sifat va an'analarini kamsitayotganim yo'q), insoniyat ma'naviyatining nodir zarvaraqlari sifatida boshqalarda hayrat uyg'otishga imonim komil. «O'zbek xalqi azaldan jamoa tuyg'usiga moyil, — degan edi I. A. Karimov. — Bizlar to'yda ham, azada ham yonma-yon turib, oddiy kunlarda ham bir-birining holidan xabar olib, kattaning hurmatini, kichikning izzatini joy-joyiga qo'yib, beva-bechoralarning, yetim-yesirlarning boshini silab, xullas, odamgarchilikni barcha narsadan ustun qo'yib yashagan insonlarning farzandlari bo'lamiz». Jamoaga suyanish va jamoatchilik fikrini hurmat qilish xalqimizning eng olıyanob fazilatidir. Buni mahallalardagi ijtimoiy-axloqiy rasm-rusmlar isbot qilib kelmoqda. Birgina to'y marosimimizning o'zini milliy fazilatlarimizning guldstasi desa bo'ladi. O'zbek xonardonidagi birorta to'y kengashsiz, maslahatsiz o'tmaydi. Hatto, kelin va kuyov tanlashdan boshlanadigan odatlarimiz ham kelajakdagι yosh oilaning tinch-totuvligini nazarda tutadi: kimning farzandi, ota-onasi qanaqa odamlar, ma-

halla-kuyda obro'si qanaqa, mustaqil oila tebratib ketishga qurbi yetadimi, yomon qiliq yoki odatlari yo'qmi, qarindosh-urug'lari qanaqa odamlar, hatto avlod-ajdodlarida biror anduhlik alomatlari bo'limganmi? Bu savollarga ijobiy javob olingachgina ikki tomon o'z rozi-rizoligini beradi. Bunday odatlarimizning nimasi yomon? ha, deb bunaqa savollar bilan kelin yo kuyov izlansa, yoshlarning mustaqilligi, muhab-bati poymol etilmaydimi, degan e'tirozlar bo'lishi mumkin. To'g'ri, ba'zan ota-onas obro'si muhabbatdan ustunlik qilgan dalillar uchraydi. Lekin, umuman olganda, sinab-surishtirgan oilalarning qudashiligi, ota-onalar bosh-qosh bo'lgan to'yu-tomoshalarning natijasi yaxshi bo'lishi hammaga ayon.

O'zbekona jamoat fikriga va jamoat bo'lib ish yuritish fazilatimiz diqqatga sazovor. To'ylarimiz ko'pchilik uchun jamoa tomonidan o'tkaziladi. To'y oldidan bo'ladigan maslahatlar, qarindosh-urug'ning erta sahardan kelib, to'yxona oldida qo'l qovushtirib, nozik tavoze ila mehmonlarni kutib olishlari, hovlida esa to'y mutasaddilarining odamlarni joylashtirib oldiga iltifot bilan choy va osh tortishlari — bu milliy odatlarimizning ko'rki emasmi? Yetti yot begona odamlar mahalladan stol-stul tashishsa, qozon, samovar, choynakpiyola olib kelsa, to'y tarqalguncha mezbon yonida tursa — bunaqa oliyjanoblik, bunaqa jamoaviy ruh va mehrni qayerda ko'rgansiz?

Odamlarning boshini qovushtiradigan, ularni bir tan bir jon bo'lib mehnat va rohatga jalb etadigan pur-hikmat urf-odatlarimizni sanab ado etib bo'lmaydi. «Hashar» deb atalgan shunday milliy udumimiz borki, uning ta'ifi har qanday millat odamlarini hayratga soladi. «Vaqt — pul» degan aqida butun dunyoga ildiz otgan paytda o'z vaqtini

tekinga, odamgarchilikka, milliy urf-odatga beminнат baxshida etish insoniy ehsonlikning cho'qqisi emasmi?

Milliy urf-odatlarimiz, ota-bola, qaynona-kelin, qarindosh-urug'chilik va hokazo ma'naviy ziynatlarimizni o'ylasak, ko'z oldimizga birinchi galda Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romani keladi. Nazarimda, o'zbek xalqining' milliy fazilatlarini ulug'lovchi, uni dunyodagi eng noziktab xalqlar qatoriga olib chiqib; ko'z-ko'z qilgan bu romanga teng keladigan asar hamon yaratilgani yo'q. O'quvchilar hatto etnografik yo'nalishda bo'lsada, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini o'yg'otadigan o'zbekona asarlarga chanqoq bo'lib yurgandek tuyuladi.

Savollar

1. Oila ma'naviyati haqida nimalar bilasiz?
2. Oila ma'naviyatiga e'tibor qaratilgan qanday tarbiya-viy tadbirlar zarur deb hisoblaysiz?
3. Yoshlarni ma'naviy axloqida qanday kemtikliklarni borligini his etgansiz?

2.3. Oilada vatanparvarlik tarbiyasi

Barkamol axlok va yaxshi xulq, birdaniga paydo bo'l-maydi. Xalq, axloqiy mezonlari ko'hna ona zamin bilan, Vatan deb atalmish mo'jiza bir diyor bilan, uning jonli va jonsiz xilqati, quyoshi, havosi, bulog'u daryolariga ruhiy rishtalar bilan bog'langan. Bu rishtalar xuddi ona vujudidan hayot nurini oluvchi bola kindigi singari ona zaminga ulangan. Ana shuning uchun axloqiy tasavvurlarimiz, adab mакtabimiz pirovard natijada millat uchun, uning obro'si va

istiqboli uchun xizmat qilsagina boshqalarda ehtirom va havas tuyg‘ularini o‘yg‘otadi; ana shundagina millat o‘z o‘tmishini, taqdirini, urf-odatlarini unutmeydi. Yaxshi fazilatlar, odatlar, an'analar va imonli kishilar siyoshi avlodlar yulini shamchiroq, yanglig‘ yoritib boradi.

Dunyoda shunday bir kitob borki, u hech qachon o‘qib tugatilmaydi, shunday bir musiqa asari borki, uni oxirigacha ijro etib bo‘lmaydi. Bu xalq, millat hayoti, taqdiri, urf-odatlaridir.

Mustaqillik tug‘ilgan tillarni biyron qilib yubordi, egilgan bilaklarga kuch berdi, orzumand nigohlarga nur bag‘ishladi, tafakkur usfqini kengaytirdi, millat taqdiri va insoniy ideallar qismatiniadolat va istiqbol tarozisi ustiga qo‘ydi.

Har inson o‘z qo‘srig‘ini aytish bilan barobar zamon va millat kuyiga qulqoq, tutishi ham qarz, ham farz bo‘lib qoldi. Shu bois, ba’zi unutilgan yoki odatiy bir yo‘sindagi fazilatlarimiz, axloqu odob sohasidagi bebahomulkimizni eslash qanchalik ko‘ngilni yashnatib yuborsa, zamona zayli bilan xalqimizga kirib qolgan yoki ta’bimizni xira qilayotgan jihatlar shunchalik dilimizga ozor beradi. Vatan-ostonadan boshlanadi. Demak, Vatan oila ostonasidan boshlanadi. Vatanparvarlik, milliy g‘urur, milliy o‘zlikni anglash shu oilada shakllanmog‘i zarur. Burch – ota-onaliddagi farzand burchi, farzand oldidagi ota-onalida burchi va vazifalari aynan oilada shakllanishiga erishish zarur. Bu o‘rinda oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini ta’minlash joiz.

Vatanparvarlik hissini o‘z farzandi qalbiga singdirolgan ota-onaning, shunday ruh, bilan yashaydigan xalqning kelajagi porloqdir. Yurtini sevgan, uning porloq, kelajagiga ishongan har bir fuqaro, har bir kishi uchun yurt taraqqiyotiga ulush qo‘sish asosiy maqsadga aylanadi.

Darhaqiqat, mamlakatda mavjud 5 millionga yaqin oilalarning aksariyati, aholining 60 foizi qishloqda istiqomat qiladi. Yurtboshimizning Oliy Majlis X sessiyasida so‘zlagan nutqidan kelib chiqqan holda qishloq aholisiga, oilalarga maishiy va madaniy turmush sharoitini yaratish, qishloqda sanoatni, maishiy xizmat shoxobchalarini olib kirish, zamonaviy maktab, kasalxonalar, poliklinikalar barpo etish va ularni foydalanishga topshirish, aholining, shu jumladan, qishloq aholisining ishsiz qatlami uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash – oila farovonligi, uning iqtisodiy manfaatlarini yuksak saviyaga ko‘tarish uchun zamindir.

Oilada kichik oilaviy biznesni yo‘lga qo‘yish, oilaviy korxonalar, oila pudratini tashkil etish dehqon, fermerlik faoliyatini kuchaytirish oilada tadbirkorlikni, yo‘lga qo‘yish unda «Usta-shogird» an’anasi asosida oilaviy kasanachilik faoliyatidan keng foydalanish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari tashkil etish oilada to‘kinlik va farovonlikni ta’minalash uchun zamindir. Har tomonlama badastir oilada esa jismonan va ma’nан sog‘lom tadbirkor, ishbilarmon, mehnatsevar shaxs shakllanadi va voyaga yetadi.

Savollar

1. Vatanga mehr va uni qashlashga doir g‘oyalar
A.Fitratning qaysi asarida aks ettirilgan?

III bob. O'ZBEKISTONDA OILA, DAVLAT VA JAMIYAT MUNOSABAT OMILLARI

Oila va jamiyat bir-biriga chambarchas bog'liq tushuncha bo'lib, jamiyatning o'zi ham oilalardan tashkil topadi. Oila esa o'z o'rnida jamiyat bag'rida vujudga keladi, rivojlanadi. Ayni paytda oilaning jamiyatda o'z vazifalari mavjud.

Oilaning mohiyati va vazifalari dunyodagi barcha xalqlar uchun bir xildir. Lekin uning tashkil topishi, taraqqiy etishi va oiladagi vazifalarni bajarish jarayonlari har bir xalqda alohida, o'ziga xos xususiyatga ega.

Mustaqillik munosabati bilan o'zbeklarning oilaviy hayotida istibdod yillarida tatqiq ostida bo'lgan ba'zi xususiyatlarni tiklash masalasi hal qilinmoqda. Masalan, tarixan tashkil topgan hovlining tashqi va ichki hovliga bo'linishi — xalqning milliy ruhini, iymonu e'tiqodini, toatu ibodatini aks ettirgan.

Hovlilarning ichki va tashqiga bo'linishi ayollarda farosat **va malohat tuyg'ularini shakllantirishga**, farzandlarning har **xil odamlar nigohidan yiroqroq bo'lishiga**, ortiqcha gapso'zlarni eshitmaslikka, kattalarning ishiga aralashmaslikka imkon bergen. Ayniqsa, bu milliy odat to'y va ma'rakalarni o'tkazishga katta qulayliklar tug'dirgan. Yevropa madaniyatining ba'zida ko'r-ko'rona targ'ib qilinishi oilada ham o'z aksini topdi, tarbiyaviy ta'sirning kamayishiga, ojizlanishiga olib keldi, ma'naviy qashshoqlanish kuchaydi. **Mamlakatimiz milliy istiqlolga erishgach, xalqning oilaviy**

qadriyatlari asta-sekin tiklanmoqda, sun'iy ravishda turmushga kiritilgan ayrim oilaviy marosimlar xalq nazaridan qolib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» deyiladi. Yangi «Oila kodeksi»ga va Konstitutsiyamizning 63-modda, 2-qismiga binoan «Nikoh tomonlarning u ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi. Yangi oila BMTning 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan.

«Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi»ning 16-moddasida shunday bandlar mavjud:

1. Balog'at yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniy belgilari bo'yicha hech qanday cheklashlarsiz nikohdan o'tishga va oila qurishga haqli.
2. Ular nikohdan o'tishda, nikohda turgan vaqtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir xil huquqdan foydalananadilar.
3. Nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina nikoh tuzilishi mumkin.
4. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli.

Shu bilan birga oila huquqi — nikoh tuzish va nikohni bekor qilish tartibi va shartlari; er-xotin, ota-onalar bilan bolalar o'rjasida vasiylik va homiylik, bola asrab olish tufayli kelib chiqadigan munosabatlar; fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish tarzini belgilaydigan huquqiy me'yollar yig'indisidan iborat.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida qayd qilganidek, «bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qattiq

tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab ehtiyojlari va qadriyatlar shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'-risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'-risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'rniga qo'yadi. Bu esa eng oliv darajadagi ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir». Fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo (1802—1885)ning bu haqdagi quyidagi fikri juda o'rinali bayon etilgan: «Kimki ayol huquqini himoya qilsa, bola huquqini himoya qilgan bo'ladi, boshqacharoq aytganda, u kelajakni himoya qilgan bo'ladi».

Keyingi vaqtarda mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ayollar mavqeyini o'z o'rniga qo'yishga yo'naltirilgan nodavlat tashkilotlari ham yuzaga kela boshladi. Shu jihatdan 1997-yili Toshkentda «Ayol va jamiyat» instituti tashkil topishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni bayon etmoq lozim. Adliya boshqarmasi ro'yxatidan o'tkazilgan bu institutning tad-qiqotchilik va siyosiy ta'lim bo'limlari mavjud.

3.1. Oilada ota-onaning o'rni

Inson kamolotining ko'rinishlaridan biri—obro'-e'tiborga ega bo'lishdir.

Obro' bir kun yoki bir yil mobaynida hosil bo'ladigan jarayon emas. Obro'ni inson hayat mazmunidagi faoliyati jarayonida asta-sekin shakllanib boradi. Ota-onaning oiladagi

obro'si tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Obro' oilaviy munosabatlar jarayonida shakllanadi.

Ma'naviy axloqiy xislatlarni, zamon ruhiga mos tushadigan fazilatlarni shakllantirishga qaratiladi. Mazkur toifadagi oila a'zolari davrasidagi suhbatlar, munozaralar, bahslar mulohazalar o'zaro tenglik, hurmat ruhiga bo'ysundiriladi. Oilaviy munosabatlarining ushbu ko'rinishda turli yoshdagi, jinsdagi bolalarga maqsadga muvofiq tarbiyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyati mavjuddir.

Shu boisdan tasodifiy voqeа va hodisalarning sodir bo'lish turli tarzda baholanadi va ularga bevosita aloqador oila a'zolari turmush tajribasidan kelib chiqqan holda yorag'batlantiriladi yoki tanbeh beriladi, jazolanadi. Bunday odilona amalga oshirilgan muloqot ta'sirida o'gil-qizlar ruhiy dunyosida ota-onaga nisbatan dilkashlik, xushmuomalalichkeit, o'z faoliyati uchun javobgarlik, o'z-o'zini boshqarish kabi muhim insoniy fazilatlar paydo bo'ladi.

Oilada munosabatning yana bir turi «avtoritar» – yoki «obro'talab» munosabat deb atalib, bunda ota-onaning obro'si shaxslararo muloqotda hal qiluvchi, yetakchi rol o'ynaydi. Shaxslararo teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik bunda o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Oila a'zolarining yurish-turishi, xatti-harakati ko'pincha kattalar tomonidan cheklab qo'yiladi.

Ota-onsa tomonidan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy usuli bu jazolash hisoblanadi, biroq, onda-sonda rag'batlantirish usulidan foydalanilganda ham ma'naviy rag'batlantirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi, munosabatdagi bunday noxushlik ota-onsa ko'zlagan tarbiyaviy maqsadni amalga oshirmaydi va past samara beradi. Buning oqibati natijasida oila a'zolari o'rtasida, mehr-oqibat hissi pasayadi. Ushbu

paydo bo‘lgan salbiy nuqtayi nazar ota-onaga nisbatan qo‘llaniladi.

Farzandlarda ota-onaga yaqinlik mehr-muhabbat hissi biroz bo‘lsada kamayadi, keyinchalik bu tuyg‘u uzoqla-shishi «begonalashish» tomoniga o‘sib o‘tadi.

Oilaviy turmush munosabati ichida «liberal» (murosasozlik) toifasi ham ko‘zga tashlanib turadi. Oila davrasida ota yoki ona murosasoz, ko‘ngilchang bo‘lishlik tashqi ko‘rinishidan iliq ruhiy iqlimini o‘ziga aks ettirganday bo‘lib tuyulsa ham, aslida unda hamjihatlik, o‘zaro tushunish yetishmaydi. Murosasozlik ta’sirida farzandlar fe'l-atvorida munofiqlik, ikki yuzlamachilik, kelishuvchilik kabi illatlar tarkib topishi mumkin.

Ota-onsa obro‘sni oiladagi axloqiy tarbiyaning garovi hisoblanadi.

Buyuk allomalarining mulohazalariga ko‘ra, tarbiyada hazinga yo‘l qo‘yuvchi jiddiylik hukm surishi lozim, lekin hamma ish hazilga, ermakka, sertakalluflikka, adovat, tirnoq orasidan kir izlashga aylanib ketmasligi kerak.

Shu boisdan muayyan pedagogik-ruhiyat qonun-qoidalariga rioya qilingan holda ota-onalar tarbiya prinsiplari, usullari, vositalari bilan qurollangandagina haqiqiy nazokatga va odobga erishish mumkin. Bu narsa ulardan chuqur izlanishlarni talab qiladi. Oilada farzandlarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishining iltimos, maslahat, ishontirishi, talab qilish, buyruq va tanbeh berish, jazolash, rag‘batlantirish singari qator usullaridan o‘z o‘rnida va me’yorida foydalanimasa, ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Mezon tuyg‘usi va me’yor hissiga amal qilish ota-onsa ruhiy dunyosiga, ma’naviyatiga singib borsa, u holda farzandlaridan uzoqlashishi, begonalashish, bordi-keldiga borish,

anglashilmovchilik g‘ovining vujudga kelishi, bachkana-lashish, badjahllik, asabbuzarlik hulq-atvori namoyon bo‘lmaydi.

Tarbiyaning muhim roli nutq hisoblanadi, shuning uchun ota-onan o‘z nutqida yoqimsiz ohang bilan, mantiqsiz va qaytariq so‘zlarini ishlatish va qo‘llash bilan farzandlarni ranjitishlik, ularda ishonch hissini so‘ndiradigan, hazil-mutoyiba, samimiy bo‘limgan fikr va mulohazalardan saqlanish kerak. Hayotda muloyimlikka, shirinsuhanlikka, samimiylikka, sof vijdonligi, dilkashlik va hotamtoylilikka hamdardlikka nima yetsin!

Odatda, ota-onan nazokatli bo‘lgandagina haqiqiy obro‘-e’tiborga erishadi. Bundan tashqari, obro‘li bo‘lmoq uchun ishonch har tomonlama rivojlangan bo‘lishi, shuningdek, aqliy, axloqiy estetik jihatdan muayyan cho‘qqiga erishgan bo‘lishi darkor. Bularning barchasi ota-onadan aql-zakovatli, milliy udum va urf-odatlarni mukammal egallagan shaxs bo‘lishni talab qiladi.

Oilaviy turmushda farzand kamol topishini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishning asosiy vositasi bolada e’tiqodni shakllantirishdir. Buni bolani faqat ishontirish yo‘li bilan amalga oshirsa bo‘ladi.

Shuning uchun ota-onan o‘g‘il-qizlarni voyaga yetka-zishda ularni ko‘r qilishga yoki asossiz buyruq berishga tayanmasligi kerak. Xo‘s, ota-onan obro‘si farzandlarda qachon paydo bo‘ladi? Oilaviy turmush tajribalaridan shu narsa ma’lumki, ota-onaning obro‘si davlat va oila a’zolari oldida javobgarlikni his qilishdan boshlanadi. Mabodo, ota-onan o‘z ishi, o‘z burchi uchun javobgar ekanligini tasavvur qila olsa va unga amaliyotda rioya qilsa, mana shu narsa ularning obro‘-e’tibor qozonishi uchun

asosiy zamin hisoblanadi. Ularning ruhiy dunyosi, ma'naviyati oilaviy iliq muhit uchun yetarli va ta'sirchan bo'lsa, o'z-o'zidan obro' qozonilaveradi, oila a'zolari o'rtasida mehr-muhabbatga erishadi.

Agarda ota-onalar o'zlarining hulq-odob xislatlari, histuyg'ulari, xatti-harakatlarida bularga rioya qilsalar, oila a'zolari hamda jamoatchilik o'rtasida yetarli darajada obro' qozona oladilar. Lekin, obro' qozonish shaxsnинг tezkorlik bilan amalga oshiriladigan sifati emas. Ota-onalar obro'si butun hayot davomida kundalik ibratli hulqi, axloqi, intizomi, aql-zakovati, kamtarinligi, ishbilarmonligi bilan gina qo'lga kiritishadi. Ibrat, namuna, chekilgan zahmat, zakovat, chin ezgu niyat, hayrli ish, samimiylilik evaziga yuzaga kelgan obro' haqiqiy obro' bo'ladi.

Bunday obro' farzandlar xayrxohligi va hamdardligiga sazovor bo'ladi. Natijada, oila a'zolari totuv, osoyishta, inoq, ahil, xotirjam, hamjihat turmush kechiradilar. Oiladagi farzandlar yuksak his-tuyg'uli, ma'naviyatli, madaniyatli inson sifatida ruhiy ozuqa oladilar, ular ota-onalari bilan behad faxrlanadilar, his-hayajonga to'ladilar va shu g'urur bilan yashaydilar, asta-sekin eng zarurshaxsiy fazilatlarini egallab boradilar. Oilaviy turmushda ayrim ota-onalar faqat tazyiq o'tkazish yo'li bilan farzandlari hamda boshqa oila a'zolari davrasida obro' orttirishni xohlaydilar, bu narsani yashashning asosiy vositasi deb hisoblaydilar. Bunda ular qo'rqtish, buyruq berish, ruhan ezish, tahqirlash, u tazyiq o'tkazish usullarini qo'llaydilar. Goho ular zahar-xandalik va badjahllikni bola tarbiyasining eng muhim usuli deb biladilar. Qo'qinch asosida bolada vujudga kelgan «tobelikni», «bo'ysunishni» ular o'zlaricha farzandlari dav-

rasida erishgan obro'si deb o'�laydilar, tarbiyaning bu usuli yuqorida aytib o'tilganidek avtoritar deb aytildi.

Ayrim ota-onalar esa o'z farzandlari bilan kamroq muloqotda bo'lishni, o'zlarini ulardan uzoqroq olib yurishni shu yo'l bilan obro' orttirishni ham hayol qilishadi. Ularning nazarida go'yo farzand bilan qancha kam uchrashishsa, ma'lum masofadan muomala qilishsa, shuncha ko'proq obro' qozonish mumkin emish. Bu noto'g'ri tushuncha, yuzaki qarorga kelish hisoblanadi. Aksincha, ota-onsa o'z farzandi bilan qancha kam muloqotda bo'lishsa, ularning ruhiyati bilan yaqindan tanishmasa, o'z ta'sirini o'tkazmasada, ular o'rtaida begonalashish, befarq bo'lish, his-tuyg'ulari, ishonishlari, xohishlari kelib chiqadi.

Hozirgi paytda shunday ota-onalar ham uchraydiki, ular bolaga faqat rasmiyatichilik bilan munosabatda bo'lish orqali obro' orttirishga harakat qilishadi.

O'z maqsadlarini amalga oshirish uchun ular qildan qiyiq qidirishadi, xatti-harakatlarni keltirib chiqargan asl sababdan ko'z yumishadi. Bolaga hadeb tanbeh berishadi, begonalar davrasida kalaka qilishadi. Uning yurish-turishlarini cheklab qo'yishadi, bo'lar-bo'lmasga tanbeh berishadi, arzimas harakat uchun jerkib, siltab tashlashadi. Farzandlariga ko'p pand-nasihat qilaverish ham shaxslararo munosabatda noxush kechinmalarni vujudga keltiradi. Ota-onalar arzimagan mayda-chuyda muammo, mulohaza, ko'mak uchun ham uzundan-uzoq o'git-nasihat qiladilar. Farzand erkini poymol etib, mustaqil fikr yuritishi, intilishini oyoq osti qilishgacha borib yetadilar. Ular o'zlarining nasihatgo'yliklarini ota-onalik burchi deb baholaydilar.

Mayda gaplik, ezmalik bilan o'g'il-qizlar o'rtaida ha-qiqiy obro' qozonib bo'lmaydi.

Turmushda soxta yaxshilik qilish orqali farzandlari oldida obro‘ orttirishmoqchi bo‘ladigan ota-onalar ham bor. Bunday ota-onalar o‘zlarining yumshoq muomalaligi, beozorligi, kechiruvchanligi, yon beruvchanligi, kam talabchanligi bilan farzandlarini o‘zlariga rom qilib olishni istaydilar. Ularning fe'l-atvorida, na ma'naviyatida qat'iyatlilik, na talabchanlik, na barqarorlik mavjud. Tilyog‘lamachilik, sox-talik, sun'iylik bilan bolada yuksak insoniy xislatlarni, oily-janob his-tuyg‘ularni, irodaviy sifatlarni tarkib toptirib bo‘lmaydi. Ota-onsa obro‘sini orttirishda ibrat ko‘rsatish usuli muhim rol o‘ynaydi, oilada tarbiya ishini muvaffaqiyatlarni amalga oshirish uchun ota-onsa tinmay o‘zlarini ham pedagogik, ham ruhiy jihatdan tarbiyalab borishlari kerak, ular o‘zlarida yetishmaydigan sifatlarni egallab borib, mavjud illatlarni batamom tugatishlari lozim. Chunki ota-onanining tarbiya jarayonidagi iste'dodi – bu farzandlarga nisbatan muhabbat va sadoqatdan iboratdir

Ota-onalar o‘z farzandlari o‘rtasida obro‘ga ega bo‘lishlari uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirishlari zarur. Farzandlarni yoshiga mos holda qator tarbiyaviy ishlarni olib borishlari darkor.

- Ota-onalar farzandlari davrasida obro‘ orttirish uchun ularning ruhiy dunyosiga kirib borishlari ayni muddaodir. Chin obro‘ga ega bo‘lmoqchi bo‘lgan har bir ota-onsa qimmat vaqtlarini o‘z norasidalaridan hech mahal ayamasliklari kerak.

- Oila davrasida ota-onalarning kuzatuvchanligi, ziy-rakligi, sezgirligi, fahmliligi, hozirjavobliligi, samimiyligi muhim ahamiyat kasb etadi.

- Ota-onalarning o‘z farzandlariga va oilaning boshqa a’zolariga (buva, buvi, kelin va boshqalar)ga mehribonligi

obro' orttirishning eng muhim yo'lidan biridir. Farzandlarining kuchiga, qobiliyatiga, aql-zakovatiga xotirasiga, diqqat-e'tiboriga, irodaviy xislatiga, qiziqishlariga, ko'nikma va malakalariga qarab aqliy va jismoniy topshiriqlar berilishi hamda o'z vaqtida, uzluksiz ravishda ularning natijasini tekshirish va oqilona baho berish, rag'batlantirish bolalarda qat'iylik, dadillik fazilatini vujudga keltiradi, mustaqil ilmini, tashabbus ko'rsatish sari chorlaydi, kattalarga nisbatan ixlosi ortadi.

- Ixlos, hurmat, intilish, tirishqoqlik obro'ning uzviy zanjirlari hisoblanadi.
- Ota-onalarning ijtimoiy muhitda, jamoatchilik o'rta-sida va oila davrasidagi samimiyligi va g'amxo'rligi ularga katta obro' keltirishi mumkin.

Ulardagi samimiylilik, g'amxo'rlik fazilatlari farzandlar ruhiy dunyosiga katta ta'sir etadi, ruhlanish, to'lqinlanishi, shijoat, ehtirosni vujudga keltiradi. Ularning ibratli xislatlari, shaxsiy fazilatlari, irodaviy sifatlari, o'z-o'zini qo'lga olish kabi jihatlari yigit va qizlar qalbida o'chmas iz qoldiradi. Ota-onaga nisbatan ishonch, intilishi moyillik hamdardlik sifatlari shakllana boradi. Oilada ruhiy muhit, totuvlik mavjud bo'lishi uchun ota-onalarda haqiqiy ma'nodagi nazokat hamda obro' mustahkam shakllangan bo'lishi kerak.

Oilada totuvlik muhitini yaratish omili

Hozirgi ilmiy adabiyotlarda oilaning ma'naviy asosi masalasida, shaxsning kamol topishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan bilim, san'at, arxitektura, milliy, diniy, axloqiy, badiiy va boshqa qadriyat turlari, milliy istiqlol mafkurasi kabi talay ma'naviyat va ma'rifat xususida gapiriladi.

Bolaning ma'naviy tarbiyasida oilaning ahamiyati muhimligi ta'kidlanadi.

Ota-onaning oiladagi moddiy, tashkiliy, tarbiyaviy va o'zaro shaxsiy masalalar yuzasidan bir-biri bilan bo'ladigan munosabatlari sof, samimiyligi, arning xotiniga, xotinning eriga nisbatan o'zaro hurmati, iffati asosida qurilsagina, bunda u oilada musaffo ma'naviy muhit va hamjihatlik vujudga keladi. Ayniqsa, ota-ona munosabatidagi, ularning bir-biriga mehribonligi, farzandlariga bir xil muomalada bo'lishi, har ikki tomonning qarindosh-urug'lariga bir xilda mehr-oqibat, hurmat bilan qarashi, bir so'zligi, haqiqatni gapishtirish kabi ijobiy fazilatlarga ega bo'lishi, shuningdek, sog'lom hayot kechirishi, chekish, yolg'onchilik, maishiy buzuqliq, dimog'dorlik, manmanlik va boshqa shu kabi illatlardan holi bo'lishi oilaviy munosabatlar madaniyatining sofligini ta'minlovchi xususiyatlardir.

Bunday ijobiy xususiyatlarga ega bo'lish, serfarzand oilalarda ham, yoki faqat er va xotin yashaydigan oilalarda ham og'ir kechadi. Chunki er-xotin turli sharoitda, muhitda tarbiyalangan, ularning qarashlari, ma'lumoti, yoshi, ma'naviy saviyasi va boshqalarda nomuvofiqlik mavjud bo'lishi mumkin. Er-xotinning bir-biriga ko'nikishi, o'zaro hurmati, do'stona munosabatlarining shakllanishi uchun ular orasidagi sevgi dastlabki manba bo'lsa, axloqiy qadriyat-larning gultoji bo'lgan ibo, hayo, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, sarishtalik, ozodalik, pazandalik, g'amxo'rlik, mehr-shafqat kabi azaliy odatlarimiz oilani mustahkamlashda ikkinchi manba bo'ladi.

Institut jamiyatda xotin-qizlarning siyosiy onglilik daramasini yuksaltirish bilan birga, ayollarga taalluqli ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi, shu orqali ayollarning iqtisodiy,

siyosiy, maishiy, madaniy, ta'limiy va boshqa sohalardagi ahvolini tadqiq qiladi. Bugungi kunda O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, maorif, madaniyat, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish sohalaridagi salmog'i 80—90 foizga yetgan. Bu borada «Tadbirkor ayollar uyushmasi» ham katta faoliyat ko'rsatmoqda.

Avvalo, ushbu masalada shunga ham e'tibor berish joizki, Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Oila davlat qaramog'ida bo'lar ekan, unda albatta, onalar ijtimoiy muhofazasi masalasini hal etmoq lozim. Prezident farmoniga muvofiq (1994-yildan) bolali oilalarga 3 xil nafaqa to'lanadigan bo'ldi:

1. Bola tug'ilishi munosabati bilan bir yo'la beriladigan nafaqa (6 oy mobaynida murojaat qilinsa, beriladi). Eng kam ish haqining ikki baravari miqdorida to'lanadi.

2. Bola 2 yoshga yetguncha uni, tarbiyalagan onalar uchun beriladigan nafaqa. Yani onaning dekret ta'tiliga 2-yil mobaynida haq to'lanadi. Bu eng kam ish haqining 175 foizi miqdorida beriladi.

3. 16 yoshgacha bolalari bo'lgan barcha oilalarga har oylik nafaqa, murojaat qilingandan keyingi oydan boshlab beriladi. Har oyda to'lanadigan nafaqa oilaning bitta bolasiga eng kam ish haqining 50 foizi, ikkita bolasiga 100 foizi, uchta bolasiga 140 foizi, to'rt va undan ortiq bolaga 175 foizi miqdorida beriladi.

Davlat 16 yoshgacha bo'lgan bolalari bor oilalarga birgina 1997-yilda nafaqalar to'lashga 9,6 mlrd. so'm ajratgan.

Tajribali kishilarning aytishicha, ota-onaning farzand oldidagi burchi nihoyatda mas'uliyatli hisoblanishini ma'nana his qilish darkor. Farzandlarning keljakda qanday ma'na-

viyat egasi bo‘lishi ko‘p jihatdan ota-onan, u bergen tarbiyaga bog‘liq. Har bir ota-onan farzandi oldida o‘z otalik, onalik burchini to‘liq his etishi, unga javobgarligini ma’nana anglab yetishi lozim. Shulardan xulosa qilgan holda, «Sog‘lom avlod» davlat dasturini nazarda tutib farzandiar tarbiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishini har bir ota-onan yaxshi bilishi foydadan holi bo‘lmaydi:

1. Nasl tarbiyasi, ya’ni bola tarbiyasi bola tug‘ilmasdan 3–4 yil oldin boshlanishi zarur. Bu farzand ko‘rishni istagan ota-onaning bo‘lajak farzandlari taqdiriga mas’uliyat bilan qarab, o‘zlarining salomatliklarini yaxshilashlarini nazarda tutadi.
2. Ikkinchchi bosqich — homiladorlik davridagi parvarish. Bu masala o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lib, «Cog‘lom avlod» davlat dasturida ham asosiy mavzu sifatida belgilab beriladi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda homiladorlik davrida onalarga katta g‘amxo‘rlik ko‘rsatiladi.
3. Uchinchi davr bola tug‘ilgandan to 6–7 yoshgacha bo‘lgan davr. Shu davrga kelib, bola ma’naviyatining kurtaklarini parvarishlash va yanada rivojlantirish davri boshlanadi.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar

Sharqda oila muqaddas deb sanalgan va nikohsiz er-xotin bo‘lish man etilgan. Millat ko‘payishining birdan-bir yo‘li erkak va ayolning nikoh va oila munosabatida bo‘lishidir. Gapb oilasini g‘oyalar dunyosi boshqarsa, Sharqda oila urf-odat va diniy qoidalar bilan tartibga solingan. Sharqda oilaviy

munosabatlar ham ayollar davomida o‘zida diniy, milliy, umuminsoniy madaniyatni shakllantirgani, har qanday sharoitda ham insoniy qadr-qimmatni ustuvor bilgani, milliy axloq-odobga asoslanganligi bilan farqlanadi. Sharq oilasiga xos xususiyat oilalarning mustahkamligi, kishilarning oilaviy hayotdan tashqarida yashashni tasavvur qila olmasligi, oilaparvarligi, jamoa bo‘lib yashashning ustunligi, serfazandligi, bolajonligi, oilani muqaddas bilishida namoyon bo‘ladi.

Oila qurmoqchi bo‘lgan har bir yigit-qiz o‘ziga umr yo‘ldoshi tanlashda bo‘lajak farzandlarining otasi yo onasining shaxsiy fazilatlariga e’tibor berishi kerak. Chunki otaning axloqi, odobi, onaning fazilatlari bolaga o‘tishi isbot talab qilmas haqiqatdir. Xullas, o‘g‘il ham, qiz bola ham eng avvalo, oila muhitida g‘uncha ochadi. Ana shu g‘uncha uning ma’naviyatida, qalbida bir umr yo‘lchi yulduz kabi nur sochib turadi. Rizouddin ibn Faxriddinning «Oila» risolasida: «Tarbiyali xotin ota-onasini, eri hamda bolasini, butun oila ahlini oilaga munosabati bo‘lgan do‘stu-qo‘snilalarini, xodimmu xodimalarini xulqi bilan mammun qilur», — deyiladi.

Amoma binti Xoris ismli ayol tajribasidan misol. U o‘z qizlarini kelin bo‘lib, kuyovning uyiga ko‘chirilishdan oldin saodatli oila asoslarini bayon qiluvchi nasihatlarini qilib kuzatgan ekan: «Ey qizginam, agar ahli fazl va ahli odoblarga nasihat kerak bo‘limganida edi, senga nasihat qilmas edim. Lekin nasihat — g‘ofilga eslatma, oqilga yordamdir. Agar qiz bola ota-onasining kambag‘alligi sababli erga berilishi kerak bo‘lganida, sen hech qachon uzatilmagan bo‘lur eding. Chunki otangning boyligi ham, martabasi ham yetarli. Lekin hayot qonunlariga ko‘ra ayollar erkaklar uchun va aksincha erkaklar ayollar uchun yaratilgandir.

Ey qizginam, endi o'zing o'sgan havodan ayrlilding. O'zing yayrab-yashnagan oshiyondan chiqding va notanish joyga borib, avval o'zing bilmagan sherikka uchraysan. U endi sening xojang, do'sting, mahbubingdir. Sen unga cho'ri bo'lsang, u senga qul bo'ladi. Sen unga yer bo'lsang, u senga osmon bo'ladi. Sen uning uchun 10 xislatni ado qilsang, oilada mas'ul va baxtiyor hayot kechirasizlar:

1. Qanoat sohibasi bo'l, undan hayiqib tur, ering uyga nima ko'tarib kelsa, xushfe'llik va odob-nazokat bilan qabul qilib ol va tashakkur ayt.
2. Eringga hamisha itoatda bo'l, amrlarini yaxshi-lab tingla va bajar.
3. Eringning nazari tushadigan joylarga e'tibor qil. Uy ichi va hovlini nihoyatda ozoda va tartibli tut.
4. Eringning burniga xushyor bo'l, dimog'iga yomon hid kirmasin, xushbo'ylik sezsin.
5. Ovqatni vaqtida tayyorla, aslo kechiktirma, kelishi bilan dasturxon yoz.
6. Uning ovqatlanish va uyg'onish paytini bilib ol, chunki ochlik va uyquning buzilishi erkaklarning g'azabini qo'zg'aydi.
7. Xojangning moli va ashyosiga e'tiborli bo'l, isrof qilma. Avaylab asra, chunki uning molu-dunyosi senikidir.
8. Eringning yaqinlari va qarindoshlarini hurmat qil. Bu bilan xojangni hurmat qilgan bo'lasan.
9. Eringning sirlarini boshqalarga aytuvchi bo'lma, uning ishonchini yo'qotasan.
10. Xojangning amriga osiy bo'lma, uning diniga to'g'ri keladigan barcha buyruqlarini ado qil. Shuni yaxshi bilib olginki, xojang xafa bo'lganda xursand ko'rinishdan, quvongan paytida g'amgin bo'lishdan o'zingni ehtiyot qil.

O‘zbekistonda 1980-yilda 173 ming 628 ta, 1989-yilda 200 ming 661 ta, 1996-yilda esa 171 ming 700 ta nikoh qayd etilgan. Bunda qishloqlarda shaharlarimizga nisbatan salkam 2 baravar ortiq yoshlар nikohdan o‘tishgani ma’lum.

Oila ikki ustundan iborat:

Birinchisi — iqtisod, ikkinchisi — ma’naviyat. Oilani shu ikki ustundan birisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Lekin iqtisodda imkoniyatdan, ma’naviyatda sharoitdan kelib chiqmoq kerak. Shunda oila mustahkam qo‘rg‘onga aylanadi. «Eng do‘zaxi ayol — eri imkoniyati darajasidan ortiq talab etuvchi ayodi», — deb uqtiriladi muborak hadislarda.

Oila tutishda ma’naviyatning sharoit taqozo etgan tomonlari borki, bu haqda allomalarimiz eslatib o‘tishgan. Beruniy oila qurayotgan qizlarga ota-onaning pandnasihatlarini keltirib, oiladagi tinch-totuvlik ko‘proq ayollar zimmasiga tushishini ta’kidlab shunday yozadi: «Ey qizim! Sen o‘rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoq-dasan. Sen bo‘lajak kuyovingning hamma xislatlarini bilmaysan. Sen yer bo‘l, u esa osmon bo‘ladi. Demak, sen u bilan shunday yo‘l tutki, uning oldida yer kabi kamtar bo‘lsang, u osmon kabi oliyjanob bo‘ladi. Osmon shifobaxsh yomg‘iri bilan yerni ko‘kartirgani kabi ham o‘z mehru shafqati ila seni xushnud etadi. Ering sendan faqat yumshoq va shirin so‘zlar eshitsin, yaramaydigan va eski libosda yoki sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o‘tirma. Qizim, kuyovingdan kuchi yetmagan va sotib olishga qudrati yetmagan narsalarni talab qilma. Bunday qilsang orada totuvlik yo‘qoladi, turli xil janjallar paydo bo‘ladi. Qizim, rashq qi-lishdan saqlangin, chunki u ajralib ketishning kalitidir. Eringga hadeb gina qilaverishni man etaman. Yaxshisi, sen u bilan xushmuomalada, shirin so‘zli bo‘lgin,

bu ishing har qanday sehru jodudan yaxshidir. O'zingga xushbo'y narsalar bilan oro bergil. Pokizalik hamisha yo'ldoshing bo'lsin».

82 yoshli Lev Tolstoy 1910-yil oktabr oyining qorli, sovuq tunlaridan birida injiq ayolidan (ayoli boylikka berilgan edi) qutulish maqsadida uyini tark etib, boshi oqqan tomonga jo'naydi. Oradan o'n bir kun o'tgach, kichkinagina temir yo'l stansiyasida o'pka shamollahidan vafot etgan yozuvchining so'nggi so'zi shu bo'ldi: «Xotinimni yonimga yo'latmanglar». «Be'mani injiqlik — zaxri qotil», — deydi Deyl Karnegi. «Oqila rafiqam! Agar ering yoningda bo'lishini istasang, shuning payiga tushginki, toki u hech yerda sening huzuringdan kabi rohat-farog'at va muloyimlikka duch kelmasin», — deb yozganida buyuk olim Pifagor ming karra haqli edi.

Shundan so'ng o'qituvchi quyidagi xulosalar bilan darsni yakunlaydi va o'quvchilarni baholaydi:

1. Demak, inson zotining shakllanishida oilaning o'rni katta. Chunki ma'naviyat, insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Har bir kishi tajribasi, bilimi, odob-axloqi, xatti-harakati bilan o'zining ruhiy olamini boyitib boradi. Aqlan, axloqan va jismonan kamol topib borgan sari u o'z oldiga turli maqsad qo'yib, unga erishish uchun harakat qiladi. Insonning mavjudligi uning jisman borligi bilan emas, balki ma'naviy boy ekanligi bilan belgilanadi.

2. Keyingi paytlarda xalqimizning ma'lum tabaqalari o'rtasida soxta shuhrat ketidan quvib, nom chiqarish, o'zini ko'z-ko'z qilish, keragidan ortiq dabdaba bilan nikoh to'yi o'tkazish, isrofgarchilikka yo'l qo'yish hollari ko'payib qolgan edi. Bu esa muqaddas an'analarimizni obro'sizlantirishga olib

kela boshladi va oddiy odamlarning nafsoniyatiga tegar edi. Oqibatda ko‘p oilalar buzilib ketdi.

3. Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning 1998-yil 28-oktabrda qabul qilgan farmoni to‘y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni, marhumlar xotirasiga bag‘ishlangan tadbirlarni o’tkazishda dabdababozlik, isrof-garchilikka yo‘l qo‘yish kabi illatlarga barham berishni katta vazifa qilib qo‘yadi.

To‘ylarda yangicha tartib, yangicha rasm-rusmlarni joriy qilishda mahalla qo‘mitalari, xotin-qizlar faollarining ta’siri kuchli bo‘lmog‘i zarur. Har bir mahallada iqtidorli ayollardan laparchilar, musiqachilar guruhini tashkil etish, to‘yni qiziqarli, bir umrga esda qoladigan qilish uchun turli-tuman dasturlar tayyorlash, to‘y ishtirokchilarining faolligini oshirish yo‘llarini o‘ylab topish lozim.

Topshiriq

Oilada totuvlik muhitini yaratish omillari qaysilari, siz yana nimalar zarur deb hisoblaysiz?

3.2. Sog‘lom oila-sog‘lom turmush tarzida vujudga kelish omili

Sog‘lom jamiyat sog‘lom oila negizida qaror topadi. Jamiyatimizda tub islohotlar amalga oshirilayotgan bir davrda inson salomatligi davlatimiz va hukumatimiz faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari negizini tashkil etadi.

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan 2000-yilni «Sog‘lom avlod yili» deb e’lon qilinishi va shu munosabat bilan Sog‘lom avlod Davlat dasturining qabul qilinishi hamda

gazeta nashr etish yo‘lga qo‘yilganligi mamlakatimizda sog‘lom avlodni shakllantirishga nechog‘lik yuksak ahamiyat berilayotganligidan guvohlik beradi. Mazmun va mohyatiga ko‘ra o‘ta salmoqli — Sog‘lom avlod Davlat dasturi qabul qilinganligi hech qaysi mamlakat tajribasida ko‘rilmagan. Zero, har bir fuqarosining salomatligi, ma’naviy, jismoniy va ruhiy barkamolligi haqida uzlusiz g‘amxo‘rlik qilishni hech bir hukumat o‘z zimmasiga olgan emas. Bunday mas’uliyatli vazifani bizning hukumatimiz o‘z zimmasiga olganligi dunyo hamjamiyati uchun yana bir ijobiy xoldir.

Istiqboliy adamiyatga ega bo‘lgan Davlat dasturini amalga oshirish, uni 2000 va keyingi yillarda tegishli resurslar bilan ta’minalash vazifasi davlat tomonidan kafolatlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-fevral qaroridagi: «Sog‘lom avlodni tarbiyalashga, yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, hayotiy o‘rniga ega bo‘lgan ma’naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish» degan so‘zlar ma’nosi yanada oydinlashtirildi.

«Biz mustaqilligimizning ilk yillardanoq sog‘lom avlod tarbiyasini eng ustuvor vazifa deb belgiladik, — deydi Prezidentimiz Islom Karimov, — Barkamol avlodni tarbiyalash masalasini davlat siyosati darajasiga ko‘tardik. Mustaqil Vatanimizning bиринчи ordenini «Sog‘lom avlod uchun» deb atalgani, «Sog‘lom avlod uchun» xalqaro jamg‘armasi tuzilgani buning tasdig‘idir. Bir so‘z bilan aytganda, oldimizga qo‘ygan barcha maqsadlarimizning, siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotimizda, davlatimiz, jamiyatimiz qurilishida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning, ezgu intilishlarimizning ma’no mohiyati sog‘lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish emasmi? Kadrlar tay-

yorlash Milliy dasturimizni ishlab chiqqanimiz va hayotga tatbiq etayotganimizdan maqsad ham aynan shu emasmi?! Buyuk davlatni faqat sog‘lom millat, sog‘lom avlodgina qura oladi».

Albatta, Sog‘lom avlod yili va shu bilan bog‘liq ravishda hayotga tatbiq etilayotgan Davlat dasturi g‘oyasi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgani yo‘q: ularning o‘ziga xos izchil mantiqiy tadriji mavjud. Buyuk davlatni ko‘ra oluvchi, erkin fuqarolik jamiyatini barpo eta oluvchi sog‘lom millat, sog‘lom avlod g‘oyasi — bu, «ajdodlarimizdan bizga o‘tib kelayotgan, qon-qonimizga singib ketgan muqaddas intilish» asrlar davomida xalqimizning ko‘ngil mulki sifatida rivojlanib, boyib kelgani, Mustaqillikning yuzaga kelishidagi ma’naviy omillardan bo‘lgani, istiqlolning birinchi kunlaridan e’tiboran davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangani hech kimga sir emas, albatta.

«Alisher Navoiy» yili, «Amir Temur» yili, «Inson manfaatlari» yili, «Oila yili» va «Ayollar» yilida belgilangan vazifalarni bajarish jarayonida hosil bo‘lgan tajriba mazkur ustuvor yo‘nalishni yanada kengroq va serqirrali miqyosda kun tartibiga qo‘yish imkonini yaratdi. Bunda maqsadning aniq va yuksakligi, uni hayotga tatbiq etishning izchilligi, eng muhim, avvalo, huquqiy asos bilan mustahkamlangani yaqqol ko‘rinib turganligini ta’kidlashga zarurat bo‘lmasa kerak. Sog‘lom avlodni tarbiyalash vazifasining pirovard maqsadi millatning har tomonlama uyg‘un barkamolligini ta’minalashdan iborat. Natijada, esa sog‘lom millat buyuk davlatni, mukammal, erkin fuqarolik jamiyatini bunyodga keltiradi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Sog‘lom avlod» Davlat dasturi va boshqa muhim hujjatlarni amalga oshirishga aholining barcha qatlamlari tobora faol qatnasha-

yotgani ham muvaffaqiyatlarimiz garovi hisoblanadi. Bundan asosiy maqsad millat genafondini sog‘lomlashtirish, o‘zbek xalqining ma’naviy va jismoniy barkamolligini butun dunyoga namoyish qilishdan iboratdir. Jumladan, «Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi, Vazirlar Mahkamasining sog‘lomlashtirishga oid qator qarorlari, xotin-qizlar ishlar bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan «Ekologiya va ayol» (1996-yil, fevral), «Sog‘lom avlod-sog‘lom jamiyat negizi» (1996-yil, may) kabi dasturlari har bir oila a’zosining salomatligini ta’minlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlardir.

Mazkur Qonun, qaror va boshqa davlat hujjatlariga binoan onalik va bolalikni ijtimoiy himoya etish, sog‘liqini saqlash tizimi faoliyatini takomillashtirish, qishloqdagi qishloq shifokorlik ambulatoriyalari, feldsherlik-akusherlik punktlari ishini yaxshilash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar, homilador va yosh bolalik ayollarga berilayotgan imtiyozlar xalq salomatligini, millat kelajagini ta’minlashda o‘zining dastlabki ijobiy samarasini bermoqda. Shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimida kunduzgi statsionarlar, kunduzgi davolanadigan bo‘limlar, ambulatoriya jarrohligi, ambulatoriya davolash ixtisoslashtirilgan kursi markazlari paydo bo‘lishi inson salomatligi borasida hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ijobiy ishlardan hisoblanadi.

«Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi bugungi kunda sog‘lig‘ni saqlash tizimidagi dolzarb masalalarga, ya’ni: sog‘liqni saqlashda ko‘p tizim-lilikning qonuniy joriy etilganligi, sog‘liqni saqlash tizimida bepul xizmatning saqlab qoliganligi, nogironlar va tibbiy-ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning kuch-quvvatini tiklaydigan muassasalar tashkil etish va ular faoliyatini ta’minlash,

fuqarolarga sanitariya-gigiena va ekologiya ta'limi berishni tashkil etish, tibbiyotda xususiy faoliyatga keng o'rin berilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, oila qurishdan oldin tibbiy xodimlar konsultatsiyasidan o'tish, oilaviy shifokor masalasi, balog'atga yetmaganlarning sog'liqni saqlashga doir huquqlarini himoya qilish, ularning jismoniy, ma'naviy kamol topishi uchun qulay sharoit yaratish, maktabgacha tarbiya, umumta'lim maktablari va boshqa muassasalarda tibbiy xizmatni yo'lga qo'yishga e'tiborni kuchaytirish ham mamlakatimizdagi sog'liqni saqlash siyosatining kuchliligidan dalolat beradi.

Xo'jalik hisobi prinsiplari asosida ishlayotgan muassasalar tarmog'i kengaymoqda, tibbiy kooperativlar, oila shifokorlari keng quloch yoymoqda, dori-darmonlar chiqarish korxonalarli tarmog'i rivojlanmoqda. Xalq tabobati bilan shug'ullanishga qonuniy yo'l ochib berildi.

Shunday qilib, «Sog'lom avlod»ni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Davlatimizning bunday siyosati negizida bugungi kunda xotin-qizlar ichidagi ekstragenital kasalliklarning mavjudligi, balog'atga yetmasdan ona bo'lish holatlarining uchrashi, chala tug'ilayotgan bolalar hamda nogironlikning o'sishi oldini olishdek muhim vazifalar yotibdi. Shuningdek, o'smir qizlarni ona bo'lishga tayyorlash, istalmagan homiladorlikni oldini olish, ekologik holat, atrof-muhitdagi sanitariya-epidemiologiya holatlarini talab darasida tashkil etishga e'tiborni kuchaytirish oilada salomatlik masalasida hech qanday muammosiz hal bo'lishi garovidir.

Hech kimga sir emas, sog'lom onadan sog'lom bola tug'iladi. Avlod salomatligini ta'minlash uchun, avvalo, onaning o'zini asrab-avaylamoq zarur. Bu o'rinda dastlab xalq qadriyatlariga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, chilla

saqlash, yosh bo'shangan onani va bolani asrash, ona suti bilan boqish masalalari bo'yicha keng targ'ibot va tashviqot ishlari olib borish joylardagi mutasaddi tashkilotlarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ona suti bolaning suyagini butun, iligini baquvvat qiluvchi, uni turli kasalliklarga qarshi kurashda bir umrga yetadigan immunitet hosil qilish quvvatiga ega. Buni har bir ona, akusher-ginekolog tom ma'noda anglab yetmog'i zarur.

Shunisi quvonarlikni, 1993-yildan e'tiboran bola tug'ilgandan 15–20 daqiqadan so'ng chaqaloq onaga emizish uchun berilmoqda.

Sharqda qadimdan emizikli ayol taomnomasiga alohida ahamiyat berib kelingan. Yosh ona sut keltiruvchi kuchli taomlar iste'mol qilgan, kayfiyatining buzilishiga yo'l qo'yilmagan, u har qanday yomon tashqi muhitdan, ko'ngilsizliklardan asralgan. Bola ovqatiga alohida e'tibor berish esa hamma zamonlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda sog'lom avlod uchun kurash ketayotgan bir davrda Respublikamizda har bir ota-onasi oldida turgan mas'uliyatli ishlardan biri ham shundan iboratdir.

Shaxsiy gigiena qoidalariga to'liq amal qilish, toza ovqatlanish, jon-jismini, turar joyini ozoda tutish salomatlik negizidir. Har bir ayol uchun, qiz bola uchun tibbiy savodxonlik hayotiy ehtiyojdir.

Shu ehtiyojni qondirish maqsadida umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlarida tibbiyot asoslari o'quv kurslarini tashkil etish, xotin-qizlar uchun maslahatxonalarda maxsus dasturlar asosida tibbiy bilimlar berishni yo'lga qo'yish, shaxsiy gigiena qoidalari, bo'lajak onalar, homilador ayollar, yosh onalar, o'smir qizlar uchun kichik-kichik

hajmdagi turli risolalar, metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularga yetkazish, matbuot, ommaviy-axborot vositalari va turli shakldagi tadbirdan foydalangan holda targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borish ko‘zlangan natijani beradi. Ya’ni, uzuksiz tibbiy bilim berish ishini yo‘lga qo‘yish kerak. Ibn Sino «harakatdagi tanaga davo kerak emas» deb aytgan. Shuning uchun, biz davo qiluvchi meditsinani emas, balki profilaktik, ya’ni kasallikning oldini oluvchi meditsinani targ‘ib etmog‘imiz lozim, bu ish avvalo, oilada amalga oshiriladi.

Oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, uning ma’naviy va tibbiy salomatligi negizidir.

Sog‘lom turmush tarzi kishilarning hayot darajasi bilan, sihat-salomatligi, kayfiyati, intilishlari, ishonchi, kundalik o‘zgarishlar bilan, bu o‘zgarishlar qay darajada xalqimizning ehtiyojini qondirishi bilan, **jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy** va ma’naviy taraqqiyoti darajasi bilan, eng muhimi yosh avlod tarbiyasini yuksak samaradorligini ta’minlaydigan choratadbirlar bilan bog‘liqdir.

Sog‘lom turmush tarzi oilaning farovonlik darajasi, sog‘-lig‘i, maishiy xizmatga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘la qondirish demografik jarayonlarni maqbul holatga keltirish, oila a’zolarining ma’naviy madaniyati, ongliligi, axloqiy jihatlari va ijtimoiy mehnatdagi faolligi bilan belgilanadi.

Oilda turmush tarzi jismonan sog‘lom va aqlan barkamol yangi avlodni shakllantirish, mehnat qilish, dam olish va ijtimoiy faoliyat ko‘rsatishga yordam beruvchi oqilonanayot tarzini tashkil etadi.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uy-joy sharoitini yaxshilash, oila budgetini to‘g‘ri taqsimlash, to‘g‘ri va sifatlari ovqatlanish, spirtli ichimliklar, giyohvandlik, chekishni

qat'iyan man etish, muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, sanitariya-gigiena qoidalariga to'la rioxalish, ma'naviy intellektual shaxs bo'lishni talab etadi. Oila-ni moddiy imkoniyatlarini yaratish, ota-onalarning ongliligi, ma'naviyati darajasi farzandlarni jismonan sog'lom, ma'nana boy qilib o'stirishga imkoniyat yaratadi.

Atrof-muhitning ekologik musaffoligini ta'minlash, eko-logik ong va tafakkurni shakllantirish ham aynan oilada amalga oshirilgandagina oilada sog'lom turmush tarzini shakllanishida o'zining ijobiy samarasini beradi.

Juda ko'p eshitamiz, anemiya, kamqonlik bilan ona bo'lishmoqda degan gaplarni. Lekin xotin-qizlardagi ekstro-genetal va surunkali kasalliklarning oldini olish, bemor onalarga tibbiy yordam ko'rsatish borasida hukumatimiz tinimsiz chora-tadbirlar ko'rayotganligi ham ayon. Bugun biz shu holatni ko'z oldimizga keltirib, bo'lg'usi onaning taqdiri tug'risida ko'proq qayg'urishimiz kerak. Tibbiyat xodimlari bilishadi, ko'pinchalik onalar u yoki bu infeksiyaning tashuvchilari sifatida ona bo'lishadi, u homiladan bolaga o'tadi, natijada, go'daklar o'rtasida, kichik yoshli bolalar o'rtasida turli kasalliklar aniqlanmoqda. Shuning uchun ham eng avvalo, 2003-yil avgust oyida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining 365-qarorining mohiyatini maktablarning **yuqqori** sinflari o'quvchilari, kollej va litseylarning qizlariga tushuntirishimiz, kasalliklarning oldini olib, qizlarni sog'lom onalikka tayyorlashimiz kerak. Bu ham yosh onalarga, bulg'usi avlodga g'amxo'rligimiz bo'ladi.

Bugungi kunda Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi xodimlarining ustuvor maqsadlaridan biri ham mutaxassislar, tibbiyat xodimlari, mahalla faollari, xotin-qizlar kengashlari faollari ishtirokida ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolar

va ularning yechimini aniqlash. Zero, o'tkazilgan tadqiqotlarimizga ko'ra, 1,5 foiz texnik yo'nalishdagi va 1,8 foiz gumanitar yo'nalishda ta'lim olayotgan talabalarda reproduktiv madaniyat va huquqqa oid elementar tasavvur va bilimlar bor, xolos. Buning oqibatida:

- a) onalikka tayyor bo'lmasa-da, yosh qizcha qo'rqlmay tug'adi;
- b) anemiya bo'lishiga qaramay, tanasini qiyab turgan boshqa xastaligi bo'lsa-da, tavakkal qilib, tug'ish holatlari kuzatilmoqda;
- d) yosh ayol tug'ish intervaliga rioya etmasdan turmush o'rtog'i yoki qarindoshlar ta'zig'i bilan ikkinchi, hattoki uchinchi farzand ko'ryapti. Talabalar o'rtasida o'tkazilgan izlanishda ular orasida ham bakalavriant o'qishi davridayoq, 2-3 ta farzandning onasi bo'lgan. Salomatligi tekshirilganda, deyarli nogiron bo'lib qolgan onalar borligi aniqlandi.

Bu vaziyat qizlarimizning, ayniqsa, talaba qizlarimizning reproduktiv huquqlari va ularni anglashlari borasida katta muammo borligini isbot etmoqda. Ya'ni, ayolning, kelinchakning o'z salomatligi holatidan kelib chiqib, ongi ravishda ona bo'lishni rejalashtirishi, tug'ilajak bolaning sog' tug'ilishiga shaxsiy mas'uliyatini anglatsh, reproduktiv madaniyatning, reproduktiv huquqlarini bilishning ajralmas bo'lagi. Aks holda o'zbekona andisha bilan qizlarimiz hayotlarida ham qiz uchun, ham bolasi uchun tavakkal qilib, ona bo'laveradilar, salbiy oqibati yana oilaga, jamiyatga ta'sir qilaveradi.

Bu maqsadga erishishda tibbiyotimiz taraqqiyoti va moddiy-texnik ta'minlanishi, ayollarimizning tibbiy ma'rifati darjasasi va aholi ma'naviyatining yuksalib borishi muhim rol o'ynaydi.

Bu o'rinda oila a'zolari o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish ijobiy natijalar garovidir. Ularda faqat sog'lom ota-onadan sog'lom farzand tug'ilishini, yoshlarning tug'ilgandan boshlab, muntazam o'z salomatligiga ahamiyat berishlari lozimligi, jinsiy tarbiyani oilada, maktabda to'g'ri tashkil qilish zarurligi, qarindosh-urug' o'rtasidagi nikohning zararli oqibatlari, 15–16 yoshli qizlarni turmushga chiqishi qonun yo'li bilan taqiqlanishi, sog'lom onadan sog'lom farzand tug'ilishi oilaning balog'at yoshidagi har bir a'zosi, tug'ish yoshidagi ayollar ongiga singdiriladi.

Darhaqiqat demografik vaziyat murakkab bo'lgan O'zbekiston uchun oilani mustahkamlash, uni rejalashtirish – bugungi kunda shunchaki oddiy bir masala emas, balki uning yechimini to'g'ri topish–respublika taraqqiyotini ta'minlashning omilidir.

Albatta, oilani rejalashtirish haqida rap borar ekan, rap bu yerda tug'ishni cheklash haqida emas, balki tutish oralig'ini uzaytirish hisobiga sog'lom va jismonan baquvvat bolani dunyoga keltirish, onaning salomatligini tiklash nazarida tutiladi. Bu o'z vaqtida oilaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Oilani rejashlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, nazariy va amaliy jihatlari haqida o'smirga, butun aholiga berilayotgan axborotlar mazmunini boyitish va takomillashtirish davr talabidir.

Respublikamizdagi demografik vaziyatni inobatga olib, oilani rejalashtirish, oila a'zolari salomatligining tibbiy-biologik asoslarini ilmiy-amaliy tadbiq etish, uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyatga keng tatbiq etish hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sharoitda mustahkam oilani shakllanishi uchun zarurdir.

Oila jamiyatdagi iqtisodiy, ma'naviy va madaniy munosabatlardan tashqari tabiiy-biologik munosabatlarni ham ifodalaydi. Ya'ni, oilada avlod davom ettiriladi. Jamiyat erkak va ayol o'rtasidaga tabiiy munosabatlar madaniyatini tarbiyalash orqali ular o'rtasidagi ahllikni mustahkamlashga ko'maklashadi. Bu munosabatlar madaniyatini shakllantirish oila hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bolalar salomatligi, soni va tug'ilish muddatlarini maqsadga muvofiqlashtirishni, oilaning rivojlanish jarayonini ongli ravishda boshqarishni ta'minlaydi.

Tabiiyki, jamiyat tug'ilish muammosiga befarq qaray olmaydi, bu holat uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Respublikamiz aholisi tez sur'atlar bilan o'sayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Uning asosiy sabablarini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin: nikohlanish ko'rsatkichlarining yuqoriligi, barvaqt nikohlanish, migratsion harakatning pastligi, xalqimizning serfarzandligi va bolajonligi kabi.

Tug'ish yoshidagi ayollarning salomatligini mustahkamlash, tug'ilajak farzandning hech qanday asoratsiz sog'lom tug'ilishni ta'minlash maqsadida tug'ilgan farzandlar oralig'i 2 yoki 3 yil bo'lishi tibbiy nuqtayi nazardan tavsiya etilmoqda. Bu esa kelajagi buyuk o'zbekistonimizni taraqqiy etgan davlatlar qatoridan o'rinn olishda o'zining ma'naviy va jismoniy barkamolligi bilan ulush qo'shadigan farzandlarni dunyoga kelishi, millatimiz genafondining saqlanishi uchun zamin hisoblanadi.

Qizlarning balog'atga yetmasdan turmushga chiqish yoki juda kech turmushga chiqib ona bo'lish holatlari ona va bola salomatligi uchun zararli oqibatlar keltirishi shubxasiz. Buning oldini olishda xotin-qizlar qo'mitalari «Sog'lom avlod

uchun», «Bolalar», «Mahalla» jamg‘armalarining faoliyati onalar va bolalarning salomatligini ta’minlashga, aholining tibbiy ongini shakllantirishga qaratilgandir.

Insoniyat tarixida oilaning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi tarixi, uning etnopedagogikasi va etnopsixologiyasi – mohiyatini davr talabi nuqtayi nazaridan chuqur o‘rganish, ilg‘or g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etish oila farovonligi va barqarorligini ta’minlash uchun zamindir. Shuningdek, xalqaro hamkorlik asosida umumjahon ilg‘or tajribalardan o‘zbek oilasi mentalitetiga mos foydalanish o‘zbekiston oilasini jahonga namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilada ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, ularni zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish bilan bir qatorda, xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan kasb-hunar, qadriyatlarga hurmat va e’zozni shakllantirish oilaning iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishda muhim omil hisoblanadi.

Jamiyatning asosiy tayanchi hisoblanmish oila barqarorligi, farovonligi, tinch-totuvligi va mustakamiligini ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni hal etishda jamiyatning ushbu masalaga daxldor barcha institutlarning hamkorligini ta’minlash oila manfaatlarini ta’minlashda ijobiy samaralar garovidir.

Oila – mahalla – bog‘cha – mактаб – олий ва о‘рта maxsus ta’lim – jamoatchilik tizimida amalga oshiriladigan barcha ta’limiy-tarbiyaviy ma’rifiy-madaniy targ‘ibot va tashviqot ishlari sistemalik, mustahkam hamkorlik, izchillik, uzviylik, ketma-ketlik tamoyillari asosida tashkil etilgan

taqdirdagina jamiyat rivojida oila o‘zining ijtimoiy vazifalarini to‘la ado etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mustaqil respublikamiz iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy yuksalishning muhim omillaridan biri oila, mahalla, mакtabning hamkorlikda olib boradigan tarbiyaviy jarayonni amalga qaratilgan faoliyati hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunida oilaning jamiyat, davlat oldidagi mas’uliyatini anglab yetadigan komil insonni tarbiyalashdagi roliga alohida e’tibor berildi. By borada «Oila – mahalla – mакtab» dasturining yaratilishi muhimdir.

Oilada bola tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda mahallaning roli kattadir. Qadimdan o‘zbek xalqi mahalla-jamoatchilik bilan hamjihatchilikda yashab, oilaviy urf-odat va an’analarni ular ishtirokida, ular bilan bamaslahat o‘tkazganlar.

Mahalla kishilarni birlashtiradigan, ijtimoiy-siyosiy, mаданий-ма’rifmy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan jamoa vazifasini bajarib kelgan.

Maktab aholining, birinchi navbatda, ota-onalarning pedagogik uquvini amalga oshiradi, har bir oilada o‘zaro hurmat, bir-biriga yordam, insoniy munosabatlar muhiti yaratilishini qo‘llab-quvvatlaydi, ko‘p bolali va kam ta’mil langan oilalarning bolalariga moddiy yordam ko‘rsatish yo‘lida fuqaro mehr-shafqat dasturini amalga oshirishda o‘zining tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib beradi. Oila esa, o‘z navbatida o‘quv-tarbiya jarayonini qayta qurishda mакtabga yaqindan yordam berib, o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyaning barcha jabhalarini egallashlari uchun maktab jamoasiga yaqindan ko‘maklashadi.

Shuning uchun ham oila, maktab va mahalla hamkorligi masalasi hozirgi davrning asosiy talabidyar.

Maktab tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning pedagogik jihat-dan malakali, maqsadga muvofiq omillariga hamda keng imkoniyatlariiga ega. Maktabdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar pedagogik-psixologik qoidalarga amal qilinmagan, mакtab, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy jarayonidagi talabi bir xilda bo'limgan taqdirda oilada ayrim hollarda tarbiyasi og'ir bolalar paydo bo'ladi, murakkab muammolar yuzaga keladi. Bunday holatning oldini olishning muhim vositasi oila-mahalla va maktabning hamkorlik dasturi asosida ta'lim-tarbiyaviy ish olib borishni ta'minlashdan iboratdir.

Bunday mushtarak tarbiya asosida avlodlar vorisligi yotmog'i lozim. Vorislikni ta'minlashning muhim omili oila qadriyatlariga asoslanishdan iboratdir. Eng muhimi, yoshlar ongiga, shuuriga kattalarga hurmat, ishda, o'qishda odamlar bilan munosabatda ota-onadan o'rnat olish, tarbiya, mehnat, insonparvarlik, vatanparvarlik qadriyatlarini chuqurroq o'rganish va ularga amal qilish, umriboqiyligini ta'minlashdek muhim ishni amalga oshirish bugungi kunda ijtimoiy ehtiyojga aylanib qolmog'iga erishish zarur.

Yana bir muhim masala – bu qizlarning, onalarning jismoniy salomatligi. Bu masala oilaviy sportni rivojlantirish, uni ommalashtirish masalasi bilan bog'liq. Zero, jismonan chinniqqan qiz bola ertaga ona bo'lganda, uncha-muncha infeksiyaga yoki xastalikka bardoshli, uning bolasida ham immunitet kuchli bo'lishi fanda isbotlangan.

Zero, hammamizga ma'lumki, bugun yurtimizda sportga va aynan bolalar sportini rivojlantirishga mamlakat rahbarining o'zi boshqosh bo'lib turibdi. Chunki Prezidentimizning ta'birlari bilan aytganda, «Sportning milliy genofondni yaxshilash, ijtimoiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish,

millatning g'urur-iftixorini ko'tarish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va boshqa sohalardagi ahamiyati benihoya kattadir». Demak, jismoniy chiniqish va sport bilan shug'ullanishning ma'naviy-ma'rifiy imkoniyatlari cheksiz. Agar yigit va qizlarimiz ilk yoshlikda sport bilan shug'ullansa, uni o'zining turmush tarzidagi muhim, ajralmas odat va ko'nikma tarzida ongiga singdira olsa, bu narsa uning inson sifatida shakllanishi, faoliyati uchun muhim bo'lgan boshqa mashg'ulotlarni ham qiyinchiliklarsiz yenga olishga, salomatligiga qadriyat sifatida qarashga o'rgatadi. Masalan, bir xonadonda oila boshlig'i bo'lgan ota bolasi ilk yoshligidan shug'ullanishi uchun oddiy trenajyorni o'z qo'li bilan yasab berdi va kuniga shug'ullanish odatini farzandida shakllantirdi, deylik. Bola katta bo'lgan sari, u endi bu mashg'ulotni hovlida, bog'chasida, so'ngra mактабида davom ettiradi. Shu kabi o'zbek mintalitetimizga mos sport turlarini qizlar orasida keng quloch yozdirish, millat onasining sog'lom bo'lishiga yordam beradi.

Demak, bugun sportni rivojlantirishh, u orqali millatning ham qizi, ham o'g'lini tarbiyalash masalasi o'zbek oilasini mustahkamlash, jamiyatni poklash, ma'naviyatni barqarorlashtirish kabi muhim ishlarning asoslari bilan bog'lanmoqda. Yoshlar orasida bu borada targ'ibot – tashviqot qilganimizda uning mohiyatini to'g'ri tushuntirish, bola sport bilan faqat o'zining jismoniy quvvatini tiklash va bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish uchun emas, balki u orqali sog'lom turmush tarziga amal qilish, ma'naviy va jismoniy kamolga intilish, turli salbiy ta'sirlar va zararli odatlardan xalos bo'lish, kuchli xarakterni shakllantirish uchun shug'ullanishni uqtirishimiz kerak. Demak, ana shunday fazilatlarga ega bo'lgan qizlar bugun bizga, hammamizga kerak–ota-onaga

ham, ustoz murabbiyga ham mahalla faollariga ham, ishlab chiqarishni tashkil etuv-chi mutasaddilarga ham. Eng muhimi – bu qadriyatlardan shaxsning o‘zi-bo‘lg‘usi onalarning o‘zlarini birinchi navbatda manfaatdor.

Demak, ushbularidan mantiqan jismoniy madaniyat va tibbiy-reproduktiv madaniyatni oshirishga umumxalq tadbiri deb qarashimiz to‘g‘ri bo‘lishi fikri kelib chiqadi. Bu xulosa uchun yana ikkita kuchli asos bor. Birinchisi – sportning, ayniqsa, qizlar sportining o‘zi ommaviy tus olgandagina samarali bo‘lishini tushunishimiz lozim. Ya’ni, bu ishga qizlarimiz yoshlikdan faqat tilda emas, balki dildan yaxshi ko‘radigan mashg‘ulotga qaraganday munosabatida bo‘lgandagina ommaviy tus oladi.

Demak, bu strategik maqsadimiz – milliy genofondni yaxshilash, barkamol va sog‘lom avlod tarbiyasi borasida amalga oshirayotgan ishlarimizni sifat pog‘onasiga ko‘taradi. Olimlardan biri – F. Naytingeyl yozgan ekan: «hozir hamshiralarni bemorlarga qaramoqdalar, lekin shunday vaqtlar keladiki, ularning qaramog‘idagilar sog‘lom bo‘lib, hamshiraning vazifasi faqat ularning betob bo‘lib qolmasliklari uchun qayg‘urish bo‘lib qoladi». Bugun bolalar sportini rivojlanishiga qo‘sheyotgan hissamiz, onalar va qizlarning jismonan baquvvat va sog‘lom bo‘lishlariga qayg‘u-rayotganimiz kela-jakda, albatta, bemor onalar kam bo‘lib, faqat o‘zlarini chiniqtirish uchun ongli tarzda sog‘lom turmush tarzini shakllantira oladigan insonlar jamiyatiga kelishimizga imkon beradi.

Shunday qilib, biz bugun bajarayotgan ishlarimiz, yechimini kutayotgan muammolarimiz ko‘p. Bu ishlarni bajarishda barcha davlat va nodavlat, jamoatchilik tashkilotlari bir yoqadan bosh chiqarib ishlashlari lozim.

Xalqimizning milliy qadriyatlari salkam 14 asrdan beri Islom qadriyatlari bilan chambarchas bog'lanib, bir-biriga singib ketgan. Shunday ekan, ota-bobolarimiz ulug'lagan odamiylik, ma'rifat, poklik dini bo'lgan islomning jamiyatni ruhiy-axloqiy jihatdan sog'lomlashtirish borasidagi ta'limoti, xususan, uning uzviy qismlaridan bo'lgan oila tarbiyasiga oid qarashlarini chuqur o'zlashtirish, o'z kelajagini qurishga bel bog'lagan har bir kishiga har tomonlama kamolga yetgan avlodni vujudga keltirishga yordam beradi. Ma'lumki, oila qurish insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatdir. Bu munosabatlarning mustahkamligi jamiyatning barqarorligini belgilaydi.

Oilalarda ota-onalarning dinga bo'lgan munosabatlari, uni qay darajada anglab yetishlari, umuman olganda diniy dunyoqarashlari darajasini baholash uchun 2004-yilda sotsiologik Respublika «Oila» ilmiy-amaliy Markazi tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.¹

Islom oilaning pokligi, jipsligi, osoyishtaligiga e'tibor bilan qarab kelgan. U oilaning bosh muammosi sanalmish nikohni inson munosabatlari ichida eng muqaddasi deb hisoblaydi.

Ayollar manfaati toptalgan davlatlar inqirozga yuz tutgan, uni e'zozlagan yurtlar taraqqiyotga yuz burgan. Qur'on va hadislarni o'qir ekanmiz, ularda ayollar e'zozlanganligining guvohi bo'lamiz. Islom shariati qoidalarida ayol kishi, avvalo, ayolligini—ibohayosini, nazokatini, odobu hulqini, o'z salomatligini asrash zarurligi, u birinchi navbatda

¹ Barcha empirik ma'lumotlar batafsil Markazning 2004-yilgi hisobotda ko'rsatilgan.

ona ekanligi, yani, hayot manbayi hisoblanishi uqtiriladi. Jumladan, Niso surasida ayol beqiyos ulug‘langan.

Islom boshqa jahon dirlari orasida davlat va huquqqa nisbatan juda ham yaqin aloqada bo‘lib, bu shariat shaklida mavjud bog‘liqlikning uzviyigini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Islom davlat dini hisoblangan ko‘pgina mamlakatlarda huquqiy qonunlar shariat asosida chiqarilib, qur’on bilan ichilgan qasamni buzish katta gunohi azim va jinoyat hisoblanadi. Qur’on va hadislarga tayangan holda shariat qonunlari oila va jamiyat, mol-mulkka egalik, jinoyat huquqi, xazina-soliq va moliyaviy tartib va hokazolarni boshqaradi.

Shariat so‘zi aslida arabchadan olingan bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosи to‘g‘ri yo‘l, ilohiy yo‘l, qonunchilik, demakdir.

Shariat musulmonlarning huquqiy hayotidan tashqari ularning axloqiy va diniy marosimchilik talablarining majmuyini ham o‘z ichiga oladi. Islomdagи diniy-huquqiy mazhablar va ularning asoschilari, himoyachi-oqlovchi (advokat)larga oid tartib-qoidalar, qozilar faoliyatining tashkiliy va tartib qoidalari, qasam (ont) ichish, va’da berish va qasamyod qilish, qarzni uzish, kafillik, kafolat berish, omonat saqlash tahlili va ularga mansub tartib qoidalari shariatning asosiy bo‘limlaridan hisoblanadi.

Shariat jazoga nisbatan o‘z yo‘l-yo‘riq dasturlarining butun qahru g‘azabini axloqi buzuqlarni va gunoh hisoylanadigan xatti-harakatlarni keskin bartaraf etishga qaratgan. Shariat zo‘ravonlik, zino va o‘g‘rilikka qarshi shafqatsiz jazo berish choralarini ham belgilaydi.

Misol uchun, Shariat qonun-qoidasiga ko‘ra zino qilishda ayblangan ayol toshbo‘ron qilingan yoki sochidan otning

dumiga bog'lanib sahroga haydab yuborilgan. O'g'rilikda ayblangan kishining esa dastlab bitta barmog'i, bu ish qayta-qayta takrorlansa panjasni, bilagi va oxirida boshi tanasidan judo qilinib sha'riy yo'l bilan jazoga tortilgan.

Shariatning mol-mulkka egalik huquqlari va soliqqa oid tartib-qoidalariga qaratilgan bo'limi ham diqqatga sazovordir. Bu bo'limda shariat qonun va qoidalari, mol-mulkka egalik qilish va meros huquqi, ijara va kira (ishchi kuchini yo'llash) qilish, vaqf va vasiyatga binoan, yerga egalik qilish (zamin-dorlik) va yerni ijaraga olish, soliqqa oid tartib-qoidalar, xums, zakot, sadaqa, ushr, ajnabiylardan olinadigan soliqqa nisbatan o'z zamonasining siyosatini in'ikos ettiradigan tartib va qoidalari, qonunlar majmuyining bat afsil bayoni berilgan. Savdo bitimlarini rasmiylashtirish va bekor qilish, hayvonlarni so'yish, ovchilik va hatto, baliq ovlash tartib-qoidalari ham shariat nazaridan chetda qolmagan.

3.3. Oila va nikohning huquqiy kafolat omili

Oila bo'lib yashash barcha mahluqotlar orasida faqat inson zotigagina xosdir. Shu bois oila jamiyatning birinchi va birlamchi bo'g'i hisoblanadi. Shunga ko'ra hech mubolog'asiz aytish mumkinki, oila fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasi, tayanch tuzilmasisidir. Chunki bu muqaddas dargohda nafaqat inson dunyoga keladi, balki u ma'nani va axloqan tarbiya topadi.

Binobarin, oila er-xotin, ularning bolachaqalari, eng yaqin tug'ishganlaridan iborat kishilar guruhi, ya'ni xonardon hisoblanadi. Ayni chog'da oila odamlarning tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlariiga asoslangan ijtimoiy birligi hamdir.

Demak, oila jamiyatning tabiiy hujayrasidir, ijtimoiy asosdir. Oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi va tez rivojlanadi. Zero, jamiyat asosi – oila moddiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanib borishi g'oyat muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Sharq mamlakatlari sirasiga kiruvchi davlatdir. Ma'lumki, Sharqda qadimdan oila muqaddas maskan sanalgan. Unga bunday e'zozli munosabat bugungi kunda ham o'zgargani yo'q.

«Oila, – deydi mamlakatimiz rahbari I.A.Karimov, – hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i...». Shu fikrning o'ziyoq oilani e'zozlash, uning qadr-qimmatini yuksakka ko'tarish bizning ongimizga mustahkam jo bo'lganligining yorqin dalilidir.

O'zbek oilasi serfandzandlik, bolajonlik, oilaparvarlik kabi ijobiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

O'zbek oilasining o'ziga xos etnografik xususiyatlari: ko'p bolalik, ko'p tabaqalilik (bir necha avlod vakillarining birga yashashlari), avlodlar o'rtaсидagi bog'liqlikning boshqa mamlakatlardagina nisbatan kuchliligi va shu kabi qator xususiyatlari uning psixologik ahamiyatini yanada orttirib yuboradi.

O'zbekiston dunyoda aholisining soni ancha tez ko'payib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi.

Oila erkak va ayolning nikohdan o'tib, bir yostiqqa bosh qo'ygan kunidan boshlanadi. Uning eng muhim vazifasi nasjni davom ettirish hamda ota-bobolarning eng yaxshi

an'ana va udumlarini davom ettirish, turmushni mustah-kamlashdan iboratdir.

Oilaning muhim ijtimoiy vazifalari quyidagilardan iborat:

birinchidan – u jamiyatning demokratik hujayrasini tashkil etib, odamlar shu muqaddas maskanda tug'ilib, o'sib, jamiyat tarkibini tashkil etadi;

ikkinchidan – oila muhim bo'g'in bo'lib, unda biz mehnat jarayonida sarf qilgan kuchlarimizni tiklash imkoniyatiga ega bo'lamiz;

uchinchidan – oila muhim tarbiya o'chog'i;
va nihoyat, to'rtinchidan – oila nodir ruhiy muhitdir.

Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar axloq-odob va huquqiy qoidalar bilan birga tartibga solinadi. Shuning uchun ham oila huquqi huquqning mustaqil sohasi bo'lib, nikoh, qon-qarindoshlik, bolalarning nasl-nasabini belgilash, ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllaridan kelib chiqadigan munosabatlarni huquqiy tartibga soladi.

Agar oila huquqi tushunchasiga muxtasar ta'rif berib aytadigan bo'lsak, bu er-xotinlar, qarindoshlar, ota-onalar (farzandlikka oluvchilar) va bolalar o'rtasidagi shaxsiy no-mulkiy va ular bilan bog'liq mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq tarmog'i hisoblanadi. Shu ta'rifdan ham ko'rini turibdiki, oila huquqi fuqarolik huquqi bilan chambarchas bog'liq bo'lish bilan birga, farq qiluvchi xususiyatlarga ham ega. Ya'ni: birinchidan, oilaviy munosabatlar fuqarolik huquqiga xos bo'lмаган yuridik faktlar (nikoh, qarindoshlik, onalik, otalik, farzandlikka olish va hokazolar) asosida vujudga keladi, ikkinchidan, oilaviy munosabatlar fuqarolik huquqidan farq qilib, ko'proq shaxsiy-huquqiy mohiyatga ega bo'ladi, uchinchidan, oilaviy huquq

subyektlarining huquq va majburiyatlari ularning o'zlarigagina tegishli huquq va maj-buriyatlar sanaladi.

Oila huquqining asosiy prinsiplari quyidagilardan iboratdir:

1) oilaning jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqi prinsipi;

2) barcha fuqarolar, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi prinsipi;

3) hamma oilaviy munosabatlarda ayol bilan erkak teng huquqliligi prinsipi;

4) oilaviy munosabatlarda ishtirok etuvchilarni ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlash hamda ularning o'zaro birbiriga g'amxo'rlik qilishi prinsipi;

5) davlat tomonidan onalik, otalik va bolalikni muhofaza etish va ularning manfaatlarini har taraflama himoya qilish prinsipi;

6) ixtiyoriy va erkin nikoh prinsipi;

7) faqat yakka nikohlikni tan olish va uni mustahkamlash uchun yordam berish prinsipi;

8) davlat tartibi asosida nikohdan erkin ajralish prinsipi;

9) bolalarni mustaqillik va milliy istiqlol mafkurasi g'oyasi asosida tarbiyalash prinsipi.

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida ro'yxatdan o'tkazilgan vaqt dan boshlab nikoh tuzuvchilar erxotin hisoblanadilar va shu paytdan boshlab ular o'rtasida erxotinlik huquq va majburiyatları vujudga keladi. Endi ular o'rtasidagi munosabatlар axloq-odob qoidalari bilangina emas, balki qonunlar, huquqiy qoidalari bilan ham tartibga solinadi. Bunda xotin-qizlar siyosiy masalalarda erkaklar bilan teng huquqga ega bo'lganlaridek, oilada ham barcha

shaxsiy va mulkiy masalalarda erkaklar bilan teng huquqlardan foydalananadilar va bab-baravar majburiyatlarga ega bo'ladilar. Bu qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Amaldagi qonunlar turmushga chiqqan ayolni muomala layoqatida hech qanday cheklamaydi, uni eriga bo'ysindirib, qaram qilib ham qo'ymaydi. Barcha huquqiy munosabatlarda er-xotin huquqning teng subyekti hisoblanib, ularga babbaravar huquqlar beriladi va tegishli majburiyatlar ham yuklanadi. O'zbekistonda er va xotin rasmiy jihatlardagina emas, balki oilada ham teng huquqga egadir. Oila huquqiga asosan er-xotin umumiyo'xo'jalik ishlarini bирgalikda, o'zaro hamjihatlik asosida olib boradilar. Ular bir-birlariga ma'naviy yordam berib, ko'makdosh bo'lib yashaydilar, hamma masalalarni bamaslahat hal qiladilar. Biroq er-xotindan birining shaxsiy huquqini amalga oshirishga muntazam xalaqit berish (masalan, arning yoki xotinning mashg'ulot turi, kasb tanlashiga halal yetkazish), shaxsiy huquqlarni amalga oshirishni suiiste'mol qilish, oila manfaatlariga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar nikohdan ajralishga olib kelishi mumkin.

Familiya tanlash huquqi er-xotinning muhim shaxsiy huquqlaridan hisoblanadi.

Oila kodeksining 20-moddasiga binoan, «Nikoh tuzish vaqtidan er va xotin o'z xohishi bilan eri yoki xotinning familiyasini umumiy familiya qilib tanlaydi yoki ularning har biri nikohgacha bo'lgan o'z familiyasini saqlab qoladi.

Er va xotindan birining failiyasini o'zgartirishi boshqasining ham familiyasini o'zgarishga olib kelmaydi».

Keyinchalik familiyani o'zgartirishga faqat umumiy asoslarda, qonunda belgilangan hollarda yo'l qo'yiladi.

Er va xotinning oilaviy munosabatlarda teng huquqliligi va babbaravar majburiyatlarga ega ekanligi mulkiy munosabatlarda ham o‘z ifodasini topgan.

Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlariga iqtisodiy mazmundagi masalalar kiradi. Er-xotinning birgalikdagi umumiyligida nisbatan bo‘lgan huquq va majburiyatlar, er-xotinning har birini alohida xususiy mulkiy bo‘lgan huquq va majburiyatlar, o‘zaro moddiy ta’mintidagi aliment huquq va majburiyatlar shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil bo‘lishi, uning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi, tadbirdorlik faoliyatiga keng o‘rin berilishi bu masalada ham amaldagi oila qonunchiligidagi tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini taqozo etdi. Chunki qonun bugungi kun talablariga to‘la javob berishi lozim.

Oila kodeksining 23-moddasiga binoan: «Er va xotinning nikoh davomida ottirgan mol-mulkleri, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar, bo‘lajak er-xotinning umumiyligida mablag‘lari hisobiga olingan mol mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ularning birgalikdagi umumiyligida hisoblanadi.

Oila kodeksida er-xotinlarning mulkiy huquqiy munosabatlarini tartibga soluvchi normalarda ham bir qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Avvalo, bu o‘zgarishlar, yangiliklar mulkiy munosabatlarini tartibga soluvchi prinsiplarda ifoda etiladi.

Er-xotinning qonuniy tartibdagi mulki ularning qonun hujjatlarida belgilangan imperativ normalar bilan tartibga solinadigan mulkidir.

Nikoh shartnomasi deb, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo‘lgan davrida va (yoki) er va xotin

nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilovchi kelishuvga aytildi.

«Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro‘yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek, nikoh davrida ham tuzilishi mumkin.

Nikoh davlat ro‘yxatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro‘yxatiga olingen kundan boshlab kuchga kiradi» (Oila kodeksining 30-moddasi).

Agar nikoh shartnomasi nikoh davlat ro‘yxatiga olingunga qadar tuzilgan bo‘lsa, bunday nikoh shartnomasi kechiktirib bajariladigan shartli bitim hisoblanadi. U faqat nikoh tuzilgandan so‘ng kuchga kiradi.

Nikoh shartnomasi er-xotinlar bir-birlarini moddiy ta’minalash yoki biri ikkinchisini moddiy ta’minalashini ko‘rsatish huquqiga ega. Shartnomada belgilangan shartlar aliment majburiyatining umumiy qoidalariga mos kelmog‘i kerak. Xususan, muomalaga layoqatsiz er yoki xotinning huquqlari buzilmasligi lozim. Ammo nikoh shartnomasida qonun bo‘yicha aliment olish huquqiga ega bo‘lmagan er yoki xotinga aliment belgilanishi mumkin. Birinchi navbatda, bu o‘z xohishlari bilan, oila manfaatini o‘ylab ishi yoki o‘qishini qoldirgan er-xotinlarga taalluqli bo‘ladi.

Savollar

1. Sog‘lom turmush tarzini yaratishda nimalarga e’tibor berishni istaysiz?

2. O‘zingiz yashayotgan mahallangizda qanday ijtimoiy ishlar bor?

3.4. Oila xo‘jaligini yuritish omili

Oila budjeti oilaning ma’lum muddatda kutadigan daromadlari va xarajatlarining hisob-kitobi.

Oila budgetining daromadi barcha oila a’zolarining ish haqi, turli mukofotlari, nafaqa, stipendiya, pensiya, shaxsiy yordamchi xo‘jaliklardan olinadigan foyda va boshqalar yig‘indisi hisoblanadi.

Oila budgetining sarflanishi quyidagi yo‘nalishlarda bo‘lishini o‘rgangan edik:

1. Uy-joy xarajatlari.
2. Oila uchun oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar, transport xarajatlari.
3. Ro‘zg‘or uchun jihozlar.
4. Oila miqyosidagi an’anaviy tadbirlar o‘tkazish uchun sarf-xarajatlar.
5. Oilaga qo‘sishimcha daromad keltiruvchi xo‘jalikka qaratilgan sarf-xarajatlar (yem-xashak, kunjara, siylos, don va boshqalar).
6. Oila uchun texnikaviy jihozlar.

Sanab o’tilgan sarf-xarajatlar katta va kichik doimiy va takrorlanuvchi bo‘lishi mumkin.

XARAJAT TURLARI

Uy-joy, avtomobil, zamonaviy texnika, an’anaviy tadbirlar kabilarga sarflanadigan mablag‘ katta xarajatlar hisoblanadi.

Turli uy-ro‘zg‘or anjomlari (bolg‘a, tesha, supurgi, changyutgich, qozon, idish-tovoq va boshqalar), ro‘zg‘orga oid, zarur kichik jihozlar, mayda-chuydalarga sarflanadigan mablag‘ kichik xarajatlar deb ataladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari uchun, oilaga qo'shimcha daromad keitiruvchi xo'jalikka yo'naltirilgan sarflar hamda kundalik ehtiyoj uchun ajratiladigan mablag'lar doimiy xarajatlar sanaladi.

Uy-hovli soliqlari, radio, telefon, gaz, suv, elektr kabilarga to'lovlari, mavsumiy kiyim-kechaklar, o'quv qurollari va boshqalarga sarflanadigan mablag'lar takrorlanuvchi xarajatlar deb yuritiladi.

Oila budgetini to'liq va to'g'ri tushunishdan iqtisodning tub ma'nosini anglash, shuningdek «Iqtisod» qasrining sehrli kalitini topish boshlanadi. Gap shundaki, oila va uning a'zolari ehtiyoji chegaralanmagan. Masalan: hamma oila hashamatli uy-joy, zamonaviy avtovtransport, texnikaviy jihozlarga, eng yaxshi kiyim-kechak, sifatli oziq-ovqat, ko'rakm dala hovli kabilarga ega bo'lishni istaydi. Ammo, oila budgeti doim chegaralangan. Demak, chegaralangan imkoniyatdan samarali foydalangan holda chegaralanmagan ehtiyojni qondirish muammolarini yechish iqtisodiyotni keltirib chiqaradi.

Oila budgetni sarflash yo'nalishlari turining ahamiyatiga qarab o'zgaradi. Masalan, oila a'zolarini avtomobil olishga bo'lган ehtiyoji birinchi o'ringa qo'yilsa, qolgan yo'nalishlardagi sarf-xarajatlar avtomobil sotib olish maqsadiga erishgunga qadar kamaytiriladi.

Shuningdek, yuqoridagi yo'nalishlarda ko'rsatilgan katta xarajatlarga bo'lган ehtiyoj maqsadga aylansa, qolgan yo'nalishlarga sarflanadigan mablag' o'z-o'zidan kamayadi.

Pul va molni kerakli, zarur narsalarga sarflagandan keyin qolgan puldan bir qismini kelgusi kunlar uchun saqlash lozim. Shunday qilinsa, doimo iqtisod qilib borilsa, katta sarmoya hosil bo'ladi.

Iqtisod qilishga, tejashga odatlangan odamlar saodat va tinchlik bilan umr kechiradilar. To‘g‘ri, yaxshi yeyish, ichish, kiyish kerak, ammo «ko‘rpangga qarab oyoq uzat» naqliga amal qilinsa, boshqalarning narsalariga ta’ma qilinmaydi, ko‘ngil ham xotirjam bo‘ladi. Qo‘lida bo‘lgan pulga, mulkka qanoat qilmagan odamning nafsi butun dunyo moliga ham qanoat qilmaydi.

Isrof – o‘rinsiz, foydasiz ishlarga pul va mol sarflashdir. Qo‘ldagi pul va molni kerakli joylarga sarflash, yaxshi idora qila olish, isrofgarchilikdan saqlanish lozim. Shuhrat qozonish uchun to‘y va ziyofatlar qilib, pul sarflash nodonlikdir. Isrof natijasida yo‘qchilik, keyin har kimning mol, davlatiga ta’ma va xasad qilish kelib chiqadi.

Bayt:

Sen agar isrof etishni tashlading,
Ul zamon davlat etagin ushlading.

Har qanday oila ma’lum bir daromad hisobiga yashaydi. Davlatimiz oilalarning iqtisodiy quvvatini oshirishga yaqindan yordam berish maqsadida yildan-yilga mehnatkashlarning oylik ish haqlarini oshiryapti, pensioner, student, yolg‘iz ona ham davlat e’tiboridan chetda qolayotgani yo‘q. Davlatimiz oilaga ma’naviy, iqtisodiy jihatdan yordam berar ekan, oilada kelajak yaratuvchisining xarakteri, mehnatga munosabati, axloqi, g‘oyaviy-madaniy saviyasi o‘sishini ko‘zda tutadi, oilalarning kundalik ro‘zg‘or uchun zarur narsalar, uy-joy bilan ta’minlashni, ayolning mehnatini yengillatishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Bu esa mustaqil davlat oilasining mustahkamlanishida, budgeti va xo‘jaligi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yosh oilalar faqat bir-birlarini tushunmasligi tufayligina emas, balki iqtisodiy sharoitni yo'lga qo'ya olmay ham ajraladigan hollar uchraydi.

Shunday oilalar borki, qiyinchilik bilan topilgan pulni, osonginasovuradilar, ular oilaning iqtisodiy masalalari bilan yuzaki shug'ullanadilar. Ammo bu borada o'nlab ko'radigan ko'p muammolar bor. Oila a'zolari oyiga qancha ish haqi olishi aniq, lekin bu pulni qaysi maqsadlarga qanday sarf-layotganlari haqida aniq hisob-kitob yo'q.

Oila budgeti – oila a'zolarining oylik ish haqi hisobidan to'planib, daromad va xarajatlar yig'indisidir. Xo'sh, tabiiy va maishiy ehtiyojga sarflanganidan qolgan mablag'ni nimaga sarflash kerak? Turistik sayohat uchunmi? Kitob sotib olishgami? Qimmatbaho kiyimlar uchunmi? Mashina xarid qilishgami? Buni oila a'zolari hal qilishi kerak?

Oilada bolalarni yoshligidanoq oilaning iqtisodiy masalalarini hal qilishga jalb etish birinchidan bolaning ota-onan oldidagi qadrini oshiradi, bolaning o'ziga ishonchini kuchaytiradi, ikkinchidan, pul sarflash madaniyatiga, hisob-kitobga, tejamkorlikka o'rgatadi. Oila xo'jaligining iqtisodiy masalalari, hamma oila a'zolari ishtirokida o'tadigan oilalarda pul-mablag' sababli janjallar ro'y bermaydi, balki, oila a'zolarini oila kollektiviga yanada jipslashtiradi.

Doimiy ravishda pul yetmay qolishi, ko'pgina oilalarda urish janjalga sabab bo'ladi. Ular pulni rasamadi bilan xarajat qilishni bilmaydilar. Pulni hisob-kitob bilan xarajat qilish haqida o'quvchilarga bir topishmoq aytish mumkin:

Ota o'g'liga chaqa pul berib:

– O'zimizga, sigirimizga, tovuqlarimizga yegulik biror narsa xarid qil, – dedi.

O'g'li bozorga bordi, o'ylab-o'ylab bir narsa xarid qilib keldi. Bundan ota xursand bo'ldi. O'g'il nima sotib olgan edi?

— Qovun.

O'qituvchi javobni izohlab, davom qiladi.

Oila budgetini, xo'jaligini to'g'ri boshqarish uchun yil boshiida er-xotin bir yil davomida qilinadigan xarajatlarni hisoblab chiqadi. Bu umumiy daromadga nisbatan olinadi. Xarajatlar uch qismga ajratiladi:

1. Har oyda takrorlanadigan joriy xarajatlar: oziq-ovqat, turar joy haqi, transport, gigienaga sarflanadigan mablag‘.

2. Aniq hisob-kitobsiz, taxminiy, sarflanadigan (kitob xarid qilishga, gazeta-jurnalga) mablag‘.

3. Uzoq muddat saqlanadigan buyumlar sotib olishga sarflanadigan mablag‘.

Yillik umumiy daromaddan sug'urtaga, oilaning katta a'zolari sarf qiladigan ba'zi xarajatlarni chiqarib tashlaymiz. Xarajatni rejalashtirishni kunda bo'ladigan xarajatlarning aniq miqdorini belgilashdan boshlash kerak, shunda undan ortgan daromad uzoq muddat saqlanadigan buyumlar sotib olishga sarflanadi.

Kundalik xarajatlar oilaning umumiy daromadiga hamda yashash usuliga qarab belgilanadi. Bunda uy-ro'zg'or ishlarini boshqaradigan ayolga ham ko'p narsa bog'liq, shunday ayollar borki, hech qachon ovqati aynimaydi, nonni isrof qilmaydi, hammayoq saranjom-sarishta, hech shoshib qolmaydi, ro'zg'orida doim hamma narsa yetarli bo'ladi. Boshqa bir ayol buning mutlaqo teskarisi. Bu esa ayolning qizligida uyida olgan tarbiyasiga ham bog'liq.

Ba'zi oilalar kayf-safoni, to'kin-sochin dasturxon atrofida mehmon kutishni, sovg'a-salom bilan mehmonga borishni,

boshqalari sayohatni, yana ba'zilari kutubxonalari uchun kitob yig'ishni sevadilar. Xarajat ham shunga qarab bo'ladi.

Ayrim bolalar ota-onalarining oylik daromadlari qancha ekanligini bilmagani uchun ba'zi qimmatbaho narsa olib berishni talab qilib turib oladi. Oylik daromadni bilganida u bunday qilmasdi. Shuning uchun Makarenko bolani oila xo'jaligini yuritish ishlaridan xabardor qilib turish kerakligini uqtirgan edi.

Agar oila yaxshi ta'minlangan bo'lsa, bu haqda bolaning o'rtoqlariga maqtanishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Oil a o'z ehtiyojlarini qiyinchilik bilan (ma'lum bir sabablarga ko'ra) qoplayotgan bo'lsa, shunday qilish kerakki, bola boshqalarga hasad bilan qaramasin. Bola mehnatsiz keladigan daromaddan ko'ra, qiyinchilik bilan, mehnat bilan oila hayoti yaxshilanishidan faxrlansin.

Agar oilada pul mablag'lari to'g'ri sarflansa, bu oiladagi bola bosiq, tejamkor, pulning qadrini biladigan bo'lib ulg'ayadi.

Shunaqa oilalar borki, oylik olishi bilan bolalarga shirinliklar, o'yinchoqlar sovg'a qilishadi-yu, keyin tang holga tushib qolishadi. Bunday oilalardagi bolalar pul va buyum-larning qadriga yetmaydi, borgan sari katta talablar qo'ya boshlaydi. Ota-onsa qiyinchilik bilan bo'lsa-da bolaning xarxashasidan qutulish uchun aytgan narsasini olib beradi. Bundan bolada boqimandalik kayfiyati, isrofgarchilik odati, xudbinlik paydo bo'ladi. U haqiqiy yurt farzandi, mehnatkashi bo'la olmaydi.

Bundan bolaga umuman sovg'a bermaslik kerak, degan ma'no chiqmaydi, sovg'a bolaga katta xursandchilik baxsh etadi va u sovg'a kutadi! Puxta o'ylab qilingan sovg'aning tarbiyaviy ahamiyati katta bo'ladi.

Bolaning oila xo'jaligi ishlarida qatnashishi o'zining ortiqcha talablarini tiyishga, isrofgarchilikka qarshi kurashga o'rgatadi. Bola 8–9 yoshga yetganda xarajatlarni hisobga olgan holda oldindan pul berib turish mumkin. Bola bunga o'rgangandan keyin uni muntazam ta'minlab turish zarur. Bolaning mehnati yoki o'qishi uchun hech qachon pul bilan rag'batlantirmaslik kerak.

OILADA IQTISODIYOT

To‘g‘ri tashkil qilish omili

Iqtisodiy tarbiya, xususan, tejamkorlik tarbiyasi oiladan boshlanadi. Misqollar, vatlar va daqiqalar hisobini qilishni bilmaydigan yoki istamaydigan kishi xo'jasizlik illatini yuqtirgan kishi deyish mumkin. O‘z uyida chinakam tadbirdor – xo‘jayin bo‘lgan kishi – bu ko‘pincha ishlab chiqarishda, jamoa xo‘jaliqlarida, qurilishda va muassasada ham haqiqiy xo‘jayindir. Qotgan non burdasini chiqitlar qatori axlat yashigiga tashlamaydigan odam keraksiz buyum sifatida tashlab yuborilgan detal yonidan beparvo o‘tib ketmaydi.

Gap aql zakovat bilan ehtiyojning mustahkam birligi ustida emas, balki, avvalo, oilada mehnat va ter to‘kish evaziga orttirilgan barcha narsalarga tejamkorlik va jonkuyarlik bilan munosabatda bo‘lmay turib, hech qanday farovonlik bo‘lishi mumkin emasligi ustida bormoqda. Buning uchun, albatta, uy-ro‘zg‘orni tejamli yuritishning oqilona usullarini qo‘llash va shakllantirish kerak bo‘ladi.

Umuman, hech kim, hech mahal o‘zini isrofgar yoki ziqla deb bilmaydi. Ko‘pchilik bizningcha o‘rtamiyonalikka intiladi, bu yaxshi. Biz aslida shundaymiz, lekin boshqacha

bo‘lishni istaydigan kishilar hammiz. Goho bizga nokerak deyilgan narsaning kerakligini shipshitib qo‘yish, maslahat berishgina kifoyadir.

Har qanday xo‘jalik - xoh biron korxona, xoh hissadorlik jamiyati, xoh jamoa xo‘jaligi yoki mahalla va uy-joy bo‘lsa – muayyan iqtisodiy negizda olib boriladi. Bizning uy-joyimiz, o‘zimiz yashaydigan, sevadigan, o‘qiydigan, bolalarmi o‘stiradigan, katta kishilar bo‘ladigan nabiralar bilan yosha-radigan oiladir. Har birimizning ongimizda tejash tartibi – boyligimiz yo‘li, hammamiz va har birimizning farovonligimiz asosi ekanligi tushunchasining qaror topishi juda muhimdir.

Xalqda «Pulni o‘ylamay sarflash oson» degan naql bor. Pulni o‘zingizga aynan shu kunda zarur bo‘lgan narsaga, oilangizga eng ko‘p foyda keltiradigan qilib sarflash oson emas. Bu o‘ylab ko‘rishni, muayyan iroda va bilimni talab qiladigan murakkab jarayondir.

Ko‘plarimiz xarajatlarni rejalashtirganimizda kelgusi yil u yoqda tursin, aqalli bir oy keyingi davrga nazar tashlaymizmi? Yo‘q albatta. Lekin oila iqtisodi rejasiz bo‘lmaydi va bo‘lmasligi kerak.

Tejamkorlikning xasislikka sira dahli yo‘q. U pulni xaridlarga yaxshi o‘ylab sarflashni, xo‘jalikni oqilona yuritishni, oziq-ovqat mahsulotlaridan maqsadga muvofiq foydalanishni va buyumlarni avaylashni bildiradi. Har qanday daromadlarda ham atrofimizdagи buyumlarni uzoq vaqt yaxshi holatda saqlashga harakat qilmog‘ingiz kerak. Kiyim-kechakni o‘z vaqtida tikib, yamash, uy-ro‘zg‘or buyumlarini to‘g‘ri ishlatish, ular butligi muddatini uzaytiradi. Xullas kalom o‘z oilamizda mahalla va yurtimizda chinakam xo‘jayin bo‘laylik.

Ro'zg'or yuritishni bilamizmi – deganda hammaga tanish shinam uy, saranjom-sarishtalik, dazmollangan liboslar, yuvilgan pol-u, tuvaklardagi gullar, tayyor taomning xushbo'y hidi singari tasavvurlar bo'ladi. Biroq shunisi ham borki, ro'zg'or yuritish haqida kitob yozish turmushimizdan astasekin unut bo'la bormoqda: ayollarimiz erkaklar bilan bir safda turishib ishlaydilar. Uy-chi? Ha, endi uy-ro'zg'or ishlari uncha muhim hisoblanmay qoldi. Har kim o'zicha bir ish qilganday bo'ladi, onalar va buvilar tajribalariga tayaniladi. Bu – noo'rindir.

HIKOYAT

«Bir kuni Abdurahmon ibn Avf, mo'minlar xalifasi hazrat Umarshayx ziyoratiga keldi. Salom berib kutib turdi. Xalifa hazrat Umar yonib turgan shamni o'chirib, boshqasini yoqdi.

Bu ahvol mehmon diqqatini tortdi. U hazrat Umarga:

– Ey, amiral-mo'minin! Oldingizda sham yonib turardi. Uni o'chirib, boshqa shamni yoqdingiz. Buning bir hikmati bordir? – dedi. Amiral-mo'minin hazrat Umar tabassum bilan:

– Yo, Abdurahmon! O'chirganim davlatning shamidir. Yoqqanim esa o'zimning shaxsiy shamim. O'z pulimga olganman. Davlat ishlarini qilganda davlatning shamini yoqaman. Hozir sen bilan suhbat qurib o'tirganimda davlat shamini yoqish xatolik bo'ldi, shuning uchun o'z shamimni yoqdim – dedi ...».

Ko'pchilik oilalarning pala-partish ro'zg'or yuritishining sababi shundaki, ular o'z mablag'larini «sanamay sakkiz» deb, behuda sarfni ko'paytirib yuboradilar. Bu, o'z navbatida, oylik va boshqa daromadlarning oiladagi chiqimlarga yetmay qolishiga olib keladi. Bu holni aniqlab olish oson:

chunonchi, ba'zilar oylikni olasolib, daromadlarini daromadlariga munosiblashtirib, olmasdan, narsalar xarid qi-lishga oshiqadilar, bular o'ziga keraksiz, bo'lsa-da: «Olinib qoladi-ku, bir kuni asqotadi-da», deyishadi. Sirasini aytganda oilaning moddiy farovonligi daromadning darajasi bilangina emas, balki xo'jalikni qanchalik uquv bilan yuritish orqali ham aniqlanadi. Eslab ko'ring-a, necha bor siznikiga kelgan kimdir xuddi besababday hayron qolganini bildirgan: «Ana bizning falonchi qo'shnimiz, kam oylik olsa ham hech kimdan qarzdor bo'lmaydi, kiyimlari but, yemoq-ichmog'i bajo». U bilmaydiki, o'sha qo'shni oqilona ish tutib, o'z mablag'ini to'g'ri hisoblab, pulini joy-joyiga sarflashni o'rganib olgan.

Aslida ortiqcha pul bo'lishining imkoniyati yo'q, Chunki iste'mol va talabning chegarasi bo'lmaydi. Iste'molning bemalolligi shundaki, bunda ovqatlanish, kiyinish, madaniy-maishiy buyumlarga hamda xo'jalik mollariga, barcha ne'matlarning eng a'lo navlariga talab to'la qondirilgan bo'ladi.

Binobarin, bunda eng muhimi har bir kishi o'z mablag'ini tajab-tergab joy-joyiga sarflay olishidir. Ko'pchilik esa bunday qilishni bilmaydi. Misol uchun musiqa ishqibozlarini olaylik, bular o'z mablag'larini asosan radio, audio va video apparatlari, magnit lentalar, videokassetalar sotib olishga sarflab yuborish bilan «ishqibozligini» qondirib, oila budgetini qiyin ahvolga solib qo'yadi. Shuning uchun siz yoshlarga oila mablag'ini qanday taqsimlash, u yoki bu narsani xarid qilganda nimalarga e'tibor qilish borasida ayrim malahatlar beramiz.

Biz quyidagilarni taklif qilamiz. Eng avvalo, bir haftada, har oyda va yilda oila bo'yicha qancha daromad qilinishini

anjq hisoblab olish zarur. Bunda barcha daromadlar – oylik puli, nafaqa, stipendiya, tomorqadan olinadigan mahsulot-larning narxi va hokazolar hisob-kitob qilinishi shart. So'ngra barcha xarajatlar hisobga olinadi; ijara puli, gaz, elektr, suv, telefonga, yasli yoki bog'chaga to'lanadigan pullar, so'ngra esa zaruratga qarab to'lanadigan shaharlararo telefonda gaplashganlik, oilaning kunlik, oylik ovqatlanishiga sarflanadigan pullar qancha bo'lishini bilish zarur.

Har qanday, hatto juda oz daromaddan ham nazarda tutilmagan xarajatlar uchun ma'lum miqdordagi pulni mavsumiy sarflarga ajratib qo'yish zarur, bundan tashqari, bitta oylikdan to'lash qiyin bo'lgan sarflar ham bo'ladi, chunonchi, to'y o'tkazish, yengil avtomobil xarid qilish, qishga kartoshka, sabzi-piyoz, meva-cheva g'amlab olish kabilar, bularga har oylikdan oz-oz ajratib qo'yilgani ma'qul. Masalan, uy bekasi har oyda oila a'zolari iste'mol qiladigan bir kilogrammdan qo'shimcha xarid qilib borsa, bu to'planib, murabbo pishirish mavsumida juda qo'l keladi.

Joriy oyda rejalashtirilmagan biron narsa (ko'ylak, poyabzal va h.k.) xarid qilish mumkinligini bilish uchun barcha daromadlarga sarflanadigan pulning umumiy miqdorini hisoblab chiqib, shundan orttirish mumkin bo'lsa, olish zarur. Ortiqcha pulni behudaga sarflab qo'ymaslik uchun kerakli buyumlarni xarid qilishga mo'ljallab omonat kassasiga qo'yib saqlash va yig'ish mumkin.

Bunga oylikdan tashqari keladigan pullar (qalam haqi, vaqtida olinmay qolgan buyumlardan qolgan pul, tomorqadan chiqqan hosilni sotishdan tushgan kirim yoki asosiy ishdan tashqari xizmat qilib topilgan pullar) kiradi. Mana shu tejalgan pullar vaqtি kelib anchagina summani tashkil etishi

va oilaning biror koriga yoki qimmatli buyum sotib olishga imkoniyat yaratish mumkin.

Oylikni olish bilanoq har oy ovqatlanishga ajratilgan puldan tez buzilmaydigan masalliqlarni, chunonchi, makaron, guruch, choy, shakar,sovun, gugurt, tish pastasi, kir yuvish poroshoklari va shu kabilarni ulgurji xarid qilib qo'yish maqsadga muvofiqdir. Qolgan pulni esa kundalik non, go'sht, sariyog' va boshqa tez buziluvchi masalliqlarga sarflab boriladi. Pulni bir tekis sarflamoq uchun kundalik barcha sarflar uchun qancha pul kerak bo'lishini hisoblab, yig'indi summa yettiga ko'paytirilsa, bir haftalik daromad kelib chiqadi. Bundan har haftada qancha sarf bo'lishini bilsa bo'ladi.

Oziq-ovqat xarid qilish uchun sarflanadigan pulga alohida e'tibor bermoq zarur. Ayniqsa, non rizq-ro'zimiz, har bir oila undan o'zini qismasligi darkor. Ovqatlanishdan tejashning sira hojati yo'q, biroq oila budgeti ko'tarmaydigan budgetlarga bemulohaza sarfni ko'paytirish yaramaydi.

Shunday qilib ovqatga sarflanadigan mablag' hisobga olindi. Endi kiyim-kechakka sarflanadigan pullar to'g'risida o'ylab olish kerak. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, ayollarning yarmidan ko'pi va erkaklarning 60 %i yangi urf bo'lgan kiyimlarni hamma vaqt ham oshiqib xarid qilavemas ekanlar, xarid qilganlari esa urfdan chiqib ketsa ham bemalol kiyaverar ekanlar.

Endilikda har birimizning kiyim javonlarimizda ichki va tashqi kiyimlarning turli xili bor, bir necha juftdan poy-abzalga egamiz. Hayron bo'lman. Aslida shunday o'zi. Uy yig'ishtirganda bir e'tibor bilan qarab ko'ringa, bunga iqror bo'lasiz. Sir tutishga na hojat, uyimizda ortiqcha liboslar uyulib yotibdi. Qani endi xususiy do'konlar xizmatidan foy-dalanilsa yoki maxsus ustaxonalarga berib, yangilari tiktirilsa,

hech bo'limganda kattalar ust-boshidan bitta ikkita bolalar kiyimi chiqadi. Qisqasi, biron narsa xarid qilishdan, o'z xohish va iste'molini qondirishdan oldin uydagi narsalarni, kiyim-kechakni yaxshilab tekshirib ko'rish darkor. Shunday ekan, yillik xarid qilishdan ilgari sandiq va chamadolarda taxlanib yotgan libos va matolarni bir ko'zdan kechirib qo'ymoq ham kerak, balki ularning o'ziyoq didingizga mos tushib qolar. Tajribalardan ma'lumki, oila mablag'ining ko'p qismi mayda-chuydaga ketib qoladi. Xuddi mana shu mayda-chuyda juda qimmatga tushar ekan. Bular sovun, kir yuvish poroshoklari, tish pastasi, sigaret, muzqaymoq, limonad, xo'roqzand, saqich, shokolad degandek, doimo sarf talab qiladigan narsalar. Shunday ekan, ana shu mayda-chuydalarga bo'lajak sarfni doimo nazorat ostida tutmoq kerak, biri xarid qilingach, ikkinchisidan tiyilibroq turmoq ziqlanalik bo'lmaydi, balki, tejamkorlik bo'ladi. Tejamkorlikka yana misol keltiradigan bo'lsak, mana kir yuvish poroshogining bir qoshig'i kir yuvishga kifoya qilishini bilmaganlar yarim pachkani tog'oraga to'kib qo'ya qoladilar. Hayot ko'r-satib turibdiki, barcha xarajatlarni oldindan bilib bo'lmaydi. Shuning uchun oylik daromaddan 3–5 %ini, ehtiyoj shart, ajratib qo'yish kerak.

Kinoga, teatrga, konsertlarga ketadigan sarflardan ham voz kechib bo'lmaydi. Oilaga madaniy tadbirlar ham kerak. Shunday ekan, madaniy tadbirlarga ham oila yilda bir necha marta kinoteatrlarga bora olishini taxminan bo'lsa ham hisoblab chiqib, albatta, oldindan mablag' ajratishga to'g'ri keladi.

O'z-o'zidan shunday savol tug'iladi: rejalangan barcha xarajatlar qanday qayd qilib boriladi va har bir xarajat o'z o'mida sarflanganligini qanday nazorat qilish mumkin?

Oila xo'jaligini yuritganda sarflarni nazorat qilib borish shart. Bunda sira erinchoqlik qilmasdan har oyning oxirida avval belgilab olingan sarflar joy-joyiga ketgan-ketmaganligini, yoki izidan chiqish ro'y bergan-bermaganligini tekshirib qo'yish kerak. Izidan chiqish, ortiqcha xarajat sodir bo'lgan hollarda sababini aniqlash lozim. Nazorat qilishda daromad bo'ldi-yu, qancha buromad bo'ldi, buni yozib borish shart. Albatta, shunday ham vaqt yetishmaydi-yu, xonadon hisob-kitobi bilan shug'ullanishga kimning vaqtি bor? degan e'tirozlar bo'lishi turgan gap. Maqsad uy xo'jaligini boshqarishni tashkil etish, oilaviy yetishmovchilikka, chiqimning kirimdan ko'payib ketishiga abadiy barham berish kerak ekan, «xonadon hisob-kitobi» bilan mashg'ul bo'lishi shart, albatta.

Modomiki, oila budjeti xarajatlar uchun asos ekan, uni amalga oshirish usuli – ro'zg'or hisob-kitobidir.

Kuzatishlarning ko'rsatishicha hisob-kitob olib boradigan oilalarda bu ishga har kuni 10 daqiqagina vaqt sarflanar ekan. Hisob-kitob qilib, pulni joy-joyiga sarflashdan keladigan foydaga nisbatan har kuni yo'qolgan 10 daqiqa nima degan gap.

Kirim-chiqimlarga oid uy daftarida: daromadlar, kundalik chiqimlar, jamg'armalar va to'lovlar bo'limlari bo'lishi lozim. Avvalo, barcha pul daromadlari, shuningdek, kundalik xarajatlar qayd qilinishi kerak. Ana shundagina oilaviy hisob-kitobning mufassal manzarasi namoyon bo'ladi.

Xo'jalikni rejali boshqarish borasidagi suhbatimiz nihoya-sida oilalarga, ayniqsa, yosh oilalarga shuni uqtirib o'tmoq-chimizki, ro'zg'or ishlarida shaxsiy tajribangizdan qimmatliroq tadbir bo'lmaydi. Uyga ham xuddi boshqa mashg'ul bo'lgan sohalardek xo'jalik, tejamkorlik, hisob-kitob, keraksiz

xarajatlarga yo'l qo'ymaslik, isrofga qarshi qattiq turish nuqtayi nazaridan munosabatda bo'lgandagina ahamiyati katta bo'ladi. Eslatib o'tamizki, dastlab bu ishni amalga oshirish ancha og'ir kechadi. Har holda odam o'zini o'zi nazorat qilib borishi, «haddan oshmasligi», misol uchun daromadga qarab buromad, tiyilib yurishi, hozirgi huzuriga berilib ketmasiligi, bo'lar-bo'lmasga pul sarf qilavemasligi kerak. Oila ro'zg'orini rejali olib borishni o'rganib olish osonlikcha kechmaydi, albatta. Ammo rejali xo'jalik yuritish zaruriyatdir. Bunday qilish oilaning manfaatlari uchun ham zarurdir. Bu umum davlat miqyosida ham muhim ish bo'lib, o'ziga tegishli pulini hisob-kitob qilolmaydigan, pala-partish ish tutib, isrofga yo'l qo'yadigan kishilar jamoa mulkiga ham shunday munosabatda bo'lishlari turgan gap.

E'tibor bergen bo'lsangiz uy-ro'zg'or ishlari anchagina hisoblashlarni, o'ziga yarasha bosh qotirib, o'ylashni talab qiladi. Bunda ishni osonlashtirish uchun, albatta, mikrokalkulator dan foydalanish lozim.

Bunday hisoblash texnikasi oila xo'jaligini oqilona bosh-qarish, masalliqlarni tejab-tergab ishlatish, ko'pgina vaqtdan yutish imkonini yaratadi. Yolg'iz bir oyda sarflangan elektr quvvatini hisoblab chiqish uchun anchagina vaqt sarflanadi. Bunga yana ijara puli, telefon uchun to'lov va boshqa xarajatlarni hisoblashlarni qo'shadigan bo'lsak, ancha vaqt ketib qoladi. Mikrokalkulatorda esa bu ishni sanoqli daqiqalarda amalga oshirish mumkin.

REJASI BORNING – ERTASI BOR

Yosh do'stim, o'z kasbingni va fanningni qancha sevsang, kundalik faoliyating uchun qat'iy tartib tuz va unga og'ish-

may amal qil. Vaqting isrof bo‘lishinga aslo yo‘l qo‘yma. Bilimdonliging, hosil etadigan ko‘nikma va malakalaring ham o‘qish va mehnat jarayonida paydo bo‘ladigan hosiladir. Kishining fan asoslarini, hayotini, ayniqsa, odamlarning mehnatini hurmat qilish vaqtning, umrning qadrini anglay bilishi bilan uzviy bog‘liqdir. Vaqtning qadrini bilmagan kishi esa fan sehri bilan yashovchi, haqiqiy ilm shaydosi bo‘lomaydi. Odam iste’dodining rivoj-lanishi uning o‘z tasavvuridagi vaqt sarmoyasidan oqilona, tejamkorlik bilan foydalana bilishga bog‘liq.

Sen buyuk fan sohiblari va mehnat qahramonlarining, shon-shuhrat qozongan va qozonayotgan aziz insonlarning hayotlariga chiqur nazar solsang, ular o‘z umrlarining har bir daqiqasidan nihoyatda tejamkorlik bilan foydalanayotganliklariga ishonch hosil qilasan. Isrofgarchilikning hamma turlari ham yomon, ammo ular ichida hammasidan yomoni umr isrofgarchiligidir. Yo‘qolgan javohir yana topilishi mumkin, ammo zoe ketgan umr qaytib kelmaydi. Vaqt sening ixtiyoriningdan tashqarida kechsa-da, lekin undan unumli foydalanish sening ixtiyoriningda.

Ma’lumki, hech kim ikki marta yashamaydi, lekin bir marta beriladigan aziz umrning qadriga yetib, to‘g‘ri, halol va pok yashay bilish eng ulug‘ fazilatdir. Afsuski, ba’zilar yoshlikda umrning qadrini bilmaydilar va buni qarigan chog‘idagina payqab, o‘kinadilar, xalq tili bilan aytganda, «So‘nggi pushaymon – o‘zingga dushman».

Yosh do‘stim, bekorchilik yomon, uning hosili esa undan ham yomon.

Vaqtni tejashta oynayi jahonni maqsadli va tartibli ko‘rish ham muhimdir. O‘rinli tomosha qilinsa, oynayi jahon katta ma’naviy ozuqa beradi. Lekin ba’zilar bir rejasiz yoshlari

oynayi jahon qoshida kecha-kunduz naq yotib oladilar. Ular nimani, qachon va qancha vaqt, qanday tomosha qilishni bilmaydilar. To‘g‘ri kelganni ko‘raveradilar. Afsuski, ko‘pdan buyon nafosat manbayiga aylangan oynayi jahon bunday kishilar uchun vaqt kushandasini bo‘lib qoladi.

Aziz do‘stim, har oqshom o‘tgan kuningni yakunlashga odatlan, bugun sen g‘animat vaqtingdan qanday foydalanganini, ertaga nima qilishing kerakligini o‘yla. Shunday ekan, aslo bugungi ishni ertaga qo‘yma, chunki ertagi kunning ham o‘z vazifasi bor.

Dars mashg‘uloting muntazam tartibda bo‘lishiga erish. Mashg‘ulot jarayonida hamrohingga halal berma. O‘quv zalida tinchlik va tartib saqla. Yotoqxonadagi davlat mulkini ko‘z qorachig‘idek asra. O‘quv kitoblari, yotoqxonadagi buyumlar sendan keyingi avlod uchun ham kerakligini unutma. Xonangda sengacha yashab o‘tgan kishilarning hayotini, yaxshi an’analarini o‘rgan va ularga tadqiq qil.

Do‘stim, mehmon qabul qilish odobiga rioya qil. Kimni, qachon va qanday sharoitda chaqirishni bil. Bu borada o‘quv yurtida belgilab qo‘ylgan tartib-qoidalarga og‘ishmay amal qil. Ezma bo‘lishdan, kishilarni boshlab kelib, soatlab gap soitb o‘tirishdan o‘zingni tiy.

Chunki unday kishilar vaqt o‘g‘risidir. Do‘stingning muvaffaqiyatli o‘qishiga g‘amxo‘rlik qil, imtixonlardan qanday o‘tayotganini kuzatib tur. Zaruriyat tug‘ilsa, birga dars tay-yorlab, unga yordam ber. Uning ijodiy mustaqil o‘zlash-tira olish qobiliyati rivojlanishiga ko‘maklash. Lekin bunda sen yetakchi-yu, u yetaklanuvchi bo‘lib qolmasin.

Sening dunyoqarashing shakllanishida ona-vatanimizning o‘z halol mehnatlari tufayli el hurmatiga sazovor bo‘lgan ilg‘or kishilar: ishchilar, dehqonlar, ustoz tarbiyachilar,

olimlar, qalam sohiblari va urush qatnashchilari va kasb egalarining bo'lib o'tgan hayot yo'llari o'ziga xos katta bir dorilfunundir. Sening bugungi iqbolingda necha-necha aziz odamlarning kechgan bebahohumrlari, chekkan mashaq-qatlari, to'kilgan mo'tabar qonlari bor.

Vatanimizning ilg'or kishilar bilan jamoa bo'lib o'tkaziladigan uchrashuvlardan benasib bo'lma va bu uchrashuvlardan o'zing uchun kerakli xulosalar chiqarib ol.

Gulshanga kirsang xushbo'y gullarning yaxshi nisori tekkanidek, oqil, ilg'or, odobli kishilar bilan qancha ko'p muloqotda bo'lsang, ularning mehnatsevarligi, odamiyiligi va xulq go'zalligi yosh qalbingda chuqur iz qoldiradi. Hayotning achchiq-chuchugini totgan katta yoshdagi kishilarning oqilona o'qit va pand-nasihatlariga qulop sol va ularga amal qil, ularning umr saboqlari sen uchun hayot matabidir. Qolaversa, ularning mumtoz niyatlari seni yanada baxtliroq, aqlliyoq ko'rishdir.

Insonlar uchun o'zaro do'stlik – odat bo'lsa, og'a-inilik – tunganmas davlatdir. Har bir kishining uzoq-yaqin o'lkalarida haqiqiy do'stlari bo'lgani yaxshi, unday odam har yerda izzat va hurmat topadi. Eng badavlat kishi kim, deb so'rasalar, sodiq do'stlari ko'p bo'lgan odamni ko'rsatish kerak. Qalbida do'stlik hissi yo'q kimsa, dunyoda eng faqir kishidir. Do'stlik – Baxt-iqbolning zamiridir. Baxt so'zi esa to'rt harfdan iborat, u birlik, ahillik, hamjihatlik, totuvlik bor joyni tanlaydi. Lekin ayrim yoshlar orasida jamiyatimiz qonun-qoidalariiga rioya qilmay, nomatlub xatti-harakatlar bilan talaba nomiga dog' tushirayotganlar ham uchrab turibdi.

Yosh do'stim, kuzatish shuni ko'rsatadiki, yoshlar o'rtasidagi bunday ko'ngilsiz xatti-harakatlar asosan bekorchilikdan kelib chiqadi. Bekorchilik yomon, hosili esa undan ham

yomon, nosoz tuyg'ular, nomatlub xatti-harakatlar bekor-chilik hosilidir. Insonni bunday hosilalardan xalos etadigan eng pok, shifobaxsh dori bu foydali mashg'ulotdir. Shu-ning uchun o'zing mudom foydali mashg'ulot topishga harakat qil, oilada ham, jamoat joylarida ham tartib-qoiddalarni buzma, kechalari ko'chalarda bebosh sang'ib yurma. Dono xalqimizning «Sayoq yursang – tayoq yeysan», degan naqlini unutma. Axir noplak muhitda sang'igan kishiga xulqi-zebolik qaerdan ham kelsin!

Tabiatdagi, hayotdagi, odamlardagi barcha go'zalliklarni, san'at va adabiyot durdonalarining mohiyatini idrok etib, chuqur anglamoq va ularni baholay bilmoq, eng muhimmi, borliqni, hayotni go'zalroq qilish borasida o'z hissasini qo'shmoq hayot taqozosidir.

FOYDALI MASLAHATLAR

Kiyimingga dog' tekkan bo'lsa,sovun bilan suvni ayama. Xato yo'lga kirib, o'zingga dog' tushirgan bo'lsang, bu dog'ni yuvmoq uchun el oldida halol mehnatingni ayama.

* * *

Agar oilaning barcha g'am-tashvishlari faqat kishining yelkasiga yuklanaversa, u fildek baquvvat bo'lsa ham, qaddi bukilishi mumkin.

O'g'il va qiz ota-onaning kuch-quvvati va oltin umri evaziga voyaga yetadi, lekin qiz uzatilgan joyda, o'g'il esa umr yo'ldoshi bilan tinib-tinchib ketmasa, ota-ona dili majruh bo'ladi.

* * *

Bolani haq gapni gapiradigan, o'limdan ham qo'rqlaymaydigan mard, el qoshida sharmanda-yu sharmisor bo'lishdan uyaladigan, hayoli qilib tarbiyalash kerak. Haykaltaroshning mohir qo'li metallda kishi aqlini hayratda qoldiradigan go'zal siyemoni ifodalaydi, onaning aqlu-zakovati va qalb harorati esa «bir parcha et»ga dil va til, fahm-u farosat kiritadi.

* * *

Subutsiz va yolg'onchi oilada o'sgan bola ko'pincha hech kimga va hech narsaga ishonmaydigan, hammaga shubha ko'zi bilan qaraydigan bo'lib qoladi.

* * *

El hurmatini tilasang, elni hurmat qil, eng muhimi, halol mehnat qil. Ota-oni o'rtasidagi chin insoniy hurmat va muhabbat farzandlari uchun bebahoh merosdir.

* * *

Har oilaning o'z a'zolarini bir-biriga inoqlashtirib turuvchi e'tiborli boshlig'i bo'ladi. U tirikligida o'ziga munosib o'rribosar tayyorlashi lozim. Aks holda, boshlig'idan keyin oilada janjal, to'polon boshlanishi mumkin.

* * *

Agar ayolning uy-ro'zg'ori saranjom-sarishta, eri va bolalarining yurish-turishi, kiyinishi tartibli va ozoda bo'lsa, uning o'zi ham tarbiyalii, ozoda tabiatli bo'lib, pokizalarning pokizasidir.

Kishining ijtimoiy faoliyatini baholashda uni oilada o‘zini qanday tutishini ham e’tiborga olish zarur. Chunki ko‘cha xandon, uy zindonlar ham bo‘ladi.

Oilada bolani mustahkam irodali qilib tarbiyalamoq kerak, chunki irodasiz kishining xatti-harakati xuddi varrak shokildasining harakatiga o‘xshaydi. Irodasiz kishi shokildaga o‘xshab shamol esgan tomonga qarab likillayveradi.

Mehnat, mehnatsevarlik va ilm-hunar haqida

Ona-yerdan unayotgan barcha noz-u ne’matlar kishilar mehnatining samarasini ekanligini har bir bola yoshligidan anglamog‘i va ulg‘ayib borgani sayin bu mehnatga ongli ravishda o‘z hissasini qo‘shtmog‘i zarur. Bola mehnat mahsulotlari va ularning bunyodkorlari bo‘lgan mehnatkashlarni shundagina qadrlay biladi.

Ota-onalarning farzandlariga mehnatning ahamiyati haqida hadeb tashviqot qilishlaridan ko‘ra, bir marotaba namuna ko‘rsatganlari ma’qulroqdir, chunki bola eshitganimdan ko‘ra, ko‘rganiga ko‘proq ishonadi.

Mehnat qilgan yaxshi, lekin ishining ko‘zini bilib mehnat qilgan undan ham yaxshi.

* * *

Yoshligidan mehnat qildirmay erka, tantiq qilib o'stililgan bola faqat boshiga bir kulfat tushgandagina ota-onasini eslaydi.

* * *

Har bir kishi odamlarning hurmatiga sazovor bo'lishni istasa, u quruq gap bilan emas, amaliy ish bilan o'zini ko'rsatishi kerak, chunki odamlar gap, mahmadona kishilarni emas, balki ishchan kishilarni yurakdan hurmat qiladi.

* * *

Daraxtning soya-salqinidan yelpig'ich bilan yelpinib yotgan bola jaziramada mehnat qilib meva yetkazgan bog'-bonning qadrini bilmaydi.

* * *

Bolaga bilim berish, uni hayotga qobil, g'ayratli va ijtimoiy faol qilib tarbiyalash lozim. Bolani turmushga qobiliyatli qilib tarbiyalash o'qituvchining muqaddas burchidir.

* * *

Hayotning achchig'i ham, chuchugi ham bor, har ikkalaşini totigan odamdagina hayotning va odamlarning qadr-qimmatini chuqurroq his eta oladi.

* * *

Halol mehnatning evaziga kelgan narsalar o'zingga qoladi, qo'lingga osongina kirgani esa shamoldek uchib ketadi.

* * *

Bir tup daraxt ekib ko'kartirmagan kishi bog' qadrini
bilmaganidek, o'zi mehnat qilmay, ota-onan davlati bilan
uylangan yigit ham oila va turmush qadrini bilmaydi.

IV bob. MA'NAVIY BARKAMOL INSONNI SHAKLLA-NISHIDA OILANING TUTGAN O'RNI

Oila – an'anaviy tarbiyaning asosiy instituti bo'lib hisoblanadi. Bola yoshlik davrida oilada olgan ta'limgar tarbiyasini butun umri davomida saqlab qoladi.

Bola hayotini asosiy qismini oilada o'tkazadi, o'zining ta'sir kuchiga ko'ra hech qanday tarbiya vositasi oila bilan bellasha olmaydi. Oilada bola shaxsini asoslari tarkib topdiriladi, maktabga borganda esa bola shaxs sifatida shakllangan bo'ladi.

Oila bolalarga insoniy va salbiy ta'sir etish omili bo'lishi mumkin. Bola shaxsiga ijobiy ta'sir etish shundan iboratki, oilada bolaga eng yaqin insonlardan – ota-ona-buvi-buvalaka-opalardan tashqari hech kim ulardek bolani yaxshi ko'rib, u haqida qayg'urmeydi.

Shu bilan birga bola shaxsini shakllantirishga, ularga tarbiya berishda oila salbiy ta'sir ham ko'rsatishi mumkin.

Oila – bu o'ziga xos jamoadir, u tarbiyada asosiy o'ringa egadir.

Oilani o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olgan holda, oilani bolaga ijobiy ta'sirini oshirib, salbiy ta'sirini kamaytirish zarur. Buning uchun esa tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, ichki oilaviy ijtimoiy-psixologik omillarni aniq belgilash lozim.

Bolani tarbiyalashda asosiysi ota-ona bilan bola o'rtaida qalban yaqinlikka va axloqiy bog'likka erishishdir.

Ota-onalar hech qachon tarbiya jarayonini o‘z holiga tashlab qo‘ymasligi kerak, ayniqsa, katta bo‘la boshlagan bolani o‘z holiga tashlab qo‘ymasligimiz kerak.

Bola oilada birinchi hayotiy tajribani o‘rganadi, kuzatadi va o‘zini turli hil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o‘rganadi.

Biz bolani nimaga o‘rgatsak uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlash kerak, bola kattalarni aytgan gaplari amalda ham bir ixl bo‘lishini ko‘rishi kerak (masalan: agar bola har kuni ota-onasi tomonidan yolg‘on gapirish mumkin emasligini eshitsa-yu, lekin nota-oni o‘zi sezmagan holda shunday qoidaga rioya qilmasalar, bola tarbiyasiga darz ketadi). Har bir ota-oni farzandlarida o‘zlarni davom-chilarini ko‘radi. Farzandlarini o‘zlarini xohlagan inson bo‘lishlarini xohlaydilar.

Ota-onalar o‘rtasidagi mojaroli vaziyatlar.

Ota-onalar o‘rtasidagi mojaroli vaziyatlar – bu ota-onalar tomonidan bola tarbiyasiga turlicha yondashuvdir. Mojaroli vaziyatlarni hal etish uchun quyidagilarga rioya qilish kerak.

Ota-onalarni birinchi vazifasi – umumiylar qarorga kelish, bir-birini ishontirishdir, agar ota yoki ona biror-bir qarorni qabul qilishdan oldin ikkinchi tomonni fikrini ham hisobga olishi lozim.

Ota-onalarni ikkinchi vazifasi – bola ota-onalarini qarashlarida qarshilikni ko‘rmasligi kerak, muammolarni alohida muhokama qilish zarur.

Bola juda tez aytgan fikrlarni o‘zlashtiradi va o‘ziga xos holda ulardan foydalanadi.

Ota-onalar qaror qabul qilishda birinchi o‘ringa o‘zlarini qarashlarini emas, balki bolaga foyda keltirishni o‘ylashlari kerak.

Kattalar va bolalar o'rtasidagi muloqotda quyidagilarga amal qilish lozim.

1. Bolani qanday bo'lsa, shunday holda qabul qilish kerak.

2. Kattalar bolalar ko'zi bilan muammolarga qarashlari va ularni holatlarini qilishlari kerak.

Ota-onalar farzandlarini, ularni hech narsaga (hunukligi, sho'xligi, epchil emasligiga) masdan yaxshi ko'radilar. Bola qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilinadi.

Agar bola ota-onalarni xohish va istaklariga mos bo'lsa ya'ni yaxshi o'qisa, a'lo xulqli bo'lsa, agarda bola ota-onalarni talabalariga javob bermasa, bunda bolalarni ota-onalar o'zlaridan uzoqlashtiradilar va ularni munosabatlari yomon tomonga o'zgara boradi.

Bu esa sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bola ota-onalariga ularni mehribonliklariga ishonmaydi.

Ayrim oilalarda bola ota-onalardan umuman qabul qilinmaydi. Ular bolaga nisbatan befarq bo'ladilar va uni o'zlaridan itaradilar (masalan: ichkilikka berilgan oila). Lekin yaxshi tinch oilalarda ham bolaga nisbatan befarqlik holatlari uchraydi (masalan: kutilmagan farzandni tug'ilishi, ona chiroyli lekin qizi xunuk bu esa onani g'ashiga tegadi).

Oilada bolani tarbiyalashda uchraydigan xatoliklar turli tumandir. Ular orasida keng tarqalganlaridan biri ota-onalarning xaddan tashqari obro' talabliklari, hukmronlikka intilishlaridir. Bolaning har bir qadami nazorat ostiga olinsa, uning hulqidagi mustaqillik yo'qqa chiqariladi. Bolada o'z kuchiga va imkoniyatlariga ishonch yo'qoladi. Ichki istak va intilishlar shakllanmasdan itoat qilish talablari bilan boshlab turadi.

Oilaviy tarbiyatadagi xatolikning turlaridan yana biri, bolalarning erka bo‘lishi, ularga nisbatan biror talabning yo‘qligi bilan bog‘liq. Bu holda ota-onalar ba’zan bolalarning imkoniyatlariga yetarli baho berishmay va ularning ko‘pgina ishlarini o‘zлari bajarishadi. Natijada, bolada mustaqillik, mehnat qilish ishtiyocoq, topshirilgan ishga mas’uliyat hissi rivojlanmaydi. Bola o‘z ishini tanlay olmaydi, uni oxirigacha yetkaza olmaydi, erksiz bo‘lib qoladi.

Qiyinchiliklarning yana biri shundan iboratki, ota-onalar tarbiyada hamma narsa sababli va shartli ekanligini, tarbiya uzoq jarayon bo‘lib, bu jarayonda bir qator o‘zaro uzoq jarayon bo‘lib, bu jarayonda bir qator o‘zaro bog‘liq bo‘g‘in, vosita va uslublar bo‘lib, ulardagi biror bo‘g‘inning tushib qolishi tufayli jarayonning normal o‘tishi bo‘zilishi va tarbiya natijasi buzilishini tushunmaydi. Ota-onalar bu holning muhimligini hisobga olmay, ko‘pincha, bola «birdan» buzilib qoldi, deb arz qiladilar. Bolalarni oiladagi tarbiyasidagi xatolarning bir turi ona yoki ota, buvi, buva va boshqalar tomonidan tarbiyada yagona talabalarning yo‘qligidir. Bunday oilalarda bolalar kattalarning qarama-qarshi fikrlariga moslashishga harakat qiladi. Bu esa bolada ikkiyuzlamachilik, xushomadgo‘ylik va shu kabi salbiy xislatlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Oilada bola shaxsini shakllantirishda oila boshliqlari bilan bolalarning o‘zaro yaxshi munosabati, xonodon qarichlariga hurmat, e’tibor, oiladagi bolalarning o‘zaro munosabatlari to‘g‘ri tarbiyalangani ota-onaning bolalar tarbiyasiga barobar jonkuyarligi, oilada o‘rnatilgan to‘g‘ri tartib va yaxshi odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalargiga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishlari muhimdir.

Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati, o‘zlarini tuta bilishlari muhimdir, oilada muomalaning barcha qoidalariga amal qilinishi lozim. Kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash, bir-biriga mehribonlik, ayniqsa, ayollarni izzat qilish odatga, qoidaga aylanib borishi kerak.

Bolalarga onani hurmat qilishni, unga mehribon bo‘lishni o‘rgatish otaning muhim vazifasi.

Odatda, o‘g‘il bola otasiga, qizlar esa onasiga o‘xhashga, ulardagi yaxshi xislatlarni o‘ziga singdirishga harakat qiladi. Ota ham, ona ham, bolani tarbiyalashga o‘z hissalarini qo‘sadilar.

Ona g‘amxo‘r, mehribon, ko‘ngilchan bo‘lsa, ota – kuch qudrat, jasurlik, qattiqqo‘llik, bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishi uchun qayg‘ursa, ona – yurish-turish, muomala, his tuyg‘u, nafosat uchun tashvishlanadi.

Ota ham ona ham bolaning aqliy, axloqiy jismoniy kamoloti uchun baravar javobgar, chunki, ularning birdan-bir maqsadi shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir.

Bola shaxsini shakllanishida sog‘lom oilaviy muhit katta ahamiyatga egadir. Oilada ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, ishonch va vafo-sadoqat bolalar quvnoq, xushchaq-chaq o‘sishlariga, normal tarbiyalanishlariga, xonadonda sog‘lom muhit yaratilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Oila a’zolari hurmatini o‘rniga qo‘yishlari, bir-birlari uchun jon kuydirishlari, yaxshi munosabatda bo‘lishlari kerak. Oilada hamisha samimiyat va ko‘tarinki ruh hukmron bo‘lsa, oila a’zolarining kayfiyatiga ijobiy ta’sir etadi.

Qaysi olida nohaqlik, qo‘pollik, do‘q po‘pisa, asabiylilik, hukmron ekan, unda halovat ham bo‘lmaydi. Oiladagi arzimagan janjal ham dastavval bolalarning psixik holatiga ta’sir qiladi, ularda yomon odatlar hosil bo‘lishiga olib

keladi. Bolalar ulg'aygach, ular ham qush uyasida ko'rganini qiladi qabilida ish tutishadi.

Ota-onalik bir-birini behurmat qilmasligi, obro'larini tu-shirmasligi, oilaviy nizolarni bola yo'q vaqtida bartaraf etishlari shart. Bola yomon yoki yaxshi hulqli, fe'l atvorli bo'lib tug'ilishmaydi. Uning o'sib borishi jarayonida oila muhiti, ota-onaning, kishilarning, atrof-muhitdagi munosa-batlarning ta'siri hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oiladagi totuvlik, hamjihatlik, bu o'zaro hurmat va yordam, shirinsuhanlik, mehnat-sevarlik va to'g'rilik bolaga ijobiy ta'sir qiladi.

V bob. OILADA KOMIL INSON TARBIYASI

Axloq kishilarning xulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o‘z-o‘ziga boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi axloqiy tushunchalarni o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning shakllaridan biridir. Axloq tarixiy xususiyatga ega, chunki u kishilik jamiyatida avlodlar tomonidan to‘plangan axloq odiy tajribalar va munosabatlarni aks ettiradi. Axloq ilmiy yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi muammolar haqida bahs yuritib, insonlarning kamolotga erishish yo‘lini yoritib boradi. Har bir inson bir olam bo‘lgani kabi uning axloq odobi ham juda murakkab olam desak yanglishmaymiz. Chunki shaxsning ichki va tashqi olamini o‘rganish, bilish, tahlil qilish g‘oyatda murakkab, bu ruhiyat bilan bog‘liq holatdir. Axloqli, odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi xislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shavqat,adolatu-diyonat, hayoyu-iffat, imon-e’tiqod kabilar mujassam bo‘ladi, ayni paytda shu xislatlarning aksi-beburd, axloqsiz kimsalar fe’lida ko‘rinadi. Har bir xalqning nufuzi va obro‘-shuhrati kishilarning axloq-odobi, yaxshi xislat fazilatlari bilan belgilanadi.

Qadimgi yunon faylasuflari Aflatun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o‘z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g‘oyani ilgari surgan edilar. Ular o‘z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat ma’nfaatlari bilan bog‘liq deb isbotlamoqchi bo‘lganlar. Shunga ko‘ra bola tarbiyasi bilan asosan davlat

shug‘ullanishi kerak, degan g‘oya ilgari surilgan. Ammo, sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan asosan ota-onas shug‘ullanishi kerak, degan xulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e’tibor berganlar.

Eramizdan avvalgi 528–529-yillar orasida buyuk mutafakkir Zardusht tomonidan yaratilgan «Avesto» kitobida ham ta’lim-tarbiyaga, axloq-odobga oid qator g‘oya va qarashlarni ko‘rish mumkin. «Avesto»da ta’kidlanishicha, tarbiya hayotning tayanchi, shu boisdan har bir yoshni yaxshi o‘q ish va yozishga o‘rgatish lozim. Uni yosh paytidanoq mehnat qilib, mehnatning tagi rohat ekanligini anglatish uchun daraxt ko‘chati o‘tkazishga, uy-ro‘zg‘or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug‘ullanishga o‘rgatilishi shart. Zotan uning fikricha yaxshi va ezgu ishlar yaratish uchun kishi mehnat qilishi zarur, o‘z qo‘llari bilan moddiy noz-ne’matlar yaratmas ekan, u yashash lazzatini ham his qilmaydi, hayotning qadriga ham yetmaydi.

U yuqoridagi fikrni davom ettirib, «Inson nafaqat mehnati tufayli o‘zini va oilasini boqadi, balki unda yerga va yurtga bo‘lgan muhabbati ham paydo bo‘ladi. Zotan har bir inson o‘zi o‘sib ulg‘aygan zaminni, mamlakatni eng yaxshi va go‘zal mamlakat deb tushunmog‘i kerak». Uning bu fikrlaridan har bir inson faqat o‘zining emas balki farzandlarini ham mehnatsevar qilib tarbiyalashi lozim. Chunki mehnatsevar bo‘lmasdan turib, o‘z yerini, o‘z Vatanini seva olmasligi tabiiy.

Qur’oni Karim, hadisi Shariflarda oila va oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyaga oid bir butun izchil qarashlar tizimi mavjud bo‘lib, u o‘z ichiga oilaning shakllanishi, rivojlanishi va mustahkamlanishiga qaratilgan barcha jihatlarni qamrab oladi. Bu qarashlar ilohiyot nuqtayi nazaridan

o'rtacha qo'yilsada ular kishilarning turmush tarzlari, oilaviy munosabatlari talabidan kelib chiqqanligi uchun ham kundalik turmushga muvofiqdir. Islomda oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari ham ko'rsatib o'tiladi. Bu xususiyatlar musulmonchilik talablaridan kelib chiqqan bo'lib, insonni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash haqidaga umumiyl g'oya bilan bog'liq. Musulmon oilalarida kuyov va kelinning avlod-ajdodlarining kelib chiqishini o'rganish, jismoniy va ma'naviy poklikga e'tibor berish an'anaga aylangan. Islomiy ma'naviyatda bolani oilada axloqiy tarbiyalash haqidagi qarashlar insoniylikga, ezgulikga va yaxshlikga da'vat etgan uchun ham umuminsoniy mazmunga egadir. Shunga ko'ra, islom musulmonlariga xos bo'lgan diniy qadriyatgina bo'lib qolmasdan, balki umuminsoniy qadriyatdir. Milliy mustaqillik natijasida dinga va diniy qadriyatlarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi va u oilada bolalarmi axloqiy tarbiyalashning muhim omillaridan biriga aylanib, oilada tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.

5.1. Sharq mutafakkirlari merosida oila va oilaviy tarbiya masalalari

Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari islom mafkurasi va uning qobig'ida shakllangan. Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy g'oyalar islomiy ma'naviyat bilan hamohangdir.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berganlar. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr al-Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Koshg'ariy,

Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o'rtaqa qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Oilada bola tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjuddir. Uning aytishicha, «Ota-onalar ikki xil: tug'ilish otasi va ta'lif berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli». Shunga ko'ra ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so'zлari anchayin ibratlidir: «Zamondan yaxshiroq ta'lif beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq ta'lif oladigan o'quvchini ko'rmadim». Uning bu so'zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta'sirini anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta'lif natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

Abu Rayxon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman axloqiy tushunchalarini insonning tabiatini bilan bog'laydi. Inson tabiatini esa, avvalo, oilada shakllanadi. Shunga ko'ra bola tarbiyasida ota-onasi ta'siri va namunali benihoya kattadir. Masalan, u ayollarga nasihat qilib, Abdulla ibn Jafar tilidan shunday deb yozadi: «Rashkdan saqlangin. U taloqning kalitidir. Eringga tez-tez tanbeh qilishni senga taqiqlayman. Chunki tanbeh nafrat uyg'otadi. O'zingni bezab yurgin. Buning uchun yaxshi vosita surmadir. Yana xushbo'y atirlardan foydalangin. Ularning ichida eng yaxshisi suvdir». Uning bu fikrlari bevosita oilada farzand tarbiyasiga ta-alluqlidir.

Beruniy tan va ruh pokligi masalasini ham o'rtaqa tashlaydi. Oilada tozalik, poklik va tartiblilik mavjud ekan, u yerda ma'naviy poklik ham bo'ladi. Bu fikrni-tanani toza

tutish bilangina cheklab bo‘lmaydi, balki ko‘p harakat qilishga chaqiradi. Bu harakat mehnat qilish demakdir. Uning qalb va harakat haqidagi fikri insonning tani bilan ruhi pokligini bir butunligi to‘g‘risidagi g‘oya bilan bog‘liqdir. Bu narsa bola tarbiyasi jismoniy sog‘lomlik bilan ma’naviy-axloqiy boylik o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlik haqidagi bugungi kun talabi bilan hamohangdir. Beruniy ota-onalarga qarata bolaning mo‘tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq g‘azablanishdan, qo‘rqish va hafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni xohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiriladi. Ota-onanining bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bola-xulq atvorining mo‘tadilligi natijasida tan va ruh sog‘lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab beradi. Beruniy bola tarbiyasida irsiyat muhit va tarbiya ta’sirini birdek muhim ekanligini ta’kidlab o‘tgan edi. Beruniy axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda yondoshadi. Axloqiylik yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash natijasida namoyon bo‘ladi va shakllanadi. Uning bu fikri o‘z davri uchun yangi va ilmiy bashorat edi.

Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali Ibn Sining ilmiy merosida ham muhim o‘rin egallaydi. U o‘zining qator asarlarida bolaning salomatligi, uning tarbiyasi haqida, eng muhimmi bola ruhiyatini o‘rganish borasida ko‘plab qimmatbaho fikrlarni yozadi. Ularning hammasi bir butun bo‘lib, muayyan pedagogik qarashlar tizimini tashkil etadi va u ma’naviy-axloqiy barkamol insonni shakllantirish haqidagi g‘oyaga borib taqaladi. Ibn Sinoning «Tadbiri al-manozil» nomli asarida katta bir bob oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag‘ishlangandir.

Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo'lib, uni bolaning yoshligidan boshlab va izchillik bilan olib borish lozimligini uqtiradi. U ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib, «Alla» ikki vazifani bajaradi, deydi. Birinchisi, uni tebratish orqali bolaga jismoniy orom bag'ishlanadi; ikkinchisi, beshikni bir maromda tebratishdan onaning mehri jo'sh uradi, bolasiga bo'lgan muhabbatidan onaning orzu umidi yurak to'ridan silqib chiqadi. Bu o'ziga xos qo'shiq bolasi uchun qasidadek yangraydi va u farzandining murg'ak qalbiga singib boradi. Shu tarzda bolada o'zi ham angloimagan holat paydo bo'ladi. U asta-sekin bu yorug' olamni anglay boshlaydi. Ana shu anglashdan o'rganish boshlanadi. Xuddi shu o'rganish tarbiyalanishdir. Zotan o'rganish sezishdan kelib chiqadi. Ibn Sino ana shu holatga e'tiborini qaratib, «Yosh bolaning sezgirlik quvvati katta odamga teng keladi», degan fikrni bildiradi.

Ibn Sino bola tarbiyasida oila boshlig'i otaning roliga alohida e'tibor beradi. «Agar oilada – deydi u, oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda bundan yomon natijalar kelib chiqishi mumkin». Bola yaxshi yo'lga qo'yilsa, oila baxtli bo'ladi. Oilaning eng muhim vazifasi bola tarbiyasi hisoblanadi. Ota-oná kim bo'lishidan qat'iy nazar, bu vazifani mas'uliyat bilan ado etishi lozim. Ibn Sino «tadbiri al-manozil» asarida er va xotinning yaxshi sifatlarini sanab o'tadi. Ularning shaxsiy namunalari bola uchun o'mak bo'lib, kelajak taqdirini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida uqtiriladi.

Ibn Sino oilada bolani ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda mehnatsevarlikning roliga alohida urg'u berib, ota-onalarni farzandlariga nisbatan kasb-hunar o'rgatishga chaqiradi.

Mehnatni ulug'laydi. Mehnatsiz hayot kechirishning bolaga bo'lgan salbiy ta'sirini ko'rsatib beradi.

XI asrda yashab ijod etgan mutafakkir Yusuf Xos Hojib o'zining «Qutadg'u bilig»da bola tarbiyasi haqida to'xtalib, shunday yozadi: «Farzand qanchalik bilimli, aqli-xushli bo'lsa ota-onasining yuzi shunchalik yorug' bo'ladi». U bola tarbiyasida otaning mas'uliyatiga alohida e'tibor beradi. «Kimning o'g'il-qizi erka bo'lsa, deb yozadi u unga shu kishining o'zi mungli bo'lib yig'laydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo'ysa bolada gunoh yo'q, barcha jafo otaning o'zida; o'g'il-qizning xulq-atvori yaramas bo'lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo'ladi. Ota bolalarini nazorat qilib, turli hunarlarni o'rgatsa, ular ulg'aygach, o'g'il-qizim bor deb sevinadi; o'g'il-qizga hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe'l-atvorlari go'zal bo'lsin». Yusuf Xos Hojib o'z asarida shunday fikrlarni o'rtaga tashlaydiki, ular bola tarbiyasi uchun madhiyadek yangraydi.

Yusuf Xos Hojib bolalar tarbiyasini juda murakkab jarayon deb tushunadi. U beldan madorni, tandan quvvatni, ko'zdan nurni, dildan oromni talab qiladi. Uning ta'kid-lashicha, agar insonning o'zida go'zal fazilatlar bo'lsa, ularni boshqalarga o'rgatishi lozim. Lekin odob-axloq, rasm-rusm odat va prodani hosil qilish uchun zo'r kuch va harakat kerak bo'ladi. Bu narsa ta'lim-tarbiya natijasida paydo bo'ladi. Uning bu tarzdagi pedagogik qarashlari bitta asosiy masalaga borib taqaladi. Bu barkamol inson masalasidir. Inson, uning mohiyati, jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy vazifasi mutafakkir tomonidan turli jihatlarda tahlil qilinadi. Odam bolasi bu yorug' olamda ezunglik qilish uchun yaratilgan. Shunga ko'ra uni tarbiyalashdan maqsad uning ongiga odamlar uchun yaxshilik qilish tuyg'usini singdirishdan

iborat. Bu oliyjanob vazifani bajarish esa ota-onaning zimmasidadir.

Sharqda keng tarqalgan pandnoma tarzida yozilgan mashhur asarlardan biri Unsurul maoliy Koykovusning «Qobusnama»sidir. Bu asar Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o'rinni egallaydi va qanchadan-qancha avlodlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'z hissasini qo'shib kelmoq da. «Qobusnama» falsafiy didaktik asar bo'lib, shaxs shakllanishining barcha tomonlarini o'z ichiga oladi. Uning «Farzand parvarish qilmoq zikrida» degan bobi bevosita oiladagi bola tarbiyasiga bag'ishlanadi. «Qobusnama»da ota-onaning qator vazifalari sanab o'tiladi. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) bolaga yaxshi ism qo'yish;
- 2) oqil va mehribon enagaga topshirish;
- 3) to'y-tomosha qilib, sunnat to'y o'tkazish;
- 4) o'qish – yozishni o'rgatib, kasb-hunar va ilmlı qilish;
- 5) harbiylar ahlidan bo'lsa, sipoxiylikni o'rgatish.

Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borish lozimligini ta'kidlaydi. «Yosh bola ilm bilan odobni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqtigil. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o'g'lingni ko'nglidagina qolmasin».

Kaykovusning «Qobusnama» asari bugungi kunda ham axloqiy qadriyat sifatida yosh avlodni ma'naviy axloqiy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Oilada bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosida ham munosib o'rinni egallaydi. Uning fikricha, jamiyatning yetukligi, uning taqdiri va

kelajak yoshlari kamoloti bilan bog'liqdir, shunga ko'ra bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan oliyjanob vazifadir, deydi.

A.Navoiy ota-onalarning yaxshi sifatlarini ulug'layi. Bunday sifatlarning ularda jamuljam bo'lishi bola tarbiyasida muhim rol o'ynashini ko'rsatib o'tadi. Masalan, uning xotinlar haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: «Yaxshi xotin, deydi Navoiy – oilaning davlati va baxti uy egasining xotijam va osoyishtaligi undan husinli bo'lsa – ko'ngil ozig'i, xushmuomala bo'lsa jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi. U beandisha bo'lsa, ko'ngil undan ozor chekadi, yomonlik axtaruvchi bo'lsa, undan ruh azoblanadi. Agar mayxo'r bo'lsa, uy obodligi yo'q oladi, aqlsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi».

A.Navoiy oiladagi ayrim illatlarni va o'zaro kelishmovchiliklarni bola tarbiyasiga salbiy ta'siri va uning buzilishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar haqida ham yozadi. Yaxshi va yomon xulqlar va ularning kelib chiqishi sabablarini ko'rsatib beradi. Bolada paydo bo'ladigan yomon xulqlarni oldi olinmasa, bora-bora illatga aylanadi – deb uqtiradi.

Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'ldiki, sharq mutafakkirlari o'zlarining pedagogik qarashlari bilan o'z davrlaridan ancha ilgarilab ketganlar. Ularning bu qarashlari bir necha asrlardan beri ajdodlarimiz tafakkurini boyitib kelmoqda va hozirgi kunda ham ular o'z qiymatini yo'qotgani yo'q, ular bizning ma'naviy qadriyatimizdir. Shunga ko'ra mutafakkirlarning o'llmas merosi oilada bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyalashning muhim omili bo'lib q oladi.

O'zbekistonning milliy mustaqillikka erishishi va hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, tarixiy va ma'naviy o'zgarishlar jamiyatimiz ijtimoiy

hayotida mazmunan boy ishlar qilindi. Yurtboshimiz I.A.Karimovning tashabbuslari bilan 1998-yilni «Oila» yili deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konsti-tutsiyasining 63-moddasida «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» deyladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov va hukumatimiz oilani jamiyat negizi sifatida bilib, unga nisbatan g'amxo'rlik qilmoqda, uning moddiy-maishiy ravnaqi uchun butun imkoniyatlarni ishga solmoqda. Jumladan, yurtboshimiz, oilaning jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati to'g'risida shunday deydi: «Bola tug'ilgan kundan boshlab, oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhim farzandlar oйлавиҳ hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi his etadi». Bu o'rinda ilgari surilayotgan pedagogik g'oyaning tub mohiyati oila tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, mustahkamlash, yanada chuqurlashtirish bilan bog'liqdir. Oila tarbiyasi deganda ota-onas, oiladagi katta kishilar, buvabuvilar, aka-opalar tomonidan bolalarning to'g'ri milliy axloq-odob normalari asosida tarbiyalanishini tushunish lozim. Zotan yeti-shishi ota-onas, aka-opas va boshqalarining o'zaro muomala munosabatlariga xulq-atvoriga bog'liq. Xalqimiz: «qush uyasida ko'rganini qiladi» deb bejiz aytmagan.

Oila tarbiyasi kabi katta mas'uliyat birinchi navbatda ota va ona zimmasiga tushadi. Shu o'rinda bir narsani alohida aytish kerakki, bolalar tarbiyasida asosiy ta'sirchan kuch-qudrat bu – Onadir. Ota ko'pchilik xalqlarda oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirish va ta'minlash, qolaversa oilaning xo'jalik ishlari bilan band bo'ladi. Bu o'zbek oilalarining tarixidan ma'lum bo'lgan haqiqat va ota-

bobolarimizdan maros bo'lib qolgan an'anadir. Shunga ko'ra bola bilan ko'proq ona birga bo'ladi. Axir xalqimiz: «Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi» deb bejiz aytmagan. Yuksak axloq-odob aqidalari bola ruhiga ko'proq ona suti bilan kiradi.

Oila tarbiyasida to'g'ri yoki egri o'sishga bog'bon mehnati va mahoratiga bog'liq. Egri o'sayotgan niholning qaddini rostlab qo'ymasa, u noto'g'ri o'sadi. Yangi tug'ilgan go'dak tarbiyasi bilan shu yosh nihol holati o'rtasida qandaydir o'xhashlik mavjud.

Bundan ko'rinish turibdiki, axloq-odobning normalari – kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, halollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik va shu kabilar oiladan boshlanadi. Bu zikr qilingan pedagogik falsafiy tushunchalar oila rahbarining dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqdir. Deylik, dehqon dunyoqarashi uning halol mehnat qilib, dastlab oila to'kinligi so'ng xalq farovonligini ta'minlashda ko'rindi. Uning barcha faoliyati shu oliyanob tuyg'u bilan uyg'unlashgan. Bu oilada bola mehnatsevarlik ruhida tarbiyalanadi. Turmushning hamma qirralari mehnat bilan ravshanlashadi. Zotan mehnatkash inson har sohada o'z yo'lini topa oladi.

Oilada bolaga ma'naviy axloqiy tarbiya berishning asosiy maqsadi ularda axloqiy fazilatlarni hosil qilish va ularni rivojlantirish, ularni yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, ularda ijobili xatti-harakatlar ko'nikma va odatlarni vujudga keltirishdan iborat.

Axloqiylik oiladan boshlanadi deb yuqorida ko'rsatib o'tdik. Inson dunyoga kelishi bilan o'zini o'rab olayotgan muhitni ta'siriga tushadi, atrofdagi voqealarni hodisalarga bog'liq bo'ladi. Chaqaloq gapira olmaydi. Bu tabiiy holat. Ota-onalarimiz bobomomolarimizdan, biz esa ota-onalarimiz-

dan, farzandlarimiz esa bizdan o'rganadilar. Avlodlar vorisligi ham ana shundan kelib chiqadi. Tarixiy tajriba shuni ko'r-satadiki, avlod-ajdodlarimiz axloqiy fazilatlarni bir-birlariga o'rgatib, bir-birlaridan o'rganib kelgan. o'zbekona, milliy axloqda ota-bobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sino-vidan o'tgan saboqlari va bizga doim madad bo'lib turgan ruhiy quvvatlari jamuljamdir. Ularning sharofati ila milliy-axloqiy qadriyatlarimiz asrlar osha avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Chunki, bir tomchi bo'lsa ham ularning qoni tomirimizda oqayotir. Ana shu qonni jo'sh urdirmoq bilan yuraklarimiz uyg'oq, dillarimiz ravshan, tafakkurimiz munav-var. Ana shunday kayfiyat bizning dilimizda ko'p yillardan beri yashirinib kelar edi. Endilikda milliy istiqlo'l tufayli milliy-axloqiy qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi. Ulardan bolalarni ma'naviy – axloqiy jihatdan tarbiyalashda foyda-lanish oilaviy tarbiyamiz uchun obyektiv pedagogik zaruriyatga aylandi. Birgina misol: o'zbeklarda «har bir avlod o'zining yetti pushtini bilishi kerak» degan odat bor. Buning zamirida nasli-nasabning tozaligi va pokligini saqlashga da'vat bor.

Sohibqiron Amir Temur o'z tuzuklarida yozadi: «Kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim . . . sog'liq . . . jismonan kamolotini aniqladim . . . barcha qusurlardan holi bo'lsagina . . . kelin tushirdim». Bu so'zlarda o'z qonining tozaligini saqlash uning aynishiga yo'l qo'ymaslik va uni oldini olishga intilishini ko'rish mumkin. Zero, qondagi ruhdagi aynish – millatning ming yillik qadriyatlarni nobud qilishi mumkin.

Xalqimizda shunday axloqiy qoidalar mavjudki, ular o'zbekligimizni namoyon qilib, qadrimizni boshqa xalqlar

oldida ko'tarib turadi va milliy o'zligiga xosligi bilan ajratib turadi. Oilada bolaning ongiga go'dakligidanoq o'zgalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish, jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustuvor ekanligini uning ongiga singdirib borish muhimdir. Oilaviy tarbiya mahorati bolada uni o'rab turgan dunyoni fuqaro va vatanparvar sifatida ko'rish va anglab yetishni o'rgatishda ko'rinadi. Toki, bola o'z atrofida, o'z yonida bo'layotgan voqeа va hodisalarga befarq qaramaydigan bo'lsin, bolaligidanoq boshqalarning quvonchi va tashvishiga sherik bo'lsin, ko'nglidan o'tkazsin. Shunda boladagi fuq arolik hissi axloqiy qadriyat sifatida uning ta-biatiga singib ketadi.

Fuqarolik hissini bola ongida shakllantirish, uni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning bugungi kungi asosiy mezoni bo'lib qolayotganligini to'la his qilish oilaviy tarbiyada muhim ahamiyatga egadir.

5.2. Oilada bolalarni axloqiy tarbiyalash omillari

Oilada shaxsni axloqiy shakllantirish bolaning tug'i-lishidan boshlanadi. U ko'pgina omillar ta'sirida tarkib topadi. Bu omillar oilaviy munosabatlar xarakteri, ota-onalarning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi hamda ularning pedagogik madaniyati va nihoyat oilaviy hayotning tashkil etilishidan iborat.

Bu omillar oilada bolani axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular bir qator peadagogik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Ayrim oilalarda bolalarning tarbiyasi faqat onalar zimmasida, ota esa bu ishdan o'zlarini chetga oladilar. Go'yo farzandlarini bog'cha, maktab tarbiyalab berishlari shart.

Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, qadimdan o'g'il bolalar tarbiyasi bilan otalar, qiz bola tarbiyasi bilan onalar shug'ullanganlar, ammo ular asosan erkaklar nazoratida bo'lgan.

2. Ota-onalar bolalarga birdek munosabatda bo'lishlari, bir xil mehribon va g'amxo'r, talabchan va qattiqqo'l bo'lsalar bolalar hayoti butun va mukammal bo'ladi. Biri talab qilganda, ikkinchisi yonini olsa tarbiya buziladi. Bolalariga haddan tashqari mehribonchilik qilayotgan ota-onalar ularni hurmat qilishdan oldin, o'zlarini ham hurmat qilishni o'rgatishlari zarur.

3. Ko'pgina ota-onalar bolalarini tarbiyalash borasida o'z vazifalari va burchlarini to'la his qilmaydilar. Boshqa-charoq aytganda ularda pedagogik tayyorgarlik yetishmaydi. Zotan oilaviy tarbiya, avvalo, ota-onalarning o'zlarini-o'zları tarbiyalash demakdir. Chunki bola ayni paytda ta'sir obyekti va subyektidir. Biroq ota-onsa bola ana shunday obyekt ekanligini sezmasligi uchun harakat qilishi kerak. Ammo barcha ota-onalar ham buni tushunib yeta olmaydilar.

4. Oila hayotini to'g'ri tashkil qilish, oilada sog'lom axloqiy muhitni yaratish lozim. Bu ishda hech qanday mayda-chuydalar bo'lmasligi kerak. Har bir narsa bolaga ta'sir qiladi. Ana shu ta'sir natijasida salbiy yoki ijobiy odatlar, turlicha xulq-atvorlar paydo bo'ladi. Ota-onalarning har bir xatti-harakatini bolalar kuzatib turadi. Shuning uchun bolaga u yoki bu ishni qil yoki qilma deb nasihat qabilidagi o'rgatish yo'li bilan tarbiyalayman, deb o'yamaslik kerak.

5. Har bir ota-onsa bolasini barkamol inson bo'lishini istaydi. Farzandini ana shunday inson bo'lishidan nafaqat ularning o'zi, balki jamiyat ham manfaatdir. Ota-onaning fuqarolik burchi ham shuni taqozo etadi. Shunga ko'ra har bir

ota-onalarning butun hayoti, ularning fuqarolik qiyofasi, ma'naviy dunyosi bola tarbiyasining negizini tashkil etadi. Zotan, ota-onalarning o'zlarini tarbiyalayotganini unutmasligi lozim.

6. Ota-onalarning shaxsining o'zi bola tarbiyasida muhim rol o'yynaydi. Ularning oqilona o'gitlari, pand-nasihatlarining hech biri, ularning shaxsiy namunasi o'rmini bosa olmaydi. Bolalarining axloqiy fazilatlarini tarkib topishida, oiladagi o'zaro ahllik, halollik va rostgo'ylik, o'zaro ishonchning mavjudligi, umuman sog'lom axloqiy muhit muhim ahamiyatga ega.

7. Oilada bolalarni sevish, ularning shaxsiyatini hurmat qilish va hech qachon ularni izzat-naffsiga tegmaslik zarur. Bunday jazolash usuli bola nafratini kuchaytiradi. Har qanday g'amxo'rlik talabchanlik bilan olib borilgani maqsadga muvofiqdir.

8. Har bir oilada uning o'ziga xos bo'lgan an'analarini mavjud bu an'analar bola ongiga, uning xulq-atvoriga juda kuchli ta'sir qiladi. Masalan: oila a'zolarining tug'ilgan kunlarini o'tkazish, qarindosh urug'lar holidan xabar olish va hokazolar.

9. Bola tarbiyasida ota-onalarning ishxonasidagi, mahalla va qo'ni-qo'shnisi oldidagi obro'yi ham katta rol o'yynaydi va bolalarida ularga nisbatan faxlanish hissini uyg'otadi. Ular shu ruhda tarbiyalananadilar.

Shunday qilib, oilaviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari va ta'sir qilish omillari mavjud. Bularni hisobga olmasdan turib, bola tarbiyasini oilada yaxshi yo'lga qo'yish mumkin emas. Buning uchun, avvalo, ota-onalarning o'zlarini tarbiyalangan bo'lishlari lozim.

Ota-onalarning butun hayoti, ularning fuqarolik qiyofasi, ma'naviy dunyosi bola tarbiyasining negizini tashkil etadi. Zotan, ota-onalarning bolalari uchun aziz va muqaddas kishilardir.

Shu ababli ularga taqlid qiladilar, ularga o'xshashga intiladilar.

Oiladagi tarbiyani yuqoridagi xususiyatlarini hisobga olish, bolani axloqiy jihatdan tarbiyalashda, milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanishning mohiyatiga, uning o'ziga xosligi va ahamiyatini tahlil qilishga yordam beradi.

Milliy mustaqillik sharoitida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar tabiiy ravishda va qonuniy tarzda xalqning ravnaqiga yo'l ochdi, mustaqillikni mustahkamlashga samarali ta'sir ko'rsatdi. Natijada, bu tarixiy jarayonlar oilada bola tarbiyasida ham o'z aksini topa boshladi. Buning uchun ota-onalarning o'zida milliy qadriyatlarga nisbatan munosabat o'zgarmog'i lozim. Ular bolalarini ota-bobolarining pandasihatlari, o'gitlari, tajribalari asosida eng yaxshi va oliyanob an'analar ruhida tarbiyalab kelganlar.

Ularning dono fikrlari, turmush saboqlari davrlar g'alviridan o'tib, saralanib bizgacha yetib kelgan. Lekin hozirgi kunda o'zbek oilalarida bola tarbiyasi borasida salbiy holatlarni uchratish mumkin. Masalan: ayrim ota-onalar farzandlarini bemehrligidan nolishadi. Yomon yo'lga kirib ketgan farzandlari xususida ko'pchilik ota-onalarning fikrlari bir xil: «o'z bilganidan qolmaydi, hurmat qilishni bilmaydi». Xo'sh, o'sha bemehr bolaning otasi yoki onasini tarbiyali desa bo'larmikan? Ishdan so'ng, dam olish kunlari ota choyxonada, ona mehmondorchilikda bo'lsa. Ayniqsa, ota ham ona ham «ishbilarmonlik»ga sho'ng'ib ketib, go'yo bola haqida tinmay qayg'urib, boshini har eshikka urayotgan bir paytda, oilada bola tarbiyasi bilan kim shug'ullanadi?

Tarbiyasi og'ir bolalarini ko'payib borayotgani sir emas. Buni kelib chiqishini ichki va tashqi sabablari mavjud. Ota-

onasi, qarindosh-urug'i bo'la turib, gohida bolalar «bolalar uyi»ga topshirilmoqda. Qachondan beri bizning xalqimiz «bolalar uyi» degan atamani qo'llay boshladi?

«O'nta bo'lsa o'mni boshqa» deya bir etak farzandni tarbiyalab voyaga yetkazgan ota-bobolarimizning siri nimada ekan?

Ko'p bolali bo'lish, bolajonlik qilish o'zbeklarga xos milliy xususiyat hisoblanadi. Bugungi kunda ana shu milliy xususiyat kelajak avlodni axloqiy jihatdan tarbiyalashda juda qo'l keladi. Negaki oilada aka-ukasini, opa-singlisini yetaklab katta qiladi, bilganini o'rgatadi. O'sib ulg'ayganlarida esa bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, bir-biriga yordam beradi. Shaxsda jamoatchilik hissini shakllantirish ana shu ko'p bolali oilalardan boshlanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'p bolali oilalarda ko'pincha mehnatsevar, o'zaro inoq va aqli-xushli, axloq-odobli farzandlar o'sar ekan.

Keyingi vaqlarda jamiyatimiz hayotida ayrim salbiy holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Afsuski, bugungi bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan serg'alva sharoitda ayollarimizning ma'lum qismi, tog'ni o'rsa talqon qilgudek erlari uylarida turib, «ishbilarmonlik» bahonasi bilan shaharma-shahar turlituman ashyolarni sotib yurishmoqda. Hatto sarson-sargardon bo'lsalar ham ayrim xorijiy mamlakatlarga ham «sayohat» qilib, borib kelayaptilar. Ularning ayrimlari yengil-yelpi yo'l-larga kirib ketayapdilar. Bu bilan o'zbek ayollari nomiga isnod keltirmoqdalar.

Ayrim ayollarimiz «gap» o'ynashib, tonggacha maishatga berilib ketayotganliklari, mehmonxonalar atrofidagi yengil oyoq ayollarning qilmishlari jamiyatimizni ma'naviy-axloqiy muhitini buzmoqda. Ana shunday yengil-yelpi hayot kechirish – «ishqi» bilan yashayotgan bunday ayollarning uylarida

qolgan farzandlarining tarbiyasi nima bo'ladi? Murg'ak qalbi, jajji vujudiga nopolik, xaromxo'rlik ilk bor ona suti bilan birga kirgan begunoh go'daklar kelajakda sog'lom fikrli, ma'naviy-axloqiy inson bo'ladilar deb hech kim kafolat bera olmaydi.

Ana shunday «yumushilar» bilan band bo'lgan ayollarimiz kasofati tufayli gulday oilalarning buzilib ketishi, g'aribxona hamda yetimxonalarining ko'payishi, ayollarning onalik huquqidan mahrum bo'lishi, mayib-majruh, aqlan va jismonan nosog'lom, nogiron farzandlarning dunyoga kelishi kabi hollar sodir bo'lmoqda.

Bola tarbiyasini o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Agar shunday qilinsa uning kelajagi barbod bo'ladi. Shaxsning ma'naviy tubanlashuvi nafaqat uning butun surriyotiga, balki yon-atrofdagi nosog'lom muhitni paydo bo'lishiga olib keladi. Chunki har qanday odam o'z naslining davom etishi ko'p jihatdan farzandlariga ham bog'liq ekanligini yaxshi biladi. Unga ijobiy ma'noda katta ahamiyat berilishi esa farzandlarning salbiy ta'sirlarga berilib ketishining oldini oladi.

Har bir ota-onaning obro'si ma'lum bir ma'noda farzandlarining kamolotiga ham bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra oilani mustahkamlashga astoydil kirishgan va o'z naslini pok saqlagan millatnigina istiqboli porloq bo'ladi. Ta'lim-tarbiya ishlariga jiddiy e'tibor bermagan jamiyat, oila oxir oqibatda ma'naviy qashshoq bo'lib qolaveradi.

Urf-odatlarimizga ko'ra oq harir libosda «yor-yor» sadolari ostida boshqa bir xonadonga farzand bo'lib, kelayotgan qiz hayo, ibo, iffat, nomusi bilan kelmog'i zarur. Shu bilan birga u ota-onadan ro'zg'or yuritish, oila tutishning o'ziga xos siru asrorlaridan ta'lim olmog'i ham kerak. Qiz bolaning

baxti uning axloq odobi mevasidir. Shirin so'zlik, samiylik, sermulohazalik, go'zal xulq, yaxshi muomala, sarnjom-sarishtalik qiz bolaning ko'rkidir. Uning ko'rkiga ko'rk qo'shuvchi, odamiylik fazilatlarini zebo qilib boruvchi ota-onadir. Ota-onaning pand-nasihatlarini dillariga jo qilgan yigit-qizlar hayotda qoqlimaydilar, qiyinchiliklarga sabrli, bardoshli bo'ladilar. Ularning kelgusi hayot yo'llari ham porloq bo'ladi.

Bir kuni Luqmoni hakim o'tib ketayotsalar, bir ona qiziga nasihat qilib, yaxshi odatlarni o'rgatayotgan emish: «qizim sen ham balog'at yoshiga yetib qolding. Ertaga birovning xasmiga borasan, menikiga esa mehmonga kelasan, xolos. Sen yaxshi hayot kechiraman, obro' e'tiborli bo'laman desang, qaynonangni hurmat qil. Hammadan erta tur! hammadan kech yot! qo'ling egri bo'lmasin, boshinga qilich kelsa ham rost gapir. Yolg'onchi, chaqimchi, ikkiyuzlamachi, g'iybatchi bo'lma, qo'lingdan keladigan xizmatingni ayama, kelgan mehmonni izzat-hurmatini joyga qo'yib kuzat. Oila a'zolaringni birovga yomonlama, ziyrak, dono, aqli bo'l! Kuyovingni hurmatini joyga qo'y, ko'chadan kelganida kutib ol! Ketganida kuzatib qo'y. Boriga shukur qil, sabr-toqatli chidamli bo'l! Salomni kanda qilma. Shundagina baxt sening yo'ldoshing, g'am-tashvish esa kundoshing bo'ladi» debdi. Shunda Luqmoni hakim «Ona ko'rib qizolqirg'oq ko'rib bo'z ol!» deganlari shu bo'lsa kerak deb, yo'llarida davom etgan ekanlar.

Xulosa qilib aytganda, farzand ko'rib, ularni tarbiyalab, kishilarga, jamiyatga halol va fidoiyarcha xizmat qilishga qadar shaxslarni shakllantirish har bir ota-onaning ijtimoiy, ma'naviy burchi sanaladi.

Oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning usullarini xalq pedagogikasida manbalaridan o‘rganishimiz lozim. Jumladan, tushuntirish, namuna ko‘rsatish, odatlantirish, iltimos qilish, tilak-istik bildirish, yolvorish-iltijo qilish, maslahat berish, ko‘ndirish, undash, ma’qullah, rahmat aytish, duo qilish, olqish, ta’na qilish, koyish, qarg‘ash, qo‘rqtish, uzr so‘rash, la’natlash, so‘kish, urish, kaltaklash kabilar. Lekin insonni axloqiy tarbiyalashda eng kuchli tarbiyaviy vosita sifatida o‘git-nasihat, ibrat ko‘rsatish, ma’qullah va maqtash, mukofotlash kabilardan foydalanish samarali natijalar berishi kuzatishlardan ma’lum. Xalq pedagogikasi materiallarida uchraydigan axloqiy tarbiya vositalari ichida:

- 1) bolalar o‘yinlari;
- 2) choyxo‘rlik – choyxona gurungi;
- 3) bolalar gapi – gap – gashtak;
- 4) bolalarni kattalar bilan birgalikda.
 - a) to‘y marosimlari – beshik to‘yi, sunnat to‘yi, nikoh to‘yi, hovli to‘yi;
 - b) sayllar – dala sayli, gul sayli, qovun sayli;

d) yig‘in tomosha, tug‘ilgan kunni nishonlash, yigit bazmi, qiz bazmi, kelin salom, uloq , poyga, kurash;

- e) aza ma’rakasi;
- f) safarga chiqish;

Kabilar haqida bolalarga ma’lumot berish va ana shu vositalar asosida farzandlarimizni axloqiy tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Chunki bolaning ijobiy yoki salbiy xattiharakati ko‘pchilikning ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi va ular tomonidan baholanadi. Bir qancha ota-onalar ham o‘z o‘g‘il-qizlarini to‘y-hasham va ma’rakalarga aralasha boshlaganidan keyingina ulardan salbiy yoki ijobiy sifatlarni pay-

qay boshlaydilar. Bunday hol ota-onalarning bolalariga sindirilgan tarbiyalariga xulosa yasashga yordam beradi.

Oilada bolalarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda qo‘l-laniladigan eng xarakterli usullardan biri, xalq donishmandlarining axloq va odob yuzasidan aytiladigan hikmatli so‘zлари, maqollari, u yoki bu ertak orqali hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo sifatida ishlatilishidir. Aniqrog‘i axloq-odob masalalariga bag‘ishlangan xalq maqollarining naqadar hayotiy ekanligini ma’lum ertak orqali aytib berilishidir.

Ko‘pchilik ertak, dostonlarda ota-onan va keksalarning tur mush tajribalarini ifodalash bilan birga yoshlarni unga bevosita amal qilishlariga undaydigan maslahat va pand-nasihatlar ham asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Masalan: «qarosoch pari» ertagida ona o‘z o‘g‘li Nodirni safarga jo‘natishdan oldin shunday deydi: «Mening uch nasihatimni esingdan chiqarma, birichisi — birovga xiyonat qilma, ikkinchisi — birovning dilini og‘ritma, uchinchisi — qaysi shaharga borma, eng avvallo, o‘sha shaharning qariyalari bilan suhbatlashib ish qil», mazmunida nasihat qiladi. Nihoyat ona nasihatiga amal qilgan farzand bir umrga murod-maqsadiga yetib yashaydi.

Xalq og‘zaki ijodiyotining barcha janrlarida bolani atrofidagi kishilarga yordamlashish, hamdardlik qilish ruhida tarbiyalash g‘oyalari o‘rtaga tashlanganini ko‘ramiz. O‘zbek xalqi o‘rtasida kundalik ehtiyojga aylangan amaliy san‘at turlaridan o‘ymakorlik-yog‘och, ganch va mis o‘ymakorligi, zargarlik, zardo‘zlik, kashtado‘zlik, kulolchilik, milliy liboslarni tikish kabilar o‘zbek oilalarida birinchidan, moddiy ehtiyojni qondirish bo‘lsa, ikkinchidan, farzandlarni mehnatga o‘rgatishda, bo‘sh vaqt dan unumli foydalanishni tarbiyalashda muhim tarbiya vositasi sifatida foydalanib

kelingan. Tajribadan ma'lumki, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy musiqa, qo'shiqlar muhim o'rinni egal-laydi. Chunki barchaga ayonki, musiqa tarbiya manbayidir. Masalan: alla o'zbek xalqining qadimiy, muhim tarbiyaviy xarakterga ega bo'lgan qo'shiq turlaridan biridir. Ona allasidan bahramand bo'limgan bola qalbida ota-onaga, vatanga nisbatan mehr-muhabbat hissi bo'lishi qiyin. Alla aytmagan yoki alla eshitib katta bo'limgan qiz bola bo'lmasa kerak. Alla tinglab katta bo'lgan boladan ota-onaga nisbatan o'zgacha muhabbat, hurmat hissi shakllanadi. Keksalarning aytishicha, san'at insonlarni yovuzlikdan saqlab qolar ekan.

Ota-bobolarimizdan meros qolgan chiroyli va ramziy ma'noga ega bo'lgan urf-odatlarni bilish, bevosita ularda ishtirok etish va aynan ana shu urf odatlarning o'tkazish tartibini bilish yoshlarni ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Bunday malaka va ko'nikmalarni yoshlarda tarkib top-tirish vazifasi, avvalo, ota-onaga oilaga yuklatiladi. Oilada ota-onalar farzandlariga mehmonnavozlik malakalarini o'rgatish bilan birga, bevosita mehmonda o'zini qanday tutish, ovqatlanish, so'zlashuv odoblarini ham o'rgatib boradilar. Ayniqsa, ovqatlanish odobini o'rgatishlari juda muhimdirki, bu birinchidan, bolaning salomatligini ta'minlasa, ikkinchidan me'yorga qarab ovqatlanishga o'rgatadi, uchinchidan badnafslikdan qaytaradi, to'rtinchidan tejamkorlikga o'rgatadi. Shu bilan birga insonlarni axloqiy jihatdan tarbiyalaydi.

Xalqimizda bolalarni axloqiy tarbiyalashda dasturxon atrofi eng qulay joy sanalgan. Bu yerda katta yoshlilar farzandlariga pandnasihatlar qilganlar. Nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligi tushuntirilgan. An'anaga ko'ra ota-onsa nasihatlarina bajarmaslik katta gunoh hisoblangan. Otaga tik

boqma, oxirating kuyib ketadi, ota-onani rozi qilish kerak, deb bolani ongiga singdirib borilgan. Oxirgi o'n, o'n besh yillar ichida ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi munosabat buzila boshladi, keksalarni, ota-onalarни hurmat qilish zarurligi haqidaga qadriyatlarimizga e'tibor berilmay qo'ydi. Ayrim bolalar ota-onalaridan moddiy yordam ko'rayotganligi uchun «hurmat» qiladigan bo'lib qolishdi. Ota-onalarga nisbatan axloqsizlik qilish, ularni xo'rash, qarovsiz qoldirish hollari ham uchrab turibdi. O'zbek oilalarida bolani to'g'ri tarbiyalashda ularga axloq-odob qoidalarni tushuntirishda ota-onalar oldiga avloddan-avlodga o'tib qator talablar qo'yilgan:

- bolani hech kimga yomonlik qilmaslikga qo'lidan kelgancha yaxshilik qilishga ko'niktirish, uning ko'ngliga muruvvat tuyg'ularini solishga intilishni kuchli bo'lishi;
- bolani to'g'ri yo'lga yo'naltirib, o'zлari ham shu yo'ldan ketishlari; ota-onaning yaxshi odob, xulq egasi ekanligi, har bir xatti-harakatidan ko'rinish turishi, bolalarga namuna sifatida xizmat qilishi;
- yaxshi deb bilgan ishni o'zлari ishlab ko'rsatishlari va bu ishning yaxshiligiga bolani ishontirishlari;
- bolani tarbiya qiladigan ota-onaning o'zi to'g'ri so'zli bo'lishi;
- bolaning qilayotgan yaxshi ishlariga qarab, o'z darajasiga loyiq mukofotlash, xatoga yo'l qo'ysa tanbeh berish;
- bolalar ota-onasining yuzlaridagi norozilik alomatlarini ko'rib, uni jazo ekanligini bilsin, rag'batlantirish me'yorida bo'lishi kerak;
- bolaning oldida odillik bilan, ustozlarcha ish olib borish axloqiy tarbiyaning eng muhim asoslaridan hisoblanadi.

Umuman, oilada bolalarga axloqiy tarbiya berishda milliy an'analarini ota-onalar to'g'ri tushunib olishlari, qaysi an'analar qanday maqsad uchun hurmat qilishini yaxshi anglab yetishlari juda muhim. Chunki talqin etilgan an'analar, urf-odatlar mazmunini, avvalo, ota-onalarning o'zлари yaxshi o'zlashtirib, kundalik hayotda qo'llay olsalargina, farzandlariga uni ta'siri samaraliroq bo'ladi. Mana shu ma'noda oilalarda o'mashib qolgan, o'rganilgan, Res-publikamiz turmush tarzida eng ko'p qo'llanilayotgan an'analar bilan birga, butun mustaqillik sharoiti talablaridan ijobjiy samara berishi mumkin bo'lgan an'analaridan o'z xalqi va ona Vatani bilan faxrlanish, o'z Vataniga mehr-muhabbat bilan qarash, o'z Vatanining o'tmishi va tarixiga cheksiz hurmat, o'z xalqining milliy an'analarini e'zozlash, milliy ongi shakllangan, milliy e'tiqodli vatanparvarlarni tarbiyalash zarurdir.

Umuman olganda, tarbiya so'zi aytilishi bilan inson ko'z oldida oila namoyon bo'ladi. Zero, oila tarbiya maskanidir. Shunday ekan, ma'naviy-axloqiy tarbiya oiladan boshlanadi. O'zbek oilasining ma'naviyati – o'zbekning milliy g'ururidir.

Mavzuga oid test sinovlari

1. Bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olish tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarilishi lozim degan g'oyani kimlar ilgari surgan:

- a) Aflatun va Arastu;
- b) Geradat va Arastu;
- d) Safoki va Aflatun;
- e) Zardusht.

2. Eramizdan avvalgi 528–529-yillar orasida yaratilgan odob-axloq g‘oyalari ilgari surilgan asar nomini ko‘rsating?

- a) Temur tuzuklari;
- b) Qutadg‘u bilig;
- d) Avesto;
- e) Devonu lug‘otit turk.

3. Ma’naviy-axloqiy barkamol insonni shakllantirish oid g‘oyalari, fikrlar aks etgan «Tadbiri al-manozil» asari muallifi kim?

- a) Beruniy;
- b) Ibn Sino;
- d) Muso-al Xorazmiy;
- e) Yusuf Xos Hojib.

4. Kaykovusning «Qobusnama» asarida keltirib o‘tilgan ota-onaga qo‘yilgan vazifalar qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) Bolaga yaxshi ism qo‘yish;
- b) Oqil va mehribon enagaga topshirish;
- d) Sunnat to‘yi o‘tkazish;
- e) Barcha javoblar to‘g‘ri.

5. Qaysi qatorda Alisher Navoiyning oilada bola tarbiyasiga oid fikrlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) «Jamiyatning yetukligi, uning taqdiri va kelajagi yoshlar kamoloti bilan bog‘liqdir, shunga ko‘ra bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan oliyanob vazifadir»—deydi;
- b) «Bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borish lozim»—deydi;
- d) bola tarbiyasini murakkab jarayon deb ta’kidlab o‘tadi
- e) oilada bolani mehnatsevarlik roliga alohida e’tibor qaratadi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi bobi oilaga bag‘ishlangan?

- a) IV bob;
- b) V bob;
- c) VI bob;
- d) VII bob;

7. «Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega» yuqoridagi jum'lalar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida ko‘rsatib o‘tilgan?

- a) 66-moddasida;
- b) 65-moddasida;
- c) 64-moddasida;
- d) 63-moddasida.

8. Yurtboshimiz tomonidan nechanchi yili «Oila» yili deb e’lon qilindi?

- a) 1997-yil;
- b) 1998-yil;
- c) 1999-yil;
- d) 2000-yil.

9. Oilaning vazifalari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni ko‘rsating?

- a) reproduktiv, kommunikativ, ijtimoiy-iqtisodiy;
- b) kommunikativ, ijtimoiy-iq tisodiy, tarbiya;
- c) farzand ko‘rish, avlodlar davomiyligini ta’minlash;
- e) hammasi to‘g‘ri.

10. Oilalarning milliy va diniy tuyg‘ularini aks ettiruvchi bayramlar qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

- a) Mustaqillik bayrami;
- b) «Navro‘z», «Mehrison»;
- d) «Ramazon», «Qurban hayiti»;

e) b, d.

1	a		6	a
2	v		7	g
3	b		8	b
4	g		9	a
5	a		10	g

VI bob. O‘zbek oиласидаги урф-одат ва маросимлар

Har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida azaliy an’ana, urf-odat, marosim, bayramlar alohida o‘rin tutadi. Ular kishilar turmush tarzining o‘ziga xos hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi. «An’ana», «odat», «marosim» bevosita «bayram» tushunchasi bilan bog‘liq.

«An’ana» – tarixiy taraqqiyot jarayonida va ijtimoiy ehtiyojlar orasida vujudga keladigan, avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tadigan, kishilar ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatadigan madaniy hodisadir. An’ana o‘ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida majmuasi hisoblanadi. Xalq an’analari – uzoq taraqqiyot jarayonida etnoslarning ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, ularning aqliy-ijodiy faoliyati asosida, atrof-muhit, tabiat, mehnat jarayoniga bog‘liq holda avloddan-avlodga o‘tib, taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar fikri, orzu-o‘ylari, tajribalari, yutuqlari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan bebaho ijtimoiy-madaniy merosga aylangan.

Urf-odat kishilarning turmushiga singib ketgan, ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko‘nikmasidir. Masalan: kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-hovlini tartibga keltirish, mehmonlarga alohida hurmat ko‘rsatish, bayram arafasida keksa qariyalar, kasal ojiz, qiynalgan kishilar holidan xabar olish, qo‘ni-qo‘snilarni biror ishiga

yordam berish, hasharga borish kabilar o'zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi.

Urf-odat degan tushuncha psixologiyada ham mavjud bo'lib, u ma'lum sharoit ta'sirida vujudga kelib, kishining fe'l-atvorida mustahkamlanib qolgan va kiyinchalik o'z-o'zidan beixtiyor bajariladigan harakat ma'nosini bildiradi.

An'ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatining barcha sohalariga xos hodisa sifatida juda keng doirani qamrab oladi. Urf-odat esa muayyan bir kishining turmush tarzi xatti-harakati, xulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Marosim – inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanaladi. Masalan: ism qo'yish, nikohdan o'tish, dafn qilish, xotiralash, urug' qadash marosimlari.

Urf-odat kundalik hayotda kuzatilsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganida vujudga keladi. Marosim kishilar hayotidagi eng muhim voqealarni rasmiylashtiradi. Marosimlarni o'tkazishda avloddan-avlodga o'tadigan ramziy va rasmiy an'analar, qoidalarga amal qilinadi. Marosimga bo'layotgan voqeaga «guvoh» sifatida odamlar chaqiriladi. Odamlar kimningdir g'ami yoki quvonchiga sherik bo'lishadi, kelajak uchun yaxshi niyatlar qilishadi. Har bir marosimning o'ziga xos umum qabul qilingan tuzilishi bo'ladi. Inson hayotida bo'lib o'tayotgan muhim voqealarni nishonlash jarayonida an'ana ham, urf-odat ham, marosim ham mujassamlashadi.

Buni quyidagi bir misolda ko'rish mumkin: yoshlar voyaga yetganda yigitlar uylanadi, qizlar turmushga chiqadi. Bu avloddan-avlodga o'tib keladigan an'ana sanaladi. Yigit

va qizning oila qurishi uchun nikoh to‘yi o‘tkaziladi. Nikoh to‘yini o‘tkazish esa insoniyat hayotiga singib ketgan qoidaga ega bo‘lgan urf-odat hisoblanadi. Nikoh to‘ylarining asosiy shartlaridan biri kuyov va kelinning nikohdan o‘tishidir. Har bir davrda bu to‘y bilan bog‘liq o‘ziga xos urf-odatlar vujudga keladi. Masalan: hozirgi paytda maxsus bezatilgan mashinalarda ko‘chalarda yurish, guvohlar bilan baxt uyiga borish, kerakli hujjatlarga imzo chekish, nikoh uzuklarini almashish kabi odatlarga amal qilinadi. Bu rasmiy va tantanali ravishda o‘tagidan marosimdir.

«An’ana», «urf-odat», «marosim» bir-biri bilan bevosita bog‘liq hodisa sanaladi. Shu bois an’analarning tarkibiy qismi urf-odat, urf-odatning tarkibiy qismi esa marosim ham bo‘lishi mumkin.

Ba’zi holatlarda «an’ana», «odat» va «marosim» tushunchalari alohida ishlatsa, ular mavhum ma’noni anglatishi ham mumkin. Bunday paytda ularga aniqlovchi so‘zlar qo‘silib, masalan, «an’anaviy bayram», «mukofotlash marosimi», «to‘y marosimi», «nafaqaga kuzatish marosimi» tarzida qo‘llaniladi. Marosim so‘zi jamoatchilik ishtirokida o‘tkaziladigan katta tadbir ma’nosini bildiradi.

Eng qadimiy odamlarning turmushi bilan bog‘liq an’analar: to‘da bo‘lib yashash udumlari; sardorlik, oqsoqolik uchun olishuvlar; bolalikdan o‘spirinlikga; o‘spirinlikdan erkaklikga o‘tish marosimlari; turli ko‘rinishli dafn odatlari; qurbanlik marosimlari oila va to‘y marosimlarining poydevori bo‘lgan pomgam, egzogam, monogam odatlari kabilar ibtidoiy jamoa taraqqiyotida jiddiy rol o‘ynagan. Ular ibtidoiy odamlarning mashaqqatli hayotida erishilgan tajribalarni asrash va ko‘paytirishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Qadimiy odatlarni o'rganishda «Avesto» kitobi eng qadimiy manbalardan biri hisoblanadi. Zardushtiylik diniga xos odatlar hozirgi paytgacha ham saqlanib qolgan. Ular ichida eng kattasi Navro'z bayramidir. Kasallikni oldini olish yoki undan saqlanish uchun isiriq tutatish, tongda hovlini tozalash, yuvinish, o'choqga olov yoqish kabilar zardushtiylardan o'tib kelayotgan odatdir.

Oilaviy marosimlar oila paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Shu bilan birga o'zgargan rivoj topgan. Taraqqiyot, zamon talabiga javob bermagan odat marosimlar unitilgan. Ularning o'rnini esa oila ehtiyojlarini qoniqtiradigan yangi marosimlar egallagan.

6.1. O'zbek xalqining oilaviy marosimlari

O'zbek xalqining oilaviy marosimlari ham tarixiy zurrifiyat asosida vujudga kelgan va zamon chig'iriqlaridan o'tib, muhim ma'naviy qadriyat sifatida ravnaq topgan. Sho'rolar davrida har bir kishi yaxshi yashay olmasa, butun jamiyat ham yaxshi yashay olmasligi uqturiladi. Bu davrda asosiy e'tibor umum davlat ishlariga qaratildi. Shaxs, oila ehtiyojlari esa diqqat markazidan tushib qoldi. Jumladan, katta davlat bayramlari birinchi darajali, oilaviy – maishiy bayramlar ikkinchi darajali bo'lib qoldi. Xalqning asrlar mobaynida to'plangan bebahoyligi – shaxs va oila hayoti bilan bog'liq marosim va bayramlar unutila berdi.

Hozirgi paytda jamiyatimiz oldida shaxs, oila turmush tarzini yaxshilash va u bilan bog'liq oilaviy an'analar, urf-odatlar, marosimlarga e'tibor qaratish muhim muammo bo'lib turibdi. Xalqimizning avloddan-avlodga o'tib kelayotgan oilaviy marosimlari sho'rolar davrida jiddiy to'siqlarga

uchragan bo'lsa ham mustaqillikka erishilgandan so'ng ular qayta tiklana boshladı. Bu an'ana, urf-odat va marosimlar to'g'risida qator kitoblar chop etildi. Oilaviy marosimlar xalq ma'naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyati, ta'sirchan tarbiya vositasi sanaladi. Oilaviy marosimlar jaryonida namoyon bo'ladigan axloq-odob, mehr-oqibat kabi xislatlar yoshlar ma'naviyati shakllanishida muhim ahamiyatga eag. Xalq an'analari qadrlanadigan oilalarda tarbiya topgan yoshlar ibratli axloqi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bunday oilalardan jinoyatchi, bezori kishilar chiqmaydi. Shu bois xalq an'analari va oilaviy urf-odatlar yordamida yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, jamiyat asosini oila va uning a'zolari tashkil qiladi. Jamiyatning taraqqiyoti oila, shaxs rivojlanishi bilan belgilanadi. Marosim va bayramlar inson hayotining uzviy qismi hisoblanadi. Har bir kishining shaxsiy hayotida shunday muhim voqealar, bosqichlar mavjudki, ular alohida e'tiborni, xursandchilik taqozo etadi. Bu hodisalar o'ziga xos tantana va bayram tarzida nishonlanadi.

Farzandning tug'ilgan kuni, unga ism qo'yish, bolaning ilk qadam bosishi, o'g'il-qizning birinchi bor mакtabga borishi, mакtabni bitirishi, nikoh to'yi, kumush, oltin va olmos to'ylari, nafaqaga kuzatish kabilarni tantanali tarzda nishonlash inson hayotida ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan ko'pgina hayajonli hodisalar ham yuz beradiki, ular ham bayramona yoki tantanali kayfiyat yaratadi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtiga kirib, talaba bo'lish, uni tugatish, ishga kirish, 40, 50, 60, 70, 80 yoshini nishonlash marosimlari kishi hayotida shunday voqealar sirasiga kiradi.

Insonlarning quvonch va qayg'usini atrofdagi kishilarga ma'lum qilish insonlar o'rtasida hamjihatlik qaror topishiga

sabab bo‘ladi. Farzandning dunyoga kelishi har bir oila uchun quvonch bag‘ishlovchi holatlardan biridir. Oila a‘zolari chaqaloq tug‘ilganini qarindosh-urug‘lari, yoru-do‘stlariga xabar qilgani borishgan. Ular esa bu quvonchli xabar uchun suyunchi berishgan. Chaqaloq ota-onasi, qarindosh-urug‘lari chiroylı ism tanlashadi. Chaqaloqni dunyoga kelishi tantanali va quvonchli oilaviy bayram sifatida nishonlanadi. Nikoh to‘ylari kumush va oltin to‘ylar va boshqa oilaviy marosimlar oilaviy bayramlar sarasiga kiradi.

Oilaviy marosimlar kishilik jamiyatni madaniyatining tarkibiy qismi sanaladi. Shu boisdan ularda insonlarga xos bo‘lgan axloq me’yorlari aks etadi. Mamlakatimizda sog‘lom turmush tarzi qaror topayotgani sari shaxs va oila hayoti bilan bog‘liq ilg‘or an‘analalar shakllanib, tabora takomillashib bormoqda. Oilaviy an‘analarni, oila hayotidagi muhim bosqichlarni, voqeа va sanalarni bayram tarzida nishonlash muhim ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan, xalq turmush tarzini takomillashtiradigan vosita hisoblanadi.

Xalq an‘analari kishilar dunyo qarashini shakllanishida ta’sir etuvchi muhim omildir. O‘zbek oilalarida chaqaloq tug‘ilganidan to voyaga yetib, o‘zi yangi oila qurguncha quyidagi urf-odat va marosimlar o‘tkaziladi:

1. Homilador ayol va tug‘ilajak chaqaloqni asrash bilan bog‘liq urf-odat.
2. Chaqaloqni dunyoga kelishi bilan bog‘liq urf-odatlar (suyunchi).
3. Chaqaloq sog‘lig‘ini saqlashga qaratilgan urf-odatlar (chilla davri).
4. Ism berish urf-odatlari.
5. Chaqaloqni beshikka solish marosimi (beshik to‘yi).

6. Soch olish marosimi (soch to‘yi).
7. Tish chiqishi bilan bog‘liq urf-odatlar (tish to‘yi).
8. Bolaning bиринчи qadam qo‘yishi bilan bog‘liq урф-одатлар (ilk qadam to‘yi).
9. O‘qil farzandlarni sunnat qilish урф-одатлари.
10. Bolani 12 yoshga to‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan урф-одатлар (muchal to‘yi).
11. Yangi oila qurish урф-одатлари (nikoh to‘yi).
12. Kumush, oltin va olmos to‘ylari.
13. 50, 60, 70 yoshlarni nishonlash marosimlari.

Farzand tug‘ilmasdan avval qilinadigan урф-одатлар. Xalqimiz homilador ayolni asrab avaylaydi. Bu ota-onalari-mizdan bizgacha yetib kelgan odat. Homilador ayolga yomon gapirish, qo‘pollik qilish eng katta gunoh sanaladi. Homilador ayollarning asabiy lashishi, og‘ir yuk ko‘tarishi, zo‘riqi-shiga aslo yo‘l qo‘yish mumkin emas.

Qadimdan homilador ayolga murdani ko‘rish, axlat tashlangan joylardan yurish, mol so‘yilgan yerlardan o‘tish, supurgi, tayoq, arqon, suv ustidan sakrab o‘tish taqiqlangan. Homilador ayol amal qilishi kerak bo‘lgan qadimiy o‘gitlarda katta ma’no bor. Ularni o‘ziga xos asosga ega ekanligini zamonaviy ilm-fan ham tasdiqlaydi. Xalqimizning barcha qadimiy odatlari homilador ayol va uning tug‘ilajak farzandi-ning, jismoniy ruhiy xavfsizligini saqlash, chaqaloqning sog‘-omon tug‘ilishini ta‘minlashga qaratilgan. Ajdodlarimiz bola tarbiyasi ona qornida boshlanishini o‘sha zamonlardayoq tushunib yetishgan.

Shunday ekan homilador ayol hayoti bilan xalq урф-одатларини chuqur o‘rganish, tahlil qilish, ulardan unumli foydalanish millatning kelgusi bo‘g‘ini uchun jiddiy zamin yaratadi.

Chaqaloq va onasi uchun chilla davri. Xalqimizning urf-odatlari orasida farzandning dunyoga kelishi bilan bog'liq marosimlar mavjud, ularning har biri yaxshi niyatlar bilan amalga oshiriladi. Bu chaqaloq tug'ilganda yaqin kishilardan «suyunchi olish», «kindik kesish», bolani cho'miltirish, chaqaloqga ism qo'yish, qulog'iga azon aytish, kichik va katta chilla davrini o'tkazish, chaqaloqni beshikka solish kabi tadbirlardan iborat.

O'tmish odatlariga ko'ra chaqaloqni har tomonlama asrash taqozo etilgan. Chilla davri uchun xarakterli xususiyatlar: ona va bolani yolg'iz qoldirmaslik, ular yashayotgan xonaga hech kimni kiritmaslik, chaqaloqni tuzli, tuproqli suvlarda tez-tez cho'miltirish, onaga og'ir yumushlar qildirmaslik, tunda tashqariga chiqmaslik, bolani qorung'u joyda saqlamaslik, ona-bola asabini buzmaslik, qo'rqtmaslik ular salomatligini saqlash garovidir. Sharqda qadimdan emizikli ayol toamnomasiga alohida ahamiyat berib kelingan. Yosh bo'shangan ona sut keltiruvchi kuchli toamlar iste'mol qiliши, sutni sifatini buzmaslik uchun piyoz, sarimsoq, garim-dori, spirtli ichimliklar iste'mol qilmasligi zarur. Bular bola tanasi uchun — og'irdir.

Toshkentda chilla davrida «aqiqa» degan marosim o'tkaziladi. Ufarzand 7, 14, 21, 28 kunlik bo'lganda qo'y so'yib, osh damlab, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilar ishtirokida tashkil etiladi. U ikki jon ona va bolaning esonomon bo'lishi niyatida, ollohga shukronalik ramzi sifatida o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, «chaqaloq chilla» davomida ona maxsus gigienaga rioya qilgan, u o'z bolasini kasallik, «yovuz kuchlar»dan, «yomon ko'z»lardan asrab-avaylagan. U o'z farzandini bu yorug' dunyoga moslashishi uchun zamin

yaratgan. Tibbiyot xodimlari fikricha, chilla davrida kasal bo‘lmagan chaqaloq ulg‘ayganda ham sog‘lom bo‘ladi.

Ism qo‘yish odatlari. Chaqaloqqa ism qo‘yish inson hayotidagi eng muhim voqealardan hisoblanadi. Qadimdan bolaga ism qo‘yish mas’uliyatlari ish sanalgan. Ism bola tabiatiga mos kelmasa, undan yaxshi inson chiqmaydi yoki u kasallikka chalinaveradi deyilgan. Chaqaloqqa ism qo‘yish vazifasini har—kimga ham ishonilmagan. Buning uchun maxsus marosim uyushtirilib, unga eng obro‘li dono qariyalar taklif etilgan. Ana shu marosimga yig‘ilganlar o‘zaro maslahatlashib, bolaga ism qo‘yishgan. Islom diniga e’tiqodi baland kishilar mulla-eshon chaqirib, chaqaloqning qulog‘iga azon aytdirib, so‘ng unga ism qo‘ydirishgan.

Xalqda «ismi jismiga mos» degan ibora bor. Kishilar bolaga qo‘yilgan ism ulg‘ayishi jarayonida uning odobiga ta’sir qiladi, deyishgan. Kishining ismiga mos bo‘lishga intilishi uning ma’naviy ulg‘ayishiga samarali ta’sir qiladi.

Tug‘ilgan kun. Bolalarning tug‘ilgan kunini oilada nishonlash kichkintoylarning o‘zi uchun ham katta bayram hisoblanadi. Bunday tantanaga bolaga uning yoshiga mos keladigan sovg‘alar, shirinliklar, o‘yinchoqlar berilishi sabab bo‘ladi. Tug‘ilgan kunga bolaning o‘rtoqlari taklif etiladi. Bolalar uchun alohida dasturxon yozilib, ular mehmon qilinadi. Shu asosda bolalarning mehmon kutish va mezonlik malakalari shakllana beradi. Bolalarning tug‘ilgan kunlarini nishonlashda turli qiziqarli o‘yinlar tashkil qilish muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bu o‘yinlarning asosiy mazmuni bolalarda ziyraklik, nutq madaniyati kabi ijodiy fazilatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Qadimda kishilarning tug‘ilgan kunlarini nishonlash odati keng tarqalmagan. Ilgari ko‘p sharq xalqlarida, o‘zbeklarda

ham «yil boshi» (navro‘z)da kishining umriga yosh qo‘shiladi deb hisoblangan. Shu sababli «Navro‘z» tabiatning yangilanish bayrami bo‘lib qolmay, u barcha uchun «yosh oshdi» tantanasi hisoblangan. Hozirgi paytda tug‘ilgan kun bilan tabriklash oilada, do‘srlar davrasida, ish joylarida ham odat tusiga kirdi. Ko‘pgina muassasalarda yubileylarni nishonlash yaxshi an’ana bo‘lib qolmoqda. Tug‘ilgan kunni nishonlash o‘zbeklar uchun yangi odat. Ammo 12 yosh – muchal to‘yini, 63 yosh – «payg‘ambar yoshi»ni nishonlash an’anasi qadimdan mavjud.

Beshik to‘yi. Qadim zamonlardan har bir oilada o‘tkazib kelingani tufayli, bu marosim xalq madaniy hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Beshik to‘yi haqida ma’lumot berishdan oldin beshikni o‘ziga ta’rif bersak o‘rinli bo‘ldi. Beshik insoniyat tarixida yaratilgan buyuk kashfiyotlardan biridir. Beshik bolaning 2–3 yoshgacha ulg‘ayishi uchun juda foydalidir. U kichik, ixcham bo‘lgani uchun istalgan joyga ko‘chirib olib borish mumkin. Beshik go‘dakni ovutish, erkalash, uxlatish uchun o‘ta qulay tuzilishga ega. Beshik bolani tashqi ta’sirlardan himoya qiladi (sovuqdan, issiqdan, zaxdan). Beshik bolani ho‘l-oyoq harakatlaridan bexos cho‘chimay, biror narsaga urilmay, yotgan joyida ag‘darilib ketmay, quruq osoyishta uplashiga imkon beradi.

Chaqaloq tug‘ilgandan keyingi muhim tadbirlardan biri – bolani beshikka solish marosimi va beshik to‘yidir. Toshkentda farzand tug‘ilganiga 7 yoki 9 kun to‘lganda bolani beshikka solish marosimi o‘tkaziladi. Go‘dakning chillasi chiqqach, qudalarning kelishuvi asosida beshik to‘yini o‘tkazish odat tusiga kirgan. Beshik to‘yidan oldin kelinning onasi o‘z nabirasi uchun sarpolar tayyorlaydi. Qarindosh

urug'lar ham yoshlik to'yida chaqaloqqa atab sovg'alar keltirishadi.

Bolaning ilk tishi chiq ishi ham oilada quvonchli voqeaga aylanadi. Bolaning ota-onasi, qarindoshlari buni katta xursandchilik bilan nishonlaganlar: bug'doy qovurmoch tayyorlab, bolalarga tarqatishgan, kampirlarni chaqirishib guruchli taomlar bilan siylashgan.

O'zbeklarda soch — to'y bolaning sochini ilk bor olish ham ma'lum tartib asosida amalga oshirilgan. Bolaning sochini ilk bor buvisi yoki bobosi yaxshi niyatlar bildirib olganlar.

Birinchi qadam bayrami. O'zbek xalqining farzandlar tarbiyasiga alohida e'tibor berishi bolaning ilk bor mustaqil qadam qo'yishiga bag'ishlangan marosimda ham o'z aksini topgan. Ota-bobolarimiz bu marosimda «bolaning beli baquvvat bo'lsin deb, beliga belbog' bog'lashgan», «to'qlik bo'lsin, bola ocharchilikni bilmasin!» deb mazali kulchalarni kichkintoylarga tarqatishgan, «suvdek serob bo'lsin!» deb marosim o'tkazilgan vaqtida bolaning qadam bosgan yerlariga suv sepishgan, «bolaning hayoti shirin bo'lsin!» deb bolaning boshidan shirinliklar sochishgan, «chiroyli bo'lsin!» deb bola yura boshlaganda yo'llariga gullar sochilgan, «boy bo'lsin!» deb bolaning ustidan pullar sochilgan, «kasalga chalinmasin!» deb isiriq tutatishgan, «omon bo'lsin!» deb duolar o'qishgan. Bolani birinchi qadam qo'yishini marosim sifatida nishonlashning o'ziga xos ramziy ma'nosi ham bor. Birinchi qadam bolaning shunchaki oddiy harakati bo'lib qolmay, kelajakda qilinadigan ko'plab ishlarning debochasi deb ham qaralgan. O'zbekistonning turli hududlarida «birinchi qadam» marosimi turlicha o'tkazilib kelingan. Ayrim joylarda bu tadbir faqat ayollar va bolalar ishtirok etadigan kichik oilaviy

marosim sifatida uyuştırılmış, unda erkaklar qatnashmagan. Tog‘li qishloqlarda esa «Birinchi qadam» katta anjumanga aylanib ketgan.

«Birinchi qadam» marosimi madaniyat uylari, bolalar bog‘chalari va oilalar bilan hamkorlikda keng doirada o‘tkazilsa, yanada qiziqarli bo‘ladi.

Sunnat to‘yi. O‘qil bolalar hayotida eng muhim marosimlardan biri sunnat to‘yidir. Sunnat to‘yi turli joylarda turlicha – «xatna to‘yi», «qo‘lni halollash», «o‘g‘il to‘yi» kabi nomlar bilan yuritiladi. Sunnat islom dini paydo bo‘lishidan ham ilgari mavjud bo‘lgan. Sunnat qilish qadimiy zamonlarda o‘g‘il bolalarning bolalikdan o‘sprinlikka o‘tish davrida o‘tkazilgan. Xatna paydo bo‘lishi haqida «Injilda» shunday fikrlar bildirilgan: olamning paydo bo‘lishi davrida Ibrohim payg‘ambarga xudodan vahiy kelgan. Unga ma’naviy poklanish ramzi sifatida xatna qildirish buyurilgan ekan. 100 yoshli Ibrohim payg‘ambar o‘zini, uch yoshli o‘g‘li Ismoilni, shuningdek, qul va xizmatkorlarni xatna qildirgan. 50–70 yillarda xatna rasmiy doiralarda reaksiyon odat deb qabul qilingan bo‘lsada, bu xususida norasmiy tortishuvlar yaqin yillargacha davom etdi. Faqat 1988-yildan boshlab xatna foydali deb tan olinib, O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash Vazirligi buyrug‘i bilan shifoxonalarning jarrohlik, urologiya bo‘limlari xodimlariga xatna qilishga rasmiy ruxsat berildi. Shundan so‘ng xatna qilish ochiqchasiga rasmiy o‘tkaziladigan bo‘ldi.

Muchal yoshi. Xalqimizda muchal yoshini nishonlash an‘anaviy marosimiga aylangan. Muchal yoshini nishonlash umrning bir davridan ikkinchisiga o‘tish – bolalikdan o‘smirlilikga o‘tish tantanasi sifatida bayram qilingan. Chunki bu davrdan so‘ng bola vujudida jiddiy tabiiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. U jisman va ma’naviy ulg‘ayadi.

Inson hayotiga kun, oy, fasl, yil o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Inson vujudida ham o‘n ikki yil ichida jiddiy o‘zgarish sodir bo‘ladi. 12 yil ichida yosh bola organizmida jiddiy o‘zgarish va rivojlanish sodir bo‘ladi. 13 yoshdan o‘g‘il bolalar organizmida erkaklik unsurlari, qizlarda esa ayollarga xos xususiyatlar faol rivojlna boshlaydi. Muchal yoshiga bag‘ishlangan marosim oilada ikki quda ishtirokida karnay-surnay navolari, to‘y bolaga maxsus oq liboslar kiydirish, uning bo‘yi barobar oq mato o‘lchash, oq toam va shirinliklar ulashish, isiriq tutatish, duolar o‘qish kabi an’analar asosida o‘tkazilgan. Qadimda muchal yoshiga bag‘ishlangan marosim Navro‘z bayrami tadbirlariga qo‘sib o‘tkazilgan. «Oq libosli» muchal yoshini nishonlayotgan yoshlar Navro‘z o‘tkazi- layotgan joyga kirib kelishganida barcha ularni qutlashgan. Kichik yoshli bolalar ularga bahor gullarini taqdim etishgan. Muchal to‘yining yakunida 7–8 muchal yoshini yashagan qariyalar (taxminan 70 yoshdan oshgan) o‘smirlarni duo qilganlar.

Mustaq illikga erishilib, milliy qadriyatlar tiklana boshlagandan so‘ng «Muchal yoshi» nafaqat oila a’zolari davrasida, balki maktablarda ham ota-onalarning ishtirokida Navro‘z bayrami arafasida nishonlanmoqda. Bu kabi yangi tadbirlar ko‘pgina maktablarning an’anaviy bayramlariga aylanib bormoqda.

O‘zbek to‘ylari. To‘y – hayotning katta shodiyonasi, oila baxt saodati va farovon turmush ramzi, hayotning eng quvonchli damlaridir. Xalqimizda qadimdan «Beshik to‘yi», «Nikoh to‘yi», «Payg‘ambar yoshi to‘yi» kabilar bo‘lgani ma’lum. Hozirda nikoh to‘ylarining yangicha, zamonaviy shakllari qaror topmoqda. To‘ylarni o‘ziga xos bayram tarzida tashkil etish, ularni tartibga solish, ixchamlashtirish

ayniqsa badiiy jihatdan boyitish davr talabidir. Yurtboshimiz I.A.Karimovning 1998-yil 28-oktabrdagi to‘y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni o’tkazishni tartibga solishga bag‘ishlangan farmonlari ajdodlarimizning oilaviy qadriyatlarni tiklash, mazmun va mohiyatini bozor iqtisodi talablari darajasida shakllantirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Nikoh to‘ylari. Har bir kishining hayotida yangi sahifa ochadigan, muhim burilish yasaydigan eng muhim voqeanning tantanali nishonlanishidir. Nikoh to‘yi oilaviy marosimlar ichida eng yirigi bo‘lib, uni tashkil qilish va o’tkazish uzoq muddatni o‘z ichiga oladi. Nikoh to‘yi bilan bog‘liq odatlar, irim, rasm-rusmlar ham juda ko‘pdir. O‘zbekistonning turli shahar qishloqlarida o’tkaziladigan nikoh to‘ylarining umumiy jihatlari bo‘lganidek, har bir hududdagi to‘ylarning o‘ziga xos tomonlari ham mavjuddir.

O‘zbek nikoh to‘ylari uch bosqichli jarayonni o‘z ichiga oladi. Birinchi bosqich – kelin tanlash, ungasovchi yuborish, non sindirish fotiha qilish kabi marosimlardan iborat. Xalqimizning to‘y marosimi bilan bog‘liq «sovchilik» haqida ikki og‘iz so‘z.

Sovchilar ko‘pni ko‘rgan obro‘-e’tiborga sazovor bo‘lgan kishilar bo‘ladilar. Sovchilar bo‘lg‘usi kelinning ota-onasini, oilaviy hayotini, hovli-joyining ozodaligini, ota-onasining muomilasini kuzatadilar. Ayniqsa, bo‘yiga yetgan qizning uyigasovchi kelganda, sovchilar birinchi navbatda shu xonadonning oshxonasi va hojatxonasiga e’tibor bergenlar. Agar oshxona sarishta bo‘lsa, hojatxona ham toza bo‘lsa, sovchilar bu xonadonning qizi farosatli, mehnatsevar ekan degan tasavvurga ega bo‘lganlar. Ayniqsa, qizning onasiga e’tibor bergenlar, «Onasini ko‘rib, qizini ol» degan maqol

shu ma'noda ishlataladi. Sohibqiron Amir Temur o'z tuzuklarida shunday vasiyat qiladi: «o'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim» – deya farzandlarga juft tanlash masalasiga katta e'tibor bergen.

Ikkinchchi bosqich – kelinni kuyovning uyiga olib kelish, nikohlash, to'y-tomosha, bazim kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Uchinchchi bosqich – nikoh to'yidan so'ng o'tadigan «yuz ochdi», «kelin salom», «kuyov chaqirdi» kabilardan iborat.

Nikoh to'ylarida o'zbek xalqining eng yaxshi ma'naviy fazilatlari namoyon bo'ladi; to'yga barcha oldindan tayyorlanadi, hamma o'zining yaxshi ko'rghan liboslarini kiyadi, barchada ko'tarinki ruh, xursandchilik hukum suradi.

Hozirgi paytda nikoh to'ylarida ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Bugungi nikoh to'ylarida yigit-qizning roziligi, o'zaro muhabbatি asosida o'tkazilmoqda. Balog'atga yetmagan yoshlarni nikohdan o'tkazish butunlay yo'q oldi. «Qalin», «sut puli» kabi ortiqcha xarajat talab qiladigan qadimiylar udumlar deyarli barham topdi. Ortiqcha xarajatlar butunlay yo'q bo'imasada, ular o'mini yangi oila uchun zarur bo'lgan jihozlarni olib berish an'anasi egalladi. Mustaqillik sharofati bilan yoshlarni nikoh oldidan tibbiy ko'rikdan o'tkazish yaxshi an'anaga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Oilal kodeksining 17-moddasida ko'zda tutilgan: «Nikohlanuvchi yoshlar tibbiy ko'rikdan faqat ularning roziligi bilan o'tkaziladi» – degan qoidadan ko'tilgan maqsad muddao g'oyat qutlug'dir. Bu qoida mohiyatan jamiyatda sog'lom oilani shakllantirish, sog'lom avlodni dunyoga

keltirish va ularni barkamol bo'lib tug'ilishini ta'minlashga qaratilgan an'anadir.

O'zbek nikoh to'yłari hozirgi paytda asosan uchta marosimdan iborat bo'lmoqda:

1. «Non sindirish» marosimi – kelin va kuyovning ota-onasi, qarindoshlarining nikoh to'yini o'tkazish rejasini tuzib olishlari uchun zurur bo'lgan muloqot – kengash vazifasini o'taydi.

2. Kelin-kuyovning FHDYO byurosi ro'yhatidan o'tishi. Bu an'ana oilaning huquq va majburiyatlarini qonunlashtirish vazifasini bajaradi.

3. To'y marosimi yosh yigit-qiz oila qurbanligini tantanali nishonlash uchun xizmat qiladi.

Oilaviy marosimlarni o'tkazish jarayonida namoyon bo'ladigan insonparvarlik, mehribonlik, mehmondo'stlik kabi fazilatlar yoshlari tarbiyasiga ijobiyligi ta'sir etadi. Bu tadbirlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq odatlari, folklor janrlari, lapar, yor-yor, o'lan marosim qo'shiqlari, o'yin-musobaqalar, duolardan foydalanish – yoshlarning ma'naviy kamol topishida katta ahamiyatga ega.

Kumush, oltin va olmos to'ylar. Hayotimiz farovonlashib bargani sari to'ylarning yangi ko'rinishlari paydo bo'lmoqda. Er-xotinning 25 yil, 50 yil, 75 yil birga oilaviy hayot kechirganiga bag'ishlangan kumush, oltin va olmos to'ylarini o'tkazish bilan bog'liq yangi tantanali tadbirlar vujudga keldi. Xalqimizning yoshi kattalarni, ayniqsa, qariyalarni hurmat qilish kabi qadimiy an'analari hamda o'zbek oilalarining mustahkamligini ana shunday yubiley to'ylarini o'tkazish uchun asos bo'ldi. Shuni alohida aytish joizki, bunday yubiley to'ylarini, ayniqsa, olmos to'yini nishonlash ham-maga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun oltin to'y

kumush to'yga nisbatan tantanaliroq, olmos to'y oltin to'yga qaraganda yanada yuksak tayyorgarlik darajasida tashkil qilinishi kerak. Azaldan mustahkam an'analarga ega bo'lgan o'zbek oilalari hayotiga 60-yillardan boshlab oltin, kumush va olmos to'ylari kirib keldi.

80-yillar oxirida esa «oila bayrami» degan yangi to'y shakli paydo bo'ldi. Endigina nikohdan o'tgan yosh kelin kuyovlar ham, kumush, oltin va olmos to'y egalari ham birgalikda sharaflanadi. Ushbu to'ylar endilikda o'lkamizning turli shahar qishloqlarida ham o'tkaziladigan bo'ldi. Ular oilalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Diniy bayramlar. Dunyodagi barcha dinlar o'ziga xos bayramlarga ega. Har bir dinning rivojlanib borishida bayramlarning ahamiyati kattadir.

Islom dinida ikki asosiy hayit «Qurban hayiti», «Ro'za hayiti» ko'p asrlardan buyon nishonlab kelinmoqda. Ro'za hayiti. Ramazon – hijriy yil hisobining 9-oyi bo'lib, islomaq idalari bo'yicha bu oyda Olloh Muhammad alayhissalomga qur'oni vahiy qilgan ekan. Shuning uchun ham islom dunyosida ramazon muqaddas hisoblanib, bu oyda musulmonlar ro'za tutishadi. Ramazon yakunida esa islomning katta bayramlaridan biri – Ro'za hayiti boshlanadi. Qurban hayiti. «Qurbanlik» - «yaqinlik» ma'noni bildiradi. Shuningdek, qurbanlik Ollohning rahm-shavqatiga sazovor bo'lish, unga minnatdorchilik bildirishni ifodalovchi marosimdir. Islom dini taraqqiy etgan sari qurban hayiti musulmonlar birlashadigan, hamdard bo'ladigan kunga ham aylana borgan. Shuning uchun musulmonlarga farz bo'lgan beshinchi rukun – hajni ado etadigan, yani Islomning mu-qaddas joylarini ziyorat etadigan asosiy kunga ham aylangan. Qurban hayiti munosabati bilan 1990-yil O'zbekiston Prezidenti Farmoni

asosida ilk bor mamlakatimizdan 500 kishining Saudiya Arabistonagi Makka va Madinaga borib, haj qilish sharafiga muyassar bo'lishdi. Islom odatiga ko'ra, hajga borgan, ya'ni muqaddas Ka'bani ziyorat qilgan kishilar Vataniga xoji faxriy unvoniga ega bo'lib qaytishadi.

Islom hayitlarining bosh marosimi tong saharda namoz-ghohlarda, masjidlarda o'qiladigan «hayit namozi»dir. Musulmonlar hayit namoziga toza, chirolyi kiyimlar kiyib, xushbo'y atir-upalarni sepib, yaxshi kayfiyat va ezguniyatlar bilan chiqishadi. Avval «Bomdod namozi» o'qiladi, so'ng imom Xatiblar kishilarni ezgulikga da'vat etuvchi ma'ruzalar o'tkazadilar. Undan keyin esa asosiy «hayit namozi» o'qiladi.

Namoz o'qish marosimidan keyin hamma bir-biri bilan ko'rinish, hayit bilan qutlaydilar. Hayit namozidan chiqqanlar yaxshi kayfiyatda uylariga berib, oila a'zolari, ota-onalari, farzandlarini hayit bilan qutlab, «hayitliklar» sovg'a qilishadi. Bu ulug' ayyomda ustozlar ziyorat qilinadi, marhumlarni xotiralab, duolar o'qiladi, qarindoshlar xolidan xabar olinadi, bemorlar, keksalar holidan xabar olinadi. Hayit kunlari odamlar orasidagi gina va arazlar unutiladi. Hayit kunlari kambag'al, beva-bechora, yetim-yesirlarga xayriya va sadaqa berish savob hisoblanadi.

Hayit kunlarida Toshkent shahrida Toshkent viloyatining ba'zi joylarida «kelin ko'rish» yoki «kelin salom» deb nomlangan marosim o'tkaziladi. Bu marosim quyidagicha o'tkaziladi. Yolg'on arafa kuni kelinning ota-onasi qizi kelin bo'lib tushgan xonadanga yo'q lov yuborishadi. Bu bilan ular qudalarni, kuyovni qizlarini muborak ayyom bilan qutlaydilar. O'z navbatida kuyov xonadonidagilar ham o'zlarini pishirgan shirinliklardan qudalarinikiga berib yuborishadi.

Toshkentda hayit kunlarida yangi kelinchak tushgan xonadonda dasturxon yuksak mahorat bilan bezatiladi.

Hayit kuni erta tongda turgan kelinchak, yuvinib-taranib, eng chiroyli liboslarini kiyadi, boshiga harir mato yopib, xonadon a'zolariga salom beradi va dasturxonga taklif etadi. Shundan so'ng kelin ko'rish marosimi boshlanib ketadi. Qarindosh urug'lar, tanish-bilishlar, qo'ni-qo'shnilar birincketin «kelin ko'rgani» kela boshlashadi.

Kelinchak ularning har biriga alohida salom beradi. Mehmonlar bu salomga javoban «Ko'p yashang», «Baxtli bo'ling» deb aytishadi. Bu marosim ishtirokchilari xotinqizlar hisoblanadi. Keluvchilarni soni ko'p bo'lgani uchun mehmonlar kelin qo'lidan bir piyola choy ichib, yaxshi niyatlar aytib, fotiha qilishgach o'rinlardan turadilar. Turmushga chiqmagan qizlar bu marosimdan uy ichini qanday bezatish, shirinliklar pishirish, kelnlarga xos uyatchanlik, xayolilik, muomila, kiyinish madaniyatini o'rganadilar. Ayollarga esa kelinlik damlarini yodga olib, kelinchak bilan yaqindan tanishadilar. Oxirgi paytlarda bu marosimda ham kim o'zarga tarzida «oshir-oshir» yo'qovlar rusmga aylanib bormoqda. Bu marosimdan ko'zlangan maqsad, boylikni ko'z-ko'z qilish emas, balki qizlarimizni turmushga tayyorlash, kelinchaklarni pazandalikga, uy tutishga, mehmon kutishga o'rgatishdir.

Sho'rolar davrida diniy odat va bayramlar taqiqlanib kelindi. Mustaqillik tufayligina jamiyatmizda ro'y bergan mafkuraviy o'zgarishlar bois yurtimizda diniy bayramlar hayit marosimlari ekin – ochiqchasiga o'tkaziladigan bo'ldi. 1992-yil 27-martda O'zbekiston Prezidentining «Ro'za hayitini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. 1992-yildan boshlab, «Ro'za hayiti» bilan birga

«qurbanayiti»ning birinchi kuni dam olish kuni deb e'lon qilindi.

6.2. Diniy bayramlar

Navro'z yangilanish bayrami. Tabiatda tun va kunning teng bo'lishi, bahorning kirib kelishi, dalalarda ish boshlanishidan darak beruvchi, xalq tomonidan keng nishonlanuvchi Navro'z bayrami o'tgan davrlarda to'siqlarga duch kelsada, xalqning istagi bilan qayta tiklandi va 1990-yildan boshlab mamlakatimizda katta quvonchlar bilan o'tkaziladigan bayram sifatida nishonlanmoqda. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: «navro'z hayot abadiyligining, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, shu bilan birga bizning necha ming yillik milliy qiyofamizning, urf-odatlarimizning mangulik ifodasi, tasdig'idir». «Navro'z» so'zi fors tilidan olingan bo'lib, «Nav»-yangi, «ro'z»-kun – «Yangi kun» degan ma'nolarni anglatadi. 21-mart kecha va kunduzning tenglashgan kun – yangi yil – Navro'z bayrami sifatida Sharq xalqlari tomonidan keng nishonlanadi. Navro'z juda qadimiy bayramdir. Uning juda qadimiy bayram ekanligi buyuk mutafakkir, allomalarimiz ijodlarida namoyon bo'lgan. Abu Rayxon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Umar Hayyomning «Navro'znama», Abul-qosim Firdavsiyning «Shoxnama», Xoja Ali Termiziyning «Navro'znama», Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» asarlari Navro'z, uning paydo bo'lish tarixi u bilan bog'liq urf-odatlar haqida, muhim ma'lumotlarni beruvchi qimmatli manbalardir.

Navro'z mehr-muruvvat, insonparvarlik, insonlarni uhan birlashtiruvchi bayramdir. Navro'z bayrami munosabati bilan

mamlakatlararo urush-janjallar to'xtatilgan, urushgan kishilar yarashgan, ota-onalar, qarindosh urug'lar, keksalar sovg'alar bilan yo'qlangan. Turli-tuman navro'z taomlari tayyorlangan, uy hovli, ko'chalar supurib sidirilgan, katta-katta maydonlarda o'yin-kulgular, askiyabozlik, qo'chqor, xo'roz urushtirish, kurash, teatr tomoshalari tashkil etilgan. Odamlar bir-birlarinikiga mehmonga borishgan, yerga birinchi urug' qadash marosimlari o'tkazilgan. Navro'z yoshlarni barkamoł inson qilib tarbiyalashda muhim vositadir. Navro'z yosh avlod uchun tarbiya mакtabidir. Navro'z xotin-qizlarga alohida ko'rk beruvchi bayramdir. Bayram munosabati bilan xotin-qizlar qo'llariga xina, qoshlariga o'sma qo'yadilar. Arg'im-choqlarda uchishib, she'rxonlik kechalarini o'tkazadilar.

Navro'z – tansihatlik bayramidir. Chunki bayram dasturxoni, taomnomasi inson tanasi uchun shifo man-bayidir. Navro'z munosabati bilan o'ziga xos turli taomlar, shirinliklar tayyorlanib bayram dasturxoni bezatilgan. Ya'ni, sumalak, halim, ko'k somsa, ko'k chuchvara navro'z das-turxoni uchun asosiy taomlar hisoblangan.

Sumalak – Navro'zning shox taomi bo'lib, u ko'klam darakchisi, to'kin-sochinlik, ahillik, ezgulik timsolidir. «Sumalak sayli» o'ziga xos tarzda uyushtiriladi. Bu asosan ayollar bazmi hisoblanadi. Sumalak tayyorlanayotgan dosh-qozonlar atrofida xotin-qizlar, bolalar o'yin kulgi, aytishuv, askiya, lapar, latifalar aytishadi, childirma, dutor chalib raqsga tushishadi. Sumalak sayliga kelgan har bir inson yaxshi niyat bilan qozon kovlaydi. Balog'at yoshidagi yigit-qizlarga baxtli-saodatli, farzand ko'rmanganlarga farzandli bo'lishlari niyat qildirib, qozon kovlatiladi. Sumalak bir kecha-kunduz davomida tayyor bo'ladi. U har bir oilaning soniga qarab taqsimlanadi. Bemorlar, yolg'iz qariyalar

nogironlar sumalak bilan yo'qlanadi. Sumalak bir oilada tayyorlansada, uni tayyorlash jarayonida butun qishloq yoki mahalla ahli, qarindoshlar urug'lar hamjihatlik bilan qatnashadilar.

Navro'z har bir kishini insonparvarlikga, mehr-muruvvatga, bag'ri kenglikga, saxovatga, go'zallikga, ezbilikga da'vat etadi. Xalqni, jamiyatni poklikga, mehnatga, yaxshilikga undovchi g'oya abadiydir.

Oilaviy marosimlar tarixiy jarayonda xalq padagogikasi va donishmandligi bilan uyg'unlashib ketib, asrlar davomida yoshlarni tarbiyalashdagi asosiy shakllardan biri bo'lib kelgan. Shu sababli, hozirgi davrda ham xalq an'analarini qadrlagan, turli marosimlarni o'tkazishda ma'naviy-estetik jihatlarga alohida e'tibor bergen oilalarda voyaga yetgan yoshlar odobaxloqli bo'lib voyaga yetadi. Ispaniyalik bir faylasuf olim butun umrini jahon xalqlarining urf-odatlarini, axloq odobini o'rganishga bag'ishlagan ekan. O'sha olim bizning yurtimizga tashrif buyurib, urf-odatlarmizni o'rganibdi. Yurtiga borib: «Butun bir amalga oshirgan ishlarim va o'rgangan bilimlarimni 15 yoshli o'zbek qizalog'ining, o'mnidan turib, qo'lini ko'ksiga qo'ygancha choy uzatishidagi odobi, nazokatiga almashtirishga rozi edim»— degan edi.

Ajdodlarmiz asrab-avaylab kelgan urf-odatlarmizni, sharqona odobimizni, naslimiz pokligini, buyukligimizni asrab-avaylab kelgusi avlodga yetkazish siz-u bizning qo'limizdadir.

Mavzuga oid test sinovlari

1. «To'y hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni, marhumlarni xotirasiga bag'ishlangan tadbirlarni

utkazishni tartibga solish to‘g‘risida»gi farmoni qachon qabul qilindi?

- a) 1998-yil 28-oktabr;
- b) 1997-yil 29-avgust;
- d) 1999-yil 1-aprel;
- e) 2000-yil 3-mart.

2. Sharq xalqlarining muhim qadriyatlari hisoblangan bayramlarni ko‘rsating?

- a) «Navro‘z» va «Mehrjon» bayramlari;
- b) «Mustaqillik» va «Navro‘z» bayramlari;
- d) «Mehrjon» va «Xalqaro xotin-qizlar» bayramlari;
- e) «Ro‘za xayiti» va «Qurban xayiti» bayramlari.

3. «Inson ma’naviyatini, yuksak axloq va madaniyatini, o‘z milliy an‘analarini qayta tiklashni muazzam qatlamlari ochildi. Eng muhimi esa, inson va fuqaroni fikrlash va dunyoqarashi o‘zgarmoqda, siyosiy va ijtimoiy ongi, uni umumiy saviyasi o‘sib bormoqda» kabi jumlalar I.Karimovning qaysi asarida keltirib o‘tilgan?

- a) «XXI asr bo‘sag‘asida X.T.B.Sh. va T. Kafolatlari»;
- b) «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda»;
- d) Istig‘lol va ma’naviyat;
- e) «Milliy istiqlol mafkurasi».

4. Badiiy ijodda o‘z jozibadorligi, oxangdorligi, ravonligi, chuqur g‘oyaviy badiiyligi bilan insoniyat e’tiborini o‘ziga qaratib kelgan asarlarni ko‘rsating?

- a) «O‘tgan kunlar», «Mehrobdan chayon»
- b) «Kecha va kunduz», «Navoiy» romani
- d) «Kecha va kunduz», «Qutlug‘ qon»
- e) «Qutlug‘ qon», «Mehrobdan chayon»

5. O‘zbek millatiga xos bo‘lgan to‘y turlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) sunnat to‘yi, nikoh to‘yi, beshik to‘yi;
- b) fotiha to‘yi, hovli to‘yi;
- d) muchal to‘yi, askar to‘yi;
- e) barcha javoblar to‘g‘ri .

6. Qadimda ota-bobolarimiz, momolarimiz tomonidan o‘tkazilgan to‘y-bazimlarida nimalar ustunlik qilgan?

- a) o‘yin-kulgu, she’rxonlik;
- b) kurash, askiyabozlik;
- d) a va b;
- e) rasm-rusmlar.

7. Qaysi buyuk sarkarda oilada, ayolni, bolani jamiyat hayotida tutgan o‘rniga alohida e’tibor bilan qarab, bu masalani davlat ishlari bilan bir qatorga qo‘ygan?

- a) Iskandar Zulqarnayn;
- b) Amir Temur;
- d) Jaloliddin Manguberdi;
- e) To‘maris.

8. «Oila Kodeksi» qachon qabul qilingan?

- a) 1998-yil 30-aprelda;
- b) 1997-yil 5-mayda;
- d) 1999-yil 1-aprelda;
- e) 1999-yil 28-iyunda.

9. Hozirgi kunda yoshlarni o‘z xohishlariga binoan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish Oila kodeksini nechanchi moddasida ta’kidlab o‘tilgan?

- a) 19-moddasida;
- b) 18-moddasida;
- d) 17-moddasida;
- e) 16-moddasida.

10. O‘zbek milliy an‘analarida ko‘zi yorigan ayolni necha kun chillada saqlash da’vat qilingan.

- a) 20 kun;
- b) 20 kun kichik chilla, 40 kun katta chilla;
- d) 40 kun.

Test javoblari

1.	a	6.	d
2.	a	7.	b
3.	a	8.	a
4.	a	9.	d
5.	g	10.	b

Oilada – bolalarga jismoniy tarbiya berish

Har qanday insonning eng mo'tabar orzusi, astoydil asosiy maqsadi – sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash, har tomonlama komil insonni voyaga yetkazishdan iborat.

Sog'lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo, sog'lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat, shu bilan birga ruhi, fikri sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman. Buyuk davlatni faqat sog'lom millat, sog'lom avlodgina ko'ra oladi.

Mustaqil davlatimizning ertangi kuni, uning gullab-yashnashi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan avlodning sog'lom bo'lishiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida Vatanimizning kelajagi farzandlarimizning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topish uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirishning, sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhab-

batni singdirishning g'oyat muhim sharti sifatida bolafaoliyati kompleks xarakerga ega va u turli harakatlar uyg'unligida (yugurish, sakrash va boshqalar) quriladi.

O'yin jarayonida bolalar dunyoni faqat anglab qolmay, balki turli vaziyatlarda mustaqil harakat qilishni o'rganadi. O'yin bolalar faoliyatining ehtirosli ko'rinishlaridan biridir.

O'yining his-hayajonlarga to'laligi shundan iboratki, o'yin jarayonida bolalar turli holatni boshdan kechiradilar: quvnaydilar, yutib chiqishga intiladilar, hafa bo'ladilar.

Harakatchan o'yinlar ko'pchilik va yakka o'yinlarga bo'linadi. Ko'pchilikda o'ynaladigan o'yinlar axloqiy ahamiyatga ega bo'ladi. Yakka harakatchan o'yinlarda bola sharoit va maqsadni o'zgartirishi, muvofiq yo'lni o'zi tanlashi mumkin.

Har qanday o'yin o'z mazmuni, yo'nalishi, yakuni va bajarilishi tartibiga ega.

Oilada tashkil qilinadigan o'yin bolalardagi yashirin qobiliyatni rivojlantirishi, fikrlashga, ijodkorlikka yo'naltirishi lozim, u bolalarning ijodiy kuchini sinaydi, shuning uchun ko'pgina bolalar o'zlaricha o'yinlar o'ylab topadilar.

Ba'zi sport o'yinlarida ota-onalar yoki oiladagi katta yoshli odamlar ishtirok etsalar, bu bolani oila a'zolariga yanada yaqinlashtiradi hamda o'yining ahamiyatini oshiradi. Har qanday o'yinlarda g'alaba qilish va yengilish hollari bo'lishi tabiiydir. Binobarin, bolani o'yin paytida hafa bo'lishdan, afsus-nadomatlardan va boshqa salbiy hayajonlardan ehtiyyot qilishning iloji yo'q.

O'yin paytida yuz beradigan salbiy his-hayajonlar bolalar axloqini chiniqtiradi, hayotda uchraydigan to'siqlarni yengishga tayyorlaydi. Chunki hayotda quvonch ham tashvish ham, g'alaba va mag'lubiyat ham hamisha yonma-yon

yuradi. O'yin kechinmaları aslida bolani haqiqiy hayotga chiniqtirib boradi.

Bolalarga xalq o'yinlariga qiziqish uyg'otish kerak. Chunki xalq o'yinlari orqali bolalar o'z xalqining urf-odatlarini, madaniyatini va turmushini o'rganadilar. Oilada bolalar bilan «Xolam mehmonga kelidi», «Tapur-to'pur qayrag'och», «Aylanma darra», «Bekinmachoq», «Tortish-machoq» kabi o'yinlarni o'ynash maqsadga muvofiqdir.

Harakatli o'yinlarni ko'p kvartirali uylar yoki mahallada yashaydigan barcha bolalar uchun mahalla guzarlarida yoki bo'lmasam sport maydonchalarida tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Harakatli o'yinlarni o'tkazishda ota-onalar rahbarlik qilishlari va bolalarni uyushtirishlari zarur. Bir necha ota-onalarning bolalarni yig'adi, o'yin muddatlarini rejalashtiradi, o'yinda qatnashadiganlar sonini belgilaydi va so'ngra o'yinni o'tkazadi. Bu holda juda ko'p bolalar qatnasha oladigan o'yin turlari tanlanishi kerak.

O'yinchilarni tanlashda, yuqorida aytganimizdek, bolalarning yosh xususiyatlari va jismoniy imkoniyatlarini, qiziqishlarini hisobga olish shart.

Harakatchan o'yinlar – bir harakatdan ikkinchisiga tez o'tishni talab qiladigan o'yinlar bolalarda chaqqonlikni tarbiyalaydi. Tovushni eshitganda, biror narsani ko'rganda, sezganda hozirjavoblik talab etadigan, harakatlar tez to'xtatiladigan, to'xtatib turiladigan va birdan boshlab yuboriladigan o'yinlar, masofani qisqa muddatda bosib o'tish bolalarda tezkorlikni takomillashtiradi. Qisqa vaqtda o'lchovi me'yorda bo'lgan kuchni zo'riqtiradigan o'yinlar bola kuchini oshiradi. Betinim harakat qilib, harakatlarni bir necha marta takrorlashni talab etadigan, ancha kuch-quvvat sarflanadigan o'yinlar tanni chiniqtiradi.

Oilada bolalarni jismoniy mashqlarga o'rgatish

Oilada bolalarni jismoniy mashqlarni bajarishga o'rgatib borish zarurdir. Chunki jismoniy mashqlar bolalarni sog'lom-lashtirishga, ularni chiniqtirishga va jismoniy mehnatga tay-yorlashga yordam beradi.

Jismoniy mashqlar inson o'zida bo'lajak mehnat faoliyati (ov, turli mehnat qurollari yasash va hokazo) arafasida oldindan jismoniy tayyorgarlik ko'rish ehtiyojini anglagan davrda paydo bo'lgan. Tajriba insonga ov oldidan bo'ladigan tayyorgarlik va uning natijalari o'rtasida aloqa o'rnatishga va to'plangan harakat tajribasini avloddan-avlodga berish muhimligi baholashga imkon berdi. Inson ov qilishdan ancha oldin bo'lajak faoliyatini mashq qiladi: hayvon tasvirini, (suratlar, tulup va hokazo) mo'ljalga olishga harakat qiladi. Bunday harakatlarni ko'p marta takrorlash natijasida insonda nishonga tekkizish malakasi shakllangan, ko'z bilan chamalesh, kuch va boshqa fazilatlar rivojlangan. Shunday qilib, jismoniy mashqlar dastavval mehnatda moniy qo'llaniladigan harakatlardan tashkil topgan. Keyinchalik jismoniy mashqlarning rivojlanishiga harbiy ish, fan va san'at sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Jamiyatning va jismoniy tarbiyaning rivojlanishi bilan mehnat harakatlari formalari va jismoniy mashqlar o'rtasidaga farq yo'qolib bordi. Bu murakkab harakat faoliyatidan ayrim mashqlar (turli masofalarga yugurish, uzoqqa uloqtirish, uzunlikka sakrash va boshqalar)ni ajratib olish va ulardan jismoniy tarbiya maqsadlarida foydalanish imkonini berdi. Jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliy mashg'ulotning rivojlanishi jarayonida ayrim muskul gruppalarini uchun maxsus (predmetlarsiz va predmetlar bilan, predmetlarda,

gimnastika snaryadlari va boshqalarda) bajariladigan mashqlar shuningdek, o'yinlar (voleybol, basketbol, futbol, xokkey va boshqalar) uchun maxsus mashqlar yaratildi. Hozirgi vaqtida jismoniy mashqlarning katta miqdori mavjud va ularning rivojlanishi davom etmoqda.

Oilada bolalarni jismoniy mashqlarga o'rgatish orqali ularda sportning biror bir turi bilan mustaqil holda shug'ullanish malakalarini tarbiyalash mumkin.

Sport jismoniy mashqlarning biror turida yuqori muvaffaqiyatga erishishga yo'naltirilgani bilan xarakterlanadi, kishining ma'naviy va jismoniy kuchlariga yuksak talablar qo'yadi. Shuning uchun u faqat muayyan yosh bosqichining rivojlanish darajasidagina qo'llanishi mumkin. Bu esa jismoniy tayyorlik va sog'lig'iga muvofiq keladigan sharoitni talab qiladi.

Sport jismonan kamol topishga xizmat qiladi va ma'naviy irodaviy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Shuning uchun sport bilan shug'ullanish ayniqsa, kishi organizmining hamda inson shaxsining shakllanish davrida foydalidir.

Oilada bolalarni oddiy turizmga o'rgatish

Turizm harakat ko'nikmalarini mustahkamlashga va tabiiy sharetlarda jismoniy fazilatlarni rivojlantirishga imkon beradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan turli harakat usullaridan foydalangan holda (piyoda yurish, chanch'ida, velosipedda yurish) uchastkadan tashqariga, shahar tashqarisiga sayrlar uyushtiriladi. Sayr chog'ida yo'l-yo'lakay turli mashqlarni bajarish mumkin (masalan, to'nkalardan sakrash, arqondan sakrab o'tish, arg'amchida sakrash, koptok bilan bajariladigan mashqlar, harakatli o'yinlar va boshqalar).

Jismoniy mashqlarning ochiq havoda bajarilishi ularning sog'omloqlashtirish samaradorligini oshiradi.

Oilada bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalash ota-onalardan katta mas'uliyatni, bilimni talab etadi. Bolalarga jismoniy tarbiya berishda ota-onalar quyidagi tavsiyalarga rioya qilishlari zarur:

1. Ota-onalar bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalash bo'yicha bilimga ega bo'lishlari.
2. Ota-onalarning o'zлari turli xil jismoniy mashqlarni bajarish orqali bolalarga namuna bo'lishlari kerak.
3. Ota-onalar bolalarni yosh va o'ziga xos xususiyatlarini bilishlari zarur.
4. Ota-onalar bolalarni biror bir sport turi bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishlari kerak.
5. Ota-onalar bolalari bilan xiyobonlarga, tabiat qo'yniga sayohat uyuştirishlari va bu sayohatlar davomida turli xil mashqlar va harakatdi o'yinlarni o'tkazishlari maqsadga muvofiqdir.
6. Ota-onalar bolalar bilan birgalikda jismoniy tartibga oid kitoblarni, maqolalarni mutola qilishlari va ularni birgalikda muhokama qilishlari kerak.
7. Ota-onalar bolalar bilan birgalikda turli xil sport musobaqalariga borishlari maqsadga muvofiqdir.

Oilada bolalar o'yinlarini tashkil etish

Oila – bu muqaddas dargoh bo'lib, uning asosiy muammosi bola shaxsini har tomonlama tarbiyalashga erishishni ta'minlashdan iborat. Bugungi kunda barkamol shaxsni tarbiyalash davlatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Ma'lumki, oilada bolalarning asosiy vaqtı kattalar

mehnatiga yordam berish, tevarak-atrofdagi voqealarni va hodisalariga nisbatan o‘z munosabatlarini o‘yin jarayoni orqali aks ettirish, ularga taqlid qilish bilan o‘tadi.

O‘yin – bolalarning har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi hamda asosiy faoliyat turi hisoblanadi.

O‘yin – uzoq davrlardan beri, mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o‘ziga qaratib kelgan.

O‘rta Osiyo madaniyati tarixida farzand tarbiyasiga juda katta e’tibor qaratilganligi, mashhur allomalardan Abu Nasr al-Forobi, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig, baxt keltiruvchi bilim», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» («Haqiqat sovg‘alari») kabi jahonga mashhur asarlarida xalqimizga xos bo‘lgan farzand tarbiyasining muhim omillari ustida fikr yuritganlar.

Xalq pedagogikasi chuqur o‘rgatilganda, mutafakkirlarning farzand ta’lim tarbiyasi va odob-axloqqa oid asarlarida, o‘zbek xalqi bolalarni tarbiyalashda tarbiyaviy ishning eng ta’sirchan uslubi-o‘yin shaklidan juda keng foydalanligini ko‘ramiz.

Bola tarbiyasida o‘yining o‘ziga xos xususiyatlari va turlari mavjud. O‘yin mazmuni va tashkiliy ko‘rsatkichi darajasiga ko‘ra: xalq milliy harakatli o‘yinlari, ijodiy o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, ermak-ovutmachoq o‘yinlar, sanamalar xalq og‘zaki ijodidagi o‘yin turlari mavjud.

O‘zbek xalqi bolalarni tarbiyalashda an‘anaviy o‘yin turlaridan, (o‘g‘il va qiz bolalarni o‘ziga xos xususiyatlarini tarbiyalashda) tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlaridan foydalanganlar. O‘g‘il bolalarni uddaburon, chaqqon, topqir, qizlarni mehr-shavqatli, uy ishlariga kirishimli qilib tarbiya-

langan. Ularni hayotga, turmushning og‘ir yengil sinovlariga tayyorlab borishga katta e’tibor qaratilgan. Bunday jarayonlarda ota-onaning shaxsiy namuna bo‘lishi, mehnatga chiniqtirishi, mehnatga o‘rgatish kabi tarbiya shakllaridan unumli foydalanilgan.

O‘yin – doimo hayotni aks ettiradi. O‘yin o‘zining kelib chiqishiga ko‘ra, yo‘nalish va mazmuniga ko‘ra ijtimoiy voqelik hisoblanadi. O‘yin jarayonida bolaning psixik bilish jarayoni, irodasi, hissiyoti, ehtiyoji, qiziqishlari, ta’sirchanligi – uning butun shaxsiyati shakllanadi. Bola o‘yinda amamliy ehtiyojlarga qaram bo‘lmaydi. Bunda u o‘zining bevosita ehtiyoji va qiziqishlaridan kelib chiqadi. Bolalarning o‘yinlari o‘zining rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Bolalar mustaqil ijodiy o‘yinlarni ko‘proq o‘ynaydilar. Bu o‘yinlarni bolalar o‘zлari o‘ylab chiqadilar. Bolalar o‘z taassurotlari, ko‘rgan-eshitgan, his qilgan narsalarga nisbatan o‘z munosabatlarini aks ettiradilar. Bolalarning ijodiy o‘yinlarini mazmuni va syujetiga ko‘ra 3 guruhga bo‘lish mumkin.

1. Maishiy o‘yinlar – bunda bola oila va boshqa joylarda bo‘layotgan voqelikni aks ettiradi. Bunda bolalar buva-buvi, ota-onsa, aka-ukalalarining munosabatlarni aks ettiradilar. Kattalarning xatti-harakatlariga, so‘zlashish madaniyatiga taqlid qiladilar, ota-onsa rolini ijro etadilar.

2. Mehnat mavzusidagi o‘yinlar – bunda oiladagi kattalar mehnatida ishtirok etishlari o‘z-o‘ziga xizmat (mustaqil kiyinib-yechinishlari, o‘yinchoqlarni joy-joyiga taxlab qo‘yishlari, uy yumushlariga yordam berishlari, uyni supurish, pol artish, hovliga SUV sepish, gullarni tagini yumshatish, SUV quyish, o‘z xonasi anjomlarini to‘g‘ri saranjomlash) va boshqalar.

3. Ijtimoiy o‘yinlar – bu o‘yinlarda bolalar «O‘qituv-chi», «Shifokor», «Quruvchi» o‘yinlari orqali kasb-hunar haqidagi tasavvurlari va tafakkurlari shakllanib boradi.

O‘yinda kattalar turmushiga, ishlariga, jamiyatdagi xulq atvor me’yor qoidalariga ijobjiy munosabat shakllantiriladi. Bolalarning aqliy jihatdan tarbiyalashda ijodiy o‘yinlarning roli kattadir. Bola o‘ynayotganda xayol qiladi, voqeahodisalarni xayolan ularni qayta tiklaydi. O‘yining xayoliy vaziyati bolaning aqliy faoliyatining rivojlanishiga doimo ta’sir ko‘rsatadi.

O‘yining san’atga yaqinligi syujetli rolli o‘yinlardan estetik tarbiyada foydalanish imkonini yaratadi. Bola o‘yinidagi ijodkorlik bilan bog‘liq bo‘lgan tuyg‘ular estetik tuyg‘ularga yaqin turadi. O‘yinda bolaning katta harakat tajribasi shakllanadi. Turli harakatlarni rivojlantirish va takomillashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi, bola rolga kiradi, o‘z roliga oida xatti-harakatlarni amalga oshirish uchun bu harakatlardan foydalanadi, tasvirlayotgan rollarning o‘ziga xos xususiyatlarini ongli ravishda ifodalanadi.

Ikki yoshdagи bolalar hayotida syujetli o‘yinchoqlar bilan juda oddiy o‘yinlar o‘tkaziladi. Bolalar bu o‘yinchoqlarni qo‘lda ushlab yuradilar, siqib ko‘radilar, yerga tashlab ko‘radilar, o‘yinchoqlarni g‘ildiratadilar, o‘yinchoqda nima tasvirlanganligiga e’tibor bermaydilar. Bu yoshda kundalik hayotda tevarak-trofdagi katta kishilar va bolalar harakatni kuzatib borishni, bu harakatlarni o‘z o‘yinlarida aks ettirishni o‘rgatish lozim: qo‘g‘irchoqni ovqatlantirish, uyquga yotqizish va boshqalar.

Uch yoshga qadam qo‘yan bolalar bilan suhbatlar, kuzatishlar o‘tkazish, hikoya va ertaklar o‘qib berish, maslahat berish va o‘yinlarga qiziqtirish kerak. O‘yinda

bolalarni katta ish-harakatining faqat tashqi tomonigagina taqlid qildirmay balki ularni odamlarga, mehnatga bo‘lgan munosabatlariga ham taqlid qildirish, bolalarda ahillik bilan o‘ynay olish, rollarni taqsimlay bilish, ko‘zlangan maqsadga erisha olish, tortinchoq va uyatchang bolalarga loyiq rollarni taklif qilib, ularning o‘yinga qo‘shilishiga yordam berish malakasini tarkib toptirish.

Katta yoshli bolalar hayotida harakatlar qatorida xilmay-xil ijtimoiy munosabatlar, xatti-harakatlar ham aks eta boshlaydi. O‘yinlar mavzusi doirasini kengayishi, ular mazmuni-ning teranlashuvi, o‘yin shakli va tuzilishining o‘zgarishiga olib keladi.

O‘yinning mazmun va mohiyatiga ko‘ra: tayyorgarlik davri, o‘yinga kirishish, o‘yindagi harakatlarni muhokama qilish, asosiyalarini belgilab olish. Bu jarayon o‘yin mazmunini to‘laroq ifoda eta olishga, o‘zaro iliq munosabatlarini o‘rnatishda, kelishib olishga yordam beradi. O‘yinni rivojlantirish uchun o‘yinga qo‘yiladigan talablar mazmunini o‘zgartirish kerak. O‘yin vaziyatini tanlash, o‘yinga rahbarlik qilayotgan ota-onaning mahoratiga, qiziqishiga bog‘liqdir.

Ota-onsa oilada bolalarning ijodiy qobiliyatlarini mahoratlarini o‘stirish maqsadida badiiy asarlarni, ertak va hikoyalarni sahnalashtirish usullaridan keng foydalanishlari mumkin.

Sahnalashtirish o‘yinlarida bola o‘yin jarayoniga kirib boradi, voqeа va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo‘lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobjiy fazilatlarni o‘zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning nutq faolligi, lug‘at boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi.

Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. Asar mazmunining g‘oyaviy-ma’naviy barkamolligi.
2. Asarning badiiy jihatdan mazmundorligi.
3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha asar ahamiyatlidir.
4. Asarda mazmun yaxshi bo‘lishi bilan birga, harakat-larning turi ham ko‘p bo‘lishi lozim.
5. Asarni ifodali o‘qishga mos bo‘lishi.
6. Asar mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog‘langan bo‘l-mog‘i lozim.

Bolalar xalq ertaklarining sahnalashtirishni yaxshi ko‘ra-dilar. Masalan: «Sholg‘om», «Zumrad va Qimmat», «Bo‘g‘ir-soq» va boshqalar.

Bolalar boshqa xalq ertaklarini ham turli usullarda qo‘g‘ir-choq, soya, stol teatri orqali sahnalashtirishga ehtiyoj sezadilar.

Badiiy asarni eslab qolishlari uchun uni qayta o‘qib berish, sahna ko‘rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

Sahnalashtirish o‘yinlari qiziqarli o‘tishi va uzoq vaqt davom etishi uchun kerakli jihozlar tayyorlanishi va unga to‘g‘ri rahbarlik qilinishi kerak. Kattalar-o‘yin rejissyori rolini amalga oshira borib, bolalar xatti-harakatlarini, qobiliyatlarini, intilishlari hisobga olib boradi. O‘yinda faol ishtirok etgan bolalarni alohida rag‘batlantiriladi, kelgusida qaysi asarlarni sahnalashtirish kerakligini aniqlaydi.

Bolalarni ijodiy qobiliyatlarini yanada takomillashtirishda – qurilish materiallari bilan o‘tkaziladigan o‘yinlarning roli kattadir.

Qurish – yasash o‘yinlari bolada buyum obrazini fazoviy ifodada tasvirlashni talab qiladi. O‘yin jarayonida biror bir material yoki buyumning hajmi, katta-kichikligi, bir-biriga mosligi, fazoviy mo‘ljallay olish ko‘nikmasi shakllanadi, rivojlanadi.

Qurish – yasash o‘yinlari bolalarda kuzatuvchanlikni, buyumlarni fazoviy joylashtira olish, maqsadga erisha olish kabi faoliyatlarga o‘rgatadi. Masalan: uycha, ko‘prik, saroy, uy hayvonlari uchun maxsus maydonchalarni qurish nazarda tutiladi.

Qum bilan o‘ynash. Qum bolalarning o‘ynashlari uchun eng qulay o‘yin vositasi bo‘lib hisoblanadi. Qumlar maxsus yashiklarda nam holatda saqlanadi. Qumni saqlashga gigienik talablar qo‘yiladi: a) qum turli xil tosh, shishalardan tozalangan bo‘lishi; b) qum faqat namroq holda saqlanishi kerak; d) bolalarning salomatligiga xavf solmasligi kerak.

Kichik yoshdagи bolalarni qum bilan o‘ynashlari uchun bayroqchalar, o‘yinchoqlar tayyorlab qo‘yilishi kerak.

Suv bilan kichik yoshdan boshlab shug‘ullanish mumkin. Suvda qo‘g‘irchoqni cho‘miltirish, o‘yinchoqlar bilan suvda o‘ynash, katta yoshdagи bolalar esa suvda cho‘milishlari mumkin.

Qor bilan o‘ynaladigan o‘yinlar bolalarda quvnoq kayfiyatni uyg‘otadi. Buning uchun bolalarga yog‘och belkukrakcha, qorni tashish uchun yashikcha ortilgan chana bo‘lishi shart. Kattalar yordamida qor uyumlaridan turli shakllar, qorbobo, qorqiz, hayvonlarning qiyofasini yasaydilar.

Milliy o‘yinlar

Milliy o‘yinlar ikki guruhga bo‘linadi: 1. Milliy harakatli o‘yinlar. 2. Milliy xalq o‘yinlariga bo‘linadi.

Milliy harakatli o'yinlar sport turlari bilan hamda xalqimiz qadriyatlari bilan aloqador bo'lib, ular asrlar davomida davrlarga mos ravishda rivojlanib, takomillashib, e'zozlaniň kelingan. U bolalarni jismonan baquvvat, sog'lom, jasur, qat'iyatli, chaqqon, uddaburon bo'lib o'sishlarida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Xalq milliy o'yinlarida millatning o'tmish tarixi, ma'naviy va madaniy rivojlanishiň xarakter xususiyatlari, urf-odatlari, an'analari jamlanganadir.

Xalq milliy o'yinlari orqali bolalarni ma'naviy, aqliy, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalab borish jarayonida bolallarda o'z Vatanini sevish, uning boyliklarini qadriga yetish, buyuk ajdodlarimiz meroslarini hurmat qilish, milliy kuy va qo'shiqlardan zavqlanish tuyg'ularini, shuningdek, o'sib kelayotgan yosh avlodda chidamlilik, sabr-toqatlilik, tezkorlik, ildamlik, botirlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanib boradi.

Xalq milliy o'yinlarini oilada tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim.

1. Xalq milliy o'yinlarining turlari va ularni tashkil etish yo'llari, usullari hamda uslublari bilan ota-onalarni tanishtirish.

2. Milliy o'yinlarni tashkil etishda ma'naviy qadriyatlar va urf-odatlarimizni kundalik hayat jarayoniga singdirib borish.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda xalq milliy o'yinlaridan maqsadli foydalanish.

4. Xalq ertaklari, xalq og'zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish.

5. Bolalarni o'ynashlari uchun oilada shart-sharoit (o'yin uchun jihozlar, atributlar) yaratish.

6. Mahallalar o‘rtasida o‘tkaziladigan milliy o‘yinlar bo‘yicha ko‘rik tanlovlari va musobaqalarda qatnashish.

Milliy harakatli o‘yin bolalarning yosh xususiyatlariga, o‘yindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi.

1–2 yoshli bolalar bilan o‘ynaladigan o‘yin turlariga: «Barmoqqa-barmoq», «Goz-g‘oz», «Goz tursin», «Bo‘p-bo‘p», «Toy-toy», «Poezd», «Achrom-achom» bo‘lib bu o‘yinlar, go‘dak endi bir-ikki qadam tashlashni o‘rganayotgan vaqtda gavdasini to‘g‘ri tutishga yordam beradigan o‘yinlar hisoblanadi.

3–4 yoshli bolalar bilan «Ot o‘yin», «Kesak qo‘ydi», «Ko‘z boylagich», «Choriy chambar», «Avvalakam», «Tayoq irg‘itish», «Qulqoq cho‘zish», «Chitti gul», «Xolam mehmonga keldi», «Uchdi-uchdi» o‘yinlaridir.

4–5 yoshli bolalar bilan «Chir aylanma», «Chillak», «Tortishmachoq», «Lafta», «Dor o‘yin», «Ko‘pkari», «Berkimmachoq», «Jami», «Chertan devor gir-gir aylan» o‘yinlaridir.

Katta yoshdagisi bolalar uchun – «Chavandozlar», «Doiraga tort», «Do‘ppi yashirma», «Sapalak», «Besh tosh», «Oq terakmi, ko‘k terak» o‘yinlari orqali bolalarda chaq-qonlik o‘z-o‘zini boshqara olish va o‘ziga ishonch tarbiyalanadi, qat’iyatlilik ko‘nikmalari shakllanadi, fikrlashga o‘rgatilib boriladi, topqirlik qobiliyatları rivojlanadi, hozir-javob bo‘lishga tayyorlanib boriladi.

Xalq harakatli o‘yinlarini tashkil etish va bolalarga o‘rgatishda quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur.

1. Bolani ruhiy jihatdan o‘yinga tayyorlash.
2. O‘yin jarayonida bolalarning jismoniy tayyorgarligi va yosh xususiyatlariga e’tibor berish.

3. Har bir o'yinning pedagogik tomonlarini nazardan ochirmaslik.

4. O'yinlarni ijtimoiy foydali mehnat bilan bog'lagan holda hayotga tadbiq etish.

5. O'yin davomida o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash.

6. Jamoa bo'lib birgalikda harakat qilish, jamoa manfatiga hurmat va e'tiborli bo'lish.

Milliy harakatli o'yinlarning sport ko'rinishidagi turralidan «Kurash», «Chavandozlar» bolalarda kuchli va chaq-qon, halol harakat qilish malakalarini orttiradi. O'zbek xalqining ermak va ovutmachoq o'yinlardan asosan bolaning ilk yosh davridan boshlab shug'ullanib boriladi. Bu o'yinlar asosan kattalarning bevosita rahbarligida harakat va so'zlarning uyg'unlashuvi natijasida o'ynatiladi. Masalan: «Barmoqlar», «Sichqon-sichqon» o'yinlari orqali bolalarda xushchaqchaqlik kayfiyatları hosil qilinib tasavvurlari o'sib boradi. Xalqimizda «Bolaning ilonni changallaydigan davri» degan ibora bor. Bu hikmat bola hali qo'rqish hissini bilmaydigan davrida, ya'ni yaxshi-yomonni ajrata olmaydigan vaqtida qo'llaniladi. Xuddi shu davrda «Sichqon-sichqon» o'yini qo'l keladi.

Ilk yoshdagи bolalar dastro'moldan yasalgan «sichqon»-ning harakatlanishidan qattiq zavqlanib, qiyqirib yayraydilar. «Sichqon»ni harakatlantiruvchi katta odam uning juda chaqqonligini namoyish etishi kerak. Bu ovutmachoq go'dakka sichqon shakli va uning juda yugurdakligi to'g'risida tasavvur hosil qilishga ko'maklashadi. Ermak o'yinlardan «Oymo'ma», «Boqqa kirsam maylimi», «Alla», «Aji-aji», «Boylandi», «Chapakka-xo-chapakka» – orqali bolalarni muloqotga o'rgatib boriladi. Bu jarayonda bolalarni eshitish,

ko‘rish, sezish, his qila olish kabi sensor holatlari faollashadi. Bolalarning nutq faolligini o‘stirish maqsadida aytishma o‘yinlaridan keng foydalaniladi. Bunday o‘yinlarga «Boylandi», «Xolam keldi», «Mundi-mundi», «Bulbulim-bulbulim», «Ko‘z boylog‘ich», «Oq sholi, ko‘k sholi», «Ada xormang»lar kiradi. Yana, xalqimizda azal-azaldan o‘ynab kelinadigan so‘z o‘yinlaridan «Yarashtirgich»lar hali-hanuzgacha bolalar orasida «tinchlik – yarashuv» timsoli sifatida qo‘llaniladi. Bu o‘yinlar bolalar tilidan ana shunday jaranglaydi:

Karimga berdim toychoq,
U olavermadni har choq.
Toychog‘imni kim olsa,
Men u bilan chin o‘rtoq.
Yalinchoq-yalinmachoq,
Pista po‘choq.
Qilichmi, to‘qmoq, qirq yilgacha o‘rtoq,
To‘qmoq - to‘qson yilgacha o‘rtoq.

Bolalar matematik tasavvurlarini o‘stirishga yordam beradigan o‘yin turiga «Sanamalar» kiradi. Bu o‘yin jara-yonida bolalar she’riy satrlar orqali son-sanoqdan topishmoq tarzida foydalaniib qatnashadilar. Bunda bolalarning tasavvurlari, fikrlash doiralari kengayib, she’riy ohangda to‘g‘ri javob qaytarishga o‘rgatilib boriladi. Asosan bu o‘yinlar quyidagicha jaranglaydi:

Dadamu-oyim,
Bor ikkita singlim.
Bahodir, Dildor,

Bog‘chaga ketar,
Sanab ko‘r chaqqon,
Bizlar nechta jon.

O‘zbek xalqi nihoyatda so‘zga chechan, topqir bo‘lib, o‘zining al-yoru-qo‘shiqlariga boydir. Bu fikrimizning isboti sifatida xalq orasida mashhur bo‘lgan «Qiqillamalar»dir. Bu so‘z o‘yinlarida sodir bo‘layotgan voqeа hodisalar, kechinmalar she’riy ohangda ijro etiladi. Masalan:

Shov-shov etadi ariq,
Karim ekadi tariq.
Yoki
Echki keladi ma’rab,
O‘z egasiga qarab.

Ota-onalar o‘z farzandlari bilan xalq o‘yinlaridan oqilona foydalansalar, bolalarni har tomonlama kamol topishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda bolaning tarbiyasida, har tomonlama rivojlanishida o‘yinchoqlarning ahamiyati ham beqiyosdir.

Farzand tarbiyasida o‘yinchoqning ahamiyati

O‘yinchoq – bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ularga yo‘ldosh quvонч manbayidir.

O‘yinchoq – bolaning o‘ynashi uchun mo‘ljallangan va boshqa maqsadlardan foydalanmaydigan buyum bo‘lib hisoblanadi. O‘yinchoqda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiylar aks etadi.

Pedagog A.S.Makarenko, «O'yinchoq o'yinning «material asosi», o'yinchoq o'yinni yaratishda ishtirok etadi, bolaning o'ziga xos sherigi sifatida namoyon bo'ladi, uning shaxsiga ta'sir ko'rsatadi», – deb ta'kidlaydi. Rus pedagoglari – o'yinchoq bolalarga atrofdagi mavjud voqelikni o'rghanishga yordam beradigan, ranglar, buyumlar ko'lamenti ularning materiallarini farqlash malakasini rivojlantiruvchi vosita deb ta'kidlab, bola dunyoqarashini kengaytirishdagi ahamiyatini ko'rsatib berdilar.

Xalq pedagogikasida o'yinchoqlarning butun bir tizimini ishlab chiqilgan bo'lib, bular bolaning sensor qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

O'yinchoqlar – bolalarning nutqiy faolligini uyg'otadi, lug'at boyligini oshiradi, ularda tahlil qilish yaxlit holatga keltirish, umumlashtirish, taqqoslash, tavsiflash diqqatni jamlash va barqarorligini rivojlanishida muhim bir vositadir.

O'yinchoq bolalarda – ma'naviy-axloqiy tuyg'ularni (mehribonlik, avaylash, e'tiborlik) shakllantiradi, atrof-muhitga ijobiy munosabatni uyg'otadi.

O'yinchoq tanlashda – bolaning yosh va individual xususiyatlarini, qiziqishlari, istaklari hisobga olinadi. Maqsadga qaratilgan bunday yondoshuv – o'yinchoq tanlashga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Asosan: pedagogik, gigienik, badiiy talab orqali o'yinchoq tanlanadi.

Pedagogik talab. O'yinchoq obrazi va mazmunining bola tarbiyasiga muvofiqligi; jamiyatimiz g'oyasi nuqtayi nazariga mos kelishi, g'oyaviy jihatdan qimmatli bo'lishi – pedagogik talabning muhim belgisi hisoblanadi. O'yinchoq – bolada oliyanob tuyg'ularni uyg'otishi, boshqa millat bolalari bilan do'stona munosabatlarni tarbiyalashda, voqelikka nisbatan oliyanob tuyg'ular uyg'otishi, ijobiy axloqiy tajriba to'plashga

yordam berishi lozim. O'yinchoq bolaning faollikka bo'lgan intilishini qoniqtirishi va uni uyg'otishi kerak. Obrazli o'yinchoq – real haqiqatni ifoda etuvchi, buyum va uning xususiyatlari va hayotdagi ahamiyatini aks ettiradi.

O'yinchoqning dinamiklik xususiyati undan ko'p marotaba rejali tarzda foydalanish imkonini yaratadi. Bu xususiyatidan kelib chiqib, o'yinchoqqa quyidagi talablar qo'yiladi.

Gigienik talablar. O'yinchoq qurilishi qanday materialdan va rangdan tayyorlanganligi, bolaning hayotiga hech qanday xavf solmasligi, yaxshi tozalay olish mumkinligi asosiy talablardan hisoblanadi.

Badiiy talablar. Shabl, bo'yoq va bezaklar bilan har tomonlama uyg'unlashuv, bir-birini rang va shabl jihatdan to'ldirib, ta'kidlab, o'yinchoqning badiiy ifodalilagini oshiradi. O'yinchoqlarning tuzilishi va bezalishi bolalarning turli yosh bosqichlarda idrok etish xususiyatlariga to'la mos kelmog'i lozim.

To'g'ri tanlangan o'yinchoq-bolaning jismoniy, axloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasi rivojiga ijobiy ta'sir ko'r-satadi.

Bolani aqliy jihatdan tarbiyalashda didaktik o'yinchoqlarning butun bir tizimi katta ahamiyat kasb etib, sensor va nutq rivojiga, fikrlash jarayonlari va diqqatini tarbiyalaydi, buyum va uning xususiyatlariga, qurilishiga bo'lgan qiziqish shakllanadi, bilim-tushunchalari boyib boradi.

Bolani axloqiy tarbiyalashda – o'yinchoq bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o'ynash tuyg'usini uyg'otadi va ijobiy histuyg'ularni tarkib toptiradi. Axloqiy his-tuyg'ularni shakllantirishda qo'g'irchoq muhim ahamiyatga ega. Qo'g'irchoq

– o'zining keng ma'noli xislatlari bilan bola hayotiga kirib keladi. Milliy qo'g'irchoq – bolalarni boshqa millatga mansub bo'lgan tengdoshlariga bo'lgan ijobiy munosabatni tarbiyalash manbalaridan hisoblanadi. San'atni birinchi yorqin obrazli va eng tushunarli buyumi bo'lgan o'yinchoq estetik hislar va kechinmalar uyg'otadi, estetik tarbiyani toplashga yordam beradi va badiiy didni shakllantiradi. Shu o'rinda bolalarga yaqin va tushunarli bo'lgan xalq o'yinchoqlarining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

Bolaning jismoniy tarbiyasida o'yinchoq bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvofiqlashtirishini rivojlantiradi.

Ilk yoshdagi bolalarga mo'ljallangan ko'p o'yinchoqlar (shakldoqlar, rezina koptokchalar, shaklchalar va boshqalar) bolada ko'rish va eshitish diqqatini rivojlantiradi, ushslash harakatlari va buyumli harakatlarni o'stirishga yordam beradi.

O'yinchoq – ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

O'yinchoqlarning turlari va ko'rinishlari bo'yicha quyidagi turkumlarga ajratiladi:

- sujetli-obrazli;
- texnika o'yinchoqlari;
- qurish – yasash, qurilish materiallari o'yinchoqlari;
- didaktik o'yinchoq va o'yinlar;
- sport va harakatli o'yinlar uchun mo'ljallangan o'yinchoqlar;
- yig'ma – bo'linma o'yinchoqlar;
- teatr va dekarativ o'yinchoqlar; (soya va qo'g'irchoq teatrlarining personajlari, drammalashtirilgan o'yinlar uchun kiyimlar, archa o'yinchoqlari);
- o'yinchoq – ermaklar;

- ohang chiqaruvchi musiqaviy o'yinchoqlar;
- qo'l bola o'yinchoqlar va o'yin materiallari, turli-tuman o'yin jihozlari.

Sujetli-obrazli o'yinlar — sujetli-rolli o'yin uchun foydalilaniladi. U bolalarda ijobiy xarakter qirralarini, mu-loyimlik, g'amxo'rlik, yordam berishga ehtiyoj, shuningdek, kattalar mehnatiga hurmat va tengdoshlari bilan o'ynay olish malakalarini tarbiyalaydi.

Texnika o'yinchoqlari — bolalarda texnikaga va texnika asboblariga bo'lgan qiziqishni va ularni o'z o'yinlarida qo'llay olish imkonini yaratadi. Bolalarni texnikaga bevosita aloqasi bor buyumning (mashinalar, mexanizmlar, transport turlari, aloqa vositalari) tashqi ko'rinishi, obrazni va unga xos harakatlarni tanishtiruvchi texnik o'yinchoqlar yaqin turadi.

Qurish-yasash o'yinchog'i sodda, boshqarish va foydalanish jihatdan qulay va osondir. Bu o'yinda buyumning asosiy vazifalariga taqlid qilish imkonini yaratishi lozim (avtomobilda g'ildiraklar harakatlanishi, eshik ochilishi). Quri-lish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinlarning asosiy 2 tipi mayjud:

- a) kublar, prizmalar, konuslar, piramida, selindrlar, plastinkalar, geometrik shakllar to'plami.
- b) turli blok-devor, froniton, kolonka, tom, ark va boshqa arxitektura va qurilish materiallaridir. Mayda (stol o'yinlari uchun) va yirik (polda va maydonchada) o'ynashga mo'ljallangan. Bu qurilish materiallarining rangi rang-barang bo'lishi mumkin.

Didaktik o'yinchoqlarning asosini xalq o'yinchoqlari tashkil qiladi. Ular o'yin vazifasini bajarishda bola o'z-o'zini nazorat qilishni ta'minlaydi. Xilma-xil mozaykalar sensor qobiliyatlarini rivojlantiruvchi didaktik o'yinchoqlarga man-

subdir. Ulardagi o'yin vazifasi naqshlar, rasmlarni tanlash va joylashtirishdan iborat.

Harakatli o'yinlarga mo'ljallangan o'yinchoqlar; suv, qum bilan o'ynaladigan o'yinchoqlar, koptoklar, arg'amchilar, chambaraklar, kegli va boshqalar. Ularning asosiy vazifasi bolalarning jismoniy jihatdan tarbiyalashni ta'minlaydi.

Musiqali va teatrlashtirilgan o'yinchoqlar bolalarning musiqaviy ohang va ritmni eshitma olish qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Katta yoshdagi bolalar ertaklarni sahnalash-tiradilar.

O'yinchoq – ovutmachoqlar – harakatchan, ko'pincha ovoz chiqaradigan bo'ladi. Ular bolalarni o'zlarining ajoyib xatti-harakatlari bilan quvontiradilar, sujetlari esa vaqtichog'lik bag'ishlaydi.

Qo'lbola o'yinchoqlarni kattalar bolalar bilan birgalikda tayyorlidaydilar va turli ertak, hikoyalarni sahnalashtiriladi.

O'yinchoqlarni tayyorlanadigan materiali bo'yicha tay-yorlash: hunarmandchilik, qo'lbola, fabrika usullari bor.

Taniqli pedagog A.S.Makarenko o'yinchoqlarning 3 tutini ajratib ko'rsatgan edi: tayyor o'yinchoqlar, yarim tayyor o'yinchoqlar va o'yin materiallari. Birinchi turi-bolalarni buyumlar va narsalarning rang-barangligi bilan tanishtiradi, tasavvurini o'stradi. Ikkinci turi-boladan faol faoliyatni talab qiladi, mantiqan va aqlan o'sishga yordam beradi. Uchinchi turi-bevosita bolaning ijodiy faoliyatini ta'minlaydi.

– Tug'ilgandan 2,5 oylik bolalar uchun mo'ljallangan o'yinchoqlar.

– Bu yoshdagi bolalarning asab-ruhiy rivojlanishlariga yordam beradigan yorqin rangdagi turli xildagi o'yinchoqdan foydalananiladi. Bu o'yinchoqlar bolalarning yotoqxonasi va

krovatlariga ilib qo'yiladi. Bola bu o'ynichoqlarga qaraydi, ularni ko'zdan kechiradi, tanish tovush uni o'ziga darhol jalgaladi, tinchitadi va quvontiradi.

– 6–9 oylik bolalarga yorqin rangdagi ovoz chiqaruvchi shiqildoqlar, halqacha, doirachalar, turli-tuman qo'g'irchoqlar, hayvon va qushlarni shakllari, bola qo'li etishi mumkin joylarga o'ynichoqlarni osib qo'yiladi va ularni ushlatiladi. Shuningdek yumalatib o'ynash uchun to'p va sharlar, chelakcha, o'ynichoqlarni joylash uchun maxsus yashikcha, puflab tayyorlanadigan o'ynichoqlar, emaklash uchun yordam beradigan o'ynichoqlar tavsiya etiladi.

– 9–12 oylik bolalar uchun – halqali minorachalar, ikki qavatli matryoshkalar, rangli kubiklar, ajratib olinadigan va bir-birining ichiga solib qo'yiladigan, buyumlar solingan tovoqchalar, qo'lga taqib olinadigan bilakuzukchalar, siq-qanda ovoz chiqaradigan rezinka o'ynichoqlar, plastmassali va yog'ochli bolg'achalar, suv quyish uchun mo'ljallangan suv chelakchasi, suv purkagich, teplovoz va boshqa o'ynichoqlardan foydalanish mumkin.

Ota-onalar uchun tavsiya etiladigan milliy harakatli o'yinlar «Qopqon»

O'yin tavsifi. Barcha o'yinchilar ikki guruhga bo'linadilar. Birinchi guruhdagilar aylana bo'lib tiziladilar, bu «Qopqon» bo'lib hisoblanadi. Ikkinci guruhdagilar «Sichqon»lar bo'lib, aylana tashqarisida turadilar.

«Qopqon» guruhidagi bolalar qo'l ushlashib, quyidagi so'zlarni aytib, aylana bo'ylab yuradilar:

Voy qurg'urlar, bu sichqonlar,
Ochofatlar jonga tegdi.

Qorni to‘yar, to‘ymas ko‘zi —
Nima ko‘rsa — shuni yeysi.
Shoshmang sizlar, badnafs zotlar,
Qo‘lga tushmayin qolmassiz.
Uyangizga qo‘ydik «qopqon»,
Hammangizni tez ushlarmiz!

Ular she‘rning so‘nggi satrini o‘qib bo‘lgach, turgan joylarida to‘xtaydilar bir-birlarining qo‘llarini qo‘yib yubormagan holda uni yuqoriga ko‘taradilar. Paytdan foydalanib, «Sichqon»lar, «Qopqon» ichiga kirib chiqib, qocha boshlaydilar. Shu vaqt rahbarning «Qopqon yopildi» ishorasi bilan aylana hosil qilib turgan o‘yinchilar cho‘qqayib o‘tiradilar qo‘llarini pastga tushiradilar. Bu holat «Qopqon» yopilganini bildiradi. Shunda aylana ichidan chiqolmay qolgan «Sichqon»lar tutilgan hisoblanadilar. O‘yin hamma «Sichqon»lar «Qopqon»ga tushgunicha davom etadi. So‘ngra ikkala guruhdagilar o‘rin almashadilar va o‘yin takrorlanadi. O‘yin qoidalari: 1. Ko‘tarilgan qo‘llarni faqat «Qopqon yopildi» ishorasidan keyin tushirish mumkin. 2. «Qopqon yopilgan»dan so‘ng, aylanani yorib chiqish yoki qo‘llar tagidan o‘tib ketish ham mumkin emas.

Metodik ko‘rsatmalar: Ota-onada «Qopqon yopildi» ishorasini o‘z vaqtida berish uchun «Sichqon»larning «Qopqon»dan qanday yugurib chiqayotganini diqqat bilan kuzatib turishi, shuningdek, «Qopqon»dan qochib chiqishga yuragi betlamayotgan «Sichqon»larga dalda berishi lozim. O‘yinni qiziqarliroq o‘tkazish uchun aytiladigan so‘zlarni o‘yinchilarga oldinroq yodlatib qo‘yish lozim.

«Quvnoq bolalar»

O‘yin tavsifi. Maydonchaning yon tomonlaridan 3–4 qadam narida shu tomonlar chetiga parallel chiziqlar tortiladi. Onaboshidan boshqa hamma o‘yinchilar shu chiziqning orqa tomonida saflanib turadilar. Onaboshi maydonchaning o‘rtasida ikkita chiziq orasida turadi.

Rahbar «Uch, to‘rt!» degandan keyin o‘yinchilar birgalikda shunday deydilar:

Biz quvnoq bolalarmiz,
O‘yin-kulgini sevamiz.
Qani o‘rtoq, quvib ko‘r,
Bittamizga yetib ko‘r.

Oxirgi so‘zlar aytib bo‘linishi bilanoq o‘yinchilar qaramaqarshi tomonga yugurib o‘tadilar. Onaboshi yugurib o‘tayotganlarga qo‘l tegizib to‘xtatishga harakat qiladi. Onaboshi qo‘l tegizgan o‘yinchilar o‘scha joyda to‘xtab qolishlari kerak. O‘yin rahbari ularni belgilab oladi va ularga o‘yinda yana qatnashishga ruxsat beradi. Qolgan o‘yinchilar maydonchaning yon tomonidagi chiziq orqasida to‘planadilar va u yerdan yana maydonchaning qarshi tomoniga yugurib o‘tadilar. O‘yin shu zaylda davom etaveradi. Onaboshi uch va undan ko‘p marta to‘xtatgan o‘yinchilar yutqizgan hisoblanadilar.

O‘yin qoidalari. 1. O‘yinchilar yugurib chiqish paytida bir-birlarini turtib yubormasliklari kerak. 2. Yugurib chiqqan o‘yinchilar orqaga qochishlari mumkin emas.

Bu o‘yinda: chaqqonlik, epchillik hamda chap berib yugurib ketish malakasi hosil qilinadi.

O'yining tavsifi. O'yin ishtirokchilaridan bittasi quvlovchi bo'ladi. U o'yin boshlanishida qo'liga qizil ro'molcha yoki lenta olib maydonchaning o'rtasida doira ichida turadi. Qolgan o'yinchilar maydonchaning xoqlagan yeriga borib turadilar. So'ngra kelishib olingan ishoraga muvofiq quvlovchi ro'molcha ushlagan qo'lini yuqoriga ko'tarib baland ovoz bilan «Men quvlovchiman!» deydi. Shundan keyin u bolalardan birini quvlab ketadi va unga ro'molchaning uchini tekkizishga harakat qiladi. Bolalar quvlovchiga chap berib qochishga intiladilar. Mabodo, quvlovchi ro'molchasining uchini birorta bolaga tekkizsa, u quvlovchi bo'lib qoladi. Ilgarigi quvlovchi esa ishtirokchilar bilan birga o'yinga kiradi, u ham yangi quvlovchiga chap berib qochishga intiladi.

O'yin qoidalari. 1. Quvlovchining qo'li tekkan-o'yinchi undan ro'molchani olib, ro'molcha ushlagan qo'lini yuqoriga ko'tarishi va baland ovoz bilan «Men quvlovchiman!» deyishi kerak. Shundan keyingina u boshqa o'yinchilarni quvlashi mumkin. 2. Yangi quvlovchi ro'molchani olishi bilanoq darrov, o'zidan oldingi quvlovchini ushlashi mumkin emas.

«Cho'qqayib o'tirib ol»

O'yin tavsifi. Maydoncha chiziq bilan chegaralanib qaergacha yugurish mumkinligi aniq ko'rsatib qo'yiladi. Bitta quvlovchi tayinlanadi. Qolgan o'yinchilar uning atrofida aylana hosil qilib turadilar.

Quvlovchi «Bir, ikki, uch», deganda hamma har tomonga qochib ketadi va quvlovchi ularni quvlay boshlaydi.

Quvlovchi biron o'yinchini endi tutay deganda o'yinchi cho'qqayib o'tirib qolsa, quvlovchi uni tutmaydi. Quvlovchi quvlashni davom ettiradi. O'yinni istalgan vaqtgacha davom ettirish mumkin.

O'yin qoidalari. 1. Faqat 5 soniya davomida cho'qqayib o'tirish mumkin. 2. Cho'qqayib o'tirishga ulgurgan bolani tutish mumkin emas. Tutilgan o'yinchi to'xtaydi va qo'lini yuqoriga ko'tarib, baland ovoz bilan «Men quvlovchiman!» — deb aytadi. Shundan keyingina u o'yinchilarni tutishga kirishadi. Agar u o'zini quvlovchi ekanligini ma'lum qilmasa, uning tutgan o'yinchisi tutilgan hisoblanmaydi.

«Qo'l keldi»

O'yin tavsifi. O'yin maydonchasi chiziqlar bilan chegaralanadi. Bir o'yinchi quvlovchi qilib tayinlanadi va u maydoncha o'rtasida turadi. Qolgan o'yinchilar uning atrofiga to'planadilar.

Quvlovchi qilib tayinlangan o'yinchi baland ovoz bilan «Men quvlovchiman!» — deyishi bilan boshqalar har tomonga yugurib ketadi. Quvlovchi ularni ushslash payida bo'ladi. Shunda orqasidan quvlovchi kelayotgan o'yinchi, «Qo'lingni ber!» deb, o'rtog'ini yordamga chaqirishi mumkin. Qo'l ushslashga ulgurgan o'yinchilarni tutish mumkin emas. Agar quvlovchi biror o'yinchini u sheringining qo'lini ushlab olishga ulgurmasdan tutib olsa, u bilan o'rincalmashadi.

O'yin qoidalari. 1. Yangi tayinlangan quvlovchi avval «Men quvlovchiman!» deyishi va shundan keyingina o'yinchilarni quvlay boshlashi lozim. 2. 2–3 soniyadan ortiq qo'l ushslashib turish mumkin emas. Agar birdaniga uch kishi

qo'l ushlashib qolsa, quvlovchi ularning chekkadagisini tutishi mumkin. 3. Maydonchadan tashqariga chiqqan o'yinchisi qo'lga tushgan hisoblanadi.

«Chillak»

O'yin tavsifi. O'yin o'tloq joyda yoki sport maydonchasida o'tkaziladi. Buning uchun uzunligi 40–50 sm, qalinligi 2–2,5 sm keladigan, bir uchi ikki tomondan yo'nilgan tayoq (dasta) hamda uzunligi 20 sm keladigan tayoqcha – chillak kerak bo'ladi.

O'yinda 2 tadan 10 tagacha bola qatnashishi mumkin. O'yinni yakkama-yakka hamda guruhlarga bo'linib o'ynasa ham bo'ladi.

Oldingi chiziqdan 2 m nariga chillakning dastasi qo'yiladi. O'yinchilar chillakni yerda yotgan dastaning ustiga tashlaydilar. Chillakni birinchi bo'lib dastaga tekkizgan o'yinchisi o'yinni boshlash huquqiga ega bo'ladi. Shundan so'ng, o'yin quyidagicha boshlanadi. O'yinchisi chillakni dastaning uchiga qo'yib turib yengilgina ko'tarib tashlaydi va chillak qayta tushib, dastaga tegishi va yana sapchib ko'tarilib, qaytib yana dasta ustiga tushishi kerak. Chillakning dastaga har bir tekkani uchun bittadan ochko beriladi.

O'yinchisi shu tartibda necha ball to'plasa, u dasta bilan chillakni to'g'iga qarab shuncha marta uradi. Agar har urganda chillak 20–30 m nariga borib tushsa, demak, 3–4 ball bo'yicha hisoblanganda masofa 90–100 m ga yetadi.

Yutqizgan o'yinchisi yoki raqib guruhi o'yinchisi ana shu masofani yugurib (zuvlab) o'tadi. Bunda u nafas olib uni chiqarmay yugurishi lozim. Chopib ketayotganida nafas olsa,

o'sha joyda yana dasta bilan chillakni urib qaytadan chopib o'tiladigan masofa belgilanadi.

O'yin qoidalari. 1. Dasta bilan chillakni ko'tarib, tashlanganda chillak dastaga 3 martadan kam tegmasligi kerak. 2. Ishtirokchilar chillakni yerda yotgan dastaga tashlayotganda o'yinni boshlash chizig'ini bosmasligi kerak. 3. O'yinchi belgilangan masofani chopib o'tishdan bosh tortsa, u ashula aytib yoki o'ynab berishi, she'r o'qib berishi ham mumkin. 4. Nafas olish bilan bog'liq tushunmovchilik kelib chiqmasligi uchun yugurayotgan o'yinchi qo'ng'izning zizlashiga o'xhash ovoz chiqarib yugurishi lozim.

Bu o'yinda: qat'iyatlilik va iroda sifatlari tarbiyalanadi va mustahkamlanadi.

VII bob. Oilada bolalarni mehnatga o'rgatish

Vatanimiz xalqlari jamiyat qurishning aniq vazifalarni hal qilishga zo'r g'ayrat va shijoat bilan kirishdilar. «Jamiyat barcha a'zolarning ongi va madaniyatini o'stirmasdan turib, eng yuqori darajadagi mehnat unumдорligini vujudga keltirishga, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga va turmush qoidalarini o'rnatishga erishib bo'lmaydi. Jamiat a'zolarining ongliligi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning ijodiy aktivligi qanchalik to'la va keng ko'lamda avj olsa biz «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» «Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur mohiyatini tez va muvaffaqiyatli amalga oshiramiz»

Mehnat – insonning maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, hayot kechirishining asosiy shartidir. Mehnat tufayli inson o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini amalga oshiradi.

Insonning o'zi esa mehnatkash bo'lib, u tufayli o'zining iste'dodi, qobiliyati, layoqatini namoyon etadi. Mehnat jarayonida insonning dunyoqarashi kengayib, bilim saviyasi oshib, o'z-o'zini jismoniy va ma'naviy jihatdan shakllantirib boradi.

Har bir inson u yoki bu kasbini yoki bir necha kasb – hunarni egallashi mumkin. «Bir yigitga qirq hunar ham oz» degan maqolning mazmunida ham bir necha kasbni egallash hayotiy ehtiyoj ekanligiga ishora etiladi. Har bir kasbning, hunarning o'ziga hos mashaqqati va lazzati bor. Uning

mashaqqatini matonat, tinimsiz izlanish, sabr-toqat bilan yenggan insongina uning lazzatidan bahra oladi.

Yoshlikda puxta egallagan hunar, mehnat malakalari inson umrining oxirigacha rohat — farog‘atda turmush kechirishning garovidir. «Hunarli yer hor bo‘lmas, burda nonga zor bo‘lmas», «Hunarmandning noni butun», «Hunar zar hunarsiz xar» (xar – eshak). «Bilgan bilar, bilmagan yitar», «Hunarli yigit mevali daraxt» kabi maqollarda ham rizq-nasibaning butunligi hunar orqasidan bo‘lishiga ishora etiladi. Hunar shunchalik katta, mangu boylikki, uni o‘g‘irlash ham, yondirish ham yo‘q qilish ham mumkin emas.

Oilada yoshlarning kasb-hunar egallashlari, mehnatsevar bo‘lib tarbiyalashlarida ustoz shogird an’analariiga rioya etmoq zarur. Chunki ustoz ko‘rmagan hunarmandning ishida unum bo‘lmaydi. Hunarning sir asrorlarini mukammal bilmaydi, yaratgan mahsulotining sifati yomon yoki xardorgir bo‘lmaydi. Oilada farzandning u yoki bu hunarning egallashida birinchi ustoz ota-onadir. Ota-onadan o‘zi sevgan hunar haqida dastlabki ma’lumotni olgan farzand, albatta, shu hunarning mohir ustasidan ta’limni olmog‘i zarur. Xalqimiz aytganidek: «Ustoz ko‘rmagan shogird ming maqomga yo‘rg‘alar».

Ustozni shogirdga nisbatan qattiqqo‘lligi, talabchanligi, rag‘batlantirishi yoki jazolashi uning kelajakda mohir hunar sohibi bo‘lib shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shogirdga nisbatan o‘ta mehribonlik ayash yuz-xotirchilik uni o‘rtamiyona hunarmand qilib qo‘yadi. Shuning uchun ustoz o‘zida mavjud bilimni shogirdi ongiga sabr — toqat bilan singdirishi, o‘zidan so‘ng uning hunarini davom ettiruvchi haqiqiy shogird yetishtirishga harakat qilmog‘i lozim.

Hunar egallagan mehnatdan bo‘yin tovlamaydigan odam jamiyatda qadr topadi. Xalq ichida obro‘ e’tibor mansab pillapoyalariga chiqish ham halol mehnat, hunar sirlarini mukammal egallah natijasidir. Shuning uchun ham xalqimiz «Mehnat qilgan» elga aziz deydilar.

O‘zbek xalqi azal-azaldan kasb-hunari, mehnatsevarligi, halol va pokligi bilan dunyo miqyosida tanilib kelmoqda. Xalqimizning zargarlik, naqqoshlik, duradgorlik, sartaroshlik, o‘ymakorlik, kulolchilik, bog‘bonlik, chorvadorlik, chevarlik, kashtado‘zlik, to‘quvchilik, do‘ppido‘zlik, ganchkorlik, sandiqsozlik, beshiksozlik etikdo‘zlik va boshqa yuzlab hunar mahsulotlari o‘zining betakrorligi, go‘zalligi maftunkorligi bilan dunyo xalqlarini lol qldirib kelmoqda.

Dunyoga mashhur hunarmand ustalar tarbiyalab yetish-tirishda, hunarmandlar sulolalarining umrboqiyligini tarbiyalashda ota-onas, oilaning roli kattadir. Oilada tarbiyalanayotgan har bir jinsdag farzandga o‘ziga xos va mos hunar ilmini o‘rganish ularning kelgusi farovon turmushini ta’minalash demakdir. O‘g‘il bola qadim-qadimdan chorvachilik, dehqonchilik, duradgorlik, sartaroshlik, pichoqchilik, bog‘bonlik, etikdo‘zlik mao‘zlik kabi og‘ir jismoniy mehnat talab etuvchi hunar bilan shug‘ullangan bo‘lsalar, qizlar kashtachilik, do‘ppido‘zlik, jiyakdo‘zlik, tikuvchilik kabi nafis did, mahorat san’at talab etadigan hunar bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Oilada ota-onaning ham farzand oldidagi asosiy burchlaridan biri unga kasb-hunar o‘rgatishdan iboratdir. Yoshlarni turmushga tayyorlashning asosiy mezoni ham ularga kasb-hunar sirlarini puxta o‘rgatishdan iborat bo‘lgan. Ushbu mezon mustaqillik sharoitida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilin-gan «Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun», «Kadarlar tayyorlash

bo'yicha Milliy dastur» mohiyatida ham yosh avlodni mehnatsevar, bir necha kasb-hunar sirlarini egallagan, ma'naviy va jismoniy barkamol kishilar qilib tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berilgan. Bozor iqtisodi sharoitida hunarli bo'lish hayotiy ehtiyojdir. Uni qunt bilan egallahshda oila, mahalla, maktab, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimidan katta mas'uliyat talab etiladi. Inson hayotida zarur bo'lgan barcha hunarlarni farzandlarga o'rgatish ota-onu uchun ham farz ham qarzdir. Sharq alloma zamonlaridan Unsurul-maoiliy Kaykovus «Qobusnoma» asarida shunday misollarni keltiradi: «Men o'n yoshimda erkonda mening bir hojibim bor edi, unga Manzar sohib der edilar. Ul ot minmak ilmin yaxshi bilur erdi va Rayxon otliq bir xodimi bor erdi. Otam meni ul ikkoviga topshirdi toki ular menga otda yurmoq, nayza urmoq, zavbin otmoq, chavgon urmoq, kamand tashlamoq, ilmini o'rgatg'aylar».

Men ularning yonida yurib, biroz fursatda ot ustida yurishning barcha ilmini o'rgandim va hunarlarini bildim. Undan so'ng Manzar sohib va Rayhon xodim mening otamning oldiga olib borib dedilar: «Ey, amir, agar ruxsat bersangiz erta tongda sahroda farzandingiz amirzoda o'ynasa, siz uning barcha o'rgang'on ishlarini ko'rsangiz». Amir «Ko'p yaxshi bo'lur!» dedi. Men ikkinchi kun har na bilagon ilmim va hunarimni otama namoyish qildim, otam hojib va xodimg'a yaxshi xil'atlar in'om qildi.

Undan so'ng ularga dedi: «Farzandim o'rgatg'on ishlariningizni barchasini yaxshi bilibdur, hunarlarining yaxshisin o'rgatmishtizlar, lekin yana bir zarur hunar olibdur. Ular debdilar: «Ul na hunardir?» Otam dedi: «Bu o'rgatg'on hunarlariningizni zarur vaqtida farzandim uchun boshqalar ham qila olur, lekin uning o'zi qiladurg'on, uning uchun

boshqalar qila olmaydirg‘on hunar qolibdur». Ular «Ul qaysi hunar?» debdilar. Amir: «Suvda yuzmakdurkim, bunday ishni farzandim uchun hamma odamlar qila olmas», – dedi. Shundan keyin ikki mallohn ni, ya’ni ikki kemachini kelturib, meni ularga topshirdi. Ular menga yuzmak hunarini o‘rgatdilar. Men karribich (hurram nohurramlik bilan) bila ul ishga mashg‘ul bo‘ldim va yaxshi o‘rgandim. Bir vaqt bir necha kishi bilan kemaga kirib (o‘tirib) Dajla daryosidan o‘tar bo‘ldik: Tog‘girga otlig‘ joyda girdob bor edi va xavflik joy erdi. Ustoz kemachilar undan ko‘p mashaqqatlar bila o‘tar edilar. Biz kema bilan o‘sha joyga yetushdik. Ammo kemachi usta ermas edi va kemani nechuk surarni bilmadi. Alqissa, yegirma yetti chog‘lik kishi barcha birdan g‘ark bo‘ldik. Ammo men va yana bir kishi, ya’ni mening g‘ulomim, uni ziyrak Kaykovus der edilar, suzub chiqdik. Bu voqeadan so‘ng otamning mehri ko‘nglumda behad ziyoda bo‘ldi... Men otamning boshig‘a ham shunday ish tushg‘onini bilmas erdim. Shuning uchun menga yuzmak hunarini o‘rgatg‘on erkan».

Demak, hunar tanlash va uning sirlarini mukammal egallashda ota-on a birinchi ustozdir. Albatta, bola egalaydigan hunar uning jinsi, qiziqishi, iqtidori, qobiliyati, salomatligi, oila va jamiyat ehtiyojlariga mos bo‘lmog‘i zarur. Kasb-hunar tanlashda bolaning o‘ziga ham erkinlik bermoq kerak. Shundagina o‘zi sevib egallagan kasb-hunarga mehr qo‘yadi, mehnati qanchalik og‘ir bo‘lsada, charchamaydi, nolimaydi, mehnatning qadriga yetadi, o‘zgalar mehnatini hurmat qiladi, mashaqqat bilan halol mehnat evaziga topilgan boy-likni o‘ylab, tejamkorlik bilan, rejali sarflaydi.

Hayotda ba’zi shunday ota-onalar ham uchraydiki, farzandning mayli, qobiliyati, qiziqishini hisobga olmasdan,

uni o‘zлari ma’qul ko‘rgan kasbni egallashga majbur qiladilar. Ayniqsa, bu holat mustabid tuzumda tabiiy holga aylanib qolgan edi. Ota-onan farzandni kasb-hunar bilim yurtlarida, ota-bobolarining hunarmandchilik kasblarini o‘rganishlariga yo‘l qo‘ymas, balki keyinchalik «yog‘li joylarda» ishlashi mumkin bo‘lgan, oliy ma’lumot olgunicha qo‘llab, suyab yuradigan tanish-bilish, oshna-og‘aynisi bo‘lgan oliy o‘quv yurtlariga majburan kiritgan. Natijada, oliy dargohni xohishsiz, qiziqishsiz bitirgan mutaxassis o‘z kasbi bo‘yicha chuqur bilimsiz, layoqatsiz bo‘lib, ota-onan hurmati uchun shunchaki mehnat qiladi yoki umuman boshqa soha bo‘yicha ishlaydi. U qilgan mehnatida unum va sifat bo‘lmaydi. Bunday mutaxassisdan jamiyat ham, oila ham manfaat ko‘rmaydi. Hunarning yaxshi yomoni bo‘lmaydi, muhimi tanlangan kasb hunarga mehr-muhabbat qo‘yishdir, uning sir-asrorlarini chuqur o‘rganishga intilishdir. Ota-onanining boyligi, mansabi hech kimga hech qachon vafo qilmagan. Boshga musibat tushganda, turmushda qiyinchiliklarga duch kelganda uni faqat qo‘lida hunari mehnati asrab qoladi.

Yalqovlik shon-shuhrat ketidan quvish, ishsizlik shoshma-shosharlik bir ishni tugatish, tadbirsizlik, dangasalik, mehnat madaniyatiga rioya etmaslik-hunarmandlik, mehnat-sevarlik kushandasidir.

Har bir inson egallagan hunarni muvaffaqiyatini ta’milovchi talablar mavjud. Ular:

Bugungi ishni ertaga qoldirmaslik zarur, chunki erta bajarish lozim bo‘lgan ishlar ham bor. Mehnat taqsimotida nomutanosiblik paydo bo‘imasin desangiz har kunlik ishni o‘z vaqtida qilishni odatlanish kerak. Qisqa muddatda, shoshib, pala-partish bajarilgan ishning umri qisqa va sifati yomon bo‘ladi.

Siz yaratayotgan mahsulot diqqat-e'tibor bilan, butun mahoratni ishga solib yaratilgan taqdirda, u go'zal va umr-boqiy bo'ladi. Aks holda mahsulidan o'zingiz ham, o'zgalar ham rohatlana olmaydi, mehnatingiz zoe ketadi.

Biron bir yumushni faqat shaxsiy manfaat uchun baholamaslik, balki jamiyat, xalq manfaatini o'ylab shodu-hurralik bilan boshlash zarur. Hunarmand kayfiyati ham u yaratgan mehnat san'at asari sifatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi. Yaxshi kayfiyat bilan amalga oshirilgan ish naqadar murakkab bo'lmasin, u yengil va sifatli bajariladi. Egallangan hunar sirlari bilan qanoatlanmaslik zarur. Balki uning ochilmagan qirralarini doimo izlash, taraqqiy ettirish, o'z ustida tinimsiz ishlash va mehnat qilish mohir mutaxassis bo'lib yetishishning muhim omilidir. Ezgulikka, yangi-yangi muvaffaqiyatlarga intilib yashash faqat insongagina xos bo'lgan xususiyatdir.

Bitta kasb-hunar bilan chegaralanmaslik, balki bir necha kasb-hunar sirlarini egallash uchun harakat qilmoq zarur. Hayotda har bir kasb-hunarning o'z o'rni bor, bittasini mukammal egallagandan keyin ikkinchisini boshlash va o'rganish maqsadga muvofiq.

Har bir kasb-hunar poklik, rostgo'ylik, ishonch, va'dada turish, xiyonat qilmaslik, tarozida aldamaslik, mehnat madaniyatiga xilofish qilmaslikni talab etadi.

Oilada bolalar tarbiyasiga ham katta e'tibor berilib, go'daklar jinsiga qarab tarbiyalangan. O'g'il bolaga bo'la-jak merosxo'r sifatida qaralgan. Qiz bolaga esa yigitning yo'ldoshi bo'lajak ona va uy bekasi sifatida mehr ko'rsatilgan.

Bolalarning kundalik tarbiyasida xalq an'analariga qat'iy roiya etilgan. Eng avvalo, mehnat tarbiyasiga alohida e'tibor

berilgan. Dehqon bolalari yoshligidanoq ota ko'makchisiga aylana boshlagan. Chorvachilik, hunarmandchilik, ovchilik va boshqa sohalar bilan shug'illanishgan.

Oilalarda bolalarga mehnat tarbiyasi shu kasblar bo'yicha berilgan. Asta-sekin bolada malaka paydo bo'la boshlagan. Bola tarbiyasida bobo, momo, ota va butun jamoa katta o'rin tutgan. Ota kasbi egallash bolaning axloqiy va diniy muqaddas burchi bo'lib, ham farz, ham qarz hisoblangan. Bolalik mehnat malakasini oilada o'z-o'ziga xizmat qilish. Uy ishlarida kattalarga yordam berish, qo'lidan keladigan ishlarni bajarish jarayonida egallagan ota-oni qarindosh urug' va boshqalar mehnatinini qadrlash va hurmat qilish ko'nikmasi oilada tarkib topgan. Bola 5-6 yoshdan boshlab uy ishlarini bajarishga kirishgan. O'g'il bolalar ot minish, xo'jalik ishlarini bajarish, qizlarga esa tikish, to'qish va boshqa ro'zg'or yumushlarini o'rganishgan. Oilada ota so'zi qonun kabi bajarilgan va bajarilishi shart bo'lgan. Bolalar kattalarni hurmati uchun o'rnidan turib salom berishi, qo'liga suv quyishi, ovqatni oldin ulug'larga uzatish, umuman kattalarni izzat hurmat ruhida tarbiyalagan. Ro'zg'orda ularni «Bir ko'ylak ortiq kiyganni hurmat qil» degan naql doimo uqtirilgan. Keyinchalik uylanganda ham otasidan ruxsatsiz ayrim ishlarni o'zi bajara olmagan ham.

Mehnat tarbiyasi oilada juda erta boshlangan. Chunki ro'zgorda bolaning mehnati doimo kerak bo'lgan. Kattalar bolalar qilgan xatolarni doimo tuzatib, mehnat jarayoni turli bajarishini kuzatib borishgan.

Oilaning qut-barakasi hamjihatligi, hamkorligi a'zolarining kasb-hunar malakalarini egallaganliklari va mehnat taqsimotini adolatli yo'lga qo'yishiga bog'liqdir.

Oilada ro'zg'or yumushlari oila a'zolari jinsi, yoshi, qobiliyati, mehnatga munosabatlariga qarab to'g'ri taqsimlanmog'i zarur. Oilada boshliqlarning ro'zg'or yumushlarini faqat o'zлari bajarishlari bolani ishyoqmas, yalqov takabbur, ota-onas mehnatini qadrlamaydigan bo'lib o'sishlari uchun sabab bo'ladi. Shuning uchun ham ro'zg'or va xo'jalik ishlarida ota-onas bilan bir qatorda o'g'il-qiz, kelinning ham o'z burch va vazifalari mavjud ularni to'liq ado etish har biridan o'z burchlariga mas'uliyat bilan yondashishni talab etiladi. Jumladan, o'g'il otaga bozordan oziq-ovqat, xo'jalik mahsulotlarini xarid qilishga, yer chopish, ekin ekish, chorvachilik, dehqonchilik, polizchilik, qurilish ishlarida, to'y tantanalari, va motam marosimlarini o'tkazishda, xotin-qizlar uchun og'irlik qiladigan ishlarda yordam beradi. Qiz bola esa onaga hovli va xonalarni supurib-sidirish, taom tayyorlash, qish mavsumi uchun quritilgan mevalar, turli tuzlamalr, murabbolar tayyorlash, mehmon kutish kabi yumushlarda ko'maklashadi va shu jarayonda o'zi ham mustaqil hayotga tayyor bo'la boradi.

Oiladagi mehnatning bajarilish vaqt, mazmuniga ko'ra turli tarzda amalga oshiriladi. Ya'ni, kundalik yumushlar, qish, bahor, yoz, kuzda bajariladigan mavsumiy ishlar, oilaviy marosimlar (mehmon kutish, to'y va bayram tantanalari, motam va xotirlash marosimlari)ga tayyorgarlik ko'rish va ularni nishonlash bilan bog'liq yumushlar, mahalla, jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan ommaviy tadbirlar (xashar, obodonlashtirish ishlari, umumxalq bayramlariga tayyorgarlik) bilan bog'liq yumishlarda ishtirot etish. Ushbu mehnat turlari oila a'zolari ichida teng va adolatli ravishda taqsimlanishi zarur. Ba'zan ota-onas topshirig'ini so'zsiz toza, vijdonan bajaradigan farzandga oilaning aksariyat

yumushini topshiradi. Erinchoq topshirilgan vazifani qo'l uchida «Mendan ketguncha, egasiga yetguncha» qabilida bajaruvchi loqayd ishyoqmas farzand esa chetda qoladi. Yoki, ota-onha shu o'g'lim yoki qizimga buyurgunimcha o'zim bajarganim ma'quldir, farzand qilishi zarur bo'lgan yumushlarni ham o'zlar bajaradilar, natijada, bunday farzandlar ota-onani qadrlamaydigan, ishyoqmas, hayot qiyinchiliklariga bardoshhsiz, oila yuritishga tayyor emas, og'irni ustidan yengilni ostidan yuradigan mehnatni sevmaydigan bo'lib o'sadilar. Natijada, uddaburon farzand bilan hech narsa qo'lidan keladigan farzand, ota-onha, farzandlar, qanova-qanota, qayin uka-singil, opa, aka va kelin o'rtasida nizo paydo bo'ladi. Darhaqiqat mehnat taqsimotida ham o'zgarishlar bo'ladi.

Oilada mehnat madaniyatiga rioxal etish uning samaradorligini ta'minlovchi muhim omildir. Bolaga yoshligidanoq mehnat madaniyatini o'rgatib borish ishida tartib bo'lishini talab qilish muhimdir. Ota-onha quyidagi oddiy lekin zaruriy narsalarni boladan talab etmog'i zarur: ishlayotgan joyini yelim bilan iflos qilmaslik uchun qog'oz to'shab, yaxshisi maxsus taxtacha ishlat, ishing tamom bo'lganidan keyin cho'p xashlariningni yig'ishtir. Yelimni barmog'ing bilan emas maxsus cho'p yoki mo'yqalam bilan surka. Tikish ishlariga kirishishdan oldin qo'lingni yaxshilab yuv. Ovqat pishirishga yordam qilganingda yoki idish tovoq, pol yuvganda belinga fartuk tut, soching xalaqit bermasligi uchun boshinga maxsus qalpoqcha kiy yoki ro'mol o'ra; ishni tamom qilganingdan so'ng mehnat qurollaringni tartib bilan yig'ishtirish o'rni o'rninga qo'y (chelak, bolg'a, arrac'alalarni ma'lum bir joyga qo'y); ip igna qaychi pichoq, qog'oz lattalarni bir qutichaga solib qo'y; ish kiyimlaringni ma'lum bir joyga osib qo'y. Ishdan keyin yuz qo'llaringni yuvib, art.

Biron ta ish qilishga kirishar ekansan, albatta, ish davomida kerak bo'ladigan narsalarni oldindan tayyorlab qo'y. Bu talablarni bajarishda ota-onaning o'zi ham bolaga namuna ko'rsatishi kerak. Mehnat madaniyatini egallash, ish qurollarini ma'lum joyda ma'lum tartibda saqlash saranjom bo'lish vaqt ni tejash, ishni tez sifatli va ozoda bajarish uchun katta ahamiyat ekanini bolaga tushuntirish zarur. Xonadonning har bir a'zosi o'z zimmasidagi rejali, to'g'ri tashkil etsa mehnat qurollaridan ehtiyojkorlik bilan foydalansa ro'zg'or buyumlarini avaylab asrasa vaqtdan unumli foydalanish malakasiga ega bo'lsa ish o'rmini saranjon-sarishta saqlasa pala-parishlikga, isrofgarchilikga yo'l qo'ymasa, har bir yumushni did, qunt, sabr-matonat bilan amalgalarga oshirsagina u mehnati natijalaridan huzur-halovat topadi. Halq maqollarida aytilganidek: «Mehnat rohatning poydevoridir», «Rohatning onasi-mehnat», «Halol mehnat-huzur-halovat», «Suvsiz hayot bo'lmas, mehnatsiz rohat», «Mehnatsiz rohat bo'lmas, tashvishiz ne'mat», «Halol mehnat – yaxshi odat, berur senga saodat». Oilaning har bir a'zosi zimmasidagi vazifa umumiyligi maqsadni ko'zlab tashkil etilgan va uning natijalaridan barcha oila a'zolari bahramand bo'lgan taqdirdagina unday mehnat foydali hisoblanadi.

Oilada bolalarni mehnat tarbiyasida tejamkorlikka o'rgatish

Bolalarni maktabgacha muassasalardagi mehnat tarbiyasi oilaviy tarbiyadan ajralmagan holda olib borilishi kerak. Bolada mehnatsevarlikni tarbiyasining barcha qulay sharoitlari oilada mavjud.

Biz bolani oilada mehnatga o'rgatibgina qolmasdan ularni tejamkorlikga ham o'rgatib borishimiz lozim.

Bu borada xonadonlarda uchraydigan tashlandiq ash-yolardan foydalanamiz.

Har bir tashlandiq ashyodan biror bir buyum yasashni o'rgatsak, bolalarda ijodkorlik hissi ham shakllanib boradi.

Masalan, suv ichimliklaridan bo'shagan idishlardan chiroli o'yinchoqlar yasash mumkin. Svetofor, timsoq, kattakichik matriyoshkar, ari, tulki o'yinchoqlari hamda chiroli qalamdon, guldon yasash mumkin, bu o'yinchoqlarni yasashlari asosida bolalarda tejamkorlik hissi singdiriladi.

Tashlandiq ashyo hisoblangan paypoq, kiyilmaydigan ko'yylaklarni lentasimon qilib qirqib, ularni bir-biriga ulanadi, so'ng koptok qilib o'raladi.

Bu ipdan to'qilgan gilamchalar juda mustahkam bo'lib, yuvilish va quritish juda osondir.

Yana eski paypoqqa uyda ishlatilmaydigan, qolgan mayda sovun parchalarini solib, ulardan yostiqcha shakli tikilsa, oshxona mebeli va muzlatkichni artish uchun qulay mochalka hosil bo'ladi.

Biz bolalarni oilada tejamkorlikni o'rgatib, borar ekanmiz, ular yoshligidanoq buyum va materiallarni isrof qilmaslikni har bir narsani hayotda tejab ishlatishga ko'nikma va malaka hosil qilib borishlarini o'rgatishimiz zarur. Qog'oz karton va gazlama hamda tolali materiallar tayyor mahsulot bo'lib, ulardan turli o'yinchoqlar yasaladi, ularning chiqindilaridan ham tejamkorlik bilan foydalanishni o'rgatiladi.

Bolalar bog'chasida turli materiallar bilan ishlashda esa eng, avvalo, qaysi narsadan nimalar yasash mumkinligini avvaldan rejalab, anchayin izlanib, tabiat qo'ynidan axtarib topib, yig'ib olingandan, so'ng reja asosida turli o'yinchoqlar,

ertaklar asosida ko'rsatmali ko'rinishlarga boy personajlar yasash mumkin. Turli omillar: Eman daraxti mevasi po'stlog'i, na'matak mevasi, chig'anoqlar, yong'oq po'stlog'i, qovoq urug'lari, na'matak guli va boshqalardan xalq masallari, multfilm qahramonlarini; «Ninachi va chumoli», «Toshbaqa va chayon» kabi masallarni ertak qahramonlarini yasashlari mumkin. Mehnat mashg'ulotlarida — daraxt navdalari qamish paxol, g'o'za chanoqlari, qumlarning ishlatilishi hamda plastik massalar: plastilin, rezina, selofan, polietilen lentalari, plyonkalar, gugurt qutuchalari, g'altak iplar, flomasterning tugaganlari hamda pista po'choqlari danak po'choqlari, kungaboqar o'simligining kosachasi, tuxum po'choqlari ishlatiladiki, ana shunday tashlab yuborilishi mumkin bo'lgan narsalardan chiroyli, go'zal o'yinchoqlar, ertak qahramonlari, turli ko'rsatmali manzaralar yasash mumkinligini tejamkorlik ruhida tarbiyalash imkoniyatlari ko'pligini ko'rsatadi.

Tashlandiq narsalardan ham kerakli buyumlar, estetik zavq olsa bo'ladigan, ayniqsa, o'z ko'rinishi, mazmuni bilan bolalarni tarbiyalashi mumkin bo'lgan narsalar yasalishi ular tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi. Oilada, ota-onalar, bolalar bog'chasida tarbiyachi bolalarni ana shunday ishlarni amalga oshirishi uchun ushbu materiallarga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishlikni ulardan unumli ham tejamkordik bilan foydalana olishlikni uqtirib borish kerak.

Shunday qilinsa, bolalar yashnab turgan daraxt shoxlarini shart kesib yoki sindirib olmaydi, daraxtlarni kuzatib, qurigan keraksiz shoxlarini kesib oladi. Kesib olayotganda o'sha shoxdan nima yasasa bo'ladi, chamalashni o'rganadi. Turli tabiiy materiallarni to'plash, saqlash, ishlov berish yo'llarini

qo'llash bolalarini tabiat bilan tanishgandagi bilimini mustah-kamlaydi.

Turli tabiat materiallari bilan ishlash mashg'ulotlarni rejalashtirish va materiallarni tanlashda albatta mahalliy sharoitlardan kelib chiqish, o'lka iqlimi, tabiat, ishlab chiqarish korxonalari, xalq badiiy ustaxonalari va shu kabilari e'tiborga olish kerakligini unutmaslik lozim.

Bunday mashg'ulotlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stiribgina qolmay, ularning ijodkorligini o'stiradi, estetik hissiyotini shakllantiradi.

Bolalar turli materiallar bilan ishlash jarayonida turli tabiiy materiallarni toplash, saqlash qoidalari bilan tanishadi, tevarak-atrofni muhofaza qilishga o'rgatadi. Turli tabiiy materialarga ishlov berish va rejalashtirishni, ularni nimalar yasay olishni tahlil qilishni hamda ishlov berish asboblarini tanlay oladilar. Bolalarda bu ishlarni bajarishlarida ular mustaqil fikrlay olib, ijodkorlikni namoyon qiladilar. Ijodkorlik qobiliyatları o'sadi.

Obrazlar, personajlar, o'yinchoqlarni yaratishda konstrukturlik va ijodiy qibiliyatları rivojlanadi, murakkab asboblar, bigiz, qaychi, bolg'acha, pichoqchalar bilan kattalar yordamida ishlata bilish malakalarini egallaydilar. Bolalar turli tabiat materiallar bilan ishslashlari alohida qiziqish uyg'otadi, ayniqlsa, loy, plastilin, daraxt shoxchalari, chinor urug'lari, turli qurigan barglar, daraxt po'stlari, yelimlaridan foydalaniib qushlar, jonivorlar, ertak ishtirokchilarining shakllarini qiziqib yasaydilar. O'z tasavvurlari personajlar bilan boyiydi.

Bolalar turli materiallar bilan ishlashda ishlar qoidalari bilan tanishadilar, texnik xavfsizlik qoidalari, gigiena-sani-

tariya holatlariga rioya qilibgina qolmay tejamkorlikka ham alohida e'tibor beradilar.

Bolalarga turli ashylardan narsalar yasashni rejalash-tirishni o'rgatar ekanmiz tabiiy materiallarning xossa va xususiyatini hisobga olgan holda isrofarchilikka ham yo'l qo'ymaslikni tushuntiriladi. Ularning shakl, ko'rinishlarini rejalab aniq narsa yasash yo'li bilan tejashni o'rgatiladi. Qanday asboblarni bolalarga berish mumkinligi va asboblarni to'g'ri ishlatish (sindirmaslik, buzmaslik) yo'llari uqtiriladi.

Ish joyini tartibsiz qolishdan saqlashni ta'kidlanadi.

Ish mazmuni sodda murakkabligiga qarab, bosqichma-bosqich guruhlarga moslash yo'li bilan tejamkorlik tuyg'usini singdirish talab etiladi. Yuqoridaq tartib qoidalar bolalarda tejamkorlik, tadbirkorlik sifatlarini tarbiyalashda mehnat mashg'ulotlari samaradorligi oshiriladi. Asosan, tayyorlov gurhida bolaning yosh xususiyatini hisobga olib, sanchilmaydigan, kesmaydigan asboblardan foydalangan holda po'kak, turli bo'sh qutilar, qutichalar, daraxtlarning urug'lari, qurigan barglardan yelimlab yopishtirish, plastilin yordamida yopishtirish yo'li bilan turli shakldagi o'yinchoqlar yasashni o'rgatladi va o'rganish jarayonida bolalar yig'ilagan tabiiy materiallarni o'rni bilan ishlatishga, turar joyini asrab avaylashga, tabiatni muhofaza qilishga o'rgatish bilan tejamkorlik hissini rivojlantira boriladi.

Ota-onalar bolalariga har doim ham yangi kiyim olib berisha olmaydi. Yangi kiyim olib berilaversa, oilaning sharoiti yomonlashishi hammaga ayon. Shuning uchun kiyimlarni asrash bilan ota-onasining pulini tejaydi, ularni mehnatini hurmat qilgan bo'ladi. Oilada yoshligidan mehnatga o'rgata borilar ekan, ular hamma narsalarni asrab, avaylashga odatlanib boradi. Agar ota-onalar ishlariga qizi-qayotgan

bolani ishdan chetlashtirmsalar, uning qizi-quvchanligini qondirishga harakat qilsalar, u holda bolada mehnat qiluv-chilarga nisbatan minnatdorchilik hissiyotini uyg'otadilar va unda atrofdagilar mehnatiga hurmat shakllantiradi, mehnat qilish ishtiyoqi tug'iladi. Ba'zida ota-onalar hali yoshsan, – deb bolani kattalarga ko'maklashish hissini so'ndiradilar, aksincha – «Bolaginam katta bo'lib qoldi, u o'z o'mini yig'ishtirayapti, stol ustini ovqatlanishdan so'ng artib qo'yapti», deb aytishlik ularni kattalarga taqlid qilishga o'zlarini katta bo'lгandek his qilishga chaqiradi. Oilada qizlar tarbiyasiga ko'proq e'tibor berilsa, kelgusida tejamkor tadbirkor uy bekasi bo'lishlikka zamin yaratadi.

Qizlarning qo'liga kattalar nazoratida igna berib, ip o'tkazishga, oddiy to'g'ri chok tikishga o'rgatiladi, o'ziga oddiygina fartukcha tikib, olib ish qilsa, kiyimini asraydi. Akalari, ukalarining eski kiyilmaydigan jemper iplaridan paypoqchalar to'qib berilsa yangi paypoqlarni yirtilishidan asraladi, paypoq puli tejalib, boshqa narsaga ishlatiladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kattalar bilan birgalikda ishlashlari alohida ahamiyatga egadir.

Bolalar ota-onalari bilan birgalikda ishlashga har doim intiladilar va intilishni qo'llab-quvvatlash zarur. O'g'il bolalar dadalari bilan kuzda yer chopadilar, daraxt shoxlarini butalaydilar. Sigir, qo'y larga yem tayyorlaydilar. Bu ishlarni bajarish orqali bolalarda mehnatsevarlik hissi tarbiyalansa, oilada tejamkor, tadbirkor bo'lishlikka undaydi. Turli materiallar bilan ishslash bolalarda ijodiy qobiliyatni o'stirish bilan birga izlanuvchanlikni ham oshiradi.

Masalan, bir yog'ochning o'zidan mitti beshiklar, bolalar aravachasi, suyangichlar, kitob javoni, kiyim ilgichlar; taxta o'glov, qor kurak, mol kurak, keli, quvi dastalari albatta

bunda milliy an'anaga, milliy qadriyatlarga tayanilsa, milliy tarbiyalashga katta hissa qo'shgan bo'ladi, xullas ro'zg'orga nima kerak bo'lsa, yasash mumkinligini aytildi. Yog'ochdan tejab-tergab foydalanishga undaladi.

Turli materiallar bilan ishslash turidan tashqari texnik modellash, ya'ni konstruktorlar bilan ishslash, qishloq xo'jaligi mehnati hamda o'z-o'ziga xizmat turlari borki, bu mehnat turlarini bolalarga singdirishda ham tejamkorlikka alohida e'tibor beriladi, tarbiyalanadi. Mehnat mashg'ulotlarida texnik modellar-samolyot, parovoz, paroxodlar haqida tushuncha berib borish bilan birga shu texnikalar inson mehnatini osonlashtirgani haqida to'xtalib, ana shu texnikani asrab, uzoq vaqt ishlatish bilan hayotimizda tejamkorlikka erisha-yotganimiz hayotimiz farovon bo'lib borayotganlagini tushuntiradi.

Bu o'rinda bizga sharq mutafakkirlarining qarashlari, pand-nasihatlari ham katta yordam beradi. Muhammad payg'ambarning hayoti, faoliyati va ko'rsatmalari ifodalangan quyidagi hadislarni suhbat jarayonida aytishi mumkin.

Dasturxonga to'kilgan taom va ushoqlarni terib yeyidigan odamning gunohlari to'kiladi. Kimki hayotda tejamkor bo'lsa, zinxor qoshshoqlikka tushmaydi. Mahsulotlardan totli taom pishira bilmaslik ham gunohdir. O'z mahsulotlardan totli va barakotli taom pishirmoqlikda ham savob kattadir.

Mehnatning boshqa turlarida ham tejamkorlikning zarurligi haqida fikr yuritilsa, suhbatlar o'tkazilsa, ko'zlagan natijaga erishiladi. Tavsiyalarimiz asosida mashg'ulotdan tashqari o'tkaziladigan to'garakda qiziqarli suhbat uyush-tirgan.

Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi 473-bolalar bog'chasining tarbiyachi uslubchisi Hasanova Sh. bolalar

e'tiborini shunday mavjud tortdi: qani, bolajonlarimiz hammangiz «mohir pazanda» bo'lishni xohlaysizmi? Mohir pazanda bo'lish qizlarga ham o'g'il bolalarga ham zarur. Chunki oila xo'jaligida taom tayyorlash asosida o'rinni egallaydi. Taom tayyorlashni bilmaslik masalliqlarning isrof bo'lishiga sabab bo'ladi. Ana shuning uchun ham bu hunarni yoshlikdan, avvalo, ota-onadan, so'ng bog'chadagi pazandachilik to'garak mashq'ulotlaridan o'rganamiz.

Tarbiyachi bolalarni sabzavot va mevalarni yuvish, archishni ko'rsatdi (artgich bilan). Bolalar bilan meva, sabzavotlar archish haqida suhbatlashildi. Bolalar turp bilan sholg'om archish, piyojni archish, nonni tejash haqida gapirdi. Mehnat turlarini qay birini olmaning unda albatta tejamkorlik tuyg'usini singdirish inson shaxsining har tomonlama shakllantirishga zamin bo'la oladi. Qishloq xo'jaligi mehnatini oladigan bo'lsak o'rta guruh bolalari bir yillik va ko'p yillik o'simliklarni turi, urug'i bilan tanishib ularni farqlay olsalar, begona o'tlarni ajrata olishni o'rganadilar.

Katta guruh ishlov berish, bir yillik o'simliklarni va xona gullarini parvarish qilish, tabiatni muhofazasi qanchalik zarurligini tushunadilar.

Tayyorlov guruhda esa tabiat qanchalik go'zal, nozne'matlariga to'la ekanligini tabiatni parvarishlash, asbob-anjomlardan to'g'ri foydalanish, mehnatdan qochmaslikka, tabiat in'omini esa isrof qilmaslikka, ham uzib tashlanmaslikka, ekinlarni payxon qilmaslikka sindirmaslikka asrab-avaylashga tejamkorlik bilan qarashga o'rgatiladi.

Mehnatning o'z-o'ziga xizmat turida va o'g'il bolalarga ham qiz bolalarga ham uy ro'zg'or ishlari malakasi va ko'-

nikmasini hosil qildirish bilan birga oilada, ro'zg'or tejamkorlik sifatlari singdiriladi.

O'g'il va qiz bolalarga guruh oshxonasida navbatchilik davrida bajaradigan ish orqali narsalarni buyumlarni asrabavaylashlari, undan to'g'ri foydalana olishlari, kosa va piyolalarni sindirmaslik, salfetka, dasturxonlarni ortiqcha dog' qilmaslik, boshqa anjomlardan texnika xavfsizligi qoidaliga binoan foydalanish (qoshiq, vilkalardan va boshqa)ga o'rgatish ham tejamkorlik hissini singdirib boradi.

Shunday qilib, halol mehnat kasb-hunar inson hayotining gultojidir, oila va jamiyat farovonligining asosidir. Buni har bir yosh ongiga singdirish, ota-onaning hunarmand ustozlarning vazifasidir. Hozirgi davrda maktab, MTM va oila oldida ma'naviy boy, axloqiy sof va jismoniy kamolotni o'zida mujassamlantirgan yangi insonni tarbiyalash vazifasi turibdi. Bu vazifani sharaf bilan barcha imkoniyatga egamiz.

Topshiriq

O'z oilangizda mehnat taqsimoti haqidagi munosabatingiz?

Referat yozing!

VIII bob. OILADA EKOLOGIK TARBIYA

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, mam-lakatimiz taraqqiyotida, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lif-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. Chunki taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk, zamonaviy bilimlar va murakkab texnologiyani egallagan, irodasi baqquvat, iymoni butun, teran fikrlaydigan yuksak salohiyatli kadrlar hal etadi.

Kelajak taqdirimizda hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan asosiy omil-fan, texnika, madaniyat va ma'rifat, ta'lif-tarbiya, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar borasidagi yangilik va yutuqlarni, jahon mamlakatlari tajribalarini keng ko'lamda o'rganish va rivojlantirish hayotga joriy etishdir.

Ma'lumki, hozirgi zamon fan-texnikasining jadal rivoj-lanishi tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, murakkab ekologik muammolar kelib chiqdi. Ularni hal qilish uchun yoshlarni, ya'ni o'sib kelayotgan yosh avlodni yuqori saviyada ekologik ma'lumotli va tabiat qonunlarining bilimdoni, ekologiyaga oid muammolarni hal qila oladigan muta-xassislar qilib tayyorlashimiz zarur bo'lib qoldi.

Jamiyatning tabiatga ta'siri kundan-kunga oshib bora-yotgan davrda ekologiya faniga qiziquvchilar safi borgan sari kengayib bormoqda, lekin hamma ham ekolog bo'la olmaydi. Tabiiy voqelikni tushunib, ularning kelib chiqish sabablarini

aniqlab, salbiy holatlarini tuzatishga ijobiy yondashadigan, tabiat qonunlarini inobatga olibgina qolmasdan, balki ular asosida o‘z hayat faoliyatlarini tuza oladigan kishilargina ekolog bo‘la oladilar.

Ekologik tarbiya

Oilada bolalarga ekologik tarbiya madaniyatini tarkib topdirish, ularga tabiat, atrof-muhit, bizni qamrab olgan tevarak, olam bilan qanday munosabatda bo‘lishni o‘rgatish va tashkil etish ta’lim tizimining dolzarb masalasiga aylandi.

Bugunki kunda tabiatni o‘rganish, unga mehr qo‘yishning o‘zi kamlik qiladi, albatta. Biz uni e’zozlashni, boyliklariga boylik qo‘sishni ham uddalashimiz lozim. Muhitimiz musaffo bo‘lishi uchun hammamiz ham mas’uldirmiz.

Yerdagi tabiiy manbalardan ko‘proq boyliklar olish, tabiat manbalarini asrab avaylashning eng muhim yo‘li o‘sib kelayotgan avlodni tabiatni asrashga oid ekologik bilimlardan xabardor qilish – ularga ekologik tarbiya berishdir.

Tabiat bilan yaqin munosabatda bo‘lishi insonga ijobiy ta’sir qiladi, uni sof dilroq, muloyimroq, ko‘ngilchan qilib, qalbida eng yaxshi his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. Shuning uchun bolalar tarbiyasida ekologik tarbiyaning roli ayniqsa kattadir.

Bolalarni tabiat bilan, yilning turli fasllari, unda ro‘y beradigan o‘zgarishlar bilan tanishtirish oiladan boshlanadi. Tabiat hodisalarini aniq tushuna bilish, jamiki tirik narsaga zavq-shavq bilan qarash singari fazilatlar bolada shakllanib boradi. Tabiatga mehr qo‘yish, uni ehtiyyot qilish, tirik jonivorlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish tabiatga qiziqish uyg‘ota qolmay, balki bolalarda vatanparvarlik, mehnat-sevarlik, tabiat boyliklarini ardoqlab, ko‘paytirib borayotgan

kattalarning mehnatiga hurmat bilan qarash singari xarak-
terning eng yaxshi xususiyatlarini shakllantirib borishga ham
yo'l ochadi.

Uydagi xona o'simliklari va ba'zi parvarish qilib
boqiladigan parranda va hayvonlarni bolalarga tanishtirish
unga bo'lgan mehr-muhabbat uyg'otishga yordam beradi.
O'simliklar va hayvonlarni muntazam ravishda parva-
rishlashda bolalarda mehnat ko'nikmalarini ham shakllan-
tiradi. Shuning uchun, oilada bolalarga ekologik tarbiya
berishning nazariy asoslarini ishlab chiqish zarurdir.

Qadim zamonlardan ekologik madaniyat O'rta Osiyo
xalqlariga xos xususiyat bo'lgan. Bu haqda qadimgi
qo'lyozmalar va ulug' allomalarimizning asarlari guvohlik
beradi. Ularda suv, tabiat, o'simliklar, hayvonlar va ularning
atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlar, aloqalari va boshqalar
haqida qimmatli fikrlar yozib qoldirgan. Garchand u
vaqtarda ekologiya fan sifatida shakllangan. Lekin o'sha
davrillardayoq tabiat va undagi tabiiy muvozanat, tozalikning
ahamiyati, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash
zarurligi qayd etilgan. Hatto ular tabiatni, suvni, olovni,
shamol va boshqa unsurlarni muqaddas deb bilishgan va
sig'inishgan. Masalan, otashparstlikning muqaddas kitobi
«Avesto» da 17 xil suvning ta'rifi yozilgan. Unda barcha
suvlarning birikishida vujud mavjudligi ta'minlanadi deyilgan.
Ular xudoning asosiy vazifasi suvni nopliliklardan asrash.
Uning doimiy oqib turishini ta'minlashdan iborat deb
tushunishgan. Shuning uchun ham ular xatlarida tabiatni va
suvni pok saqlash, asrab-avaylash, tejab sarflash haqidagi
da'vatlari juda ko'p. Unda «Inson butun umrida suv, otash
yer, havoni, umuman dunyodagi jamiki narsani, poklik
himoyasini bus-butun asrashga majburdir... Yer, suv, olov,

havoni e'zozlash qoidalarini buzgan har bir inson 400 qamchi urilib kaltak jazosiga mahkum etiladi» deb yozilgan. Yodgorliklarda suv manbalarini pokiza saqlash, ehtiyot qilish, muhofaza qilishga undovchi bandlari ko'p. Ichimlik suvi oqadigan ariqlar, hovuz va quduq labiga butalar o'tqazish tavsiya etilgan. Suv bo'yiga mevali daraxtlar o'tqazish taqiqlangan. Suvga tupurish, xas-xashak yoki barglarni tashlash qattiq qoralangan. Hovuz yoki quduqqa iflos narsa tush-sa, uni toza suvda yoki yomg'ir suvi bilan bir necha marotaba to'ldirib bo'shatilgan so'ng ichishga ruxsat berilgan. Suvda yoki suv atrofida kirlarni yuvish, mol boqishni man etganlar. Tuya va otlarni bog'lab suv atrofiga, so'ngra ularni yuvintirishga ruxsat berilgan. Biror kishi nopol idish bilan hovuz, ariq, quduqdan suv olayotganini mirob ko'rib qolsa 25 qamchi bilan jazolagan. Suv muqaddas bo'lgani uchun undagi jonzotlarni, hayvonlarni o'ldirishga yo'l qo'yilgan. Agar dengiz kuchugini o'ldirilsa, shu yurtda qurg'oqchilik bo'ladi. Yaylovlar, dalalar, taqir cho'lga aylanadi, eldan farovonlik ketadi, deb fikr yuritganlar. Hamisha suvni poklab-yuradigan baliqlar, alohida suv hayvonlarni tutish, ovlash ham gunoh hisoblangan.

Qadimgi mamlakatlarning hukmdorlari ham tabiatni muhofaza qilishda tegishli farmonlar e'lon qilganlar. Masalan, qadimgi Sharq podsholari o'rmonlarni qo'riqlash to'g'risida qonun chiqargan. Bobolarimizdan meros qolgan eski qo'lyozmalarda ham ov, ov qilish san'ati, ov qilish vaqtini, hayvonlarning yosh bolalarini, go'zal qushlarni, umuman jonzotlarning ko'payishi davrida ularni ov qilish qat'ian man etilgani haqida aytilgan.

Bizning ota-bobolarimiz qadim zamonlardan boshlab tabiatga oqilona munosabatda bo'lishgan.

Qadimgi yunon olimlari Gippokrat va Aristotel o'zining ilmiy asarlaridagi 500 ga yaqin o'simlik turi va hayvonlarning 454 turi haqidagi ma'lumot ekologik tabiatga ega bo'lgan. Aristotel o'zining ilmiy asarlaridagi 500 dan ortiq hayvon turlarining, qushlarning, baliqlarning hayoti, tarqalishi, bir yerdan ikkinchi yerga ko'chishi haqida ma'lumot bergen. Golen va Teofrast ham turli jonivorlarning hayoti, tabiatga moslashishi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar qoldirganlar.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al-Horazmiy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida fikrlar aytganlar.

Buyuk alloma Muhammad Muso al-Horazmiy (782–847) risolalaridan birida bunday deb yozadi: «Biling-ki, daryoning ko'zлари yoshlansa uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar». Dar-yoning ko'z yoshlari deganda Muhammad Muso al-Horazmiy nimalarni nazarda tutgan ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? Vaholanki, buyuk bobomiz eng avvalo, daryo bilan odamlarning bir-birini tushunishlari va til topishishlari, o'zaro mehr-muhabbat qo'yishlarini ko'zda tutgan.

847-yilda Muhammad Muso al-Horazmiy «Kitob surat al-arz» degan asarini yozdi. Unda dunyodagi okeanlarni, quruqlikdagi qit'alar, qutblar, ekvatorlar, cho'llar, tog'lar, daryo va dengizlar, ko'llar, o'rmonlar va ulardagi o'simlik, hayvonot dunyosi, boshqa tabiiy resurslar-yerning asosiy boyliklari haqida ma'lumotlar yozilgan. Ushbu risolada

matematika, geologiya, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, Dunyo xalqlarining tabiiy ko‘nikmalari va tarixiy-huquqiy bilimlari umumlashtirilgan.

O‘rtal Osiyo xalqlari ijtimoiy – falsafiy fikrning eng yirik va mashhur vakillaridan biri Abu Nasr Forobiyning (870–910) ilmiy-falsafiy merosi nihoyatda boy. Uning asarlari hozirgacha to‘liq aniqlanmagan. Nemis olimi M.K. Brokel-manning ro‘yxatida Forobiyning turli sohalariga oid 180 ta asarining nomi keltiriladi. Bu asarlar bir necha guruhlarga bo‘linadi. Shulardan 11-guruhgaga Forobiyning tabiatshunoslik ilmi, amaliy faoliyat va hunarmandchilik masalalariga oid asarlari kiritilgan. Forobiy tabiatshu-noslarning turli tarmoqlari bilan shug‘ullangan bo‘lib, «Kitob al-hajm va al-miq-dor», «Kitob al-mobodi al-insonia» (Insoniyatning boshlanishi haqida kitob), «Kitob fi-a’zo al-hayvon» (Hayvon a’zolari to‘g‘risida kitob) nomli asarlari bunga dalil bo‘la oladi. Forobiy o‘zining «Ixsoa al-ulum va al-ta’rif» asarida zamonasidagi ilmlarni har tomonlama o‘rganib, ularni ma’lum tizimga solib, turkumlarga ajratadi, har bir ilm tarmog‘iga ta’rif berishga harakat qildi, tabiatshunoslik ilmiga katta e’tibor berdi. Tabiatshunoslikka oid «Odam a’zolarining tuzilishi» (Risolat fi-a’zo al-inson), «Hayvonlar a’zolari va ularning vazifalari haqida» kabi asarlarida odam va hayvonlarning tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida, ular-ning o‘xshashligi va farqlari keltirilishi bilan birga asosiy anatomiq-fiziologik tushunchalar berilgan.

Abu Rayhon Beruniy (973–1048) koinotdagi hodisalarini taraqqiyot qonunlari bilan, narsa va hodisalarning o‘zaro ta’siri bilan tushuntirishga urinadi. Olim yerdagi ba’zi hodisalarini Quyoshning ta’siri bilan izohlaydi. Uning fikricha, inson tabiat qoidalariga rioya qilgan holda borliqni ilmiy ra-

vishda to‘g‘ri o‘rgana oladi. Beruniy ba’zi tabiiy-ilmiy masalalarda tabiat hayotidagi dialektikani topishga harakat qiladi va shu zaylda umumiy shaklda bo‘lsa ham, keyingi davrlar-dagi tabiatshunos olimlarga ba’zi muhim ilmiy yutuqlariga erishishi uchun yo‘l ko‘rsatib beradi. Beruniy aytadiki, yerdagi o‘simlik va hayvonlarning yashashi uchun zarur imkoniyatlarni cheklidir. Lekin o‘simlik va hayvonlar cheksiz ko‘payishiga intiladi va shu maqsadda kurashadi. Beruniy tabiatshunos sifatida tabiat haqida quyidagicha fikr yuritadi: «Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to‘lib bora-veradi». Garchi dunyo cheklangan bo‘lsa-da, kunlar o‘tishi bilan bu ikki o‘sish natijasida ko‘payish cheklanmaydi. Agarda o‘simliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o‘sishiga sharoit bo‘lmay, o‘sishdan to‘xtasa ham boshqalarida bu ahvol bo‘lmaydi. Ular birdaniga paydo bo‘lib, birdaniga yo‘qolib ketmaydi. Balki ularning biri yo‘qolsa ham, u o‘z o‘xshashini qoldirib ketadi. Agar yer yuzini bir xil daraxt bir xil hayvonning ko‘payishiga ham, daraxtning o‘sishiga ham o‘rin qolmaydi. Shu sababdan dehqonlar ekinlarni o‘toq qilib, keraksizini yilib tashlaydi. Bog‘bon ham daraxtlarning meva beradigan shoxlarini qoldirib, keraksizini kesib tashlaydi.

Beruniy asarlarida o‘simlik va hayvonlarning biologik, ularning tarqalishi va xo‘jalikdagi ahamiyati haqida ma’lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlarida asosan «Saydana», «Mineralogiya», «Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar» kabi asarlarida uchratiladi. Beruniy «Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar» asarida Eronning turli tropik o‘simlik va hayvonot dunyosini bayon etgan. Ushbu asarda o‘simlik va hayvonlarning tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq atvori yil fasllarining o‘zgarishi bilan bog‘liq ravishda o‘zgarishi misollar bilan tushuntirilgan.

Masalan, asarda qish qattiq sovuq kelsa, qushlarning tog‘dan tekisliklarga tushishi, chumolilarning uyasiga berkinib olishi va boshqa ko‘pgina narsalar ifoda etiladi. Beruniy Yer qiyofasining o‘zgarishi o‘simlik va hayvonot dunyosining o‘zgarishiga, tirik organizmlarning turli hayoti Yer tarixi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak deb hisoblaydi. Qum kovlab, uning orasidan chig‘anoqni topish mumkin deydi alloma. Buning sababi, bu qumlar qachonlardir okean tubi bo‘lgan, degan xulosani aytadi. Beruniy «Saydana» degan asarida 1116 tur dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o‘simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olinadi. Har bir o‘simlik, hayvon va minerallarning xossalari, tarqalishi va boshqa xususiyatlari keltirilgan.

Beruniyning «Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar» va «Hindiston» asarlarida o‘simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma’lumotlar keltiriladi. Beruniy o‘zining tabiiy-ilmiy kuzatishlari, tajribalari asosida tabiatdagি hodisalar ma’lum tabiiy qonuniyatlar asosida boshqariladi, degan xulosaga keladi. Ularni tashqaridan ta’sir etuvchi har qanday kuch o‘zgartirish qobiliyatiga ega emas.

Abu Ali Ibn Sino (980–1037) jahon madaniyatiga buyuk hissa qo‘shgan olimlardan biridir. Yirik ensiklopedist olim sifatida u o‘z davri ilmining deyarli barcha sohalari bilan shug‘ullangan. Turli yozma manbalarida uning 450 dan ortiq asar yozganligi qayd etilgan. Bizgacha uning 240 ta asari yetib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida «Tib qonunlari» shoh asari tibbiyot ilmining qomusi bo‘lib, o‘rta asr tibbiyot ilmi tarqalishining oliy cho‘qqisi hisoblanadi. Ibn Sino tibbiyot tarixida fizioterapiya asoschilaridan biri hisoblanadi. Kishi organizmiga tashqi muhit ta’siri muhimligini bilgan alloma

ayrim kasalliklar suv va havo orqali tarqalishi haqida fikr bayon etgan, ya’ni u kasallikning yuqishi masalasini hal etishga yaqinlashgan edi. «Kasalliklarning ba’zilari yuqumli bo’ladi. Bular moxov, qo’tir, chechak, vabo isitmasi, yiring-lagan yaralar kabi kasalliklardir». Bular odamlarning turar yerlari tor bo’lganda, ya’ni aholi zikh yashagan joylarda, shamol va idish-tovoqlar va boshqalar orqali tarqaladi.

Abu Ali Ibn Sinoning falsafiy va tabiiy – ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur asari «Kitob ash-shifo» (davolash kitobi)da bayon etilgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530)ning eng yirik asaridir. Asarda Boburning ko’rgan-kechirganlari, yur-gan joylarining tabiatni, boyligi, odamlari, urf-odatlari, hay-vonoti, o’simliklari va boshqalar tasvirlangan. Har bir kasb egasi bu kitobdan o’ziga keragicha ma’lumot oladi. Asar muhim atamalar va toponomik manbalarga boy. Unda yer, suv, havo, turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq so’zlari ko’plab topishgan. Bobur o’z asarida har bir hududni ma’lum bir tartibda tasvirlaydi.

Ekologiya va hodisalar

Halqimiz qadimdan badanning quvvati-ovqat, aqlning quvvati-hikmatli so’zdir deb uqtirib kelgan. Hadislar ana shunday hikmatli so’zlar, donishmandlik durdonalari hisob-lanadi. Hadis ilmi bilan shug’ullangan allomalar Abu Abdulloh Muhammad ibn Isomoil Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abu ar-Rahmon ad Daramiy as Samarqandiyilar o’rtalosiyolik bo’lib, hadis ilmining asrdan-asrga saqlanib borishiga munosib hissa qo’shgan buyuk tarixiy shaxslardir.

Hadis bandlari ekologik ta'lim-tarbiyani singdirishga katta yordam beradi. Ularda ayrim o'simlik va hayvonlarning xosiyatlari, ozuqa zanjirida tutgan o'rni, inson xo'jalik faoliyatidagi kabi tomonlari bayon etilgan. Hadislarning ayrim bandlari insonni tabiat boyliklarini tejab-tergash va uni muhofaza qilishga o'rgatadi. Hadislarda qo'y boq, zero ayni barakadur deyiladi. Bu yerda foydali hayvonlarning populatsiyasini ko'paytirish va undan turli maqsadlarda foydalanish mumkinligi e'tiborga olingan.

Boshqa hadislarda ham qo'y, tuya va otlarning insonlarga tegadigan nafi va ularni boqib ko'paytirish kishilar uchun faqat yaxshilik keltirishi haqida, ozuqa zanjirida II va III tartiblarni egallagan o'laksaxo'r hayvonlar go'shti harom ekanligi, ovchilar uchun ko'z oldida otilgan hayvonni yeish mumkinligi aksincha o'lgan holdagisini yeish inson salomatligiga salbiy ta'sir etishi mumkinligi haqida fikr yuritiladi.

Hadisda hayvonning yosh bolasini qurbanlik qilmaslik ya'ni populatsianing yosh tuzilmasini saqlab qolish, voyaga yetgandan keyin undan foydalanish, shuningdek, bahor oylari ko'pchilik hayvonlar ko'payishi davri bo'lgani uchun shu vaqtida qurbanlik qilinmasligiga to'xtalib o'tilgan. Hadislarda o'simliklar ekib, ularni ko'paytirish, dehqonchilik bilan shug'ullanish zarurligi, ya'ni o'simliklarning tabiatda va inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligi, ularni tashqi muhitiga ta'siri va insonlarning ulardan foydalanishi kabi ekologik tushunchalar to'plangan.

Ekologiyaga oid hadislardan namunalar

Qo'y boq, zero u seni boqadur. Bu tilsiz hayvonlar to'g'risida Ollohdan qo'rninglar. Ularni yaroqli holda mininglar va (so'yishga) yaroqli qilib (semirtirib) so'yib yenglar.

Dehqonchilik bilan shug'ullaninglar. Dehqonchilik mu'boraq kasbdir. Unga qo'riqchilarni ko'paytiringlar.

Ekmoq niyatda qo'lingizga ko'chat turgan paytda behosdan qiyomat-qoyim bo'lishi aniq bo'lganida ham ulgursangiz uni ekib qo'yavering.

Beshta yomon hayvon bor. Ular hajda ham, tashqarida ham o'ldiraveriladi: ilon, olaqarg'a, sichqon, quturgan it, kalxat. Yirtqichlarning go'shtlari haromdir.

Qo'y boqadur, tuya ahliga izzatdir (egasiga azizdir).

Otning peshonasiga qiyomatgacha yaxshilik yozilgandir. Uni boqqan yaxshilik oladi.

Suv muqaddas unsurlardan biridir. «Suvga tupurma, makruh bo'ladi» degan naql otalarimizdan meros bo'lib o'tgan. Islomda ichimlik suvi bilan ekin sug'orish man etilganini yaqin-yaqinlargacha ko'philigimiz bilmas edik.

Tabiat va uning mahsullari inson uchun ekan, ulardan oqilona va odilona foydalanish kerak. Yerga, suvga, hayvonlar va nabototga bo'lgan munosabatimizni tiklashimiz orqaligina Ona tabiatimizni asrab qolishimiz mumkin.

Ekologiya kishilar hayotini mushohadai yangi fandir. Har bir kishi biror yerga ahlat yoki chiqindilarni tashlashdan oldin o'z xatti-harakati oqibatlarini o'ylashi, tashqi muhitning yaxshi saqlanishiga javobgar ekanligini unutmaslik kerak!

Har bir fuqaro keljakga umid bilan qarashi lozim.

Tirik organizmlarning tashqi muhit bilan bog'liqligi qadimdan ma'lumdir.

«Ekologiya» atamasi nemis darvinisti Erness Gekkel (1834–1919) tomonidan 1866–1869 yillari ilk marta fanga kiritiladi. E.Gekkelgacha XVIII–XIX asr tabiatshunoslari biologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar, o'simlik va hayvonlarning yashashi, tarqalishini o'rghanadilar, lekin ular «ekologiya» atamasini ishlatmagan edilar.

«Ekologiya so'zi (yunoncha-oykos-uy, yashash joyi, maskan, logos-fan) o'z mazmuniga ko'ra, uy haqidagi, o'zining yashash joyi haqidagi fan» degan ma'noni anglatadi. Yanada umumiyoq ma'noda ekologiya-bu organizmlarning ularni o'rab turgan yashash muhiti o'zaro munosabati (shu bilan birga ularning boshqa organizmlar va turkumlar bilan o'zaro bog'liqligi xilma-xilligini o'rganuvchi fandir). 1877-yilda nemis gidrobiologi K.Mebius (1825–1908) turli organizmlardan iborat biotsenoz ta'limotini ishlab chiqdi. 1895-yili daniyalik botanik E.Varming ekologiya atmasini botanikaga kiritdi. Rossiyada tuproqshunosning asoschisi V.V.Dokuchayev (1846–1903) tabiiy zonalar yo'nalishini ishlab chiqib, ekologiyaning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shganlar.

O'simliklarning turli guruhlarini, senozlarini o'rghanishda N.F.Levakovskiy, S.I.Korjinskiy, A.N.Gordyanin, I.K.Pachoskiy, A.N.Krasnov, N.I.Tanfilev, P.N.Krilovlar ham katta xizmat qilganlar. Keyinroq «fitosotsiologiya», «fitotsenologiya», ta'limotiga G.F.Morozov va V.N.Sukachevlar asos soldilar.

XX asr boshlarida ekologiya fani tez sur'atlar bilan rivojlanadi. Dastlab o'simlik va hayvonlar ekologiyasi alohida o'r ganilgan bo'lsa, keyinchalik bir uyushma sifatida o'rga-

niladi. Ch.Adams, V.Shelfordlar tomonidan hayvonlar ekologiyasiga oid qo'llanmalar yaratildi. S.A.Zernov (1913–1920) suv hayvonlarining hidrobiologiyasini o'rgandi, ekologiyaning rivojlanishida D.N.Kashkarovning «Muhit va organizmlar uyushmasi» (1933) «Hayvonlar ekologiyasining asoslari» (1938) kabi asarlari muhim rol o'ynaydi.

Hayvonlarning morfologik va evolutsion ekologiyasini rivojlantirishda M.S.Gulyarov, S.S.Shvartslar katta hissa qo'shdilar. I.S.Serebrakov tomonidan gulli o'simliklarning hayot shakllari tasnifi ishlab chiqarildi.

1940-yillarning boshlarida tabiiy sistemalarni o'rganish jarayonida yangi yo'nalish kelib chiqdi. 1935-yili ingliz olimi A.Tensli ekosistemalar, 1942-yilda esa V.N.Sukachev biogeotsenozlar haqidagi ta'limotni ilgari surdilar.

1950-yilning boshlarida G.Odum, Yu.Odum, R.Untekker, R.Margalef va boshqalar biologik mahsuldarlikning nazariy asoslarini yaratish borasida ish olib bordilar.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ekologiyaning ijtimoiy roli ortib bormorqda va u tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishning nazariy asosi hisoblanadi.

Rossiyada ekologiyaning rivojlanishida L.A.Zenkevich, S.A.Zernov, G.N.Nikolskiy, V.V.Alexin, B.I.Jadin, V.V.Dogel, V.N.Bekmeshev, O'zbekistonda akademiklar G.Z.Zohidov, Q.Z.Zokirov, A.M.Muzaffarov, I.I.Granitov kabilarning ilmiy ishlari o'simliklar va hayvonlar ekologiyasining rivojlanishida katta ahamiyatga egadir.

Ekologiya mustaqil biologik fandir. Lekin jamiyatning tinimsiz va har tomonlama rivojlanishi davrida tabiatshunos, biolog bo'limgan mutaxassislar ekologiyani tabiatni yoki atrof-muhitni muhofaza qilish fani bilan qo'shib, bir fan sifatida tushunadilar.

Shaxsnинг rivojlanishi, ma’naviy yuksalish va axloqiy-estetik tarbiyada tabiatning roli beqiyosdir. Shuning uchun tabiat bilan jamiyatning o‘zaro aloqadorligini saqlashga layoqatli kishilar avlodini tarbiyalab yetishtirish kerak.

Rossiyaning O‘rtta Osiyoni bosib olishi tufayli Turkistonning qadimgi yodgorliklari, go‘zal tabiatni, o‘simlik va hayvonot olami katta zarar ko‘rdi. 1916-yildayoq Turkistondagi tarixiy yodgorliklarni qayd etish masalasi bo‘yicha ish boshlagan edi. Ammo bu maqsadlar amalga oshmay qoldi.

Arxiv materiallari 1920-yilda Turkiston o‘tmishidan qolgan yodgorliklarni o‘rganish va asrash maqsadida ta’lim tarmog‘i zaruligi to‘g‘risida fikrlar paydo bo‘la boshlaganidan dalolat beradi. 1921-yilda muzeylar ishi va qadimgi yodgorliklarni, san‘at va tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha Turkiston qo‘mitasi tashkil etiladi. Mazkur qo‘mita huzurida tabiatni muhofaza etish bo‘limi faoliyat ko‘rsatib, uning maqsadi hayvonot populatsiyasi va o‘simliklar turini o‘rganish, ko‘paytirish, asrashga yo‘naltirilgan tadbirlar qabul qilishdan iborat bo‘lgan. Shuningdek, yer qobig‘ining elementlari va ayrim qisimlarini tadqiq etish nazarda tutilgan.

Ovchilar o‘rtasida tabiatni muhofaza etish g‘oyasini tashviqot-targ‘ibot qilish maqsadida 1923-yilda Butun Turkiston tabiatini muhofaza etish bo‘limi va Turkiston tabiatni asrash komissiyasi nomidan professor A.L. Borodskiy «Tabiat yod-gorliklarini muhofaza etish» mavzusida so‘zga chiqadi. Keyinchalik olimning «Turkistonda tabiatni muhofaza etish» nomli kichik kitobi nashr etiladi. O‘zining bu ilmiy ishida A.L.Borodskiy inson rivojlanib borgan sari tabiat saltanatida yaratuvchi kuchdan ko‘ra buzuvchi kuchga aylanishini ko‘rsatib o‘tadi. U hatto bu kuchni ko‘lami

jihatidan geologik halokatga tenglashtiradi. Olim tabiat dunyosini, yer sirtini qanday bo'lsa shundayligicha saqlash, hayvon va o'simliklarni asrash zarurligini ta'kidlaydi. A.L.Borodskiy Turkiston hududi hayvonlar va o'simliklar turiga juda boy ekanini va bu boyliklarni muhofaza etilishiga hamda talon-toroj qilinmasligiga tezda tadbirlar ishlab chiqishga da'vat etadi. Qo'riqxonalar tashkil etish g'oyasi o'sha paytlarda tug'iladi. Bunda milliy bog'larni tashkil etish g'oyasi o'sha paytlarda tug'iladi. Bunda milliy bog'larni tashkil etish va mas'uliyatlari ish ekanini ta'kidlashgan.

Turkiston tabiatni insonning zulm va zo'rliqi, ta'qiblari tufayli halok bo'layotganini anglagan olim D.N. Kashkarov tabiatni muhofaza etishning asosiy masalalarini quyidagi tartibda ifodalaydi:

1. Tabiatni fan, ya'ni ilmiy nazardan o'rganish uchun asrash; umumiyligi ilmiy muammolarni o'rganish va hal etish maqsadida foyda beradigan tabiatni muhofaza etish.
2. Tabiatni Ho'jalik yuritish manfaati nazaridan muhofaza etish; tabiiy ishlab chiqarish kuchlarini va hali inson qadami yetmagan tabiat go'shalarining barcha xo'jalik imkoniyatlarini aniqlash va undan foydalanish.
3. Tabiatni xalq salomatligi uchun ta'lim-tarbiya nazaridan asrash; tabiat qo'ynida dam olishni tashkil etish va unga salomatlikni tiklash manbayi sifatida qarash; tabiatni muhofaza etish boarsida ma'rifat ishlarini yo'lga qo'yish.

Olim maxsus qo'riqlanadigan hududlarni tashkil etish masalalariga juda ko'p e'tibor qaratgan. U 1928-yilda AQSH ning milliy parki ishlari bilan tanishib, Turkiston hududlarida tashkil etiladigan milliy park maydoni juda keng, tabobat olamida boy va manzarali, xilvat go'shali, odamlarning dam

olishi, hordiq chiqarishi uchun qulay bo‘lishi lozim deb hisoblaydi. Uning fikriga ko‘ra.

1. Yopiq turdagи ya’ni ilmiy xodimlardan boshqalar kiritilmaydigan qo‘riqxona.

2. Keng aholi yoki omma uchun ochiq o‘lgan dam olish parklari bo‘lishi zarur.

1933-yilda O‘zbekiston Fan qo‘mitasi huzurida tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha Davlat qo‘mitasi tashkil etilib, uning tarkibiga 6 kishi, xususan, D.N.Kashkarov ham kiradi. Tabiatni muhofaza etish qo‘mitasi asosan qo‘riqxonalarni loyihalash va tashkil etish, ularning ilmiy ishiga rahbarlik qilishi, tabiatni muhofaza qilish g‘oyasini ommalashtirish ishlari bilan mashg‘ul bo‘ladi, mahalliy hududlar, o‘simplik va hayvonot olami, daryo va ko‘llarni o‘rganadi.

60-yillariga kelib O‘zbekistonda ekologik vaziyat keskin o‘zgara boshlaydi. Bunga sabab, paxtachilikni jadallik bilan rivojlantirishga intilish va qishloq xo‘jaligini haddan ortiq kimyo lashtirishdir.

1968-yil 30-iyulda Vazirlar Kengashining «O‘rmonlarning yong‘indan saqlash hamda ularni zararli hasharotlar va kasalliklardan himoya qilish» haqida 349-sonli qarori e’lon qilinadi. «Chotqol», «Orol-payg‘ambar», «Zomin», «Baday-to‘g‘ay», «Qorako‘l», kabi qo‘riqxonalar tashkil etildi. Vazirlar Kengashining foydali qazilmalar konini topish, geologiya-qidiruv ishlarini o‘tkazishda yerning hosildor qatlamlarini himoya qilinishi mezonlari bo‘yicha guruhlarga ajratish, hayvonlar hisob-kitobini olish, hayvonot olaming davlat kadastiri, foydali qazilmalarni olish bilan bog‘liq bo‘limgan obyektlarni joylashtirish uchun yer ostidan foydalanish, dorivor o‘simpliklar tayyorlash va boshqalar haqida qator qonunlar qabul qilindi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng ekologiya va tabiatni muhofaza etish masalalariga jiddiy e’tibor berildi. Ekologiya va tabiatni muhofaza etish borasida o‘nlab qonunlar, farmoyishlar e’lon qilindi, ularning ijrosi bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi «Tabiatni muhofaza etish to‘g‘risida»gi, 1993-yil 6-maydagi «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi, 1994-yil 22-sentabrdagi «Yer osti boyliklari to‘g‘risida»gi, 1996-yilda 27-dekabrdagi «Atmosfera havosini muhofaza etish to‘g‘risida»gi, 1997-yil 26-dekabrdagi «Hayvonot dunyosini muhofaza etish va undan oqilona foydalanish to‘g‘risida»gi, 1997-yil 26-dekabrdagi «O‘simlik dunyosini muhofaza etish va undan oqilona foydalanish to‘g‘risida»gi, Qonunlar hamda bu borada e’lon qilingan qator prezidentimiz Farmonlari shular jumlasidandir.

OILADA EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING SHAKL VA YO‘LLARI

Oilada bolalarga ekologik tarbiya berishning mazmuni

Oilada ham bolalarni tabiat bilan tanishtirish orqali ularda axloqiy sifatlarni tarbiyalash mumkindir. Bunda bolalar yoshiga mos bo‘lgan badiiy asarlardan, suhbatlardan, sayrlardan va turli xil ta’limiy o‘yinlardan foydalanish mumkin.

Bolalar adabiyotida tabiat turli vositalar yordamida ifodalanadi. O‘z mazmuniga ko‘ra ilmiy bo‘lgan tabiatshunoslik haqidagi kitob ayni vaqtida san’atning bir turidir. Uning xususiyatlari mana shundadir.

Tabiatshunoslik kitobi bolalarda bilishga qiziqishni, kuzatuvchilikni, bilimga bo'lgan havasni tayyorlash uchun boy materiallarni beradi. U bolalar oldiga yangi savollarni qo'yadi, bolalarni atrofidagi tabiatga diqqat bilan qarashga majbur qiladi.

Tabiat haqidagi bolalar kitobi ota-onalar qo'lida katta bilim qiymatiga egadir. U kuzatilayotgan joydan chetga olib chiqadi va shu orqali bolalarni tasavvurlarini kengaytiradi, bolani bevosita idrok etolmaydigan hodisalar bilan tanish-tiradi. Kitob yordamida boshqa iqlim zonalaridagi tabiat hodisalari, hayvon va o'simliklarning hayoti haqida bilish, predmet va hodisalar haqidagi mavjud tasavvurlarini aniqlash hamda aniqlashtirish mumkin. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda jonsiz tabiat hodisalarini olib beradi, tabiatda mavjud aloqa va munosabatlarini aniqlashga yordam beradi.

Ekskursiyalar vaqtida bola tabiat hodisalarini, mavsumiy o'zgarishlarini tabiiy sharoitda kuzatishi, insonning hayotiy talablariga muvofiq tabiatni qanday o'zgartirayotganini va tabiat kishilarga qanday xizmat qilayotganini ko'rish mumkin.

Ekskursiya bolalarga tabiatda mavjud bo'lgan dastlabki dunyoqarash tasavvurlarini, olamni materialistik tushunishni shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

O'rmon, dala, yaylov, daryo va ko'l qirg'oqlariga uyush-tirilgan ekskursiyalar bolalarning diqqatini jalb qiladi. Oilada tabiat burchagi tashkil qilib, ularni kuzatib, o'rganishga harakat qiladi. Ekskursiyalar tufayli bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni o'rganishga qiziqish o'sadi. Ular predmetni sinchik-lab kuzatish va uning xarakterli xususiyatlarini qayd qilishga odatlanadilar.

Tabiatning go'zalligi bolalarda chuqur his-tuyg'ularni uyg'otadi, o'chmas taassurotlar qoldiradi. Estetik mada-niyatning o'sishiga yordam beradi. Shu asosda ona tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi, Vatan-ga muhabbatni shakllantiradi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish yoki oilada bolalarga ekologik tarbiya berish uchun tabiat qo'yniga sayrlardan keng foydalaniladi. Oilaviy sayrlar vaqtida bolalar tasavvurlarini shakllanishi uchun uzoq muddat talab qilinadigan tabiat hodisalari bilan tanishtirish imkoniga ega bo'ladi. Bolalarga qorninig erishi, kurtaklarnig bo'rtishi, maysalarning paydo bo'lishi, gullarning ochilishi, daraxt yaproqlarining paydo bo'lishi va shu kabilar bilan tanishtiriladi. Sayrlarda tabiiy materiallar – qum, loy, suv, muz, barg va shu kabilar bilan xilma-xil o'yinlarni tashkil etish mumkin. Oiladagi bolalarda sezgi tajribasi yig'iladi, ular tabiat hodisalarini barcha aloqa va munosabatlarda tabiiy sharoitlarda ko'radilar. Sayrlar bolalarga katta quvonch, tabiat bilan munosabatda bo'lish esa izzat baxsh etadi.

Sayrlar vaqtida gulzor va ekinzorlarda katta ishlarni amalga oshirish mumkin. Bolalar o'simliklarni sug'oradilar, oziqlantiradilar, yerni yumshatadilar.

Oilada bolalarga axloqiy tarbiya berishda va ularni tabiat bilan tanishtirishda ta'limiy didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tabiatdagi hodisalarini, kishilarni o'zaro bir-biri bilan munosabatini o'zin orqali qabul qiladilar. Bolalarni tabiat, o'simliklar, hayvonlar to'g'risidagi bilimlarini, tasavvur va tushunchalarni kengaytirish, aniqlash va mustahkamlashda turli hil o'yinlardan foydalaniladi.

Ekologik tarbiya samaradorligini oshirish ekologik ta'lim-ga bog'liqdir. Bolalar ongiga ta'limni yaxshiroq sindirishga o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ta'limiy o'yinlardan tabiiy sharoitda o'tkazilishi mumkin. Ta'limiy o'yinlar bolalarni xotira, diqqat kuzatuvchanlik kabi bilish jarayonlarini o'sishga yordam beradi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda: «O'simlikning nomini top», «Bargi qaysi daraxtga tegishli?» yoki «Bargiga qarab top», «Mevasidan top», «Qaysi o'simlik haqida gapirildi?», «Urug'idan top» kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. Bu o'yinlardan ota-onalar oilada bolalarni tabiat bilan tanishtirishda foydalanishlari mumkin. Buning uchun ota-onalar bolalarni o'simliklar yoki gullar, daraxtlar, butalar va shu kabilalar bilan tanishtirish uchun «Botanika bog'i»ga yoki bo'lmasa imkonli boricha ochiq tabiat qo'yniga olib chiqishlari shart.

Oilada bolalarni nafaqat o'simliklar dunyosi yoki hayvonlar dunyosini ham bilishlari lozim. Buning uchun «Hayvonot bog'i», «Tabiatshunoslik muzeyi», «Geologlar muzeyi», «Ekosan», va «Bioekosan» markazlarini tomosha qilib, bir qancha bo'lsa ham ekologik ongalarini oshiradilar. Ba'zi oilalarning «O'z tabiat burchaklari» bo'ladi. Bularga uy sharoitda boqiladigan qushlar, parrandalar, akvariumlari, qo'y va mollari nazarda tutiladi. Bola ilk davrlaridan shularni ko'rib ularga mehr berib voyaga yetib ulg'ayadi. Bu esa ekologik ta'limning boshlanishi desa ham bo'ladi. Bola kun bo'yi ularga o'z mehrini berib oziqlantiradi, kuchuk, mushuklarni to'g'ri harakat qildirishga tarbiyalaydi, kuzatadi parvarish qiladi. Uning xatti-harakatlarida bolalar quvonib, his-tuyg'ularga berilib, mehrli bo'lib o'sadilar. Tabiatdan unimli foydalanishga o'rgatish uchun bolalar ongida ekologik madaniyatni shakllantirish zarur.

Bolalar tabiat haqidagi elementar bilimlarini egallab olib, o'simliklarni (xona o'simliklarini ham) o'stirish, hayvon va parrandalarni (uy sharoitida boqiladigan ba'zilarini ham) parvarish qilishning oddiy usullarini o'rganib, tabiatni kuzatish, anglash, uning go'zalliklarini ko'ra bilish va ulardan bahra olgan taqdirdagina ularda tabiatga nisbatan ehtiyyotkorlik va g'amho'rlik qilish munosabatida bo'lishni tarbiyalash imkoniyati tug'iladi.

Oilada bolalarga ekologik tarbiya berishda oddiy usullardan foydalanish mumkin; rasmlar ko'rish va chizish; kino va diafilm, multfilmlarni namoyish etish orqali; amalda mashg'ulotlar va suhbatlar o'tkazish; mehnat (amaliy), ota-onaning oddiy tajribalari (bolalar bilan birga) o'tkazish; og'zaki tushuntirishlar, maqollar, nasihatlar, hikmatli o'gitlar, badiiy asarlar, ertak, afsona va miflardan foydalanish, so'zlab-o'qib berish, suhbatlashish va she'rlarni o'qib yod oldirish orqali.

Bolalarni o'simliklar va hayvonlarni sevib, asrab-avaylashga o'rgatmoq uchun oiladagilarning o'zi shu fazilatlarga ega bo'lishlari shart.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ma'lum kunlarga bo'ysungan holda boradi. Bu qonunlarning buzilishi ertami-kechmi ekologik halokatga olib keladi.

Ekologik tarbiya insonning tabiatga bo'lgan yangicha munosabatlarini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Bu yuksak ekologik madaniyatli, o'z Vataniga, eliga xizmat qiladigan insonning shakllanishida asos bo'lib xizmat qilish mumkin.

Ekologik tarbiya-axloqiy tarbiyaning ajralmas qismidir. Insonlarda ekologik ongni va tafakkurini tarbiyalash, ularni tabiat qonunlarini tushuntirishlariga yordam beradi.

Matabgacha ta'lif yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish uzoq davom etadigan jarayondir. Har bir insonga ekologik tarbiya berish orqali ularni tabiatga nisbatan bo'lgan munosabatlari o'zgaradi. Bu esa ekologik muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.

Tabiat boyliklaridan unumli foydalanish, tabiatni qo'riqlash masalalari ongli ravishda hal etish uchun oila, bog'cha, maktab, jamoat joylarida kamol topayotgan yoshlar tabiat sirlarini va undan to'g'ri foydalanish usullarini har tomonlama puxta bilib olishlari shartdir.

Oila jamiyatning asosiy negizidir. Shuning uchun ham bolalarga oilada ekologik tarbiya berishga katta ahamiyat berish zarur.

Oilada ekologik tarbiya berishning bir necha bosqichlarida amalga oshirish mumkin.

I bosqich: bunda ota-onalarga bolalarga ekologik tarbiya berishning yo'llari va shakllari, vositalari to'g'risida bilimlar beriladi.

II bosqich: u bosqichda ota-onalar o'zлari o'zlashtirgan bilimlarini amaliy jihatdan qo'llay boshlaydi. Bolalar bilan kuzatishlar, ekskursiyalar, sayrlar, suhbatlar tashkil etadilar.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqot ishi oilada bolalarga ekologik tarbiya berishning ayrim masalalarigina hal etishga yordam beradi. Bu tavsiyalardan ota-onalar, tarbiyachilar bolalarga ekologik tarbiya berishdan foydalanishlari mumkin.

Metodik tavsiyalar

Oilada maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni ekologik tarbiya berishda quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur:

1. Ota-onalarni ekologik savodxonliklarini oshirish.

2. Ota-onalarga va bolalarga ekologiya haqida bilimlar berish.
3. Ota-onalarda va bolalarda ekologik madaniyatini tarbiyalash.
4. Oilada tabiat burchaklarini va tabiat kundaliklarini tashkil etish kerak.
5. Oilada bolalarni tabiat haqida bilimga ega bo'lishlari uchun kuzatishlar tashkil etishlari kerak.
6. Bolalar bilan «Tabiat muzeyiga», «Hayvonot bog'iga», «Botanika bog'iga» ekskursiyalar tashkil etish kerak.
7. Bolalarga muntazam ravishda tabiatga doir badiiy asarlarni o'qib berish maqsadga muvofiqdir.

Bola tarbiyasida oila va jamoat hamkorligi

*Odamning qalbida neki olivjanob tuyg'ular
mavjud bo'lsa ular avvalo, Onadandur
Islom Karimov*

XXI asrning har kuni mustaqil davlatimizdagi sog'lom dunyoqarashga ega bo'lgan iymonli, diyonatli kishilarga fikrlash va halol mehnat qilish davri kelganligi sezdirmoqda.

Ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan insoniy fazilatlarning birinchi navbatda yoshlarimizning ma'naviy bar-kamol bo'lib yetishishlari, ulardan bilimdon va zukko shaxslar yetishib chiqishi uchun xizmat qilishi tabiiy.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan kunlar danoq yurtboshimiz tashabbusi bilan bir qancha hujatlar va qarorlar qabul qilindi. Bular «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, «Sog'lom avlod» davlat dasturi. Bu dasturlarning muvaffaqiyatli bajarilishi

jamiyatimiz a'zolari ma'naviyati va dunyoqarashi sog'lom bo'lishini nazarda tutadi.

Bizga ma'lumki 2001-yilni O'zbekiston Respublikasida «Ona va bola» yili deb e'lon qilinishi munosabati bilan «Ona va bola» davlat dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Ushbu davlat dasturining asosiy maqsad vazifalaridan biri:

– har tomonlama jismoniy, ma'naviy va aql zakovatli bolalar kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning tarbyasida pedagogika, psixologiyaning zamonaviy usul-larini qo'llash asosida qat'iy bilimlar, erkin fikrlash ko'nik-malarini shakllantirish atrof-muhitning boyligi va xilma-xilligi bilan keng tanishtirish;

– eng yaxshi an'analarimiz va urf-odatlarimiz asosida yoshlarni vatanga, xalqqa muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda ota-onalar, ta'lim muassasalari va mahallaning rolini oshi-rish;

– mustahkam va sog'lom oilani shakllantirish uchun sharoit yaratish, bolani tarbiyalash, jismoniy va ma'naviy rivojlantirishda ona va oilaning rolini kuchaytirish.

Respublika rahbariyati oilalarga har tomonlama yordam berishni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb bilmoqda.

Davlat bolalarni yasilda maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanishi, umumta'lim mакtabida, kollej-litsey, oliy o'quv yurtlarida bilim olishlari uchun sarflanadigan xarajatlarni yildan yilga ko'paytirib bormoqda.

Onalarga qulaylik tug'dirish ularning moddiy sharoitlarini yaxshilash, bola tarbiyasi bilan jiddiyroq shug'ullanishlari uchun katta imtiyozlar yaratilgan. Masalan, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va undagi moddiy sharoitni yaxshilash; bola tugilgandan birinchi bolaga, ikkinchi va uchinchi bolaga beriladigan so'yunchi pullari

miqdorini yildan yilga oshirib borish, 2 va undan ortiq 12 yoshgacha bolasi bo'lgan oilalarning mehnat ta'tillarini uzaytirish, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ishlaydigan xotin-qizlarga bola tug'ilganda bolasi 2 yoshga to'lgunga qadar o'rtacha oyligi saqlangan holda va bola 3 yoshga kirkunga qadar pulsiz ta'til joriy qilinishi, bunda uning mutaxassisligi bo'yicha ish staji saqlanishi; yolg'iz onalarga har bir bolasi uchun beriladigan oylik nafaqa puli miqdorini ko'paytirilishi; ota-onalarining bolalar bilan bиргаликда dam olishlari va davolanishlari uchun shart-sharoiti yaratilishi; narx-navoni oshishi munosabati bilan ishlaromoqchi bo'lgan bolalarga to'la bo'limgan ish kuni, ish haftasi, uyda ishlashlari uchun sharoit yaratishi, bolalar kasallanganda uni parvarish qilish uchun pul to'lanadigan vaqtning uzaytirilishi shular jumlasidandir.

Respublikamiz rahbariyati oila mustahkamlash, uning sharoitini yaxshilash, kishilarning turmush farovonligini oshirishga juda katta ahamiyat bermoqda. Oilaning mustahkamligi bolalarni har tomonlama to'g'ri tarbiyalashga imkon beradi. Oila, maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab, mahalla jamoasi o'rtaсидаги aloqani yaxshilash, ota-onalarining bolalar tarbiyasi uchun javobgarligini oishrish davr talabidir.

Bola tarbiyasi bilan jiddiyoq shug'ullanish va oilani mustahkamlashning muhim garovi aholining shart-sharoitini yaxshilash, turmush darajasini ko'tarish bo'yicha hozirgi kunda respublikamiz rahbariyati tomonidan chiqarilayotgan farmon va qonunlar, bularni amalga oshirish bo'yicha belgilanayotgan chora-tadbirlar ko'p millatli xalqimizning taq-singa sazovor bo'lmoqda. Masalan, homilador va kam qonli bolalik ayollarga shifoxonalarda bepul ovqat berish

tashkil qilingan, kollej-litsey, oliy o‘quv yurtlari talabalari, magistranlar hamda aspirantlar oylik stependiyalari oshirilib berilmoxda. Maktab o‘qituvchilari va tarbyachilarining ish soati kamaytirib, oylik maoshlari oshirilmoxda. Hamma o‘qituvchilarning, tarbiyachilarning yashab turgan davlat uylari xususiy mulkka aylantirildi. Qishloq joylardagi o‘qituvchilarga esa imtiyoz bundan ham ko‘proq, ular kamunal xizmati uchun to‘lanadigan xarajatdan butunlay ozod qilindilar. Bularning hammasi aholining moddiy sharoitini yaxshilash, turmush farovonligini oshirish, oilani mustahkamlash, bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Oilaning maqsadi bolalar tarbiyasidur

Farzand – oilaning quvonchi, ota-onaning tayanchi, jamiyatning hayotbaxsh kuchi. Buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy bolani «mehri anbar» - uyni yoritadigan va oilaga baxt-quvonch keltiradigan nur deb hisoblagan edi.

Farzand umr mevasi, oila faxri, kelajagi, baxtidir. Ammo tarbiya nihoyatda mashaqqatli ish bo‘lib, ota-onalar bolalar tarbiyasida har doim ham istagan natijalariga erishavermaydilar.

Hayotining birinchi yilidan boshlab bola shaxsini shakllantirish, ya’ni uning tarbiyasi bilan shug‘ullanish oilaning asosiy vazifasidir.

Oila jamiyatning boshlang‘ich bo‘g‘ini bo‘lib, unda yangi inson vujudga kelad; bu kichik ijtimoiy guruh bola uchun dastlabki hayot maktabidir. Ota-onalar bolaning birinchi o‘qituvchisi va tarbiyachisidirlar.

Alisher Navoiy bolalar oilada va mакtabda imtizomli bo'lishlari va o'zlarining odobli ekanliklarini kursatishlari kerakligini ham ta'kidlab o'tgan edi.

Navoiy tarbiya usuli sifatida namuna ko'rsatishga alohida e'tibor berar va kishilarni, ayniqsa, yoshlarni yaxshi kishilar dan o'rganishga, ulardan ibrat olishga, ularning davrasida bo'lish, ular bilan tez-tez suhbatlashishga chaqirar edi. U bola tarbiyasida ota-onalarning ibrati to'g'risida:

*Farzand ato qullugin chu odat qilgay,
Ul odat ila kasbi saodat qilgay,
Har kimki atoga ko'p rivoyat qilgay,
O'g'lidan anga bu ish siroyat qilgay.*

Sharq mutafakkirlaridan Nasriddin Tusiy o'zining «Ax-loqi Nasriy» asarida yaxshi tarbiyaning muhimligiga ko'p to'xtalgan. U ota-onalarning huquq va burchlari, saxovatlilik, baxt, insonning oliyjanob xislatlari, qadr-qimmat, sadoqat va samimiylit, salomatlilik (kishi o'zida yaxshi axloqiy xislatlarni shakllantirish uchun salomatlik juda zarur, deydi Tusiy) to'g'risida juda qimmatli fikrlarni berganki, oradan yetti asr o'tib ham, ular o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Bola tarbiyasida ota-onaning vazifasi, roli ko'plab xalq maqol va matallarida uchratish mumkin.

Ota-onaning tarbiyachilik roli to'g'risidagi quyidagi xalq maqolini keltirish mumkin:

*Bog'ing bo'lsa, qora qil,
O'g'ling bo'lsa, mulla qil.*

*Daraxtdan meva olaman desang,
Niholligidan parvarish qil.*

*Suv bilan ekin o'sar,
Tarbiya bilan – odam.*

Bola tarbyasida kattalarning ibrati to‘g‘risida quyidagicha maqollar mavjud:

*Daraxt ko‘ra – mevasi,
Ota-onasiga ko‘ra – bolasi.*

*Daryo chuchuk – ariq chuchuk,
Daryo achchiq – ariq achchiq.*

*Ign a qayoqqa yursa,
Ip ham shu yoqqa yurar.*

Madaniy va ma’naviy merosimiz bo‘lgan hadisu sharfda ham tarbiya, axloq-odob, o‘zaro do‘stona munosabatlar, qarindoshlik, mehr oqibat,adolat, insof-tavfiq bilan bir qatorda ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari hamda burchlari o‘z ifodasini topgan.

Hazrati Muhammad payg‘ambarimiz (S.A.V) ota-onaning bolalari oiladagi burchlari haqida bir hadislarida: «Farzandlaringizni yaxshi boqingiz, ularni yaxshi tarbiya qilingiz», – deb marhamat qilgan edilar.

Ota-onaning burchi bola tug‘dirishdangina iborat emas. Tug‘ilgan farzandni o‘stirish, yaxshi tarbiyalash, dini va millati uchun foydali qilmoqdir. Yana bir hadisda «Farzandlaringizni izzat ikrom qilish bilan birga axloq-odobini yaxshilanglar», deyilgan.

Aga oila ma’nosiz hayot kechirsa, faqat shaxsiy huzur halovoti bilan mashg‘ul bo‘lsa, agar oilada rahmsizlik va

xudbinlik hukm surayotgan bo'lsa, bularning hammasi bolaning ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi, albatta. Shu sababli ota-onalar uchun oila tarbiyasi, avvalo, o'z-o'zini tarbiyalashdan iborat bo'lmosg'i kerak. Ota-onalarnig yuksak ijtimoiy ongi bolalarda ham shunga mos ong tarkib topishiga yordam beradi.

Oilada kattalarga hurmat, kichiklarni avaylash kabi qoidalar kundalik odatga aylanib borishi kerak.

Ota-onalar oldidagi mas'uliyatning naqadar muhimligi shundan iboratki, ular bolaning har bir qadamini, har bir xatti-harakatini zimdan kuzatib boradilar. Bolalar har qanday janjalni, yomon, noo'rin so'zni uzoq eslab yuradilar, o'rni kelganda vaziyat bo'lganda amalda qo'llashga harakat qiladilar.

«Qush uyasida ko'rganini qiladi», deydi xalqimiz. Ayniqsa, bolaning izzat nafsiga tegmaslik, uni kamsitib gapirmaslik, ota-onaning o'zi madaniyatsizlik, odobsizlik qilmasliklari maqsadga muvofiqdir.

Har bir ota-onan o'z farzandini sevadi. Hech kim ulardan yomon va baxtsiz insonlar etishib chiqishini istamaydi. Farzandning har bir yutug'i ota-onanining yuragini tog'dek ko'taradi, faxr va g'urur tug'ularini vujudga keltiradi. Lekin ota-onanining maqsad va niyatini farzandlar qanday tushunadilar, bu maqsadlarni amalga oshirish uchun ular qanday yo'l va vositalardan foydalanadilar, bular nihoyatda murakkab masalalardir. Ota-onanining jamiyatda tutgan o'rni, nu-fuzi, farzand tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Bu narsa mansab bilan belgilanmaydi, eng yaxshi obro' va e'tibor halol mehnatdir. Halol mehnat bilan jamiyatda orttirilgan obro' oilada farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Farzand

ham ota-onalardek bo'lishga intiladi. Mehmondo'st oilada o'sgan farzandlar ham mehmondo'st bo'ladilar.

Ota-onalarini xor zor qiladigan, dillarini og'ritadigan nomard farzandlar ham uchraydi, ular nima qilayotganlarini o'ylab ham ko'rmaydilar. Qadimda bir naql bor: ota-ona o'nta bolani boqadi-yu, o'nta nomard bola ota-onani boqa olmaydi. Bu naqlning mazmuni juda chuqur. Uni har bir farzand yoddan chiqarmaslik kerak.

O'sib unayotgan farzandlar Alisher Navoiyning mana bu nasihatini ham yodda saqlashlari lozim:

*Boshni fido qilg'il ato boshig'a,
Jismni qil sadqa ano qoshig'a.
Tun-kuningga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin Quyosh.*

Pedagoglar ota-onalar bilan bo'ladigan suhbatlarda bolasning axloqiy shakllanishi kattalarning o'ziga, ularning namunasiga, o'z shaxslarini takomillashtirishga bo'lgan intilishlariga bog'liq ekanligi odob bilan eslatib qo'yishlari lozim.

Pedagog ota-onalar bilan suhbat chog'ida dastur talablariga tayanadi, ota-onalarning pedagogik layoqati va oilaviy tarbiya xususiyatlarini hisobga olgan holda maktabgacha tarbiya haqidagi kitob materiallari va ularda keltirilgan misollar, maslahatlar, tavsiyanomalardan ijodiy foydalanadi.

Suhbat bu ikki tomon-pedagog bilan ota-onaning mu-loqotidir. U fikr almashishga, muhokama qilinayotgan masalalarda o'zaro hamjihatlik o'rnatilishiga yordam berishi kerak. Shuning uchun eng muhimi, tarbiyachining xayrixohlik, erkinlik muhitini yarata olishidir.

Bunga esa pedagog ota-onalarga o‘z fikrini bildira olish imkoniyatini yaratib berganda, o‘z fikrini zo‘rlab o‘tkazmay, ularda olg‘a surilayotgan tavsiyanomalarga nisbatan ichki rozilikni hosil qilishga manfaatlarni hisobga olib asoslay olgandagina erishadi.

Ota-onalarning shakllanib, kamol topib borayotgan shaxsga ko‘rsatadigan ta’sir kuchi juda katta. Ularning bolaga ta’sir etishining asosi ularning bolaga nisbatan beg‘araz muhabbat, uning haqida talabchanlik bilan qo‘sib olib boradigan g‘amxo‘rligidir. Muhabbat har qanday yaxshilik, mehribonlik va yorqinlikning ijodkoridir.

Hamma gap ota-onalik mehrining namoyon bo‘lish darajasini his etishda, uni talabchanlik va bola shaxsini hurmat qilishi bilan qo‘sib olib borishdadir.

Bola bu muhabbat va g‘amxo‘rlikka ota-onalarga nisbatan katta mehribonlik hamda muhabbat, ularning ustunligi va obro‘yini tan olish, ular yo‘lidan borishiga, har narsada ularga taqlid qilishga intilish bilan javob beradi. Oilada ta’sirining kuchi bolaning tarbiyaviy sirlarga moyiligi, taqlidchanligi bilan belgilanadi.

Ayniqsa, kichik yoshli bolalarni tarbiyalashda oilaning roli kattadir. Bolalar ota-ona rahbarligida tevarak-atrof, hayot to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurlarni egallab oladilar.

Oila bolani tarbiyasiga ta’sir etadi, uni tevarak-atrof-dagi hayotga qo‘sadi.

Bolani yoshlidan boshlab oilaviy odob-axloq qoidalariiga odatlantirish, yaxshi xulq-atvorli bo‘lishga o‘rgatish ota-ona uchun ham farz, ham qarzdir. Ular bolalarda yoshlidan boshlab kishilarga mehr-muhabbatli, izzat-hurmatda bo‘lish, insonning qadriga yetish va hurmat qilish kabi ijobiy xislatlarni tarbiyalab borishlari zarur.

Oqil ota-onalar oilada farzand dunyoga kelishi bilan uni tarbiyasini buvisi, buvasi yoki jamoat tarbya muassasalarga topshirmay, bu mas'uliyatli vazifa bilan o'zlarini jiddiy shug'ullanadilar. O'z farzandlarini o'zi yashab turgan jamiyatning munosib kishilarini qilib tarbiyalashga intiladilar.

O'zbek oilalarida bolalarni jamiyatning munosib farzandlari qilib tarbiyalash bo'yicha ijobiy tajribalar to'plangan. Lekin kichkintoylar tarbiyasida jiddiy xatolarga yo'l qo'yadigan oilalar ham uchraydi. Bu esa bolalarning kelgusidagi kamolotiga salbiy ta'sir etadi va ularni qayta tarbiyalashdek murakkb muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday xatolarning asosiy sababi ota-onalarda pedagogik mada-niyatning yetarli darajada bo'lmasligi. O'z bolasini yaxshi kishi, yetuk inson qilib tarbiyalash istagini o'zi yetarli emas. Buni uddalay bilish kerak.

Ota-onalar; «Bolalarni tarbiyalash – hayotimizning muhim sohasi... To'g'ri tarbiya – bizning baxtli kelajagimiz, yomon tarbiya bizning keljakdagi qayg'u – xasratimiz, ko'z yoshlarimiz boshqa kishilar oldidagi, butun mamlakat oldidagi aybimizdir», degan fikrlarni tushunishlari kerak, – degan edi atoqli pedagoglardan biri. O'z bolasini tarbiyalashni shaxsiy ish deb bo'lmaydi, balki bu jamiyat oldidagi fuqarolik burchini bajarishdir.

Oilada bolani to'g'ri tarbiyalash shart-sharoitlari

Ota-onalar o'z bolalaridan qanday kishilar tarbiyalab yetishtirishlarini, unda qanday fazilatlar hosil qilishlarini aniq tasavvur qilishlari kerak. Bolani to'g'ri tarbiyalash uchun uni yaxshi bilish va tushunish kerak, buning uchun esa

pedagogik bilimlar zarur bo‘ladi. Ular ota-onalarning bola xulqini to‘g‘ri tahlil qilishga, uning tarbiyasi uchun to‘g‘ri yo‘lni tanlashga yordam beradi. Ota-onalar bola tarbiyasida pedagoglik odobiga rioya qilishlari zarur. Pedagoglik odobi nima o‘zi?

Bu bolaga bo‘ladigan munosabatda me’yorga rioya qilish, ya’ni bolaning ongiga, qalbiga, shaxsiga ta’sir etadigan tarbiyaviy choralarni uning yosh xususiyatlarini, imkoniyatlarini hisobga olib mavjud sharoitga qarab tanlay bilishdir.

Pedagoglik odobi-bolani tarbiyalashdagi mohirlik bo‘lib, bunda tarbiyachilarni o‘rgatgandek ota-onalarni ham o‘rgatish kerak. Ota-onalar o‘z xulqi, fe'l-atvorini tashkil eta bilishlari, bolaning qalbida, ongida nima kechayotganini sezalishlari, shunga qarab muomila qila bilishlari lozim.

Shu bilan bir qatorda bolalarga talabchan munosabatda bo‘lishlari, ularda iroda, ong, xulqni, o‘z xatti-harakati uchun boshqalar oldida javob bera olishni tarbiyalashlari kerak.

Oilani turmush madaniyati, oila a’zolarining bir-biriga hurmatli munosabati va butun oilaviy hayotni to‘g‘ri tashkil etishni o‘z ichiga oladi. Bunday batartib oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar sekin asta kattalarning hayot tajribalarini egallab boradilar. Bola bilan dildan, beg‘araz suhbatlashish, bolani ota-onalarga yaqinlashtiradi, ular o‘rtasida mehr oqibat kuchayadi.

Bolaning tarbiyasiga oiladagi tashqi shart-sharoit: uyning jihozlanishi, gigienik, umumiy madaniyat va estetik didga javob berish ham ta’sir etadi. Bolaning normal rivojlanishi uchun har bir oilada zarur shart-sharoit: bolaning o‘ynashi va shug‘ullanishi uchun alohida joy bo‘lishi kerak. Bolalar uyda saramjom-sarishta bo‘lishlari, uy jihozlari va o‘z anjomlarini

ehtiyot qilishlari zarur (o'yinchoqlar, kiyimlar va o'rin jihozlari).

Ota-onalar bolalarning fe'l – atvorini yaxshi bilishlari ularda bola tarbiyasi uchun javobgarlikni oshiradi. Ular bolaga bir xil talab qo'yadilar va ta'lim tarbiya-ishini izchilik bilan amalga oshiradilar.

Maxsus pedagogik bilimlarni egallash bolalarda sinchkovlikni, kuzatuvchanlikni, mantiqiy tafakkurning oddiy formalarini o'stirishga, bolalar mehnati va o'yiniga to'g'ri rahbarlik qilishga bolalar xulqini to'g'ri tahlil qilishga yordam beradi.

Ota-onalarni ilk yoshi bolalar filologiya va psixologiyasini bilishlari bolani sog'lig'ini saqlashga g'amho'rlik qilish uni harakatlarini madaniy gigienik malakalarini rivojlan-tirish nutqi, muomila faoliyatini o'stirishga yordam beradi.

Bolalarda mutaqillikni o'stirish ularni qiyinchiliklarni yengishga o'rgatish undagi irodani mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga bolalarni tarbiyalashda ularning o'ziga xos xususiyatlarni bilish va uni e'tiborga olish zarur. Chunki har bir bola yoshi teng bo'lgan ikkinchi boladan o'zining qiziqishi, qobiliyati, mijozи va fe'l-atvori bilan farq qiladi. Bir xil vaziyatda har bir bola o'zini har xil tutadi: biri uyat-chan, tortinchoq, boshqasi esa dadil; biri bo'shang, pssiv, yana boshqasi tevarak-atrofda bo'layotgan voqealarga ju-dayam xushyor va sezgirlik bilan munosabatda bo'ladilar. Shuning uchun, ota-onalar har bir bolaga uning o'ziga xos, mos yo'lni tanlaydilar.

Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, hamjihatlik, oilaning yaxshi yo'lga qo'yilgan ichki hayoti tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi. Oila a'zolari o'rtasidagi

samimiyl munosabatlar: mehribonlik, o'zaro hurmat va g'amxo'rlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kayfiyati, umumiyl tartib va oilaviy an'analar, bolalarga kattalar qo'yadigan talablarning yagonaligi muhim rol o'ynaydi.

Bolani to'g'ri tarbiyalashda uning oldida ota-onanining obro'sini yuqori bo'lishi kerak, busiz tarbiya bo'lishi mumkin emas. Ota-onalarning fuqarolik qiyofasi, hayoti, ishlari, yurish turishi, jamiyat oldida o'z oilasi uchun javobgarlik tuyg'usi ular obro'sining asosidir. Mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo'shib olib boradigan, o'z bolalarining hayotiga qiziqadigan va ularga mohirlik bilan rahbarlik qiladigan ota-onalar eng obro'li kishilardir – bularning hammasi ham onaga, ham otaga baravar taalluqlidir.

Bolalarga qo'yiladigan talablarda birlik bo'lishi umum-pedagogik prinsip hisoblanadi, maktabda ham, oilada ham bu prinsipga amal qilinishi lozim. Oilada bolalarni tarbiyalashda quyidagi shartlarga rioya qilinishi zarur:

- a) bolalar tarbiyasi uchun javobgarlikni his qilish;
- b) pedagogik bilimlardan xabardor bo'lish;
- d) bolaga bo'lgan mehr-muhabbatni unga talabchanlik qilish bilan qo'shib olib borish.

Insonning qanday kishi bo'lib yetishishi ko'p jihatdan javobgardirlar. Shaxsning qadr-qimmati uning jamiyatga keltiradigan foydasi bilan baholanadi. Ota-onalar o'z bolalarining asosiy tarbiyachilari hisoblanadilar. Shuning uchun ular farzandlarini o'z haqining eng yaxshi urf-odatlari va oilaviy an'analarini ruhida oliyanob fazilatli, bilimdon, madaniyatli shaxs qilib tarbiyalashlari kerak.

Tarbiya ko'p qirrali, uzoq davom etadigan jarayondir. Bolani o'rab olgan muhitning hammasi – odamlar, narsalar,

voqe-a-hodisalar, uning ongida, xulq-atvorida ma'lum iz qoldiradi, uni o'zgartiradi va rivojlantiradi. Ota-onaning burchi mana shu rivojlanishni ziyraklik bilan boshqarib boorishdir. Ota-onaning mehri, muruvvati, g'amxo'rligi bolalar uchun suv va havodek zarur.

Oilaviy tarbiyaning ko'p muammolari ota-onalarni pedagogik bilimlardan xabarsiz ekanliklari orqali yuzaga keladi. Bunda yota-onalarning ko'pchiligi axloq, huquqshunoslik, ruhiyat va pedagogik bilimlarni bilmaydilar. Bu esa bola tarbiyasida noxush voqealarga sabab bo'lmoqda.

Ota-onalarga mo'ljallangan, ularning tafakkurini va amaliy faoliyatini kuchaytiruvchi, oilada bolaning xulqini va o'zlarining tarbiyaviy ta'sirini tahlil qilishga undovchi pedagogik bilimlarni yanada kengroq targ'ib qilish kerak.

Hozirgi vaqtida jumhuriyatimiz rahbarlarining asosiy diqqat-e'tiborlari jamiyatda yuz berayotgan noxushliklarni bartaraf etish, oilalarga, ko'p bolali onalarning farzandlariga yaxshi tarbiya berishlariga, oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya birligini mustahkamlashga qaratilgandir. Chunki bolaning sog'lig'ini saqlash va uni tarbiyalashda oila asosan rol o'ynaydi. Mustahkam, ma'naviy va axloqiy sog'lom oila jamiyat taraqqiyotining asosiy omilidir.

Maktabgacha ta'lif muassasasining oila bilan hamkorlik ish shakllari

Maktabgacha ta'lif muassasasi tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ish mazmuniga quyidagilar kiradi:

– bola tarbiyasi, oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilish bo'yicha maktabgacha ta'lif muassasasida

amalga oshirilayotgan ishlarning mazmuni bilan tanishtirib borish;

– ota-onalarga o‘z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish;

– ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan bilim, malakalardan xabardor qilish (bolalarning yosh, anatomik-fiziologik va ruhiy xususiyatlari, ularni oilada tarbiyalashning mazmuni, metodi, shart-sharoitlari bilan tanishtirish);

– bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik, bolani to‘g‘ri tarbiyalashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi namunalarini o‘rganish va ommalashtirish.

Bola bog‘chada egallagan eng yaxshi fazilatlarni oila sharoitida davom ettirib, oilada egallagan eng yaxshi fazilatlarni esa bolalar bog‘chasida qo‘llansa istalgan ijobiy nati-jalarga erishish mumkin.

Tarbiyachilar oila tarbiyasiga doir tajribalaridagi ijobiy ishlarni ko‘ribgina qolmay, balki uni qo‘llab-quvvatlash va shu asosida ota-onalar e’tiborini bola tarbiyasida hali hal etilmagan vazifalarga qaratishlari lozim.

Yuqoridaq ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va ularga rahbarlik qilishda mudira javobgar shaxs hisoblanadi.

Ota-onalar bilan ishslash bo‘yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruhiy majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshik kunlari, suhbat va maslahatlar, otaliq tashkilotlarida ko‘rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo‘yib berish, shuningdek, bu tadbirlarni o‘tkazish vaqtłari va unga mas’ul bo‘lgan shaxslar belgilanadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va mazmuni tarbiyachi-metodistning rejasida va tarbiyachining kalender rejasida aks etadi.

Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha juda ko'p ishlarni tarbiyachi — pedagog amalga oishiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash, sog'-lig'ini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi.

Bolalar bog'chasi va oila o'rtasida hamkorlik o'matishda mudira, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim ota-onalarni bog'chaga taklif etish, alohida esdaliklar va ko'chma papkalardan foydalanish.

Bolaning uyiga borishdan ko'zlangan maqsad-oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi qiziqishlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan tanishish, shuningdek, ota-onalarni bola tarbiyasining samarali usullari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarni o'rganib, ommalashtirishdir.

Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga har gal borishidan avval o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'yangan bo'lishi kerak.

Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-onalarini bir-birlarini yaxshi tushunishlari, ular o'rtasida ishonchli aloqa o'matilishi darkor. Oilaga borishdan oldin tarbiyachi shu oila to'g'risida (ota-onalarning fe'l-atvori, oilaviy munosabatlar, bolaning rivojlanish darajasi) to'g'rsida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun avval ota-onalarga bolaning ijobjiy fazilatlari to'g'risida fikr, mulohazalarini bilib oladi va bolaning uyidagi hayotini qanday tashkil etish kerakligi, unga nimalarni o'qib va hikoya qilib berish mumkinligi, bolaning kun tartibi, uni oila mehnatida qatnashtirish, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni va usullari bo'yicha tavsiyalar beradi.

Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan ishida bolaning yoshi, imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonarli bo'lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari maktabgacha ta'lim muassasasiga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoki sayrga chiqishdan avval u qanday kiyinayotganini ko'radilar va bolalarning uquv va imkoniyatlariga ishonch hosil qiladilar.

Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasi va hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiliga kamida 2 marta borishi kerak.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etadi. Masalan:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to‘g‘rsidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;
- maktabgacha tarbiya muassasalarining yillik ish rejasi to‘g‘risida;
- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoa bo‘lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiylar majlislari, maslahatlar, kon-ferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi.

Ota-onalar majlisi

Ota-onalar majlisiga bog‘chadagi hamma guruh bolalarining ota-onalari, parallel guruhlar ota-onalari va bitta guruh bolalarining ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Umumiylar majlisda ota-onalarni maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari, shu yilgi rejalar, ota-onalar qo‘mitasining faoliyati, oila tarbiyasidagi ilg‘or tajribalar bilan tanishtiriladi. Bunda majlisda mudira yoki metodist-tarbiyachi ma’ruza qiladi, ota-onalar so‘zga chiqishadi, bolalar gapirishadi. Bular ta’lim-tarbiya ishidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab olishga imkon beradi, oila va jamoatchilik aloqasini mustahkamlaydi, ota-onalarning o‘z bolasining tarbiyasi uchun javobgarligini oshiradi, ularda bog‘chaga qiziqish uyg‘onadi.

Guruhdagi ota-onalar majlisida mazkur bolalarning ota-onalari uchun dolzarb bo‘lgan masalalar muhokama qilinadi.

Masalan, umumiy majlis mavzusi «Bolalarga axloqiy tarbiya berishda oilaning roli» bo'lsa, o'rta guruhda o'tkaziladigan majlisda bu mavzu murakkablashtirilib, «Bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalashda bog'cha va oilaning birgalikdagi ishlari», «Bolalarda kattalarga hurmatni tarbiyalash» va hokazo bo'lishi mumkin.

Ota-onalar uchun tayyorlangan ma'ruzani bolalar ishini, tegishli mavzudagi kinofilm, diapositivlar ko'rish bilan qo'shib olib borish mumkin. Bolalar hayoti, faoliyati to'g'risidagi misollardan foydalanganda ijobiy materiallar ko'proq bo'lishi kerak, salbiy faktlarni gapirishda ehtiyyotkorlik va odob doirasidan chetga chiqmaslik, tanqid qi-linuvchilarning nomlari ko'rsatilmasligi lozim. Tanqidiy mulohazalar majlisdan keyin yakka tartibdagi suhbat orqali ota-onalarga yetkazilishi, bola tarbiyasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar taklif etilishi mumkin.

Yilning oxirida o'tkaziladigan guruh majlisida ota-onalarga bir yil mobaynida amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya ishlari va kelgusi yilning rejalari haqida gapirib beriladi. Bu majlisda faol ota-onalar ham hisob beradilar va faollar-ning yangi tarkibi saylanadi.

Ota-onalar burchagi va ko'rgazma tashkil etish

Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jurnallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolaning uyidagi va oiladagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e'lонlar joylash-

tiriladi. Burchak vaqtı-vaqtı bilan tarbiya vazifasiga qarab o'zgartirib turiladi.

Pedagogik bilimlarni targ'ib qilish bo'yicha tashkil etiladigan ko'rgazmalar ko'pincha ota-onalar konferensiyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda xalq ta'lif to'g'risidagi qonun va qarorlar, maktabgacha ta'lif muassasalari tarmoqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining o'sishini ko'rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta'lif-tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks etti-ruvchi tasvirlar, kitob va o'yinchoqlar, bolalarning ishlari o'rinn oladi. Ota-onalar burchagi oila bilan olib boriladigan ishning ko'rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishi alohida e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarga tarbiya to'g'risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko'pincha ota-onalarni qiziqtiradigan bahslar boshlanishiga sababchi bo'ladi.

Ota-onalar uchun ochiq kunlar tashkil etilishi ham maktabgacha ta'lif muassasalari ishida muhim o'rinn egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalarning mashg'ulotlari, mehnat, o'yin faoliyatları, sayrlar va bolalarning jamoada o'zlarining qanday tutushlari va shunga o'xshashlar ko'satiladi.

Ota-onalar qo'mitasi

Ota-onalar qo'mitasi «Maktabgacha ta'lif muassasasining Ustavi»ga binoan mudiraga yordam berish uchun tuziladi. U ota-onalarning umumiyligi majlisida bir yil muddatga sayylanadi. Bu qo'mitaga har bir yosh guruh ota-onalaridan 1-2 vakil sayylanadi. Qo'mitaning asosiy vazifasi mudiraga maktabgacha ta'lif muassasasining xo'jalik va

ta'lim-tarbiya ishlarida yordam berish, qo'mita a'zolari, ota-onalar majlisi va kechalarni tayyorlash, o'tkazish va boshqa ishlarda tarbiyachilarga ko'maklashishdir.

Ota-onalar qo'mitasi bolalarning ota-onalar bilan tanishadi, bolalarni tayyorlash bo'yicha ular bilan ish olib boradi. Qo'mita a'zolari har ikki oyda bir marta yig'ilish o'tkazadi. Ota-onalar qo'mitasi mudiraning ish rejalari va ishning ahvoli to'g'risidagi ota-onalarni qiziqtiruvchi ba'zi masalalar haqidagi ma'ruza va hisobotni eshitishga haqlidir.

Ota-onalar qo'mitasining faoliyati haqidagi hujjatlar maktabgacha ta'lim muassasasida saqlanadi.

Aholi o'rtaSIDA pedagogik bilimlarni targ'ib qilish

Pedagogik bilimlarni targ'ib etish natijasida millionlab kishilar bolalarini oilada maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalash prinsiplarini ongli ravishda anglab oldilar.

Korxonalarda, xo'jaliklarda, jamoa joylarida, mahalla-larda oilada bola tarbiyasi to'g'rsida ma'ruzalar bilan chiqish, televideniya va radioeshittirishlar, pedagogik targ'ibot ishining keng vositalaridandir. Shuningdek, bu targ'ibot vaqtli matbuot: «Maktabgacha ta'lim», «Xalq ta'limi», «Pedagogik ta'lim», jurnallari, ko'p sonli badiiy pedagogik, ilmiy ommabop va metodik adabiyotlarni chiqa-rish orqali ham amalga oshiriladi.

Ota-onalar uchun maxsus pedagogika va ruhshunoslik, anatomiya va fiziologiya, oila tarbiyasi nazariyasi va amaliyoti to'g'rsida ma'ruzalar o'qish, bolalar tarbiyasi to'g'rsida kinofilm va spektakillar namoyish qilish.

Bu mashg'ulotlarni har xil sohalar bo'yicha yuqori malakali o'qituvchi, aktyor, ruhshunos mutaxassislar olib boradilar.

Pedagogik targ'ibot ishida quyidagilarga amal qilish kerak:

1. Pedagogik targ'ib hayot, jamiyat qurilishi amaliyoti bilan bog'lab olib borilishi lozim. Pedagogik targ'ibot orqali keng jamoatchilikka bolalarni har tomonlama tarbiyalash masalalari va ularni amalga oshirish yo'llari, ilmiy asoslangan usullari bo'yicha tushuntirish ishlari olib boriladi.

2. Oila tajribasidagi ijobjiy tajribalar, oiladagi bola tarbiyasida yo'l qo'yilgan xatolar va ularning oldini olish, bartaraf etish yo'llari to'g'rsida targ'ibot ishlarini olib boriladi.

3. Pedagogik targ'ibotga tayyorlashda ota-onalar har xil saviyada ekanliklari hisobga olib, ular uchun tayyorlangan axborot materiallari ishonarli, ko'rgazmali va ularning his tuyg'usiga ta'sir ko'rsatadigan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lif muassasasi va ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini muntazam ravishda olib borgandagina oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya o'rtaсидаги бирлиқ о'rnатилиши mumkin.

ILOVA

«Ona va bola yili» Davlat dasturining asosiy maqsad va vazifalaridan biri har tomonlama yetuk, jismonan sog'lom va aqlan zakovatli, bolalar kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularda pedagogika va psixologiyaning zamонавиј усулларини qo'llash asosida qat'iy bilimlar, erkin fikrlash ko'nikmalari shakllantirish, atrof-muhitning boyligi, xilma-

xilligi, jahon madaniyati bilan keng tanishtirish; eng yaxshi an'analarimiz va urf-odatlarimiz asosida bolalarimizni Vatanga va xalqqa muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda ota-onalar, ta'lim muassasalari va mahallalarning rolini oshirish.

Mustahkam va sog'lom oilani shakllantirish uchun sharoit yaratish, bolani tarbiyalash, jismoniy va ma'naviy rivojlanirishda ona va oilaning rolini kuchaytirishdir.

Maqsadimiz onalarimiz duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar oldida «qo'l qovushtirib» turish yoki ko'rko'rona xatti harakatlarga yo'l qo'yishdan ko'ra bu muammolarning ilmiy asoslangan yechimlari mavjudligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, shu bilan birga ularning psixologok savodxonlik darajasini oshirishdan iboratdir. Biz ona va bola munosabatlarini rivojlanishini asosiy davrlari.

Ilk bolalik, maktabgacha yosh davrida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishga ota-onalar faoliyati bevosita oila muammolari bilan bog'lik bo'lgan mutasaddi xodimlar, mahalla xodimlari, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari o'z faoliyatlarida quyidagi tavsiyalardan foydalanishlarini taklif etamiz.

Ilk bolalik! (1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davr)

Bola rivojlanishini dastlabki yilida unda kattalarga bog'-liklik (itoat qilish mexanizmi) va ularga qaramlik shakllangan bo'lsa, bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davrda esa. Sharning xatti-harakat va fikr yuritishda mustaqillikning dastlabki belgilari rivojlanadi. Bu davr boladagi amaliy bilimlarning bugun keyingi yo'lini belgilaydi. Bu yoshda bolalar har bir sohada ularni sinab ko'rishga intiladilar. Ayni

shu paytda, unda narsalar dunyosini o'zlashtirish, amaliy xatti-harakatlarni bajarish, o'z tanasini boshqarish mexanizmlari shakllanadi.

Agar bu davrning imkoniyatlari boy berilsa bolada tegishli qobiliyatlar rivojlanmay qolishi mumkin. Ota-onalar shuni doimo yodda tutishlari lozimki, bu davr bolaning biror-bir ishni bajara olish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng qulay davrdir.

*Aziz ota-onalar! Bolalar bilan O'zlashganda ran va so'zlarni to'liq, talaffuz eting. Agar bola biror so'zni noto'g'ri talaffuz etsa, unga «bu noto'g'ri» demang, uning o'tniga so'zning to'g'ri talaffuzini takrorlang.

*Ilk bolalik yoshida bolalar barcha narsaga qiziqvuchan bo'ladilar. Ularni qiziqtirgan savollarga imkon qadar batafsil javob berishga harakat qiling.

*Yodingizda bo'lsinki, agar kichkintoyingizni qiziqtirgan savolga javob berishdan qochsangiz, uning bilishga bo'lgan qiziqishlarini so'ndirib qo'yishingiz mumkin (undagi bilish ixтиyojini).

*Bu yoshdagagi bolalarga ko'proq, ertaklar aytib berish she'r yod oldirish, ovoz tasmalarini eshitishga harakat qiling. Bu ularda nutq va xotiraning rivojlantirilishiga yordam beradi.

Maktabgacha bo'lgan yosh davri (3 yoshdan 7 yoshgacha)

Ma'lumki, har bir yosh davri o'zining xarakterli jihatlari bilan bir-biridan farq, qilib turadi.

Maktabgacha bo'lgan yosh davr uchun yetakchi faoliyat turi o'yin faoliyati hisoblanadi. Shuning uchun yosh davrda

bola bajarishi mumkin bo'lgan deyarli barcha faoliyatlar (o'yin, o'qish, mehnat va h.k.)ni o'yin tarzida tashkil qilish yaxshi samara beradi:

*Ota-onalar, bolangizga o'yin uchun ko'proq vaqt ajratting. Agar bolangiz biror o'yinga berilib uzoq, vaqt o'ynayotgan bo'lsa, bundan xavotir olmang.

*Bola uchun kattalar bilan birgalikda o'ynash, ularning o'yinidan kattalarning bir zum bo'lsada, ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega.

*O'yinda kattalarning ishtirok etishi natijasida bola o'yin qoidalarini hamma uchun bir xil bo'lishi, kattalar ham adashishi, bola ularni tuzatishi mumkinligini, adolatlilik o'zlashtiradi.

*O'yin – bolaning hayoti. Xuddi hayotdagи kabi o'yinda ham qiyinchiliklar, xatolar, omadsizliklar bo'ladi. Aynan mana shu qiyinchiliklarni yengib o'tish jarayonida bola shaxsi shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlari

Shaxsning individual psixologik xususiyatlaridan biri temperamentdir.

Bolalar o'z temperament xususiyatlariga ko'ra ham bir-birlaridan ajralib turadilar, xushchaqchaq, sergap, quvnoq, hayotning o'zgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan bolalar – sangvinik, ko'pincha noxush kayfiyatda yuradigan, ta'sirchan, suet bolalar – melanxolik, xotirjam, befarq kam-harakat, nutqi sust bolalar – flegmatik, jahldor, betoqat, serzarda, harakatchan bolalar – xolerik. Bolani maktabga tay-yorlash jarayonida uning temperament xususiyatlari ota-

onalar tomonidan hisobga olinishi, ya’ni uning afzallik tomonlari rivojlantirilib, kamchilik jihatlari bartaraf etib borilishi maqsadga muvofiq. Shuning uchun quyidagilarga e’tiboringizni qarating:

*Farzandingizni diqqat bilan kuzating va uning o’ziga xos xususiyatlarini aniqdab oling, bu bilimlaringizni farzandingiz bilan bo’ladigan munosabatlaringizda qo’llang.

*Bolalar o’zlarini qiziquvchanliklari, aqliy faoliyatlariga ko’ra ham bir-biridan ajralib turadilar. Ba’zi bolaclar juda ko’p savol beradilar va harakatchan bo’lishadi, ba’zi bolalarni hech narsa qiziqtirmaydi.

Mustaqil ish

1. Aziz ota-onalar! Farzandlaringizni o’ziga xos xususiyatlarini aniqlang va ularni hisobga olgan holda tarbiya jarayonini tashkil eting.

2. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda farzandlaringizga nisbatan sabr-toqatli bo’ling va ularning imkoniyatlaridan ortiqcha narsa talab qilmang.

3. Bir oila misolida tashxis o’tkazib natijasini tahlil qiling.

Quyidagi jazolarni o’rni kelganda qo’llash mumkin

**Bolani turli xil imtiyozlardan mahrum qilish.* Jazolashning bunday usuli odatda, bola o’rgangan holatlarga nisbatan cheklashlar ko’rinishida bo’ladi. Ya’ni bolaga biror narsa — shirinlik, o’ynichoq olib bermaslik, televizor yoki video ko’rishdan, yoqtirgan o’yinini o’ynashdan yoki biror joyga borishdan mahrum qilish kabilar ko’rinishida amalga oshi-

riladi. Bunday jazoning foydali tomoni shundaki, bola o'zi sodir qilgan harakatining qanchalik yomonligini va uning oqibatini tushunadi. Jazoning salbiy tomoni – bola ota-onaning qattiq jazosidan ularning hokimligini, ustunligini va o'zininq ularga tobe ekanligini his qilib siqiladi.

* *Biror ishni bajarishga majburlash.* Bu holatda bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga salbiy ta'sir etadigan ikki jihat shakllanishi mumkin – birinchisi, bolada ota-onasiga va ijtimoiy talablarga nisbatan salbiy munosabat uyg'onadi; ikkinchisi, o'zidan yuqori yoki kuchlilarga itoatgo'ylik va bo'ysunuvchanlikka o'rganadi. Bundan tashqari, bolani har doim biron-bir ishni bajarishga majbur qilish-keyinchalik uning mustaqil bo'lishiga va o'z-o'zini boshqarishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

* *Bolaning qilgan xatosini o'ziga to'g'rilatish.* Bunday jazoning ijobiy tomoni – bu ancha samarali usul bo'lib, bola qilgan xatosini o'zi to'g'rilashga o'rganadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bolani bu usul bilan jazolashda uning o'zini ayplashiga, vijdoni qiynalishiga, boshqalardan uyalishiga yo'l qo'ymaslik lozim, buning uchun ota-onam ham uni ayplashi, unga zarda, do'q-po'pisa qilishi kerak emas. Jazolashning eng yaxshi yo'li – ota-onam bolaga uning o'zi qandaydir yo'l qabul qilishi uchun biror muddat indamasdan kutib turishidir. Bunda ota-onam bolaning o'zi biror narsa qiliishi (uzr surashi, qilgan xatosini to'g'rilashi) uchun imkoniyat berishi kerak. Bu usulda jazolash uchun bolaning yoshi va yetarli ma'lumotqa ega ekanligini ham hisobga olish lozim.

Ota-onalar jazoning foydali bo'lishi uchun quidagi tavsiyalarga amal qiling

*Bolani jazolayotgan uning yoshiga va xatoning qay darajada ogir yoki yengilligiga e'tibor bering.

*Bolaning xatosi uchun jazolashni kechiktirmaslik kerak, kechiktirilgan jazo bolada qo'rquv tashvish, xavotirlik, dipressiyalarga olib kelishi mumkin.

*Ota-onalar hech qachon jahl chiqib turganda jazo qo'l-lash kerak emas.

*Bolaning qilgan xatosini ko'pchilik ishtirokida ayniqsa, uning o'rtoqlari yoki tanishlari davrasida muhokama qilmang. Aksincha, uning «sirini» saqlasangiz u bu qiliqlarni boshqa qilmaslikka harakat qiladi.

Aziz Onalar! Ushbu berilgan tavsiyalar ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada yaxshilashda, bola tarbiyasi borasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni maqsadga muvofiq tarzda yengib o'tishda sizga yordam beradi degan umiddamiz.

*IX bob. BOLANI RAG‘BATLANTIRISH VA JAZOLASH**

Tarbiya jarayonida bolaga ta’sir etishning bir qancha uslublarini qo'yush mumkin. Lekin farzandga jismoniy jazo berish ta’sir etish uslublarining oxirgisi bo‘lib hisoblanadi va bu usulga ota yoki ona so‘ngi chora sifatidagina murojaat etishi kerak. Afsuski, hozirgi paytda jismoniy jazoga murojaat etish yo‘li qisqarib bormoqda va uni qo’llash ko‘p jihatdan bolaning xulq-atvori natijalari bilan belgilanmay, balki ko‘proq, ota-onaning tajang holatidan kelib chiqib belgilanmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra tarbiya jarayonida jismoniy jazoni u yoki bu hollarda qo’llash tarafдорлари ko‘pchilikni tashkil etar ekan. Shuni hisobga olgan holda bu borada ba’zi mulohazalarni taqdim etamiz: — iloji boricha bolaga jismoniy jazo berishdan o‘zingizni tiying. Bolani jazolash tarbiyaviy natijani ko‘zda tutgan holda amalga oshirilishi kerak. Bolangizni tarbiyalash jarayonida qattiq jahlingiz chiqqanida o‘zingizni boshqarishingiz qiyin bo‘lsa, iloji boricha boshqa narsaga chalg‘itishga harakat qiling. Agar bola tarbiyasida oila a’zolaridan yana kimdir ishtirok etsa, kelishib olinglar: kimningdir jahli chiqib, o‘zini idora etishi yo‘qolganda, ikkinchisi unga ko‘makka kelishi va iloji boricha uni xotirjam qilishga urinishi kerak. Masalan, alohida xonaga olib kirish,

* Bu bobni yaratishda Pocc Kemibell asarlaridan foydalilanigan.

odamni yengillashtiruvchi so‘zlar aytish, bolani nazorat qilish jarayonini o‘z qo‘liga olish va hokazo.

Quyidagi uchta jazo turini iloji boricha qo‘llamang

«Jismoniy jazo — qaysi shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar, u holda hayoti va sog‘lig‘iga xavf soladi. Bolaga nisbatan jismoniy jazo qo‘llash bola tomonidan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarining o‘zlashtirilishini sekinlashtiradi, unda tashabbuskorlikning rivojlanmasligiga, itoatkorlik, xavotirlanish, yolg‘onchilik, tajovuzkorlikning ortishiga olib keladi.

Tanbeh berish — bola harakatlarini taqiqlash, uning shaxsiga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki kinoya bilan salbiy munosabatda bo‘lish, salbiy baho berish ko‘rinishida bo‘ladi. Buning natijasida bolaning shaxs sifatida rivojlanishi buziladi, ya’ni bolada o‘z-o‘zini baholash darajasi pasayib, unda mutelik, o‘ziga ishonmaslik, ichidagini hech kimga aytmaslik, xasadgo‘ylik kabi salbiy sifatlarning shakllanishiga olib keladi. Ota-onada tomonidan bolaga turli xil «yorliqlarning yopishtiri-lishi» unda ota-onasi tomonidan chetga surib qo‘yilganlik va ular meni yaxshi ko‘rmaydi, degan xulosaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ota-onada mehridan mahrum qilish — bunda ota-onalar o‘z salbiy munosabatlarini: «Men seni yaxshi ko‘rmayman», «Sen bizga kerak emassan», «Ortiqcha yuksan» kabi so‘zlar bilan bolaga ochiq-oydin bildirishadi.

Jazoning qanday shaklidan foydalanish o‘rinli?

6 yoki 7 yoshligimda bir voqealarda hamon esimda, — deb gapida davom etdi keyingi uchrashuvimizda Tom. — O’sha

voqeani qachon eslasam kayfiyatim buziladi, asabiylashaman.
— Bir kuni beysbol o'ynayotib bilmasdan oynani sindirib qo'ydim. Bundan qattiq qo'rqib ketdim va onam meni izlab topgunga qadar daraxtzorda yashirinib yotdim. Qilgan ishimdan qattiq hijolatda edim. Otam uyg'a qaytganida onam unga bo'lgan voqeani aytib berdi. U meni kaltakladi. Tomning ko'zlariga yosh keldi. Sen unga bo'lgan voqeani tushuntirib ko'rishga urinib ko'rmadingmi? — so'radim men. U «yo'q» deb ishora qildi.

Bu voqea tarbiyaning chigal masalalaridan biri sanalgan jazoga yaqqol misol bo'la oladi. Tomga nisbatan qo'llanilgan bunday jazo usullari uzoq vaqtlar mobaynida bolalarda og'riq, alam va o'kinch, o'z ota-onalariga nisbatan g'azab va nafrat hislarini saqlab qolishiga sababchi bo'lishi mumkin. Ular bunday damlarni boshqalarning yordamisiz anchagacha unutolmaydilar. Masalan, Tom o'z boshidan o'tgan voqeani 1 yildan so'ng ham alam bilan xotirlaydi. Nima uchun aynan mana shu hodisa Tomning xotirasiga muhrlanib qolgan?! Axir, uni o'z hayoti davomida ko'p bor savalashgan edi-ku?! Tom ularni ko'ngilga olmagan. Oyna bilan bog'liq voqeada esa Tom o'z aybini tushunib, qattiq aziyat chekkandi. Unga tan jazosi berilmassa ham chekkan ruhiy azobi yetarli edi. Kaltak yegani ota-onasi unga tushunmasliklarini va tomning ruhiy holatiga e'tibor qilmasliklarini amalda isbotlab qo'ydi. Balki o'shanda Tomga kaltak emas, ota-ona daldasi, uni kechirishlari kerak bo'lgandir?! Tomning ota-onasi buni bilishlari shart edi. Mazkur holatda jazoning qaysi shaklini qo'llash ma'qul bo'lar edi?!

Bu haqda siz qanday fikrdasiz, qimmatli ota-onalar! Tarbiya jarayonida oldindan begilab qo'yilgan yo'ldan borish shartmi? Qattiqko'llik o'zini oqlaydimi? Uning me'yori

qanday bo‘lishi kerak? Bola o‘zini yomon tutganda har safar jazolash kerakmi? Agar «ha» deb javob bersangiz, jazoning doimo bir xil usulda olib borilishini yoqlaysizmi? «Yo‘q» desangiz, unda qaysi usullarni qo‘llash ma’qul bo‘larkin?

Aslida jazoning o‘zi nima? Intizom va jazo o‘zar o‘sishiga bilan aloqadormi?

Bizning har birimiz muayyan tarbiya maktabini, masalan, ota-onalarning samarali ta’lim mакtabini o‘tashimiz shartmi? Yoki o‘zimizning aql-idrokimizga, ichki his-tuyg‘ularimizga tayanishimiz shartmi? Yoxud ularning har biridan olishimiz joizmi? Unday bo‘lsa qachon va qay me'yorda?

Bular bugungi kunda risoladagi har bir ota-onani qiyonoqqa solayotgan savollar sanaladi.

Hayotimiz bola tarbiyasiga bag‘ishlangan kitoblar, amaliy anjumanlar, maqolalar va ilmiy tekshirish institutlariga to‘lib ketgan. Yo‘nalishlar ham rang-barang: bolaning qulog‘idan burab qo‘yishdan tortib to konfet bilan mukofotlashgacha ...

Yuqoridagi voqeaga qaytadigan bo‘lsak, Tomning ota-onasi muayyan voqeadan kelib chiqib turib, bir tomondan, o‘g‘illarini intizomga o‘rgatishi, ikkinchi tomondan esa ularga o‘zlarining mehr-muhabbatlarini bildirishlari mumkin-midi?! Bu masalaga keyinroq qaytamiz.

Farzand tarbiyasi hozirgi kunning eng chigal masalalaridan biri desam, barcha ota-onalar bu fikrga bemalol qo‘shilishadi. Bola hamma vaqt ham ota-onsa nazoratida bo‘lavermaydi. Uning ko‘p vaqt boshqalar: mакtab, qo‘ni-qo‘shnilar, tengqurlari davrasida kechadi. Aynan mana shu sababga ko‘ra ko‘pgina ota-onalar o‘z farzandlariga ta’sir o‘tkaza olmasa kerak, deb o‘ylaydilar.

Farzandlarini tarbiya qilish maqsadida amalga oshirgan barcha xatti-harakatlari zoe ketmayaptimikan deb ikkila-

nadilar. Ammo buning aksi bo‘lmog‘i maqsadga muvofiqdir. Ota-onalarning yuqoridagi fikrlari salbiy oqibatlarga olib keladi. Aslida, oila, ota-onas bola tarbiyasida yetakchi o‘rinni egallaydi.

Olib borgan tadqiqotlarim, izlanishlarim shuni tasdiqlaydiki, bola tarbiyasida oila har doim hal qiluvchi kuchga ega bo‘ladi. Ota-onaning ta’siri boshqa ta’sirlarga qaraganda ustuvor sanaladi.

Bolaning baxtli yoki baxtsiz, ruhan tetik yoki tushkun kayfiyatda yurishida, katta yoshdagи odamlar, tengqurlari va boshqalar bilan munosabatlarida, atrofdagi munosabatlarga nisbatan uyg‘un yoki hissiz holatda bo‘lishida, muayyan vaziyatlarda o‘zini qanday tutishida oila asosiy rol o‘ynadi.

Ba’zida boshqa ta’sirlar bolani o‘ziga rom qilishi mumkin, ammo oila shunday holatlarda ham o‘zining asosiy o‘rnini yo‘qotmaydi. Shuni unutmaslik lozimki, oila bolaning kamolini belgilovchi yagona asos emas. Shu ma’noda har bir muammo uchun butun javobgarlikni oila zimmasiga yuklayverish to‘g‘ri emas. Sababi bola ruhiyatiga ta’sir qiluvchi yana bir qator omillar ham borki, ularsiz asl haqiqatni yuzaga chiqarish mushkuldir.

Tug‘ma mijoz

Mijozning amalga juda ko‘p turlari mavjud. Stela Chess va Aleksandir Tomaslearning «Mijoz va bolalar intizomining buzilishi» nomli kitobida uning to‘qqizda ko‘rinishi tasniflab berilgan.

Ularning kitobi nodir adabiyotlar ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, tom ma’noda jahon axloqshunosligi faniga qo‘shilgan ulkan hissa sanaladi. Asarda bolalarning nima uchun u yoki

bu shaxsiy xususiyatlarga ega bo'lishi batafsil tasvirlab berilgan. Kitobdan nima uchun ayrim bolalarni tarbiyalash boshqalarnikiga qaraganda oson kechishi, ba'zi bolalarning tarbiyasi esa qunt va mehrni ko'proq talab qilishi, bitta oila tarbiya topgan bolalarning nima sababdan turlicha xulqatvorga ega bo'lishi haqidagi savollarga javob topishingiz mumkin.

Eng muhimi unga doktor Chess va Tomaslar tomonidan bolaning nafaqat oila davrasida, balki o'z shaxsiy xususiyatlari negizida kamol topib borishi haqidagi qimmatli fikrlari aniq bayon etilgan. Bu dalil tarbiyasi qiyin bolalar borasida oilalarning zimmasiga qo'yilayotgan ayblovni biroz yumshatadi. Afsuski, ko'pchilik (hatto, mutaxassislar ham) bola tarbiyasiga bog'liq har qanday vaziyatda ota-onani ayblaydilar.

Chess va Tomaslarning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, ba'zi bolalarning tarbiyasi boshqalarnikiga qaraganda murakkabroq kechadi.

Bu o'rinda ularning tasnifiga qisqacha to'xtalib o'tish lozim. Chess va Tomaslar mijozning to'qqizta tarkibiy o'tishgan hamda ularning yangi tug'ilgan chaqaloqlarda ham mavjud bo'lishini, keyinchalik rivojlanib borishini aniqlashgan.

Boladagi xususiyatlar atrof-muhit ta'sirida rivojlanib boradi, mijoz esa bola shaxsiyatiga mahkam o'mashib oladi; uning o'zgarishi qiyin kechadi. Hatto butun umr davomida saqlanib qolishi ham mumkin.

Mijoz quyidagi qismlardan iborat:

1. *Faollik darajasi*. Farzand tug'ilishi bilanoq o'nda o'ziga xos fazilatlar vujudga keladi.

2. *Tadrijiylik (izchillik)*. Och qolish, ovqatlanish, organizmni bo'shatish va uyquga ketish-uyg'onishning ketma-ketligi, izchilligi.

3. *Yaqinlashish va uzoqlashish*. Bolaning notanish odamlarga, oziq-ovqatlarga, o'yinchoqlarga nisbatan bo'lgan tabiiy reaksiysi.

4. *Moslashish*. Tashqi sharoitlarning o'zgarishiga nisbatan bolaning tez yoki uzoq vaqt mobaynida moslashishi.

5. *Reaksiyaning izchilligi*. Kayfiyatni ifodalashga ketgan energiya miqdori.

6. *Reaksiyalar qamrovi*. Tashqi ta'sirlarga nisbatan qaytarilgan xatti-harakatlarning samarasi.

7. *Kayfiyatni sifatlari (ifobiy sifatlarning salbiy sifatlarga nisbatan bo'lgan munosabati)*. Sho'xchanlik, lazzatlanish, quvnoqlik, boshqalarga tez o'rganish va bularga teskari bo'lgan yig'loqilik, kabi sifatlarga ega bo'lish.

8. *Bo'shashganlik*. Diqqatni tashqi ta'sirlarga nisbatan jamlay olmaslik.

9. *Diqqat-e'tibor va g'ayratlik*. Qiinchiliklarni yengib o'tishdagi bolaning faolligi.

Agar e'tibor bergen bo'lsangiz, 3-, 4-, 5- va 7- tarkibiy qismlar bola tarbiyasining oson yoki qiyin kechishini ta'minlovchi asosiy omillar ekanligini sezishingiz mumkin. Ta'sirchan bolalar yangi sharoitga tez ko'nika olmaydilar. Shuningdek, ko'pgina yomon qayfiyatda bo'ladigan, ayniqsa, ota-onasining diyordidan uzoq vaqt mahrum bo'lib, tushkun holatda yuradigan bolalarda ham yangi sharoitga ko'nish qiyin kechadi. Aynan mana shunday bolalar kattalardan olayotgan mehr va erkalashlarga qoniqmaydilar. Shu bois, bola tarbiyasiga yuqorida mezonlardan kelib chiqqan holda yondashmoq lozim. Chess va Tomaslar mazkur to'qqizta

o'lchov asosida yangi tug'ilgan bola baho berishning qarmoqli formulasini ishlab chiqqanlar. Unga ko'ra chaqaloq tarbiyasining «oson» yoki «og'ir» kechishini oldindan aytib berish imkoniyati yaratiladi. «Tarbiyasi oson» bolalar ota-onasidan ko'proq e'tiborni talab qilmaydi. «Tarbiyasi og'ir» bolalar esa uni dunyoga keltirgani uchun insonlarning, ayniqsa, onasining o'ziga juda ko'p e'tibor berishini istaydi.

· So'ngra Chess va Tomaslar chaqaloqning ona va bola munosabatlari negizida qanday rivojlanishini kuzatganlar.

Ular o'z farzandlari uchun qulay shart-sharoitni yaratib bera olgan «mehribon onalar»ning hamma bolalarini o'zidan doimo nari itargan «bemehr onalar»ning farzandlari hayotini e'rganganlar. Kuzatuv natijalarini tubandagi jadvalda ko'rsatib o'tishgan.

	«Mehribon onalar»	«Bemehr onalar»
«Tarbiyasi oson bolalar»	+	+
«Tarbiyasi og'ir bolalar»	-	-

Ko'rib turganingizdek, «tarbiyasi oson bolalar» bilan «mehribon onalar» munosabati juda katta samara bermoqda. Bunday bolalarning tarbiyasi bir tekis kechadi va amalga hech qanday salbiy vaziyatlar keltirib chiqarmaydi. «Mehribon onalar» bilan «tarbiyasi og'ir bolalar» o'rtasidagi munosabatlarda bir qator muammolar paydo bo'lishi mumkin, ammo ko'p holatlarda ular ijobiy yakun topishi kuzatiladi. «Mehribon onalar» tomonidan yaratilgan shart-sharoitlarda bolalar ajoyib tarzda kamol topadilar.

«Tarbiyasi oson bolalar» bilan «bemehr onalar» o'rtasidagi munosabatlar doimo yaxshi kechmaydi. Hatto ularda «tarbiyasi og'ir bolalar» bilan «mehribon onalar» o'rtasidagi munosabatlardagidan ham ko'ra chigalroq muammolar paydo bo'lishi mumkin.

«Tarbiyasi og'ir bolalar» bilin «bemehr onalar» o'rtasidagi munosabatlarning hamisha qiyin ahvolda kechishini tushunib yetgan bo'lsangiz kerak. Bunday bechora bolalar og'ir sharoitlarda o'sadilar, ularni «tavakkaliga boqilayotgan bolalar guruhi» deyish mumkin. Bunday bolalarning tarbiyasi yurakni bezovta qiladi. Ularni haqoratlaydilar, o'z holiga tashlab qo'yadilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagilarga alohida diqqat qilish mumkin. Avvalo, bolani takomili uni o'rarturan doiralar ham ota-onasining munosabatigagina bog'liq emas. Undagi tug'ma xususiyatlar bolaning o'sish va takomil topib borish jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, ular bolaning oz yoki ko'p parvarish qilinishiga, ota-ona uchun qanchalik tashvish keltirishiga ham sababchi bo'lib qolish mumkin. Aynan mana shu narsa ota-onaning bolaga bo'lган munosabatini belgilaydi. Bu yerda ikki tomonlama munosabat talab qilinadi. Bularni bilish esa o'zlarini bola tarbiyasida ayibdor deb hisoblovchi ota-onalarga katta yordam beradi.

Ikkinchidan, shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, bolaning tug'ma xususiyatlaridan qat'i nazar, uning tarbiyasida onasi yoki otasi bilan yo'lga qo'yilgan muloqot hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Yana jadvalga e'tibor bering. «Tarbiyasi og'ir bola»ni o'qitish qanchalik qiyin bo'lmasin, ona mehri samarali natija bermoqda. Ota-ona mehri bolaga

tug‘ma xususiyatlarni o‘zgartirishga, uni yaxshi yoki yomon tomonlarga burib yuborishga qodirdir.

Ushbu kitob aynan mana shu masalarga bag‘ishlangan. U farzand bilan bo‘ladigan munosabatlarni qanday tashkil qilish, undagi ijobiy fazilatlarni qaysi usullar yordamida takomillashtirish, bolaga zarur bo‘lgan hissiy madadni qay yo‘sinda amalga oshirish haqida ma’lumot beradi. Bitta kitobda tarbiyaning barcha jihatlarini qamrab olish qiyin, albatta. Shu bois, biz asosiy va eng samarali tomonlargagina to‘xtalib o‘tamiz.

Ota-onalarning aksariyati o‘z farzandlarini jonu dildan sevadilar va o‘z mehr-muhabbatlarini yetkazyapman deb o‘ylaydilar.

Farzandga qaratilgan e’tiborni berish usullari

Yuqorida farzandga qaratilgan e’tiborning farzand hayotiga ahamiyati haqida fikr yuritib ko‘rdik, endi uni bolaga yetkazib berish usullari haqida suhbatlashamiz. Shaxsiy tajribalarimizga tayangan holda shunday xulosalarga keldimki, vaqt ajratib, farzand bilan yakkama-yakka bo‘lish farzandga qaratilgan e’tiborning eng muhim usuli ekan. Imonim komilki, siz bu usulning qiyin ekanligi haqida o‘ylay boshladdingiz. Siz haqsiz farzand uchun vaqt ajratib, boshqa hech narsaga fikrni bo‘lmay, u bilan birga, yonida bo‘lish oson kechmaydi. Bu farzand tarbiyasidagi eng qiyin narsa. Ibratli ota-onani boshqalardan ajratib turuvchi belgi ham aynan mana shunda – ular o‘z farzandlari tarbiyasi uchun har doim vaqt ajrata oladilar. Bu o‘rinda bir narsani hech qachon yoddan chiqarmaslik kerak: yaxshi tarbiya sizdan vaqt ajratishni talab qiladi. Bizning tezkor zamonimizda ortiqcha

vaqtini topishning o‘zi bo‘lmaydi. Ayniqsa, farzand televizor bilan band bo‘lgan, o‘zini ekran yoki ko‘zgu oldida tutgan bugungi zamonda bu ish murakkab sanaladi. Hammamizga qunday ravshanki, farzandlarimiz hozirda to‘liq tashqi ta’sirlar ostida qolgan. Bunday vaziyatda farzandni suhbatga tortish mushkul, ammo ota-onalik mas’uliyati sizni bunga majbur qiladi. Qolaversa, bu kabi yakkama-yakka bo‘lish-larning bola uchun kelajakda samarasи kuchli bo‘ladi. O‘z farzandlarini baxtli, tengdoshlari davrasida dadil, osoyishta, qo‘sishmchasiga a’lochi o‘quvchilar safida bo‘lishini kim ham istamaydi deysiz?! Faqat buning uchun farzandlarimiz bilan yakkama-yaka bo‘lishga, suhbatlashishga vaqt topa bilishimiz shart.

Amerikalik mashxur olimlardan birining to‘rt farzandi bor. U yaqinda bo‘lib o‘tgan anjumanda farzandlar uchun vaqt ajratishning nihoyatda og‘irligini, lekin yakshanbada bir bola uchun yarim soat vaqt ajratishga o‘ziga o‘zi so‘z bergenligi haqida gapirdi. «Har bir ota-ona, – deydi u, – bu borada o‘zlariga reja tuzib olish lozim».

Meni ham aynan mana shu masala qiyndardi. Bir misol: qizim har dushanba kuni mening ishxonamga yaqin bo‘lgan to‘garak mashg‘ulotlariga qatnashar edi. Ish kunimni shunday rejallashtirgan edimki, kechki payt uni to‘garakdan chiqish paytida kutib olardim. U bilan qahvaxonaga kirib, birga ovqatlanardik. Bizga hech kim xalaqit bermasdi. Qizimga butun diqqat-e’tiborimni qaratish uchun menda fursat topilardi. Qizimni qiziqishlari haqida suhbatlashardim va eng asosiysi, u bilan yakkama-yakka bo‘lishga vaqt topardim.

Farzand bilan holi suhbatlashib, uning hayotini tushunib yetsangiz, shundagi o‘simlik qiyinchiliklarini yengib o‘tishda unga yordam bera olgan bo‘lasiz.

Bolalar soni ko‘p bo‘lsa, ularning har bittasi uchun jon kuydirish shunchalik mushkullashadi. Esimda, 7 yoshli qizalojni mening huzurimga maslahat uchun olib kelishdi. Qizchaning uydagi va maktabdagi muammolari to‘lib-toshib ketgan ekan. U uy vazifalarini bajarishda qiynalar, tengdoshlari, aka-ukalari bilan muomala-munosabatlarda esa yoshiga mos ish tutmas ekan. Gap nimada ekanligini tushunib yetgan bo‘lsangiz kerak. Uning oilasida 10 farzand bo‘lib, tabiiy ravishda ota-onalari ularning har biri uchun vaqt ajrata olmaganlar. Qizaloqni o‘zlarining e’tiborsizligini azob chekayotganligi ularning hayoliga ham kelmagan. Sababi boshqa farzandlari ular bilan birga me’yordagidek hayot kechirshardi.

Oilaning qishloqda dehqon-fermer xo‘jaligi bo‘lib, katta farzandlari shu yerda mehnat qilishardi. Qizaloq esa yoshligi sababli ular bilan birga ishlay olmasdi. Bir o‘zi uyda qolganligi bois o‘zini oilada yolg‘iz va tashlandiq sezardi. Ota-onasi uni qattiq sevar, biroq qizaloq buni sezmasdi.

Mukammal reja tuzish o‘z samarasini beradi

Har bir farzandga vaqt ajratish uchun alohida reja tuzib olish darkor. Oilada 2 tagina farzand bo‘lsa, ota-onada uchun bu borada qiyinchilik uncha sezilmaydi. Farzandlar soni ortgan sari muammo keskinlashadi. Bordi-yu, ota-onadan bittasi yo‘q bo‘lsa, vaziyat yanada murakkablashadi. Farzand tarbiyasida yaxshi natijalarga erishishning yagona yo‘li bu mukammal reja tuzib olishdir. Masalan, haftaning biron-bir kunida (aytaylik, jumada) farzandlarimizdan biri sinfdoshlari bilan yig‘ilishga, yana biri qarindoshlarnikiga ketib, uchin-

chisi uyda qolsa, farosatli ota-onalardan bunday qulay imkoniyatdan darhol foydalananadi, unga bor e'tiborini qaratadi.

Bitta oilada turli xulq-atvorli farzandlar o'sgani kabi o'z e'tiyojlarini qondirish yo'lida boshqalardan talab qiladigan va talab qilmaydigan farzandlar bo'ladi. Bunda faqatgina talab qiladiganlariga e'tibor berish katta xatodir. Barcha bolaning ehtiyojlari u talab qilsa ham, talab qilmasa ham bir xil. Eng nozik joyi shundaki, farzandlar orasida tug'ilgani, ya'ni o'rtancha farzandlar passiv va e'tiborni ko'p qilavermaydi. Ota-onalar to'ng'ich va kenja farzandlariga talabchan bo'l-ganliklari bois ularni doimo nazoratda ushlab turadi, lekin o'rtancha farzandlariga u qachonki katta muammolar keltirib chiqarmaguncha e'tibor bermaydilar. Ota-onalardan unumli foydalana olishi lozim. Masalan, farzandlaringiz hovlida o'ynab yurgan paytida, nima uchundir ulardan biri uyda qoladi. Mana, sizda zo'r imkoniyat tug'ildi. Zudlik bilan uni gapga tortib, oz bo'lsada unga e'tibor bering! Mayli, bu lahzalar bir-ikki daqiqa davom etsin, lekin shuning o'zi ham farzand qalbidagi hissiy bo'shilqni to'ldira olish qudratiga ega. Farzandingiz o'ziga qaratilgan e'tiborga mamnun bo'ladi. Bunday daqiqalar o'z samarasini beradi. Ular farzandga quvonch mehr olib keladi, uning muammo-larini kamaytiradi.

Farzand ulg'aygan sari unga qaratilgan e'tibor uchun ajratilgan vaqt uzaytirilishi lozim. Sababi farzand o'sish jarayonida sizga o'z qalbini hadeb ochavermaydi. Katta yoshdag'i bolalar o'zlarini qiynayotgan muammolarni siz bilan birgalikda hal qilishi, ko'ngligi yozishi, o'zini erkin sezishi uchun ko'proq fursat kerak bo'ladi. Agar siz bolaga kichik yoshidan boshlab ozgina bo'lsada vaqt bersangiz, u

kattayganda ham siz bilan o‘zini qiynayotgan masala haqida bermalol gaplasha oladi, sizga qalbini osongina ochib beradi.

Ota-onasi tomonidan tuzukroq diqqat-e’tibor berilmagan farzand ulg‘aygan chog‘ida qanday qilib ularga ko‘nglini ocha oladi?! Bu yerda eng qimmatbaho narsa – farzand ishonchi garovga qo‘yilmoqda. Farzand tarbiyasi, albatta, Sizdan ko‘p vaqt ni talab qiladi. Hamma gap shu kerakli vaqt ni topa bilihsda.

Hayotimda uchragan odamlarning ko‘pchiligi shunday beباho damlarni topish haqida o‘zlarining sirlarini men bilan o‘rtöqlashganlar. Bir mashhur yozuvchidan eshitganlarim hamon esimda. U farzandlari uchun ajratilgan kunlarni taqvimidan alohida belgilab qo‘yib, shu kungi uchrashuvlar hamda xushmuomalalik bilan rad javobini berar ekan. Demak, oilada farzand bilan band bo‘lish ahamiyatli ish bo‘lishi shart.

Yozuvchining yana bir ishi menga juda ma’qul bo‘lgandi. U oilaning har bir oilasi uchun shaxsiy bayroqcha o‘ylab topgan bo‘lib, ularda oila a‘zolarining ismlari yozilgan ekan. Qoidaga ko‘ra, bayroqcha sovg‘a qilinarkan. Oilaviy xursand-chilik kunlarida, tug‘ilgan kunlarda, sayohatdan uyga qaytilganda, institutga o‘qishga qabul qilinganda bayroqcha tantana sababchisi sharafiga uy oldidagi tepalikda ko‘tarib qo‘yilarkan. Mana, Sizga farzandga qaratilgan e’tiboring ibratli shakli!

O‘zgalar oldidagi farzandga qaratilgan e’tibor

Oldingi faslda farzandga qaratilgan e’tiborni farzandga yakkama-yakka holda bildirish maqsadga muvofiqligini aytib o‘tgan edik. Bu odatdagi hol bo‘lsa-da, shunday vaziyatlar

bo‘ladiki, farzandga o‘zgalar oldida ham maxsus e’tiborni qaratish zarur bo‘lib qoladi. Bu, ayniqsa, bola kasal bo‘lib yoki biron-bir og‘ir ruhiy kechinmalarni his etgan paytlarida juda asqotadi. Bunday holatga tushgan bola o‘z hissiyotlarini va yurish-turishini boshqara olmay qoladi.

Bitta misol keltirsam. Bir kuni xavotirga tushib qolgan ota-onaga huzurimga 12 yoshli o‘g‘li Timning xulq-atvorini yaxshilash haqida maslahat so‘rab keldi. Bu payt ularning uyida yana bir 12 yoshli bola – Timning amakivachchasi ham ular bilan birga yashayotgan edi. U juda talabchan bola bo‘lib, oiladagi butun e’tiborni o‘ziga jalb qilib olgan ekan. Tim bu surbet bola oilada mening o‘rnimni egallab oldi, degan hayolga borib, indamas va o‘ychan bolaga aylangan.

Men ota-onaga ikkala bolaga bir paytning o‘zida diqqat-e’tiborni qaratish lozimligi haqida maslahat berdim. Ular shunday qilishganda ham, amakivachcha baribir oldingi o‘ringa chiqib olaveradi.

Shunda men bolalarning har biriga o‘rni bilan e’tibor berish lozimligi haqidagi taklif kiritdim. Ular bu ishni uddalashdi. Timning so‘zlash navbatи kelganda, ular batamom u tomonga burilib, uning ko‘zlariga tikilgan holda barcha dalil-isbotlarini diqqat bilan tinglashdi. Amakivachchadan biroz kutib turishni iltimos qilishdi. Keyin esa uning gaplariga qulоq tutishdi. Shu tariqa ikkala bolakay ham e’tibordan chetta qoldirilmadi.

Farzandga qaratilgan e’tiborning bunday ko‘rinishi, agar bolakay yuzma-yuz chog‘ida undan manfaat topsa, yaxshigan samara berishi mumkin.

Aytmoqchi, men o‘quv jarayoniga hamda har bir o‘quv-chining his-tuyg‘ulariga jiddiy ta’sir qila oladigan bu usulni o‘qituvchilarga ham o‘rgatganman. Ammo, shuni ham alo-

hida aytib o'tish lozimki, farzandga qaratilgan e'tibor bizda ancha ko'p vaqt ajratishni talab qiladi. Aslida u boladagi hissiy bo'shliqni to'ldirishga va uning kelajak hayoti-ning to'g'ri izga solishga yordam beruvchi eng zo'r vositadir.

Topshiriq

Siz tarbiyachi va o'qituvchilarqa qanday maslahat berar edingiz.

X bob. BOLALARNI OILADA MAKTABGA TAYYORLASH

10.1. Bolalarni maktabga tayyorgarlik mazmuni

Maktabdagi majburiy ta'lif bolaga ma'lum talablarni qo'yadi. Ma'lumki shu bola ta'lif-tarbiyaviy muassasaning talablarini bajara oladigan rivojlanish darajasiga yetish kerak, faqat shundagi bolani maktabga yozdirish mumkin.

Maxsus adabiyotlarda bolalarning maktabga tayyorgarligini mazmuni va mezonlari aniq ko'rsatib berilgan, lekin bolani maktabga tayyorlashda bola shaxsini qaysi tomonlari va qanday rivojlantirish kerakligi masalasida ota-onalar va bog'cha tarbiyachilar tasavvurlari turlichadir. Bola tarbiyasida ishtirok etgan kattalar orasida o'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik ota-onalar uchun bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishini asosiy hal qiluvchi shartni uning umumiyligi rivojlanishi tashkil etadi, ya'ni yaxshi sog'liq, jismoniy chiniqish, axloqiy va ijtimoiy yetuklik. Ba'zi bir kattalar (ota-onalar) faqatgina aqliy rivojlanish muvaffaqiyatli maktab o'qishning asosiy omili deb hisoblashadi. O'z fikrlarini ular shunday asoslاب berishadi, xususan, birinchi sinfdagi bolalarga barcha o'quv fanlari mazmunini o'zlashtirish qiyin bo'ladi va yana hozirgi ilmiy-texnikaviy rivojlanish insonning aqliy qobiliyatiga juda katta talablar qo'yadi. So'ralganlarning ko'pchiligi eng, avvalo, bolaning jismoniy va aqliy rivojlanish darajasini ko'paytirish kerak deb hisob-

lashadi. Ota-onalarning kamchiligi bolaning hissiy-axloqiy rivojlanish darajasini nazarda tutib, bolaning ijtimoiy rivojlanishiga asosiy kuchni qaratishadi.

Bolani mакtabga tayyorlashda ota-onaning kuchlari, asosan, o'qish jarayoni bilan bevosita bog'liq, malaka va ko'nikmalarga yo'naltiriladi. Ular birinchidan bolani diqqatini bir joyga jalg qilishni o'rganish kerakligi, ikkinchidan – uning bilimlarini to'ldirib, xotira, tafakkur va nutqini rivojlantirish kerakligi, uchinchidan – mакtabga bo'lган qizi-qishini o'stirib borish kerakligini ta'kidlab aytishadi. Ba'zilar bolalarning irodaviy sifatlarini rag'batlantirish va mustahkamlash kerak deb hisoblashadi, ular bolaning qat'iyatlari va tirishqoq bo'lishiga harakat qilishadi hamda bolada intizomni, harakatchanlikni shakllantirish, ya'ni uning butun xulqini shakllantirish. Qo'l amaliyotini rivojlantirish ham alohida bir qism bo'lib kiritilgan.

Ota-onalarning ko'pchiligi birinchi sinfga borishdan oldin bolaga o'qish va yozishni o'rgatish kerak emas deb hisoblashadi, chunki keyinchalik, bola mакtabga borganda o'qishga qiziqishni yo'qotib qo'yish mumkin, darslarda be'tibor bo'lishi mumkin. Ularning bolaga o'qish va yozishni o'rgatmasliklarining yana bir sababi – mакtab talabalarini bilmay turib, noto'g'ri o'rgatib qo'yishdan xafvsirashadi (qo'rqishadi). O'qish va yozish bu faqat mакtab faoliyat turlari va ularni o'rgatish maxsus tayyorlangan o'qituvchilar ostida amalga oshish kerak deb hisoblashadi.

Ota-onalarning boshqa bir guruhi bolaning mакtabga borishdan oldin o'qish va yozishga o'rgatishga intiladilar. Ular bolaga mакtab tomonidan qo'yilgan talablari va 1-sinfda o'qitish tempi juda baland va tez, shuning uchun oldindan olingan (o'zlashtirilgan) malakalar bolaga har

qanday topshiriqlarni bajarishga yordam beradi va natijada, ortiqcha zo'riqishni oladi, deb asoslab berishadi.

Shunday ota-onalar ham borki, ular bolani o'z shuhratparst niyatlarga o'rgatadilar: o'quv yili boshida ularning bolalari o'z tengdoshlaridan oshib o'tib (ilgari o'tab ketib) va shu tufayli endi shakllanayotgan kollektivda manfaatli o'rinni egallaydilar.

5–6 yoshli bolalar bilan ishlaydigan bog'cha tarbiyachilar so'rovlari shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik bolaning mактабга tayyorlashda jismoniy va aqliy rivojlanishni afzal qo'yishmoqda. Ta'lif tarbiyaviy – ishni bolani tafakkuri, nutqi va bilim jarayonlarini shakllantirishga yo'naltirilib, pedagoglar bolani tabiat va jamoat to'g'risida asosiy bilimlar bilan boyitishadi. Ular, ota-onalar kabi aqliy va jismoniy tayyor-garlikning yuqori darajasi bolaning shu sohadagi duch kelgan qiyinchiliklardan saqlaydi, deb hisoblashadi. Bunda, shaxsning iroda va intizom kabi sifatlarini tarbiyalashga kamroq e'tibor beriladi.

Qandan qilib olimlar maktabga tayyorgarlikni aniqlashadi? Pedagogik va psixologik adabiyotlarda bolaning ta'lif va tarbiya jarayoniga kirib, uning mazmuni muvaffaqiyatli o'zlashtirib olishga yo'l qo'yadigan shaxsning umumiy rivojlanganligi deb ko'rsatilgan, yana maktabgacha yoshdag'i bola o'zining jismoniy, aqliy va estetik rivojlanishini egallashi kerak bo'lgan.

Maktabga tayyorgarlik darajasini bolaning katta aqliy vajihatlarning yaxlit bir sistemasi (tartibi) deb ko'rsatilgan. Jismoniy vazifalarini bajara oladigan butun organizm va asab sistemasining ma'lum yetuklik saviyasini aniqlaydi (ko'rsatadi). Shu bilan bir qatorda tevarak atrof haqida olingan oddiy bilimlar, amaliy va aqliy faoliyatdagi oddiy malakalar,

tafakkur, nutq va bilim qiziqishlarining rivojlanish darajasi, hulqning ijtimoiy va axloq-irodaviy sifatlarini shakllanish darajasi katta ahamiyatga ega.

Psixologlar (ruhshunoslar) mакtabga umumiy tayyor-garlikning quyidagi taraflarini ajratadilar: jismoniy, aqliy, ijtimoiy-axloqiy (yoki ijtimoiy his tuyg'uli) va sababli (motivli).

Boshlang'ich mакtab bolaning o'qitishga tayyorgarlik darajasiga o'z talablarini qo'yadi. Talablardan biri – bog'cha bolalariga xos bo'lган kun tartibga rioya qilish. Maktabgacha bolaning bog'chaga borish vaqtি oilaviy sharoitga qarab belgilanadi. Ammo mакtabga borish majburiy – bola dars-larga har kuni kelishi shart.

Bog'cha bolasi kun bo'yi tuzilishi va mazmuni qiziq bo'lган turli xil faoliyatlar bilan shug'ullanadi. Asosan, bola o'z xohish (istagi) bo'yicha o'ynaydi yoki ish bilan shug'ullanadi. Bola o'zining mashg'ulotlarini va o'yinlarini vaqtি va mazmunini o'r ganish mumkin. Maktabda esa kunning birin-chi qismining asosiy vaqtini tartibli (sistemali) o'qitish egallaydi; bundan tashqari, kunning ikkinchi qismini ma'lum vaqtini yana darslarni tayyorlashga ajratish kerak. Maktabda bola o'z xohishi va qiziqishi bilan tanlagen mashg'ulotlar chegaralangan. Bola mакtab tartibi va darslar jadvaliga bo'y-sunishi kerak. Har qanday ob-havoda bola mакtabga vaqtida kelishi, o'quv qurollarini olib kelishi, maktab ta'lim sharoitlariga ko'nikishi kerak. Darslarda ma'lum vaqt tinch o'tirib, diqqatini bir joyga jalb qilib ishlashi tanaffuzda esa nisbatan qisqa vaqt ichida o'z kuchlarini tiklab olishi kerak bo'ladi. Maktabdagи ta'limning tashkil etilishi va mazmuni o'quvchining mustaqil ishlashini ta'minlab beradigan malaka va ko'nikmalarining rivojla-nishini yuqori darajasini talab

qiladi. Bolaning yozuvni muvaffaqiyatli egallashi uchun, masalan, unda barmoqlarini mayda harakatlari rivojlangan bo'lishi shart.

Shunday qilib, maktab hayotiga jismoniy va ruhiy jihatdan o'rganish, uchun bolaga eng, avvalo, mustahkam sog'liq, orgnizmni kasalliklarga kurashish qobiliyati, jismoniy chiniqish va chidamlı bo'lish kerak. Sistemali (tartibli) ta'lim uchun bolaning aqliy rivojlanishi, ya'ni, aniqrog'i, maktabga umumiy ruhiy tayyorgarligi muhim deb hisoblanadi.

Bola birinchi sinfda uchta fan (o'qish, yozuv va matematika)ning asoslarini, tabiat va jamiyat to'g'risida oddiy bilimlarni egallaydi. Bola odamlar, jismlar va tevarak atrofdagi hodisalar haqida ma'lum tasavvur bilan maktabga kelishi kerak. Bolaning o'quv materialni to'liq o'zlashtirishi va ta'limni bola qobiliyatlariga mos kelishi uning aqliy faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Bolaning yaxshi o'qishiga aqliy faoliyatining rivojlanish darajasi, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur funksiyalari, hamda aqliy faoliyat bilan shug'ullanish odatlari ta'sir qiladi. Bola tahlil qilish (analiz) qobiliyatiga o'rganish kerak: narsalarni (predmetlarni) idrok etganda muhim va muhi'm bo'lmaganlarni ajrata bilish, kuzatayotgan hodisalarni umumlashtirish, guruhlash va hokazo. Bola zehinli, ziyrak, topqir, mustaqil bo'lishi kerak. Zavq, xursandchilik keltiradigan aqliy faoliyatga nisbatan bolada qiziqish paydo bo'ladi.

Ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga, uning lug'at boyligiga, mustaqil, aniq, ifodali va grammatik jihatdan to'g'ri gapira berishiga bog'liq bo'ladi. Nutq-aqliy faoliyatning asosiy qismi (**komponenti**) va bolaning shu faoliyati natijalarini aytib bera oladigan asosiy vosita bo'ladi. O'qishda ijobiy natijalarga

erishishning muhim asoslaridan bilimdonlik, tirishqoqlik hisoblanadi.

Bolada maktabga borish bilan nafaqat hayot tartibi va asosiy faoliyatida, balki ijtimoiy o‘rnida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bola munosabatlari shakllangan tanish tengdoshlar va kattalar jamoadan, notanish bolalar va kattalar jamiyatiga o‘tadi. Oldingi jamoada (kollektivda) bola ma’lum bir o‘rinni egallash, o‘zini huquq, burch va imtiyozlarini bilar edi, yangi shakllanayotgan maktab jamoatida esa bola o‘zini boshidan ko‘rsatishi kerak. Bolaning burch va huquqlari, maktabgacha davrga nisbatan, aniqroq va qattiqroq belgilanadi. Bola faoliyatini baholashning muhim mezonlardan biri, nafaqat maktabda, balki oilada, tengdoshlar davrasida, — bu muvaffaqiyatli o‘qish bo‘lib qoladi.

Baho qo‘yish va baholash ijtimoiy ahamiyatga va rasmiy hujjat shakliga ega.

Maktabda uzoq muddat ota-onas g‘amxo‘rligisiz bo‘lgani sababli, bola o‘z yoshiga mos his tuyg‘u va iroda mustah-kamligiga ega, o‘z xulqini nazorat qila olishi kerak. Agar o‘quvchi o‘qishga ijobiy yondashsa, o‘qishni xohlab, intilsa, ta’limdagiligi boshlang‘ich qiyinchiliklarni tezroq va osonroq bartaraf etiladi. Iroda bolaga barcha maktab vazifalarini doimiy va muvaffaqiyatga bajarishga kerak bo‘ladi.

Bilim va ijtimoiy hayot qonun-qoidalariga rioya qilish, xarakterning ijobiy jihatlarining shakllanganligi bolaga boshqa bolalar bilan muloqot o‘rnatishda, sinfdoshlar bilan do‘stona munosabat o‘rnatishda va jamoada faol ishtirok etishda juda katta yordam beradi.

Bolani maktabga umumiy tayyorgarligi deganda uning har tomonlama, ya’ni uning ma’lum bir taraflari emas, balki hamma taraflari rivojlangan bo‘lish kerak. Har qanday bir

tarafini rivojlanmagani, zaifligi (aqliy, his-tuyg'uli, irodaviy yoki amaliy-harakatli) maktabda o'zlashtirmaslikning sabablaridan bo'lishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, birinchi sinfda o'quv fanlarning (o'qish, yozish, matematika) mazmunini o'zlashtirish uchun maxsus bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Masalan, matematika o'qitishda o'qituvchi bola narsalarning rangi, shakli, katta-kichikligi, sonini ajrata biladi deb hisoblaydi; yozuvni o'rganishda esa bola yozuv va rasm qurollarini to'g'ri ishlata olishini, grafik mashqlarni bajara olishga tayanadi. Shu kabi bilim, malaka va ko'nikmalar maktabga maxsus tayyorgarlikni tashkil etadi. Umumiy va maxsus tayyorgarlik bir-biriga zid kelmaydi, bir-birini chiqarib tashlamaydilar. Maktab fanlarini mazmunini o'zlashtirishda bolani, maxsus tayyorgarligi umumiy tayyorgarlikdan kelib chiqadi, unga mos keladi va tayanadi va aksincha, maxsus tayyorgarlikning mazmuni ta'limning umumiy tayyorgarlikka yordam berish kerak.

Bola shaxsini rivojlantirishda ma'lum bir tarafiga (asosan, aqliy) kuchli yo'naltirish berishga alohida e'tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki bolaning yoshini hisobga olinmagan tezlashtirilgan, jadal o'qitish zarur hisoblanadi.

Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega, chunki shu davrda shaxsning asoslari solinadi. Agar shaxsni har taraflama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlardan qo'llanilmasa, rivojlanishning to'xtab qolishlari yoki chetlashlarini bartaraf etish nihoyatda og'ir kechadi.

7 yosh – bu bola yangi sharoitga tez o'rganadigan va o'qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirot etadigan davr hisob-

lanadi. Ya.A.Komenskiy bolaning yettinchi yili – bu bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun mакtabda o'qishni boshlaydigan vaqt hisoblagan. Bolani ona maktabida 5–6 yil ta'llim-tarbiya olishini (oilada bolani ona tarbiyasi nazarda tutilgan) u yetarli va optimal muhlat deb hisoblagan.

Bolaning yoshi (7 yosh) mezonidan tashqari, uni sog‘lig‘ini umumiyl holati va asosiy antropometrik ko‘rsatkichlari jismoniy tayyorgarligini belgilashadi. Bunda bo‘yi (7 yoshga 110 sm dan kam bo‘lmasligi kerak), vazn (20 kg), ko‘krak aylanasi (nafas chiqqanda 55 sm dan kam bo‘lmasligi kerak), tanadagi o‘zgarishlari suyaklarni o‘sishi, tishlarni almashuvi.

Maktabga tayyor bo‘lgan bola jismoniy chiniqqan, har qanday ob-havoda uzoqda uzoq vaqt yura oladi, asosiy harakat malakalarga, to‘g‘ri osankaga ega, o‘zining harakatlarini nazorat qila oladi, tozalikka rioxha qiladi.

Bolaning bilim jarayonlarini rivojlanganligi uning jamiyat va tabiat, voqeа hodisalarini tushunib yetishi, kuzatish qobiliyati, kundalik hodisalarini to‘g‘ri nomlash, bir-biri bilan bo‘lganlar aloqani tushunib yetishi ko‘rsatiladi. Bola o‘z fikrlarini ifoda eta bilish kerak, ijodiy va mustaqil fikrlay olishi, aniq ko‘rgazma materialga tayanib, masalalarini yecha bilishi kerak. 6–7 yoshli bola oiladan tashqarida ham o‘zini dadil tutishi kerak. Shakllangan madaniy ko‘nikmalari o‘z tengdoshlari bilan munosabatlar o‘rnatishga yordam beradi.

Bolaga mustaqil o‘zi kiyinishni, ovqat yeishni, narsalarini toza va tartibli saqlashni o‘rganishi kerak. Bola kattalar mehnatini muhimligini tushunishi va hurmat qilishi kerak. Har qanday ishga ijobiy yondashib, uni diqqat, e’tibor bilan vaqtida bajarishi lozim.

Bolada estetik idrokni shakllantirish, o‘zini yoshida mos adabiy asarlarga qirqish uyg‘otish, yon-atrofni estetik (nafis)

jihatdan bezatishiga intishini rivojlantirish kerak. Bolani musiqani, adabiy so‘zni, rasmlarni chiroyini sezishni o‘rganishi kerak; ashula aytishi, rasm chizish, yasash, toipshmoqlar, laparlar, tez aytishlar, maqollar, ertaklarni bilishi va aytib berishi, kitoblarni avaylashni bilishi kerak.

XI bob. BOLANI MAK TABGA TAYYORLIGINI ANIQLASH

Har qanday pedagog hech qanday vositalardan foy-dalanmay, bolani mакtabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba'zi ota-onalar ham taxminan bilishadi, qanchalik bola sog'lom, chaqqon, mustaqil, aqli o'qishga tayyor ekanligini.

Bog'cha tarbiyachilar har bir bolani mакtabga tayyorgarligini to'g'ri aniqlashda yetarli pedagogik va psixologik bilim va tajribalarga ega bo'lishi kerak, bunda ular «Bolalar bog'chasida tarbiya dasturi» talablariga tayanishlari kerak. Agar mакtabgacha davrda bola sog'lom rivojlangan bo'lsa; uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta'sirlar bo'lmagan bo'lsa, unda bola yetti yoshda ta'lim olish darajasiga yetadi.

Ammo, ba'zi oila va bog'chada mакtabga tayyor bo'l-magan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar mutaxassis nazoratida maxsus tekshiruvdan o'tishadi va mutaxassis o'qishga tayyorgarligi darajasi haqida xulosa chiqaradi. Bolaning mакtabga tayyormaslik xususiyatlaridan – bu o'yinqa-roqligi, mustaqil bo'la olmasligi, his-tuyg'u va ijtimoiy rivojlanishining juda past darajasidir. Bunday bolalar, o'rtoqlari va tengdoshlari orasida o'z o'rmini kontakt (aloqa) topa olmaydilar.

Ular kundalik faoliyatlarida yordamga muhtoj, berilgan vazifalarni tushuna olmaydi va mustaqil bajara olmaydilar,

qo'llarining mayda motorikalari yaxshi rivojlanmagan. Lug'at boyligi, o'z fikrlarini ifodalashi chegaralangan, xotarisi sust, umumlashtirishni bajara olmaydi va hokazo.

Bularga nafaqat bolaning yomon ijtimoiy ahvoli sabab bo'ladi, balki nasliy omillar, jiddiy va murakkab kasalliklari, yengil tug'ma jarohatlari, nevrozlar keltirib chiqaradigan sharoitlar ham sabab bo'ladi.

Maktabga tayyor bo'Imagan bolaning qabul qilishi bola shaxsini rivojlanishiga har tomonlama yomon ta'sir etadi. O'qishdagi o'zlashtira olmasliklar bolada o'qishga nisbatan salbiy munosabat tug'diradi. Uning jismoniy va ruhiy sog'lig'i ham xavf ostida. Ularda nevroz belgilari paydo bo'lishi mumkin: uyquning buzilishi, sidik ushay olmaslik, bosh og'riqlari va boshqalar. Tarbiyasida ham qiyinchiliklar paydo bo'la boshlaydi: bola qanday bo'lmasin o'ziga diqqat-e'tiborni qaratmoqchi bo'ladi, yomon harakatlar qila boshlaydi.

Agar bolaning tayyor emasligini vaqtida aniqlansa, bunday hollarni oldini olish mumkin bo'ladi.

Bolaning maktabga tayyorligini turli sohadagi mutaxassislar aniqlay oladilar. Bolalar shifokori bolani tekshirib, somatik rivojlanishi aniqlaydi, agar unda ma'lum bir jismoniy, ruhiy kamchiligi bo'lsa, uni psixolog-pedagogik tekshiruvga yuboradi. Ma'lum bir nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar maxsus maktabga yuboriladi. 1-sentabrga qadar 7 yoshga to'Imagan, bolalar bog'chasiga bormagan, pedagogik qoloq, nutq kamchiliklarga ega, jismoniy rivojlanish kamchiliklarga ega bo'lgan bolalarni maxsus konsultatsiyalarga boshlang'ich sinf o'qituvchilari tekshirib beradilar.

Tuman psixolog-pedagogik konsultatsiyalarida bolaning maktabga tayyorgarligini har tomonlama aniqlashadi. Ular ta’lim-tarbiyatagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda profilaktik va korreksion usullarni tavsiya etadilar, tarbiya sohasiga oid maslahatlar beradilar. Bular bilan birga tuman mahalla qo‘mitalari faol ishtirok etadilar. Bola tarbiyasiga salbiy ta’sir etadigan ota-onalar bilan mahalla qo‘mitalar va boshqa ijtimoiy tashkilotlar ishlashadi.

Tuman psixolog-pedagogik konsultatsiyalarda bolarning maktabga tayyorligini aniqlashda psixologik testlardan foydalanadi.

Eng tanilgan va keng tarqalgan psixologik diagnostika vositalari:

1. A.Kernning maktabga tayyorgarlik testlari.
2. A.Effeldtning «Реверсив тест» (bolaning o‘qishi tekshiriladi).
3. Maktabga tayyorgarlikni tekshiradigan Guppening tekshiruvi.

Testlarni mazmun jihatdan 2 guruhga bo‘lish mumkin:

1. O‘qish jarayonida ishtirok etadigan alohida psixologik tomonlarni shakllangan darajasini aniqlaydigan testlar.

2. Maktabga umumiy tayyorgarlikni tekshiradigan testlar.

Konsultatsiya xodimlari bolani tekshiruvini ota-onalar oldida o‘tkazadilar. So‘ngra tekshiruvlar natijalari asosida quyidagi chorálarni maslahat beradilar:

- a) umumta’lim mакtabning 1-sinfga yozish;
- b) o‘qishni 1 yilga qoldirish;
- d) bolani bog‘cha yoki mакtab qoshidagi maxsus sinfga yozdirish;
- e) bolani maxsus maktabga yozdirish.

Konsultatsiyalarning xulosasi asosida mahalla qo'mitalarining maktab bo'limlari bola qaerda o'qishini hal qilishi shadi. Agar bola 7 yoshga to'lib, ammo uning sog'lig'i yaxshi bo'lmasa, unda medika-pedagogik tekshiruvlar natijasida o'qish 1 yilga qoldiriladi. 1 yildan so'ng, bola qaytadan maxsus tekshiruvdan o'tadi va qaerda o'qishi hal qilinadi.

Agar bola tarbiyasida ishtirok etadigan shaxslar unga alohida e'tibor ajratishsa uning har tomonlama rivojlanishga yaxshi sharoit yaratib berishsa, o'qishdan qolgan muhlat ijobjiy natija beradi.

O'qishdan qolgan bolalar bilan ishlashda tarbiyachilar uchun hozircha maxsus dasturlar ishlab chiqilmagan. Pedagoglar bunday bolalar bilan mavjud bo'lgan «Bolalar bog'-chasida ta'lim va tarbiya dasturi» bo'yicha ishslashmoqda, faqat ularga ko'proq e'tibor ajratadilar. Hozirgi vaqtida sinfda maxsus dasturlar o'tmoqda.

Maktabda o'qishni o'zlashtira olmaydigan bolalar uchun maxsus sinflar ochiladi. Bunday sinfda o'qishni vaqtincha o'zlashtira olmaydigan, sog'lom intellektga ega bo'lgan bolalar o'qiydilar. O'qishdagi qoloqlikni individual mashg'ulotlar, alohida parvarish va maxsus kurs tartibi yordamida bartaraf etish mumkin.

Maxsus sinf 12-15 o'quvchiga mo'ljallangan bo'lib, maktab direktori ruxsati bilan ochiladi. Maxsus sinfga o'tkazish sinf rahbari tavsiyasi, maktab shifokori va psixolog-pedagogik konsultatsiya xulosasi asosida amalga oshadi. O'quvchi maxsus sinfda vaqtincha, uning uquvdagi qoloqligi bartaraf etilguncha qoladi. Sinfda 2 yilgacha o'qish mumkin.

Aqliy va jismoniy kamchiliklarga nutq kamchiliklarga ega bo'lgan, qiyin tarbiyalanadigan, kasal va quvvatsiz bolalar

maxsus mактабларга ўборилади. Буларга ақли заиф болалар үчун maxsus мактаблар ва ўрдамчи мактаблар кирди.

Maktabga tayyorgarlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar

Maktabga umumiy va maxsus tayyorgarlik qilishga jiddiy талаблар о‘йланган, шунинг үчун болани макtabga доимий ravishda tayyorlash kerak. Tayyorgarlik o‘z-o‘zidan, paydo bo‘ladi. Faqat maqsadga yo‘naltirilgan va uzoq muddatga mo‘ljallangan tarbiya jarayoni болани maktabga optimal tayyorligiga olib keladi.

Bolani qachon va qancha tayyorlash kerak? deganda kattalar orasida turli fikrlar mavjud. Ko‘pchilik ota-onan va tarbiyachilar 3 yoshdan boshlab, 1-sinfga bir yil qolganda tayyorlashni kuchaytirish kerak deb hisoblanadi. Ammo boshqalar bolani faqat maktabdan oldingi bir yil davomida tayyorgarlik qilish kerak deb aytishadi. Ba’zi ota-onalar bola bog‘chaga borishi bilan maktabga tayyorgarlik boshlanadi, deb o‘ylashadi.

Maktab hayotiga binoan kim tayyorlashi kerak? Bog‘cha tarbiyachilari болани maktabga tayyorlash butun bog‘cha davrida amalga oshishi kerakligini tushunishadi va dastur talablariga binoan shuni amalga oshirishadi (bajarishadi). Lekin aynan maktabga borishdan avval ular tayyorgarlikka alohida diqqat-e’tiborini qaratishadi: talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etishadi, bilimlarni bir yo‘nalishga solishadi, to‘g‘ri gavdani tutish (osanka)ni mustahkamlashadi, mayda motorikasini rivojlantiradi va hokazo.

Lekin oila – bu bola tug‘ilishidan keyin yashaydigan birinchi ijtimoiy muhit. Oila bola o‘zini birinchi ijtimoiy tajriba va malakalarini orttiradi, ota-onalar namunalari orqali tarbiyalanadi, oilaviy rishtalarni tushunib yetadi va qadrlaydi. Shuning uchun maktabga tayyorlashda oila – hal qiluvchi, muhim ahamiyatga ega. Ota-onalarning ko‘pchiligi bolani maktabga tayyorlashda bog‘cha bilan oilaning hamkorligi orqali amalga oshirish kerak deb hisoblashadi. Bunday ota-onalar bog‘cha va oila alohida bo‘lganda yaxshi natijaga erishilmaydi, ya’ni bolani maktabga yaxshi tayyorlay olmaydi deb hisoblashadi.

Ba’zi ota-onalar esa bolani maktabga tayyorlashda javobgarligini bog‘chaga yuklashadi, ba’zilari esa butun javobgarlikni o‘z bo‘yniga olishadi.

Ya.A.Komenskiy o‘zining «Onalar maktabi» kitobini maktabga tayyorlash bobida shunday yozadi, barcha insonlar bajaradigna ishlar, ma’lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Ota-onalar shuni o‘ylab, o‘z bolalarini maktabga tayyorlashadi. Maktabga har tomonlama tayyorgarlikning mazmuni dan tashqari, Komenskiy ota-onalar uchun quyidagi vazifalarni ko‘rsatadi:

1. Bolalarda maktabga borganda, o‘z tengdoshlari bilan o‘qigan va o‘ynagan xursandchilik hissini tug‘dirish.
2. Bolalarni maktabdagagi ta’limning mohiyatini tushuntirish, maktabdagagi faoliyat turlari bilan tanishtirish.
3. Bolalar bo‘lajak o‘qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

Hozirgi zamон ota-onalar bolalarни maktabga qanday tayyorlashmoqda. Biz shuni ko‘rsatib o‘tgan edikki, ota-onalarning ko‘pchiligi maktabda yaxshi o‘qishning shartlaridan

biri-shaxsnинг umumiy rivojlanishi deb hisoblanadi. Ammo, bolaning aqliy rivojlanishini eng asosiy deb bilishadi, shuning uchun mashg'ulotlarda bilim, nutq, tafakkur va xotirasini rivojlantirishga harakat qiladilar. Keyingi o'ringa bolani o'qish va yozish malakalarini rivojlantirishni qo'yishadi, yodlatishadi, suhbatlashadi, birgalikda mantiqiy o'yinlar o'ynashadi. Gohida – mehnat, sport, ashula yoki raqs bilan shug'ullantirishadi. Bu yetarli emas albatta.

Mustaqil ish

1. Tarbiyada ota-onaning san'atkoriлиgi haqida qanday adabiyotlarni o'qig ansiz?
2. Bolani dastlabki maktabqa borishidagi quvonchini yanada yuksaltirishda o'qituvchi nimalarga e'tibor berish kerak?

Test savollari

«Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» so'zlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida tasdiqlangan?

- a) 63-moddasida;
- b) 42-moddasida;
- d) 14-moddasida;
- e) 5-moddasida.

Oila va oilada bolalar tarbiyasi haqida mutafakkirlardan kimlar fikr yuritganlar?

- a) Ibn Sino, Beruniy;

- b) A.Navoiy, Forobiy;
 - d) Muhammad Sodiq Qashg'ariy, Davoniy;
 - e) yuqoridagi barcha javoblar to‘g‘ri.
- «Oila kodeksi» nechanchi yil qabul qilingan?
- a) 1992-yil 8-dekabr;
 - b) 1996-yil 10-may;
 - d) 1998-yil 30-aprel;
 - e) 2001-yil 30-yanvar.

«Erdan sadoqat», maqolining davomini toping?

- a) xotindan malohat;
- b) xotindan itoat;
- d) xotindan xiyonat;
- e) xotindan shafoat.

O‘zbekiston Respublikasida «Oila yili» deb qaysi yil e’tirof etilgan?

- a) 2002-yil;
- b) 1996-yil;
- d) 1998-yil;
- e) 2000-yil.

«Eng birinchi galda nasl-nasabni toza saqlamoq, qadr-qimmatni bilmoq inson tarbiyasininig gultojidir» – ushbu jumlalar qaysi muallifning asarida keltirilgan?

- a) A.Navoiyning «Hamsa» sida;
- b) Kaykovusning «Qobusnomá» sida;
- d) A.Fitratning «Oila» sida;
- e) A.Qodiriyning «O‘tgan kunlar» da.

O‘zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi» necha bob va necha moddadan iborat?

- a) 30-bob va 238-moddada iborat;
- b) 45-bob va 312-modadadan iborat;

- d) 22~bob va 187~moddadan iborat;
- e) 36~bob va 300~moddadan iborat.

Endogamik nikoh deganda nima tushunasiz?

- a) yakka nikoh;
- b) guruhiy nikoh;
- d) boshqa qabilalarga mansub qiz yoki yigit bilan nikoh;
- e) nikohlanmagan holda birga yashash.

«Oila – bu tabiatning shoh asarlaridan biridir». Bu fikr qaysi faylasuf tomonidan bildirilgan?

- a) Beruniy;
- b) Aflatun;
- d) Satayana;
- e) Suqrot.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-modda-sida nikoh yoshi qizlar uchun necha yosh qilib belgilangan?

- a) 17 yosh;
- b) 16 yosh;
- d) 19 yosh;
- e) 18 yosh.

«Aliment» so‘zi qanday ma’noni anglatadi?

- a) oziq-ovqat, nafaqa;
- b) stipendiya;
- d) moddiy yordam;
- e) rag‘bat.

«Oilada otaning shirin so‘zli, yumshoq ko‘ngil, tabiatan muloyim bo‘lishi bola tarbiyasini buzadi, oilada bosh tarbiyachi ota hisoblanadi» – yuqorida fikr Abu Ali ibn Sinoning qaysi asaridan olingan?

- a) «Donishnama» asaridan;
- b) «Tadbir ul-manozil» asaridan;

d) «Tib qonunlari» asaridan;

e) «Ishorat» asaridan.

Yangi oila kodeksi aliment undirishning nechta tartibini belgalaydi?

a) 3 ta tartibini;

b) 21 ta tartibini;

d) 5 ta tartibini;

e) 13 ta tartibini.

B.Umarov o‘zining ilmiy tадqiqotida oilaviy nizolarni qaysilariga ajratadi?

a) yolg‘izlik, yaqin kishisining o‘limi;

b) muvaffaqiyatsiz sevgi bilan bog‘liq bo‘lgan nizolar;

d) ota-onan yoki oilaning boshqa a’zolari tomonidan balalarni jismoniylar va ma’naviy xo‘rlash;

e) yaqin kishining o‘limi.

Ruhshunos olim G‘.B. Shoumarov o‘zining «Muhabbat va oila» kitobida oilaning tinch-totuv yashashida o‘zaro qo-vushishni necha turga bo‘lib o‘rganadi?

a) 2 turga;

b) 5 turga;

d) 3 turga;

e) 4 turga.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasi nikoh yoshi o‘g‘il bolalar uchun necha yosh qilib belgilangan?

a) 16 yosh;

b) 17 yosh;

d) 20 yosh;

e) 18 yosh.

Odobning boshi nimadan boshlanadi?

- a) «Assalomu alaykum»;
- b) «Ota-onadan boshlanadi»;
- d) o‘z-o‘zini hurmat qilishdan;
- e) mehribonlikda.

Qaysi qatorda nikoh tuzish shartlari noto‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) nikoh yoki erkaklar uchun 18, ayollar uchun 17 yosh bo‘lishi lozim;
- b) nikoh tuzishda ayollar erkaklar familiyasiga o‘tishi lozim;
- d) erkak va ayollar o‘rtasidagi tenglik;
- e) nikoh o‘zaro xohish asosida tuzilishi lozim.

Ota-onaning farzandi oldidagi burchi nimalardan iborat?

- a) yaxshi ism qo‘yish;
- b) to‘g‘ri tarbiya berib, uyli joyli qilish;
- d) voyaga yetgach uylantirish yoki turmushga berish.

Nikoh, tuzishga monelik qilmaydigan holatni belgilang?

- a) loaqlal bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o‘rtasida;
- b) ayol yoshining erkak yoshidan katta bo‘lishi;
- d) loaqlal bittasi ruhiyat buzilishi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o‘rtasida;
- e) nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida.

Nikoh-fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlarida tuzish oila kodeksining nechanchi moddasida belgilangan?

- a) 15-moddasida;
- b) 13-moddasida;
- d) 10-moddasida;

e) 5-moddasida.

Zardo'shtiylik davrida oila qurishning qanday motivlari mavjud bo'lgan?

- a) ota-yoki homiy, xohish-irodasi tufayli;
- b) sevgi-muhabbat tufayli;
- c) farzandlari bo'lishi xohishi tufayli;
- d) er-xotin munosabatlari.

Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan to'y-ma'rakalarini o'tkazishni tartibga keltirish to'g'risidagi farmoni qachon qabul qilingan?

- a) 1996-yil 26-oktabr;
- b) 1997-yil 27-oktabr;
- c) 1998-yil 28-oktabr;
- d) 1999-yil 30-oktabr.

Al-Buxoriy uch kishining duosi Alloh oldida ijobat bo'-ladi deydilar, shular qaysilar?

- a) ota-on, o'qituvchi, musofir;
- b) qariyalar, ota-on, musofir;
- c) mazlum, musofir, qiriya;
- d) ota-on, musofir va mazlum.

«Bolalarni katta mas'uliyat bilan va puxta o'ylab tarbiya qilish ota-onaning burchi» – deb qaysi alloma aytib o'tgan?

- a) Aristotel;
- b) Platon;
- c) Ahmat Donish;
- d) Al-Buxoriy.

Bobo va buvining o'z nevaralariga aliment to'lashi mumkinmi?

- a) yo'q bobo va buvi o'z nevaralariga aliment to'lamaydi;

b) ha, amaldagi oila kodeksining 123-moddasida binoan aliment to'laydilar;

d) yo'q, chunki oila kodeksining 123-moddasida taqiq- langan;

e) ha, aliment to'lash mumkin, bu oila kodeksining 128- moddasida belgilangan.

Ibn Sino bola tarbiyasini nimadan boshlash lozim deb ta'kidlagan?

a) ism tanlashdan;

b) yozishni o'rgatishdan;

d) o'qishni o'rgatishdan;

e) axloq o'rgatishdan.

Er-xotin qachon oila kodeksining 42-moddasiga muvo- fiq o'z roziliklari bilan ajratiladi?

a) agar er-xotindan biri bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa;

b) er yoki xotindan biri ruhiy kasal yoki aqliy zaifligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa;

d) voyaga yetmagan bolalari bo'lsa;

e) er-xotin birga yashashni istamasa.

Islomiy tarbiyada o'g'il va qizlar tarbiyasining o'ziga xos xususiyati necha yoshdan shakllanadi?

a) 6 yoshdan;

b) 7 yoshdan;

d) 10 yoshdan;

e) 12 yoshdan.

«Oila kodeksi»ning qaysi moddasida nikoh tuzilganligini qayd etishning alohida shartlari belgilangan?

a) 215-moddasida;

b) 225-moddasida;

- d) 213-moddasida;
- e) 217-moddasida.

Nikoh tuzish uchun erkaklar uchun 18 yosh ayollar uchun 17 yosh belgilangan, biroq turli sabablar bo'lganda nikoh yoshini ko'pi bilan necha yilga kamaytirishi mumkin?

- a) 2 yilga;
- b) 1 yilga;
- c) 0,5 yilga;
- d) 1,5 yilga.

Qay tarzda tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas?

- a) diniy rasm-rusmlarga binoan;
- b) notarial idora tasdig'idan o'tgan;
- c) O'zbekiston Respublikasi Zags idoralarida ro'yxatdan o'tgan.

«Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishlariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olish darkor» ushbu so'zlar kimga taalluqli?

- a) M. Mahmudov;
- b) I.A Karimov;
- c) G'.B. Shoumarov;
- d) A.Oripov.

Nima uchun nikoh shartnomasi tuziladi?

- a) er-xotin mulkiy huquq va majburiyatlarining mohiyatini aniqlash uchun;
- b) er-xotinning hech qachon ajralmasliklari uchun;
- c) er-xotinning shaxsiy mulklarini saqlash uchun;
- d) er-xotin keyinchalik yaxshi baxtli yashashlari uchun.

Bir oiladagi o‘zaro qon-qarindoshlar turmush qurishlari mumkinmi?

- a) yosh yetganda mumkin;
- b) o‘zaro rozi bo‘lganda;
- c) umuman mumkin emas;
- d) sevgi muhabbat bo‘lganda.

Muhammad Sodiq Qashg‘ariyning fikricha uylanishda qizlar yigitlardan to‘rt narsada ustun bo‘lishi kerak, ular qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) omadda, boylikda;
- b) husnda, jamolda, hulqda;
- c) did va farosatda;
- d) odobu-iffatda bo‘yda.

Yusuf Xos Hojib, oilaning shakllanishi va mustahkamlanishida nimaning roliga alohida e’tibor beradi?

- a) hurmat;
- b) mehr-muhabbat;
- c) tinchlik;
- d) sadoqat.

Nikoh tuzishda avvalo, nikohlanuvchilardan nima so‘raladi?

- a) ularning millatlari;
- b) ularning roziliklari;
- c) ularning diniy mazhablari;
- d) ularning ijtimoiy kelib chiqishi.

O‘.B. Shoumarov oilada er-xotinning o‘zaro qovushishlarini shartli ravishda necha qismga bo‘ladi?

- a) iqtisodiy, mantiqiy, qovushish;
- b) biologik, psixologik, qovushish;
- c) ijtimoiy, iqtisodiy qovushish;

e) mantiqiy, biologik, sotsial qovushish.

Ibn Sino bola tarbiyasida kimning rolini alohida ta'kidlaydi?

- a) otaning;
- b) onaning;
- d) davlatning;
- e) mahallaning.

O'zining ijtimoiy mazmuniga ko'ra oila, odatda, o'zaro aloqadagi 3 ta ijtimoiy guruhdan iborat bo'lib, ular nimalar-dan iborat?

- a) oilaning asosi sifatida nikoh;
- b) nikohning natijasi sifatida er-xotin munosabatlari;
- d) er-xotin munosabatlarining oqibati sifatida farzand-lardan tashkil topadi;
- e) hamma javoblar to'g'ri.

«Voyaga yetmagan bolalarmi farzandlikka va tarbiyaga olish to'g'risida NIZOM» necha bo'limdan iborat?

- a) 2 bo'limdan iborat;
- b) 1 bo'limdan iborat;
- d) 4 bo'limdan iborat;
- e) 3 bo'limdan iborat.

«Bolali oilalarmi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash to'g'risi»dagi qaror qachon yaratilgan?

- a) 1996-yil 1-yanvar;
- b) 1997-yil 1-yanvar;
- d) 1997-yil 31-dekabr;
- e) 1996-yil 31-dekabr.

BMT tomonidan qaysi kun xalqaro oila kuni sifatida e'lon qilingan?

- a) 15 may;

b) 10 fevral;

d) 5 avgust;

e) 10 dekabr.

«Nikoh tomonlarining ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi» deb yozilgan fikr qaysi kitobda belgilangan?

a) «O‘zbekiston Respublikasining oila kodeksi»;

b) «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi»;

d) «O‘zbekiston Respublikasi oila huquqi» darslik;

e) «1001 sovolga 1001 javob».

Nikohga kirish vaqtida o‘z familiyasini o‘zgartirgan er (xotin) nikohdan ajratilgandan keyin ham shu familiyasida qolishga haqqi bormi?

a) yo‘q, haqli emas;

b) er-xotinning xohishiga qaraladi;

d) sud chiqargan qarorga asoslanadi;

e) nikohdan ajratish to‘g‘risidagi qarorga muvofiq nikoh-gacha bo‘lgan familiyasi qaytarilishi mumkin.

«Oila» so‘zi arabcha qanbay so‘zdan olingan?

a) oila-ayolmand, niyozmand;

b) oila-nafosat, did-farosat;

d) oila-dilnavoz, xotirjamlik;

e) oila-inoqlik, farosatlik.

Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan tuzilgan nikohni haqiqiy deb topish mumkinmi?

a) har qanday sharoitda ham bekor qilinadi;

b) sudgacha er yoki xotin nikoh yoshiga yetgan bo‘lsa haqiqiy deb topiladi;

d) yo‘q, bu nikoh haqiqiy emas;

e) har qanday sharoitda ham nikoh haqiqiy hisoblanadi.

«Oila, mahalla, maktab hamkorligi» konsepsiysi qachon ishlab chiqilgan?

- a) 1997-yilda;
- b) 1993-yilda;
- d) 1992-yilda;
- e) 1998-yilda.

Oila tarixiy kategoriya sifatida 4 hil munosabatlarga asoslangan birlik sifatida o'rganamiz. Ular qaysi bandda to'g'ri aks etgan?

- a) tabiiy-bialogik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy;
- b) tabiiy, mafkuraviy, madaniy.

«Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya»ning qabul qilinishi qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) 1989-yil 10-noyabr;
- b) 1999-yil 10-noyabr;
- d) 1998-yil 22-noyabr;
- e) 1997-yil 15-noyabr.

Aliment undirishning qanday tartiblari belgilangan?

- a) aliment to'g'risidagi kelishuv tuzish;
- b) alimentni ixtiyoriy to'lash;
- d) alimentni sud tartibida undirish;
- e) barchasi to'g'ri.

Oila bu jamiyatning er-xotin ittifoqiga hamda qarindosh-urug'chilik aloqalariga asoslangan?

- a) kichik sosial guruh;
- b) erkak va ayol o'rtasidagi tenglik;
- d) erkak va ayolning o'zaro mehr-muhabbat va surriyod qoldirishi;
- e) ikki insonning o'zaro ittifoqi.

«O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab quvvatlash borasidagi qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonining chiqqan vaqtini qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) 2002-yil 25-may;
- b) 2005-yil 25-may;
- c) 2004-yil 25-may;
- d) 2003-yil 25-may.

BMT tomonidan qabul qilingan «Inson huquqlari umum-jahon dekloratsiyasi»ning qabul qilingan vaqtini qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) 1948-yil 10-dekabr;
- b) 1958-yil 12-dekabr;
- c) 1955-yil 12-dekabr;
- d) 1978-yil 10-dekabr.

«Oila pedagogikasi» fanining vazifalari qaysi bandda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash;
- b) bolalar tarbiyasiga oid umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarga yetkazish;
- c) oilaviy an‘analarga binoan bolalarning tug‘ilishlari bilan bog‘liq bo‘lgan marosimlar va urf-odatlarni yoshlarga yetkazish;
- d) hamma javoblar to‘g‘ri.

«Eng birinchi galda nasl-nasabni toza saqlamoq, qadr-qimmatni bilmoq inson tarbiyasining gultojidir» – ushbu jumlalar qaysi muallifning qanday asarida keltirilgan?

- a) A.Navoiyning «Hamsa»sida;
- b) Kaykovusning «Qubbusnama»sida;
- c) A.Fitratning «Oila»sida;
- d) A.Qodiriyning «O‘tgan kunlar»ida.

«Bolali oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash to'g'risi»dagi qaror qachon qabul qilingan?

- a) 1996-yil 1-yanvar;
- b) 1997-yil 1-yanvar;
- d) 1997-yil 31-dekabr;
- e) 1996-yil 31-dekabr.

«Oila pedagogikasi» asarining muallifi kim?

- a) Oysha Xasanboyeva;
- b) M.Inomova;
- d) O.Musurmonova;
- e) A.K.Munavvarov.

BMT tomonidan qabul qilingan «Inson huquqlari umum-jahon dekloratsiyasi»ning qabul qilingan vaqt qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) 1948-yil 10-dekabr;
- b) 1958-yil 12-dekabr;
- d) 1955-yil 12-dekabr;
- e) 1978-yil 10-dekabr.

Oilada ota-onalarning savodxonlik darajasi, uning oilani mustahkamlashdagi roli

Oila va nikohning paydo bo'lishiga sababchi omillardan biri, ayniqsa, bizning sharoitimizda, farzand tug'ilishidir. Farzandsiz er-xotin aloqalarini, umuman oilaviy munosabatlari tasavvur qilish mushkul. Ilmiy manbalar tarixan insoniyat ota-ona va farzandlar munosabatlari o'ziga xos bosqichlar va rivojlanish qonuniyatlarini boshidan kechirganligidan guvohlik beradi. Bashar tarixi shundan dalolat beradi, zamonlar osha ota-onaning bolaga nisbatan xususiy

mulkday qarab, uning ustidan hukmronlik qilishi borgan sari farzand ehtiyojlari bilan hisoblashish, uning barcha istaklarini bajo keltirib, unga cheksiz g‘amxo‘rlik ko‘rsatishgacha bo‘lgan munosabatlarga aylangan. Ota-onalarda – bola munosabatlarni agar tarixiy davrlarga bo‘ladigan bo‘lsak, ota-onanining bolaga yondoshuv usullari bo‘yicha qator bosqichlarni boshdan kechirganligini ko‘rish mumkin.

Olimlarning tavsiflashicha, antik davrlarda erkak va ayol aloqalari oqibatida farzand tug‘ilsa, unga deyarli befarq qarash, ya’ni, infantitsid munosabat kuzatilgan, bunday munosabat mohiyatan shafqatsizlikka asoslangan bo‘lib, bolani dunyoga keltirganlar uchun uning nasl-nasabi, taqdiri unchalik ahamiyatli bo‘lmagan. Yangi asrga kelib, bu munosabatlar tubdan o‘zgargan, odam zotida egoizm, o‘ziga tegishli narsaga nisbatan egalik hissining takomillashib borishi o‘zidan bo‘lgan surriyodga nisbatan munosabatlarda ham o‘z aksini topgan.

Mulkchilik shakllarining o‘zgarishi, turmush tarzi qadriyatlariga monand kattalarning bolaga nisbatan his-kechinmalari ham o‘zgarib borgan. Masalan, XIX asrning boshlari XX asrlarning o‘rtalariga kelib, ota-onalar farzandlarining jamiyatda tutajak o‘rinlari, ularning ijtimoiylashuviga alohida e’tibor bera boshlaganlar. Keyingi davrlar esa kattalarning kichiklar taqdiriga befarq emasligi, ularni qo‘llab-quvvatlash, rivojlanishiga ko‘maklashishning ahamiyatini anglash davri bo‘lgan. Bu an’ana deyarli bizning davrimizda ham davom etib kelmoqdaki, endilikda tug‘ilgan bolaga e’tibor oilanining barcha qadriyatlaridan ustun ham keladi. Lekin bunday g‘amxo‘rlik psixologiyasi ham madaniy-tarixiy o‘ziga xoslikka ega. Masalan, ayrim xalqlar (aksariyat Yevropa xalqlari)

bolaga u kichikligida juda katta mehr va g'amxo'rlik ko'rsatadi, taxminan o'smirlik davridan boshlab, uning erkinligi tan olinadi va ota-onan tomonidan beriladigan tarbiya uslublari o'zgartirilib, unga kattalarcha munosabatlar barqarorlasadi. Boshqa bir madaniy-etnik hududlarda, aksincha, farzand balog'atga yetgani sari ota-onaning unga e'tibori kuchayadi. Masalan, Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklarda ham oila kattaligi va serfarzandligi bois, bolalarning kichik yoshdagi rivojlanish xususiyatlariga tabiiy holatday qarab, juda katta qayg'urish bilan uning ma'naviy, ruhiy rivojlanishiga e'tibor qaratilmaydi. Lekin qiz bola balog'atga yetib, ko'rkamlashib borgani sari, o'g'il bolaning qo'lidan ish kelib, qatorga qo'shilgani sari, ota-onada ulardan g'ururlanish, taqdiriga kuyunish, g'amxo'rlik ko'rsatish ham ortib boradi. Bunday g'amxo'rlik shu qadarki, uylangan o'g'ilning qadam bosishlarini ham hamon ota-onan nazorat qilaveradi, bu ba'zan, qaynona-kelin munosa-batlarida, yoki ota-o'g'il munosabatlarida tarangliklarni, nizolarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida qayd etilgan davrlarda tabiiy, ota-onan farzandlarini tug'ish, tarbiya qilish va jamiyatga tayyorlashda o'ziga xos metodlarni qo'llagan. Boshida o'zidan ajratishni, hayotga tayyorlashni ham bilmagan ota-onan bora-bora bolani jamiyatda ijtimoiylashuviga ahamiyat beradigan, shu jarayonga yordam beradigan bo'lib borgan, ota-onadagi egoizm bolardagiga aylanib borganki, hozirgi davrda ko'pgina ota-onalar farzandlarining faqat o'zini o'yashi, ota-onani tushunmasligidan noliydigan ham bo'lib qolgan. Lekin aslida tarixiy rivojlanish tendensiyalariga e'tibor berilsa, bunga faqat ota-onalarning o'zlari aybdordirlar.

Oilada farzand tug‘ilishi, uning soni va tarbiya berish imkoniyatlari masalasi har doim ham dolzarb bo‘lgan. Lekin ayrim G‘arb davlatlarida, jumladan, Rossiyada oilada bola sonining keskin kamayib ketishi munosabati bilan er-xotinning reproduktiv huquqi, madaniyati va xulqi masalasi ayni davrda o‘ta dolzarb masaladir. Rus olimi S.P. Kapisaning (1999) pessimistik bashoratiga ko‘ra, Rossiyada 1995–2025-yillar oralig‘ida tug‘ilishning kamayishi 2 mln.dan (optmaslik bashorat) 32 mln.gacha tushib (pessimistik bashorat) ketadi, bu raqamga 1995-yilgi 147,9 mln. aholi soni asos qilib olingan. Shuning uchun jahon olimlari, Xalqaro aholi-shunoslik jamg‘armalari (jumladan, YUNFPA, YUNISEF) oilada sog‘lom bola tug‘ilishi siyosati orqali yer yuzining turli mintaqalarida reproduktiv xulqni muvofiqlashtirish masalasiga alohida e’tibor berib, aniq tadqiqotlar o‘tkazmoqda. Bundagi asosiy muammo – onaning reproduktiv xulqini boshqarish va muvofiqlashtirish, uning salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom surriyod tug‘ilishini kafolatlashdir.

Reproduktiv xulq – bu oilada farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq xulqdir. U oila a’zolarini o‘z davrining fuqarosi sifatida ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, salomatligi darajasi, madaniyatiga bevosita bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatidir. Bu harakatlarning asl motivi, avvalo, insondagi o‘zidan nasl qoldirish, oilada er-xotinlik burchini ado etishga bo‘lgan ishtiyoq va layoqatga borib taqaladi. Rossiyalik ayollar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlarga ko‘ra, ular xohlagan bola soni (2,8) real bolalar sonidan ancha ortiq. Shundan A. Antonov, ayni davrda odamlar o‘z reproduktiv vazifalarini ado etmayaptilar, deb xulosa qiladi. Ko‘pincha, reproduktiv xulqning motivlari odamning boshqa turdagи faoliyat motivlari ta’sirida so‘nib

bormoqda, avvalo, bu harakat oilada sodir bo'lsa-da, u ayol kishining shaxsiy ishiday tasavvur etiladi va ayolning bola tug'ib berish orqali o'zini namoyon etishi, erining munosabatlarini keskin o'zgartirish, unga ta'sir (tazyiq) ko'rsatish, ustidan hukmron bo'lish, kimnidir sevish va unga g'amxo'rlik qilish ehtiyojini qondirishga borib taqaladi. Quyidagi 4-jadvalda A. Antonov o'tkazgan tadqiqotlar asosida reproduktiv ota-onalik ko'rsatkichlari keltirilgan (4-jadval).

**Oilada er-xotinning reproduktiv ko'rsatkichlari
haqida ma'lumot**
(A.I. Antonov tadqiqotlari bo'yicha)

4-jadval

Reproduktiv ota-onalik ko'rsatkichlari	1935-1940 y.y.	1975-1979 y.y.	1995 yil
Reproduktiv davrning da- vomiyligi	18,8	7,2	2,5
Nikohga kirgan ayollarning o'rtacha yoshi	24,0	22,9	22,5
Nikohga kirgandan to bola tug'ilguncha bo'lgan davr	1,9	1,3	1,1
Birinchi farzand tug'ilgan paytda onaning o'rtacha yoshi	25,9	24,2	23,6
Farzandlar tug'ilishi orasi- dagi davr	5,5	4,2	2,6
Oxirgi farzandini tuqqanda onaning o'rtacha yoshi	44,7	31,4	26,1
Reproduktiv davrning da- vomiyligi	20.7	6,7	3,6

Raqamlardan so'nggi 60 yildan ziyod vaqt oralig'ida ayollarning ertaroq turmush qurishi, reproduktiv funksiyalarning yomon bajarilishi, ya'ni ushbu davrning qisqarib borayotganligi, onalik davrining ham kamligi, erta yoki o'ta kech ona bo'lish holatlarining kuzatilayotganligi ayon bo'lib turibdi. Demak, reproduktiv xulqning asosiy parametrlarida jiddiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

Bu kabi muammolar O'zbekiston uchun ham xosdir. Lekin bizda xotin-qizlarning reproduktiv madaniyati va dasturlari Yevropa mamlakatlariidan farq qiladi.

Mamlakatimiz aholisining reproduktiv dasturlarini o'rganish bo'yicha olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ayni paytdagi farzandlar soni – real bola soni so'raluvchilarda shahar bilan qishloqda o'ziga xoslikka ega (5-jadval). Masalan, 2002-yilda shaharlik respondentlarning 34,9 foizi 2 ta farzandga, salkam 30 foizi 3 ta farzandga ega bo'lsa, bu raqamlar 2004-yilda mos ravishda 33,6 va 25,2 ni tashkil etdi.

«Nechta farzandingiz bor?» savoliga berilgan javoblar

5-jadval

Farzandlar soni	«Ijtimoiy fikr»		«Oila»	
	Shahar	Qishloq	Shahar	Qishloq
1 ta	16,4	9,8	17,4	19,2
2 ta	33,6	20,6	34,9	37,7
3 ta	25,2	21,2	29,4	24,0
4 ta	12,7	27,9	10,2	16,2
5 va undan ko'p	12,1	27,9	0	1,5

Qishloq oilasidagi real reproduktiv dastur 2002-yilda 37,7 foizi 2 ta, 24,0 foizi 3 ta, 19,2 foizi 1 ta bolali bo'lgan

bo'lsa, 2004-yilda 2 va 3 nafar farzandlilar kamaygan, negadir ko'p bolalilar oshgan, bu raqamlarni yana bir takror tekshirish kerak. Chunki 2003-yilda Farg'ona vodiysi, Samarqandda o'tkazilgan tadqiqotlarida ko'p bolali oilalar soni keskin kamaygan.

Ideal dasturlar (6-jadval) 2002-yilga nisbatan 2004-yilda 2 ta farzandli oila hisobiga o'zgargan: masalan, «Ijtimoiy fikr» ma'lumotlarida ham 2002-yilgi 31,6 foiz, 2004-yilda 35,6 %ga ko'tarilgan. «Oila» markazining ma'lumotlarida ham 15,6 foiz 26,5 foizga o'zgargan. 4 nafar va undan ortiq bolali oilalar «Oila» markazi hisobotlarida kamaygan: 42,4 dan 30,8 ga, lekin «Ijtimoiy fikr»da biroz o'sish bor: 28,8 dan 30,8 gacha oshgan.

«Sizningcha oilada nechta farzand bo'lishi kerak?» savoliga olingan javoblar («Ijtimoiy fikr» va «Oila» markazi ma'lumotlari)

6-jadval

Yillar	Tashkilotlar	1 ta	2 ta	3 ta	4 va undan ortiq	Boshqa javoblar
2004	«Ijtimoiy fikr»	2,7	35,6	27,5	24,4	4,9
	«Oila»	3,4	26,5	33,8	30,8	5,5
2002	«Ijtimoiy fikr»	2,2	31,6	29,0	28,8	4,1
	«Oila»	0,7	15,6	33,2	42,4	8,1

Ko'rib turganimizdek, reproduktiv madaniyat oshgani sari real va ideal dasturlarda ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Muhimi – yurtdoshlarimiz bugungi kunga kelib,

oilada farzandning borligi uning mustahkamligi omili ekanligini chuqur anglagan holda, sog'lom onadan tug'ilgan sog'lom bola uning baxt-saodati ekanligini to'la anglaydilar. Shu bois ham olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlari, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faollashib borayotgan o'rni ularning reproduktiv xulqlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Oilaviy munosabatlarning eng ta'sirli, jozibali va muhim bo'lagi – bu ona-bola munosabatlaridir. Ularning muhimligi shundaki, ayni dastlabki muloqot va mehrli munosabatlar bolaning keyingi psixik va aqliy taraqqiyotini hamda onaning xulq-atvorini shakllantiradi.

Bola tug'ilishining dastlabki onlarida ona va bola o'zaro hissan va psixologik jihatdan bog'langan bo'lib, ikkalasi bir tan, bir vujud hisoblanadi. Shu bois ularning munosabatlarida simbiotiklik (bir xillik, qo'shilib ketganlik, yaxlitlik) bo'ladi. Bola ulg'ayib, katta bo'lgani sari ular o'rtasidagi masofa, psixologik distansiya ortib boraveradi, simbioz munosabatlar aqliy-kognitiv munosabatlar shaklidagi psixologik aloqalarga aylanib ketaveradi.

Chaqaloqning jismoniy o'sishi va rivojlanishi tabiiyki, onaning g'amxo'rлиgiga bevosita bog'liq. Shunisi muhimki, bola uchun har qanday g'amxo'r va mehribon inson unga ona o'mini bosishi mumkin (buvisi, otasi, enagasi). Lekin kimningdir doimiy g'amxo'rлиgi, ya'ni, mehribon insonning – «obyekt»ning doimiyligi bola rivojlanishi uchun o'ta muhim hisoblanadi. Bola bir yoshga to'lguncha bo'lgan davri no-verbal muloqot davri hisoblanib, undagi barcha o'zgarishlar onasi yoki yaqinlari bilan bo'ladigan emotsional, bevosita munosabatlarning natijasi bo'ladi va bora-bora muomalaga til

va tovushlar bilan bog'liq belgilar kirib kela boshlaydi. Onaning barcha say'i-harakatlari bu davrda bola psixik rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi.

Agar ota va ona tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik doimiy va samimiylit kasb etsa, bu E. Erikson ta'biri bilan aytganda, «mutloq ishonch» (базальное доверие)ga asos bo'ladi. Ya'ni, haqiqiy, g'amxo'r ona bolasining ayni paytdagi barcha ehtiyojlarini qalban his etib, o'sha zahoti qondirishga harakat qiladi, masalan, chanqasa suv, och qolsa – ko'krak suti, peshob qistaganda, to'sish kabi ishlarni o'z vaqtida bajarib boradi. Onaning bola ehtiyojlarini shu kabi aniq bilib, o'z vaqtida mehr ko'rsatishi ba'zan intuitiv tarzda kechsa, ba'zan ona o'zini bola bilan identifikasiya qiladi, ya'ni, o'zini uning o'rniga qo'yish orqali, uning talab-istiklarini sezganday bo'ladi, «vujudi bilan his etadi». Bunday his qilishlar odatda, ona tomonidan aniq anglanmaydi, lekin, tabiiyki, onaning kechinmalari va sezishlari to'g'ri chiqadi. Lekin ba'zan pediatr yoki boshqa mutaxassis bilan bolaning holati haqida fikrlashganda ayrim hollarda o'zining intuitiv qarorlari to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini anglab qoladi.

Tan-vujud bilan ona va bolaning yaxlitligi o'ziga xos hissiyot bo'lib, u ko'pincha «xolding» (inglizcha «tutish», «ushlash» so'zidan olingan) tajribasidan kelib chiqadi. Ya'ni, ona o'z bolasini qo'lida ushlab, badani badaniga tekkanda his qiladigan kechinmalari orqali boladagi o'zgarishlarni tuyadi, his qiladi. Vinnikott degan olimning fikricha, «xolding» tajribasi yaxshi bo'lмаган onalarning shaxsiy muammolari ko'p bo'lib, ular bolani qo'lida ushlaganda ham deyarli hech nimani his etmaydilar. Ana shunday chaqaloqlarda keyinchalik ixtiyoriy psixik funksiyalar rivojida muayyan muam-

molar bo'lishi mumkin, masalan, ixtiyoriy ravishda diqqatni bir narsaga to'plash, ixtiyor holda u yoki bu narsani eslab qolish, gapirish, mantiqiy fikrlash va shunga o'xhash.

Gapirish, nutq faoliyati bilan bog'liq psixik funksiyalar ko'pincha *sinxronizatsiya* jarayonida shakllanadi. Bolasini suyib, uning his-kechinmalarini bilish qobiliyatiga ega bo'lган ona odatda, farzandining psixik rivojlanishida barcha qiliqlarini, ulardan qanday foydalanish malakalarini orttirib boradi. Masalan, bolada ba'zan shunday holat bo'ladiki, unda onaga bola bilan faol kommunikativ faoliyatni amalga oshirish noqulay bo'ladi, go'dak injiqlik qilib hech narsaga ko'nmay qoladi, buni sezgan ona bolaga gapiravermay, jimgina toza havoda sayr qildiraversa, ma'lum vaqt o'tgach, farzandidagi charchoq yoki boshqa sababli paydo bo'lган holat o'tib ketadi, u yana jonlanib, onaga talpinadi, u bilan muloqotni davom ettiradi. Shuni inobatga olmagan holatlarda kommunikativ omadsizlik (Vinnikott) sodir bo'ladi, buning oqibatlari psixologiyada yaxshi o'rganilgan.

Boladagi kognitiv rivojlanish, ya'ni fikrlar tarbiyasi, dunyoqarashlarning shakllanishiga ham onaning xulq-atvori katta ta'sir etadi. Ingliz olimlarining kuzatishlarida (U.R. Bion) onaning har bir harakati, mimikalari bolaning tepasida turib, unga qiladigan muomalasi, erkalashlari bora-bora bola o'zlashtiradigan alohida iboralar, so'zlarda namoyon bo'ladi. Video tasmalarda shu narsa namoyon bo'lganki, onaning qiliqlari tobora bolaning nutqli-nutqsiz, mantiqiy-mantiqsiz harakatlariga, ishoralariga aylanib boradi, keyinchalik bola alohida so'zlarni talaffuz qila boshlaganda ham beixtiyor onaning mimikalari, talaffuz uslublarini qaytaradi. Shu tariqa onaning bevosita ishtiroki va yordamida bola dunyonи taniydi, o'rganadi.

Olamni ona orqali bilishga imkon beruvchi psixologik holatlardan yana biri – bu hissiy-emotsional bog‘langanlikdir. Ingliz psixiatri Jon Boulbi tomonidan ishlab chiqilgan, turli hayotiy vaziyatlarda ona-bola munosabatlarida M. Eynsvort degan olima tomonidan tekshirilgan emotsiyal **bog‘langanlik nazariyasi** odatda, yetti oylikdan keyingi bolaning onaga juda bog‘lanib qolishi va shu orqali bola uchun muhim psixologik rivojlanishlar ro‘y berishini isbotlagan. Masalan, 12 oylikdan 18 oylikkagacha bo‘lgan bolaning onasidan 3 minutga ayirib turib qayd etilgan xulqiga qarab, olimlar hissiy bog‘langanlikning 4 xil shaklini ajratishgan:¹

- *ishonchli bog‘liqlik.* Bola bunday sharoitda onasini ishonch bilan qidiradi, atrofni o‘rganadi; ketib qolganini sezaboshlagach, tushkunlikka tushadi, hafa bo‘ladi, onasi qaytgach, uni zo‘r xursandchilik bilan kulib kutib oladi, onasiga talpinadi;
- *chetlashuvchi bog‘liqlik.* Onasi ketib qolganligini bilgach, atrofqa qaraydi, qidiradi, lekin ona qaytgach, unga talpinishi minimal bo‘lib, hattoki, teskari qarab ham oladi, o‘yinchoqlarini o‘ynashda davom etaveradi;
- *avbivalent bog‘liqlik.* Onasi ketgach, go‘yoki qotib qolganday depressiyaga tushadi, o‘ynamaydi ham atrofqa qaramaydi ham; onasi qaytgach, onasiga talpinmaydi ham, undan qochmaydi ham. Uning hafaligini ham, xursand ekanligini ham anglash qiyin bo‘ladi;

¹ Калмыкова Е. С., Падун М.А. Ранняя привязанность и ее влияние на устойчивость к психической травме: Постановка проблемы (Сообщ. 1) // Психологический журнал. 2002. Т. 23, № 5.

– *tartibsiz bog'liqlik*. Bolada onaga nisbatan bog'liqliknii kuzatish qiyin, go'yoki bolaga barcha narsa befarqday, qiliqlarda mantiqni kuzatish mushkul.

R.J. Muhamedraximov (1998) o'z tadqiqotlarida «xavfsiz bog'liqlik» atamasini ishlataladi. Bunda ona-bola munosabatlari juda tekis, ravon, bir-biriga monand, samimiy kechadi. Oila muhitida, yaxshi ijobiy munosabatlar doirasida kechgan bog'liqlik bilan ota-onasiz o'sgan yetimxonadagi bolalardagi bog'liqlik o'r ganilganda, ayni xavfsiz bog'liqlik borasida ular o'rtasida katta tasovut borligi isbotlangan¹.

Shunday qilib, onaning bolani normal psixik taraqqiyotida roli ulkan. Bu ta'sir bolaning chaqaloqlikdan keyingi davrlarida ham o'z kuchini saqlab qoladi.

Onalik xulq-atvorining shakllanishi. Olimlar ontogenetik taraqqiyot davrida yaxshi ona bo'lishga sabab bo'lувchi qator omillar qatorida qiz bolaning o'z onasi bilan yoshligidan boshidan kechirgan muloqot tajribasini, oilasida onaga va onalikka munosabat xususiyatlarini, o'z oilasida kichkina bolalar bilan muloqot tajribasi borligini inobatga oladilar (Filippova G.G., 1999)².

Bu jarayonda qizchaning ona tomonidan qanday tarbiyalanganligidan tashqari, muayyan madaniy manbalar bilan tanishligi ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, onasidan qanday ertaklar eshitgani yoki qanday o'yinchoqlar o'ynagani bevosita uning kelajakda qanday ona bo'lishiga ta'sir etadi. Masalan, yoshligidan mehribon ona haqida eshitganlarini,

¹ Авдеева Н.Н., Хаймовская Н.А. Зависимость типа привязанности ребёнка к взрослому от особенностей их взаимодействия (в семье и Доме ребёнка) // Психологический журнал. 1999. Т. 20, № 1.

² Филлипова Г.Г. Материнство: Сравнительно-психологический подход // Психологический журнал. 1999. Т. 20, № 5.

ertak holida bo'lsa ham yovuz kampirlar, yalmog'iz ayollar, o'gay onalar haqida eshitganlari bilan to'g'ri solishtirish tajribasi bor qiz o'zining istiqboldagi harakatining yo'nalishini belgilab olishi mumkin. Yoki qo'g'irchoqlarni erkalatishi, onasiday g'amxo'rlik qilishi ham ijobiy tajriba, lekin ming afsuski, hozirgi paytda ishlab chiqarilayotgan «barbi» kabi qo'g'irchoqlar qizchalarda onalikni emas, ko'proq ayollik fazilatlarini, oliftachilikni tarbiyalaydi. Zamonaviy ertaklarning ayrimlarida ham tarbiyaga zid keladigan sujetlar ko'p. O'zbeklar suyib ko'radigan multfilmlar, masalan, «Zumrad va Qimmat» ertaklarini ham agar ona to'g'ri sharhlasama, bola ongida noto'g'ri tasavvurlar shakllanib qolishi, o'gay onaning albatta johil, otaning hamisha bo'ysunuvchanligi to'g'risidagi chalkash tushunchalar paydo bo'lishi mumkin.

Onadagi tug'uruqdan keyingi depressiya – chaqaloq tug'ilgandan keyinoq ayrim onalarda paydo bo'ladigan ruhiy holat. Bu o'ziga xos xastalik bo'lib, uning oldini olish uchun ko'p harakatlar qilinmoqda, chunki bunda ham psixologik omillarning roli katta. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, agar oilada er-xotin munosabatlari yaxshi bo'lmasa, otaning bolaga e'tibori yetarli bo'lmasa vaziyatlarda, onaga amaliy hamda moliyaviy ko'mak berish yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, shu kabi qiyinchiliklar onada depressiyani hosil qiladi (Rodrigues et al., 2003).

Onalik deprivatsiyasi. Onalik deprivatsiyasi ochiq (agar ona o'z onalik burchini bajarmay, boladan ayrılgan bo'lsa) va yashirin (boladan yashirin voz kechish, uni yoqtirmaslik yoki biror sabab tufayli bolaga yaqin kela olmaslik holatlarida) bo'lishi mumkin. Ikkala holatda ham bola taraqqiyoti uchun nihoyatda salbiy, xavfli vaziyat yuzaga keladiki, ayrim hol-

larda bola hattoki, nobud ham bo'ladi. Masalan, chaqaloq tug'ilgach, xasta bo'lgani uchun uning uzoq vaqt mobaynida kasalxonada qolishi ham onalik deprevatsiyasiga sabab bo'ladi. Bu orada unda onalik mehri uyg'onmaydi, u yangi chaqaloqqa befarq bo'lib qoladi. Buning oqibatlari qanchalik og'ir bo'lishi onaning yoshiga va ayriliqning muddatiga bog'liq. Agar shunga o'xshash holatni boshidan kechirgan ona juda yosh bo'lsa, unda bolaning psixik taraqqiyotida jiddiy asoratlar qoladi, u o'z xulq-atvorini nazorat qila olmaydigan, jizzaki, odamovi, jinoyatga, hattoki, o'z joniga qasd qilishga ham moyilligi yuqori bo'lib voyaga yetadi.

Ona bolaning yonida bo'la turib, undan yashirin tarzda voz kechgan holatda ham bolada nevrotik xususiyatlar rivojlanadi, ayniqsa, bola shaxslararo munosabatlarda no'noq, urushqoq bo'lib, qarorlar qabul qilishda qiynaladi, ijtimoiylashuv jarayoni nihoyatda murakkab kechadi. Ko'rib turganimizdek, onaning bolaga psixologik yaqinligi uning istiqbolini, shakllanajak ijobiy fazilatlari, jamiyatdagi o'rni va nufuzini belgilovchi muhim omildir.

Otalik psixologiyasi onalik psixologiyasiga nisbatan kam o'rganilgan soha. Otalar xulqini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ular ham g'amxo'rlik va samimiylit jihatidan ayollardan kam emas, kerak bo'lsa, ulardan ham mehribon bo'lishlari mumkin. Dastlab ota ham, ona ham bolaga nisbatan bir xil mehribonlik timsolida namoyon bo'lgani uchun, ular o'rtasidagi farqni chaqaloq deyarli his etmaydi. Bir yoshga to'lgach, bola otasini alohida mustaqil shaxs sifatida idrok eta boshlaydi, o'zaro munosabatlar triada shakliga o'tadi. Otasi va onasining o'zaro munosabatlarini kuzatib, bola tobora ayrim alohida olingan mustaqil, distansion munosabatlarning ma'nosini tushuna boradi.

Godfruaning olgan natijalariga ko‘ra, bir yoshlik bola otasi bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarni qadrlaydigan, xohlaydigan bo‘lib boradi. Onaning munosabatlaridan farqli, ota bolasining jinsiga qarab o‘ziga xos munosabatni o‘rnata oladi; o‘g‘il bolaga erkaklarcha, qiz bolaga boshqacha. Shu tariqa bolaning o‘z jinsini anglashi, gender tafovutlar to‘g‘risida tasavvurlar shakllanadi. Umuman, oilada otaning bo‘lishi bolaning ijtimoiy ko‘nikmalari shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Buni bizning kuzatishlarimiz ham tasdiqlagan. Otaning mehri qiz bola uchun ham shu qadar muhimki, u ota-onas munosabatlarini hayoti mobaynida kuzatib borib, kelajakda o‘z turmush o‘trog‘iga qanday munosabatda bo‘lishi lozim, degan savolga javob topadi. Ona xulqiga qarab esa, turmush o‘rtog‘i bilan baxtiyor yashash uchun ayol qanday bo‘lishi kerak, degan savolning mag‘zini chaqadi. Shuning uchun ham qiz bola uchun ham, o‘g‘il bola uchun ham oilaning butligi, ota-onas munosabatlarining iliq, samimiyl, gumanistik bo‘lishi katta hayotiy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston mahallalarida tashkil etilib, faoliyat ko‘rsatayotgan «Oila dorulfununlari» joylarda aholi ongiga huquqiy madaniyat va ma’naviyatni yetkazishning real mexanizmlardan hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash dolzarb vazifa ekan, nikoh oldi o‘quvlari – «Oila dorulfununi» kursini tashkil etish, unga bo‘lg‘usi er-xotinlarni – nikohga ariza bergen kelin-kuyovlarni jalb etish eng muhim ishlardan biri hisoblanadi.

Bunday maqsadlarni amalga oshirishda FXDYo xodimlari va joylardagi «Oila» Markazlari xodimlari oldida turli vazifalarni amalga oshirishdek mas’uliyat turadi.

Birinchidan, FXDYo xodimlarining o‘zlari dasturdan xabardor bo‘lish bilan birga, uning mazmun mohiyatini puxta egallagan bo‘lishlari lozim.

Ikkinchidan, yoshlarni o‘quv kurslariga jalb etish kabi ishlarni to‘g‘ri tashkil etish, ularga kursning afzallik tomonlarini uqtira bilish.

Uchinchidan, bo‘lg‘usi kelin-kuyovlar kursni o‘zlashtirishga ongli yondoshishlari uchun targ‘ibotni kuchaytirish, har bir mashg‘ulotni mutaxassislarni jalb etgan holda, ma’lumotlarni qiziqarli tarzda, hayotiy misollar bilan yetkaza olish.

«Oila dorulfununi» kursi mohiyati va mazmunini FXDYo xodimlariga to‘g‘ri yetkazish, dasturning mazmuni va undagi tematikani yoshlar ongiga yetkazish uslubi bilan tanishtirish Respublika yuristlar malakasini oshirish instituti va Respublika «Oila» markazi hamkorligida tashkil etilgan. Yil davomida institutda tashkil etilgan FXDYo xodimlarining malaka oshirish kursiga jalb etilishi va «Oila» Markazi xodimlari tomonidan ushbu kurs tinglovchilariga o‘qilayotgan ma’ruzalar, olib borilayotgan amaliy mashg‘ulotlar puxta va zamonaviy uslublarda yetkazilmogda.

Ma’lumki, oila va nikohning muqaddasligini yoshlar ongiga singdirish ularda oila va nikohning mustahkamlanish omili bo‘lib xizmat qiladi. Ajrimga sabab bo‘layotgan, oiladagi arzimas muammolarni hal eta olmaslik yoki kelin-chakning qaynona, qayinegachilar bilan chiqisha olmaslik, uyda saranjom-sarishtalik masalasining yetishmasligi kabi muammolar yoshlarni oilaviy hayotga hali tayyor emasliklaridan ushbu muammolarni ro‘kach qilib oiladan ketayotan yoshlar ko‘paymoqda. Ularda «Oila-nikoh» deb atalmish

muqaddas tushunchalarni shakllanmaganligidan dalolat beradi. Hayotda uchraydigan o'tkinchi qiyinchiliklarni esga olmasligi, hattoki bola tarbiyasi, uning mas'uliyati, burchi singari vazifalarni bajara olmagani sababli, yengilgina oiladan voz kechishga olib kelmoqda.

«Ota-onalar universiteti» – ota-onalarni bola tarbiyasi ilmidan voqif qiluvchi, sog'lom turmush tarzi, madaniyatini shakllantiruvchi, ayollarda tibbiy, huquqiy savodxonlikni va yosh kelin-kuyovlar malakasini oshiruvchi maktab hisoblanadi. U 2001-yil «Ona va bola yili» Davlat dasturida tashkil etilishi belgilangan, Respublika «Oila» ilmiy-amaliy Markazi, Respublika «Mahalla» jamg'armasi va Ma'naviyat-ma'rifat Markazlari tomonidan tavsiya etilgan va tasdiqlangan dastur asosida mahalla tarkibidagi o'qitiladigan dargoh. Mazkur dastur 36 soatga mo'ljallangan. Uning tinglovchilari mahallada istiqomat qilayotgan ota-onalar, yosh kelin-kuyovlar, oila qurish bo'sag'asida turgan o'smirlar bo'lib, yoshi, jinsi, ma'lumoti hisobga olinib, guruhlarga ajratilgan holda tashkil etiladi. «Ota-onalar universiteti» oldin maktablar qoshida tashkil etilgan «Ota-onalar universiteti»dan o'zining mazmun mohiyati, tinglovchilar tarkibi va belgilangan vazifalari bilan keskin farq qiladigan targ'ibot mexanizmi hisoblanadi.

Uning voizlari mahallada istiqomat qiladigan huquqshunos, tibbiyot xodimi, psixolog, pedagog va iqtisodchilar yoki tashqaridan taklif etilgan mutaxassislar bo'lishi mumkin. Universitetga rahbarlikni mahalla oqsoqoli va xotin-qizlar ishi bo'yicha komissiya raisi, tashkiliy ishlarda mahalla maslahatchisi, profilaktik inspektor zimmasida bo'ladi.

Har bir guruhni 15–18 tadan tinglovchi tashkil etadi. Tinglovchilarning bo'sh vaqtiga qarab (nafaqadagilar, bola

tarbiyasi bilan band onalar, homilador ayollar, yosh kelin-kuyovlar) guruh tuziladi.

Albatta, mashg'ulot o'tkaziladigan joy ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ularning zerikmasligi, mashg'ulotlardan bezimasligi, har bir mashg'ulotni qiziqarli o'tishini ta'minlash Universitet rahbariga, uning tashkilotchilik qobiliyatiga ko'p jihatdan bog'liq.

Mashg'ulotlar ketma-ketligi muhim rol o'ynaydi. Chunki har bir mavzuni tinglovchining ongiga yetkazish uchun mavzularni bir-biriga bog'lanib ketishi alohida mazmun kashf etadi. Shuningdek, voizning metodik jihatdan boy tajribaga ega bo'lishi, uning amaliyotdagi tajribasi, ko'proq hayotiy misollar bilan mashg'ulotni olib borishi tinglovchilarda ko'proq qiziqish o'yg'otadi.

Bizningcha guruhlarni jinsiga qarab guruhlansa yanada samaraliroq bo'ladi. Chunki ma'ruzalarimiz mavzulari jins tarbiyasi bilan bog'liq bo'lganligi sababli ko'p narsalarni pardalik qilib, hayo bilan oshkora gapirmaslikni talab etadi. Shuning uchun ma'ruzachilarni ham jinsiga qarab belgilash lozim bo'ladi.

Bugungi kunda oila mustahkamligida yoshlarni nikoh oldidan tibbiy ko'rikdan o'tishlari ham muhim rol o'ynaydi. Eng avvalo, yoshlarni tibbiy ko'rikdan ixtiyoriy o'tishlariga xohish bildirishi ularning qanchalik huquqiy madaniyatga ega ekanligini belgilaydi. Chunki «Oila» kodeksining 17-moddasida tibbiy ko'rikdan o'tish ixtiyoriy deb belgilangan. Ammo Vazirlar Mahkamasining 365-Qarori bilan ularni tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart deb belgilab qo'yildi. Ikki yosh turmush qurar ekan ikkalasining ham tibbiy salomatligiga baho ularning oila qurishi mumkin yoki aksi

ekanligini belgilab beradi. Yoki ma'lum muddatga turmush qurishi kechiktiriladi. Ular sog'lig'ini tiklagandan so'nggina nikohdan o'tishga haqlidirlar. Ushbu tizim orqali befazandlik, chaqaloqlar o'limi, onalar o'limi, tug'ilishdan keyinги asoratlar, nogironlik kabi illatlarning oldi olinishi bilan birga qarindoshlik rishtalari uzilmaydi, ajrimlar oldi olinadi, bolalar yetim bo'lib qolmaydi va nihoyat jamiyatga iqtisodiy zarar yetmaydi.

Hozirgi kunda joylardagi barcha shifokorlik punktlarida o'smir qizlarni ginekolog ko'rigidan o'tkazish uchun «o'smir gnekologi» shtat birligi joriy etilgan. Ammo ota-onalar ixтиoriy ravishda o'z qizini ushbu shifokorga olib borishi hamon ko'ngildagidek emas. Sababi, mahallada yoki qo'ni-qo'shnilar gap qiladi degan fikrga borishadi. Ammo ota-ona o'z farzandini sog'lig'ini o'ylab, uning kelajagi uchun qayg'ursa qo'ni-qo'shnining gap so'ziga e'tibor bermaydi. Buning uchun mahalla va muassasalarda, o'quv dargohlari, ayniqsa maktablarda ilmiy asoslangan, ta'sirchan targ'ibotni kuchaytirish zarur.

Shunday qilib, ota-onalar savodxonlik tushunchasi keng qamrovli bo'lib, uning shakllantirishning omillari xilma-xildir. Oilaning har bir a'zosi ongiga Oila Kodeksining mazmun-mohiyatidan tortib, er-xotin va farzandlar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni yetkazishda yangicha texnologiyalarni, yangi ish uslublarini joriy etish – davr talabidir. Shunday aniq vositalardan biri – joylarda tashkil etilayotgan «Ota-onalar universitetlari» bo'lib, ularning ish uslublari va samarali faoliyatini ilmiy asoslash tahlil etilayotgan loyi-haning vazifalaridan biridir.

Huquqiy targ‘ibotning predmetlaridan yana biri – yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘lib, ushbu maqsadni amalga oshirish uchun loyiha doirasida yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilik holati va uning oldini olishda otonalar va o‘sib kelayotgan avlod huquqiy madaniyatini shakllantirishdir.

Yuqorida bayon etilganlarning barchasi oila, uning mustahkamligi, barqarorligi, xotin-qizlarga bo‘layotgan e’tibor va ularning jamiyatdagi tutgan o‘rnini belgilab beruvchi asoslardir. Shunga ko‘ra hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, oila – fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasi, tayanch tuzilmasidir. Chunki bu muqaddas dargohda nafaqat inson dunyoga keladi, balki u ma’nан va axloqan tarbiya topadi. Shu bois ham biz amaliy tadqiqotimiz doirasida shahar va qishloq ayollari huquqiy savodxonligini oshirishga imkon beruvchi omillarni o‘rganib, mavjud muammolar tahlili asosida kompleks dastur uchun ilmiy asoslangan dalillar majmuyini qo‘lga kiritdik.

«Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo‘lishi huquqiy davlatning o‘ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. Shu bilan birga huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ huquqiy hujjalarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ro‘yobga chiqadi» – deb ta’kidlaydi Prezidentimiz I. A. Karimov.

Jamiyatimizda demokratik istohotlarni chuqurlashtirish fuqarolarning, jumladan, xotin-qizlarning huquqiy faolligi uchun sifat jihatidan yangicha shart-sharoitlar yaratibgina qolmay, shu bilan birga huquqiy tarbiya mazmunida, uning shakl va usullarida jiddiy o'zgarishlar yasashni ham taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov 1997-yil 20-mayida huquqni muhofaza qiluvchi muassasalar rahbarlari, huquqshunos olimlar, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda so'zlagan nutqida hamma fuqarolar ham yetarli darajada huquqiy ongga ega emasliklari, axborot olishda ijtimoiy faollik ko'rsatmayotganliklari, respublikada jamiyatning har bir a'zosi huquqiy bilimlarning hech bo'limganda eng asosiyalarini o'zlashtirib olishi uchun hamda aholi turli ijtimoiy guruhlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan huquqiy maorif uchun amaliy mexanizm yaratilmaganligi, mansabdar shaxslar tomonidan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari kam-sitilishi hollari ko'pincha huquqiy bilimlarning yetarli emasligi, huquqiy madaniyat darajasi pastligi tufayli yuz bera-yotganligini ta'kidlab o'tdi. Xuddi shu sababga ko'ra huquqlari kamsitilgan fuqarolar aksariyat hollarda o'z huquqlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan mexanizmidan, shu jumladan, mansabdar shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari va qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatlaridan foydalanmaydilar. Aynan huquqiy madaniyatning yetarli emasligi ayrim fuqarolarning jumladan, ayollarning ijtimoiy faolligi past darajada bo'lishining asosiy sabbidir.

Demokratik jamiyatimiz fuqarolarini huquqiy bilimli qilish, huquqiy madaniyat darajasini oshirish uchun huquqiy targ'ibot ishlarini keng yo'lga qo'yishlik lozim bo'ladi. Huquqiy targ'ibot kishilar ongiga mavjud qonunlarning ma'no-mazmunini singdirish va uni hurmat qilish, amal qilishga undovchi harakat deb tushunish mumkin. Ushbu harakat natijasida fuqarolarda huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyatni shakllantirish mumkin bo'ladi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida huquqiy targ'ibotning muayyan tizimi yaratilgan. Bu ishlar asosan radio, televiedeniya, huquqiy nashrlar, shuningdek, turli uchrashuv, davra suhbatlari orqali amalga oshirilmoqda. Ular asosida maxsus eshittirish va ko'rsatuvlar, ruknlar tashkil etilgan. Har bir eshittirish va ko'rsatuvlar hayotiy misollar asosida tashkil etilmoqdaki, bu ommani o'ziga tez jalb etmoqda.

Aholi bilan yuzma-yuz uchrashuvlar va davra suhbatlari jonli muloqot shaklida uyuşhtirilishi, ularni ko'plab savollariga javob olishlari bilan birga, huquqni himoya qiluvchi organ xodimlari bilan yaqinlashuvni, ularni faqat jazolovchi shaxs emas, balki xalq manfaatini himoya qiluvchi shaxs sifatida qarashga ham undovchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Targ'ibot qanday ko'rinishda bo'lmasin, kishi ongi, dunyoqarashi kaliti hisoblanadi. Shunday ekan aholida huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyatni shakllantirishda targ'ibotdan unumli va samarali foydalanish zarur. Huquqiy savodxonlik xoh u yosh, xoh u keksa bo'lsin yoki jinsidan qat'i nazar, o'z huquq va burchini anglash, kelajak hayoti uchun zarur bo'lgan huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lish, bosh qonundan tortib, qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyatini tushunib yetish, fuqarolik va turli huquqiy ko'r-

satmalarni bilish, huquqiy targ'ibotlarni qanday ko'rinishi bo'lmasin uni tahlil qila olish, o'z huquqini himoya qila olishida namoyon bo'ladi. Bu esa qonunni buzish nechog'lik xatoligini, unga nisbatan doimo hurmatda bo'lish kerakligini tushunishga olib keladi.

Lekin targ'ibot-tashviqot uslublari yangicha noan'anaviy ilmiy-huquqiy asosga qurilsa, ularning samaradorligi bir necha barobar oshadi. Oilada huquqiy savodxonlikni oshirishda esa o'ziga xos yondashuvlar va targ'ibot uslublarining bo'lishi lozimligi ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan. Vaholanki, aynan oila doirasida turli ko'rinishdagi huquqiy nizolar vaziyati namoyon bo'ladi. Ayniqsa, oilada er-xotin munosabatlari yoki oila a'zolarining o'zaro munosabatlari natijasida sodir etilgan nizolar sababli, qo'ydi-chiqdi, uy-joy, mol-mulk, meros talashish kabi oqibatlar tez-tez paydo bo'ladiki, bu holat oila a'zolarining nafaqat huquqiy savodsizligi, balki ma'naviyatsizligidan ham dalolatdir. Bu ayniqsa aka-uka, er-xotin, ota-bola o'z huquq va burchlarini yoki mas'uliyatlarini tushunib yetmasliklari natijasida oila a'zolari o'rtasida anglashilmovchilik va kelishmovchiliklarni paydo bo'lishiga olib keladi. Natijada, idorama-idora yugurish, arizalar bilan mu-rojaat qilishlar soni ortib boradi.

Hayotda huquqlari paymol bo'lganligi sababli paydo bo'ladigan muammolar ko'p. Ayollarimiz aynan shunday muammolarga duch kelganda kimga murojaat qilinishini aniqlash maqsadida olib borilgan tadqiqotimizga ko'ra quyidagilar aniqlandi: 1-gistogrammaga qaralsin.

Shuningdek, ayollar o'rtasida qonunlarni bilish malakasi qay darajada ekanligini aniqlash uchun «Qaysi qonunlarni bilasiz?» deb murojaat qilinganda, respondentlarning asariyat

qismi – 55,8 % i «bilmayman» degan javobni berishdi. 1–gistogrammaga qaralsin.

Demak, aholining qonunlarni bilish darajasini past, deb baholash mumkin.

Qonunlarni keng xalq ommasiga tushuntirib bermasdan ularning mohiyatini har bir fuqaroning ongiga singdirmasdan turib, huquqiy savodxonlikni yuksaltirish mumkin emas. Qonun ustuvorligining ta'minlanishida oilaning har bir a'zosini qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash, har bir shaxsda qonunga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantirish, fuqarolar, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning huquqiy savodxonlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratishi joiz.

Bugungi kunda ayollar uchun qator imtiyozlarni o'z ichiga qamrab olgan Prezident Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, hukumat qarorlari e'lon qilindi va amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz I.A. Karimovning «Xotin-qizlarga munosabat jamiyatimizning ma'naviy, axloqiy yetukligining o'lchovi bo'lib xizmat qilishi kerak», degan so'zları mag'zida behad katta ma'no, qolaversa, ulkan vazifa yotibdi. Ana shulardan kelib chiqqan holda, biz xotin-qizlarimizning huquqiy bilimlarini oshirish uchun kuchlarimizni birlashtirishimiz lozim. Shundagina qad rostlayotgan huquqiy davlatchiligidizda o'zbek ayolining boy intellektual ijodiy quvvatidan ham to'la foydalanish imkoniga ega bo'lamiz.

Xotin-qizlarimizga ilm-fanda, ma'rifat va ta'lim-tarbiyada o'z faoliyklarini namoyon qilishlariga ko'maklashish, ijodiy izlanishlari uchun moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar yaratib berish, ularni zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishga da'vat etish zarur. Ayollarning shaxsiy tur-

mushidagi zo'ravonlik muammosi jamiyat va davlat tomonidan e'tiborni talab etadi. Bu muammo faqat bizning davlatimizda emas balki mustaqil hamdo'stlik davlatlarida va boshqa rivojlangan davlatlarda ham o'z yechimini topmagan va uni hal qilish yo'llari ko'rsatilmagan. Amerika va Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida mazkur muammolarni hal qilishga kirishildi. Ular 10–15 yil muqaddam masalaning muhimligini anglab, ayollarni turli zo'ravonlikdan muhofaza qilish to'g'risida tegishli qonuniy hujjatlar qabul qildilar va jabrdiyda ayollarga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus ijtimoiy xizmat sohalarini tashkil etdilar. Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonliklarning sodir etilishi inson huquqlarini jiddiy buzilishiga olib keladi.

Ayollarga nisbatan uchraydigan zo'ravonliklarning eng ko'p shakllariga ularni birga yashashga, fohishalik qilishga majburlash, nomusga tegish, zo'ravonlik qilish va spirtli ichimlik, giyohvandlik moddalar iste'mol qildirish, munta-zam xo'rash va ruhiy ta'sir ko'rsatish hamda boshqa yo'llar bilan o'limga olib borish kabilar kiradi. Tajriba ko'rsatadiki, bunga oilada bo'lib turadigan uzoq davomli janjallar ham sabab bo'ladi.

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, ayollarga nisbatan zo'ravonlik jahondagi barcha mamlakatlarga, ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotidan qat'i nazar, mavjud holat hisoblanadi. Hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham shunday holatlarni kuzatish mumkin. Masalan, Yaponiyada 59 foiz ayol jismoniy zo'ravonlik qurboni bo'ladilar. AQShda 40 foiz, Kanadada 25 foiz va hakozo. Sotsiologlar xulosasiga ko'ra, 60 mln. ayol turli shakldagi kamsitilish, tahqirlash va zo'ravonlik qurboni bo'ladilar. Afrika mamlakatlarida (Tan-

zaniya 60 %), Janubiy Osiyo (60 %), Lotin Amerikasida (57 %) ayollarga nisbatan zo'ravonlik kuchayib borayotganligini ko'rish mumkin. Zo'ravonlik natijasida juda katta iqtisodiy zarar ko'rildi, ayollarning ish joyida mehnat unumdorligi kamayadi, oilaning ma'naviy-axloqiy tomoniga, uning normal rivojlanishiga tiklab bo'lmas darajasida zarar yetadi.

Ayollarning haq-huquqlari davlat hududining barcha qismlarida, xoh qishloqda bo'lsin, xoh shaharda birday ta'minlanishi kerak. Ayol huquqlari har bir davlatning o'z qonunlari bilan tartibga solinadi.

Qonunchilik aktlarining mukammallahuvi ham har bir jamiyatning inson huquqlariga va ayniqsa ayol huquqlarini ta'minlashga bo'lgan xohish va intilishlariga bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib hozirgi kunda aholi uchun huquqiy targ'ibot nechog'li zarur ekanligini anglab yetish mushkul emas.

Respublikamizda huquqiy targ'ibot uchun dastlabki qadamlar mustaqillik yillarida qo'yildi. Huquqiy demokratik davlat qurilishi, qonunchilikni mustahkamlash va ijtimoiy adolat qaror topishini ta'minlash, ma'naviy va madaniy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, amalgalash, oshirilayotgan islohotlarni yangi mazmun bilan boyitish, aholining huquqiy bilim va ongini yuksaltirish kabi maqsadlarni ko'zlab chiqarilgan Prezidentning 1997-yil 19-iyundagi «Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida»gi Farmoni asosida tashkil etilmoqda. Shuningdek, Prezidentimizning 1997-yilning 20-mayida huquqshunos olimlar, huquqni muhofaza qilish organlari rahbarlari va

ommaviy axborot vositalari vakillari bilan shu kunnning dolzarb huquqiy muammolari xususida o'tkazilgan uchrashuvi mazkur yo'nalishdagi ishlarning jonlanishiga turtki bo'lib xizmat qilmoqda.

Qonunlar, farmonlar va hukumat qarorlarining mohiyatini chuqur anglab yetish, barcha harakatni xalqning huquqiy ongini shakllantirishga qaratish shu jihatdan ahamiyatligi, uning vositasida jamiyatning huquqiy madaniyatini ko'tarishga erishiladi.

Olib borilgan tadqiqotlardan kelib chiqib quyidagilarni ta'kidlash lozim:

Birinchidan, qishloq sharoitida istiqomat qiluvchi oilalarda huquqiy savodsizlikni tugatish maqsadida, ularni qiziqtiruvchi va ko'proq muammolarga sabab bo'luvchi huquqiy mavzularda dastur va tavsiyalarni maxsus uslublarini yaratish va umuman qonunchilikdagi yangiliklar, xususan, yoshlar va ayollar mehnatini himoya qilish sohasidagi qayd etilgan me'yoriy hujjatlarni o'z vaqtida aholiga ma'lum qilishni katta e'tibor bilan amalga oshirishga erishish lozim bo'ladi.

Ikkinchidan, oilada ayollar va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, ayniqsa, ular tomonidan o'g'rilik va giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarning ko'plab sodir etilishi ayanchlidir. Buning asosiy sabablaridan biri esa oila a'zolarining, o'smir yoshlar va ayollarning huquqiy saviyasining pastligiga borib taqaladi.

Uchinchidan, huquqiy saviyani faqatgina zamonaviy dunyoviy huquqiy asoslarga tayanib emas, balki, musulmon huquqi manbalari va shariat ilmi asosida ham oshirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda oila a'zolari ongiga yetkazilishi lozim bo'lgan eng muhim qonuniy hujjatdan biri Nikoh shartnomasidir, ayniqsa, uning er-xotin o'rtasidagi mulkiy munosabatlarga oid bandlarining ma'nosini tushuntirish. Ma'lumki, mustaqil Respublikamizda yangi Oila kodeksi loyihasini tayyorlashda er-xotin mulkining qaysi biri qonuniy degan masala tug'ildi. Shuni hech qanday shubhasiz birgalikdagi umumiyligida eng maqbul deb topildi.

Er-xotinning qonuniy mulk tartibining mavjudligi er-xotinning nikoh shartnomasi tuzishlari maqsadga muvofiqligi anglatadi. Lekin statistik ma'lumotlar shundan dalolat beradi, nikoh shartnomasini aksariyat aholi tuzayotgani yo'q, bu holat ko'proq mahalliy aholi vakillariga xos.

Er-xotinning birgalikdagi umumiyligida mol-mulkiga shartnomaviy munosabatlar tatbiq etilishi umumiyligida Fuqarolik kodeksining 216-moddasi 1-bandida belgilangan. Oila huquqining me'yorlari esa ularni har taraflama kengaytirib bergen: nikoh shartnomasining huquqiy tabiat; uni tuzish shakli; nikoh shartnomasining mazmuni; uni o'zgartirish, tasarruf etish, haqiqiy emas deb topish asoslari.

Nikoh shartnomasi mazmunining asosiy elementi er-xotin mulkining huquqiy tartibini belgilashdan iborat. Nikoh shartnomasi bilan belgilangan bunday tartib, er-xotin mulkining shartnomaviy tartibi deb ataladi.

Nikoh shartnomasi tartibini belgilashda er-xotinlarga juda keng huquqlar beriladi. Nikoh shartnomasi er-xotinlar bir-birlarini moddiy ta'minlashlari yoki biri ikkinchisini moddiy ta'minlashini ko'rsatish huquqiga ega. Shartnomada belgilangan shartlar aliment majburiyatining umumiyligida qoldilariga mos kelmog'i lozim. Xususan, muomalaga layoqatsiz

er yoki xotinning huquqlari buzilmasligi lozim. Ammo nikoh shartnomasida qonun bo'yicha aliment olish huquqiga ega bo'limgan er yoki xotinga aliment to'lash belgilanishi mumkin. Birinchi navbatda bu o'z xohishlari bilan, oila manfaatini o'ylab ish yoki o'qishni qoldirgan er-xotinlarga taalluqli bo'ladi.

Nikoh shartnomasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar muayyan muddat bilan cheklanishi mumkin (Oila kodeksi 31-moddasining 4-band). Masalan, ularning mulki bir yil davomida bo'lingan, bu muddat o'tishi bilan umumiy bo'lib qolishi to'g'risida kelishib olishlari mumkin. Nikoh shartnomasi bilan belgilangan er-xotinning huquq va majburiyatlari muayyan shart-sharoitning vujudga kelishi yoxud kelmasligiga ham bog'liq qilib qo'yilishi mumkin. Bu shartlar kechiktirish hamda bekor qilish shartlari bilan ham tuzilishi mumkin. Masalan, shartnoma tartibiga ko'ra mol-mulkning alohidaligini belgilagan er-xotin oilada bola tug'ilsa, umumiy tartibda hal bo'lishini ko'rsatishlari mumkin. Yoki er-xotindan bittasi o'qishi tamom bo'lishiga qadar ikkinchisi tomonidan moddiy ta'minlanishi shartini belgilash bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Har qanday fuqarolik huquqiy bitimlari haqiqiy bo'lishi uchun qanday shartlar belgilansa, nikoh shartnomasida ham shunday shartlar qo'yilishi mumkin. Subyektlar muomala layoqatiga ega bo'lib, ularning xohishi erkin ifodalanishi mumkin.

Ta'lim bilan qamrab olinmagan aholi qatlamiga oila ta'-limini yetkazish usullari.

Hozirgi kunda mamlakatimizda milliy istiqlol mafkarasiga muvofiq keladigan insonning ma'naviy dunyosini kamol toptirish dolzarb vazifa bo'lib qoldi. Chunki, ma'naviy

sohaga e'tibor berilmasa, unda insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ham inqirozga uchrab, manqurtlikka olib kelish xavfi vujudga keladi. Shuning uchun ham jamiyat ma'naviyatini barqarorlashtirish va uni rivojlantirish uchun har bir fuqaroning faoliyatida ijtimoiy-siyosiy va madaniy faollik ko'nikmalarini hosil qildirish va kamol toptirish ruhida tarbiyalash, har bir shaxsning jamiyat, davlat, millat va xalq manfaatini e'tiborga olgan holda ongli, ma'naviy, amaliy jihatlardan ezgu va hayrli ishlarga safarbar yetishilishiga qaratilmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Milliy g'oya bиринчи navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur»¹.

Milliy istiqlol g'oyasi, o'z nomi bilan xalq mustaqil ligining ifodasıdir. Butun insoniyat tarixida muayyan millatga xos umumiylar maqsadlarga xizmat qiluvchi bunyodkor g'oyalar bo'lganini ko'ramiz. Bunday ezgu g'oyalar asosida birlashgan kishilar o'z Vatanining iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy salohiyatini kundan-kunga yuksaltirib borishda faol ishtirok etganlar.

Hozirgi kunda mamlakatimiz aholisining hamma qatlamlarida mafkuraviy dunyoqarashni shakllantirish muhim masalalardan biridir. Mustaqil O'zbekistonimizning kelajagiga g'oyaviy asos bo'ladigan milliy mafkurani shakllantirish va yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy qadriyatlarimizga

¹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. T., «O'zbekiston», 1998. 15-b.

hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ru-hida tarbiyalash muhimdir.

Bugungi kunda milliy istiqlol g'oyasi, milliy mafkura targ'iboti bilan keng jamoatchilik shug'ullanmoqda, ayniqsa, ta'lif tizimida bir qator ilmiy manbalar, darsliklar yaratilib, o'quv jarayonlarida qo'llanilmoqda va yoshlarni o'z Vataniga sodiq, mard, fidoyi, yuksak ma'naviy fazilatlar egasi bo'lishga undalmoqda. Lekin mamlakatimizda ta'lif tizimi bilan qamrab olinmagan aholi ongi va shuuriga ham milliy istiqlol g'oyalarini singdirish zarurati bor. Ularga bu g'oyalarni yetkazishning qanday sharoitda amalga oshirish mumkin degan savolga, albatta, *oila* orqali deb javob berish mumkin.

Milliy istiqlol g'oyalarini ta'lif tizimi bilan qamrab olinmagan aholi ongiga ta'sirchan usullarda yetkazishning muhim vositasi sifatida oila omili alohida ahamiyatga molikdir. Inson ilk yoshligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyatlar va ma'naviy tarbiya amalga oshadigan muqaddas dargoh oiladir. Shuning uchun bu dargohda ma'naviy-axloqiy muhitni vujudga keltirish va u orqali shaxsni sog'lom g'oyalar ruhida tarbiyalash va mafkuraviy dunyoqarashni mustahkamlash davlat ahamiyatiga molik masaladir. Oila avlodlar vorisligini davom ettiruvchi maskandir. Bu dargohda milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, milliy an'analarimiz avloddan-avlodga meros bo'lib uzatiladi. O'zbek milliy oilalariga xos bo'lgan muomala madaniyati mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, halollik kabi tuyg'ular nafaqat tarbiya vazifasini o'taydi, balki insoniy fazilatlarni shakllanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbek oilalarining o'ziga xos milliy xususiyatlari mavjudki, bu odatlar yer kurrasining hamma yerida ham

topilavermaydi. Masalan, oddiy ovqatlanish madaniyatini olaylik. Hamma oila a'zolari jam bo'lgandan so'ng dasturxonga taom tortiladi, so'ng taomga birinchi bo'lib oilaning kattasi buva, buvi, ota ketma-ketligida taomga qo'l uzatiladi. Oddiy kundalik davom etadigan bu jarayonda ham kattalarni hurmat qilishga, sabr-qanoatli bo'lishga undaladi. Shuning uchun milliy istiqlol g'oyasini aholi ongiga singdirishni eng, avvalo, oiladan boshlash, oilaning etnopsixologik xususiyatlarini oila a'zolari ongiga sog'lom fikrlarni singdirishni doimo tadqiq kilish kerak.

Mamlakatimizda yana bir jamoatchilik markazi borki, bu ijtimoiy insitut orqali millatni o'rganish mumkin, bu *mahalladir*. Jamiyat qurilishi tizimini mustahkam poydevorini yaratishda mahallaning o'mni katta va bu o'zini-o'zi boshqaruv ijtimoiy tizim sifatida kishilarning turli xil faoliyatlarini, ulardagi tashabbuskorlikni va takliflarni inobotga olgan holda qonunlarni tezda amalga oshishini ta'minlaydi.

Mahallaning bugungi kundagi ijtimoiy holatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u **birinchidan**, oila muhofazasi, **ikkinchidan**, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, **uchinchidan** ijtimoiy himoyaga faol ishtirok etish, **to'rtinchidan**, ma'naviy va ijtimoiy huquqni shakllantirish, **beshinchidan**, siyosiy faollikni oshirish ya boshqa vazifalarni o'z ichiga qamrab oladi. Demak, mahalla-insonlar uchun tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan o'ziga xos maskandir. Shuning uchun bizning xalqimizning azaliy jamoa yashash tarzlaridan biri bo'lgan mahalla oqsoqollari, yig'inlar, to'y-hashamlar orqali milliy qadriyatlarimizni saqlab qolishga erishiladi. Insonlarni yaxshi kunida ham, tashvishli kunida ham mahalla joniga malham

bo'ladi. Shuning uchun mahallada qanchalik sog'lom ma'-naviy muhit bo'lsa, mahalla shunchalik obod, fayzli bo'ladi.

Milliy istiqlol g'oyasini keng jamoatchilik targ'ib qilishning yana bir omili – bu zamonaviy **ommaviy axborot vositalaridan** samarali foydalanish orqali amalga oshiriladi. Ommaviy axborot vositalari keng qamrovli bo'lib, unga radio, matbuot, televidenie hamda internet tarmoqlari kiradi va ular keng jamoatchilikka tez ta'sir eta oladi.

Ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasi shundan iboratki, ya'ni tezkor xabarni operativ tarzda keng aholining barcha hayot jabhalariga yetkazishdir. Bugungi kunni ommaviy axborotlarsiz tasavvur etish qiyin. Jamiyat a'zolari ma'naviy hayotining ajralmas bo'lagi, zamonaviy texnika bilan jihozlangan ommaviy axborot vositalari amaliy jihatdan yer kurrasining turli mintaqalaridan, hattoki kosmosdan deysizmi, okean tubidan deysizmi uzoq mamlakatlardan turli-tuman axborotlarni yetkazib turadi. Bizning hayotdagি o'zaro muloqotlarimizning rivojlanishi, ma'naviy olamimizning boyishi ham bevosita ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan axborotlarning mazmuniga bog'liq. Qachonki, berilayotgan xabar tezkor, haqiqiy, qiziqarli, munozarali, ilmiy bo'lsa, hayotni tiniq ko'zgudek ko'rsatsa, u yaxshi sherk, qadrli do'st va maslahatchi vositasini o'taydi.

Ommaviy axborot vositalari kishilarning ongini ijtimoiy-siyosiy hayot voqealari bilan boyitish, ularning zamonaviy fan va san'atga bo'lgan qiziqish va intilishlarini to'ldirish vositasi bo'lsa, so'zsiz ravishda ular insoniyat ma'naviy kamolotining zarur omiliga aylanadi. Har bir ko'rsatuv va eshittirishlardan keng aholi ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir etishiga erishish zarur. Masalan, bir necha yillardan beri O'zbekiston televi-

deniesi orqali namoyish qilinib kelinayotgan «Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi» ko‘rsatuvini barcha yoshdagi kishilar kuzatib boradilar. Bu dasturda ko‘tarilayotgan mavzular doimo qiziqarli, hayotiy, ommabop va dolzarbdir. Bu ko‘rsatuv kishi-larni doimo halollikka chaqiradi, Vatanni, millatni sevishga undaydi.

Lekin hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan xabarlarning muhimini, qiziqarliligini, keng qamrovli materiallarni hozirgi barkamol avlod tarbiyasi jara-yonida latish yozuvchisi ta‘biri bilan aytganda, axborotlarni aql bilan ko‘rish, eshitish va shundan so‘ng qabul qilish kerak. Haqiqatdan ham ommaviy axborot vositalaridan foydalaniш madaniyatiga bolalarni yoshlidan o‘rgatish lozim. Bu yerda oila, maktab, mahalla va jamoat tashkilotlari har doim atrofimizdagи insonlar qanday g‘oyalar ketidan ergashayotganiga ogoh bo‘lishimiz hamda nazorat qilishimiz darkor. Ana shundagina biz sog‘lom fikrli, komil shaxslardan tarkib topgan fuqorolik jamiyatiga erishamiz.

Har bir jamiyat doimo muayyan manfaatlar hamda maqsadlar asosida rivojlanib boradi. Mana shu ezgu niyat-larni amalga oshirishda kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarni Vatanga sadoqat, mehr-muhabbatli, halol, insof va diyonatli fazilatlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash darkor. Yosh avlodni buзg‘unchi yot g‘oyalar ta‘siridan himoya qilish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Jamiyat a’zolarni yangicha fikrashga o‘rgatish, ularda yangicha dunyo-qarashni shakllantirish, avvalo, mafkuraviy kurashlar avj olayotgan bir paytda ularda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir shaxsda mana shu e’tiqodni kuchaytirish uchun, avvalo, oila,

maktab, mahalla, do'stlar munosabatlarda mustahkamlash hamda doimiy tarzda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishi kerak.

Mamlakatimizda ta'lim tizimi bilan qamrab olinmagan aholi asosan 15 yoshdan 70 va undan yuqori yoshdagagi ayollar, erkaklar bo'lib, ularga uy bekalari, nafaqaxo'rlar, hunarmandlar, kasanachilar, ko'cha bolalari, bozor-o'charda savdo-sotiqlar bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar, yollanma mehnat vakillari, novvoylar, fermerlar kabi aholi qatlamidan iborat.

Ta'lim bilan qamrab olinmagan aholi ongida milliy g'urur, vatanparvarlik, yurtga sadoqat, xalq ishiga kamarbas talik psixologiyasini shakllanishining samarali mexanizmlarini ishlab chiqish uchun asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalar:

- mamlakatimiz aholisining ongi va qalbida ezgu g'oya larga sadoqat tuyg'usini uyg'otish asosida mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
- mafkuraviy tarbiya mexanizmini ishlab chiqish;
- mustaqil fikrlash masalalarini shakllantirish;
- yon-atrofdagi voqealarga daxldorlik tuyg'usini rivojlantirish;
- ongli yashashga o'z ahli, fikriga, ezgu, insoniy maf kuraga, aniq milliy g'oyaga suyanib yashashga o'rgatish;
- milliy tarbiyani kuchaytirish;
- insonlarni milliy g'oyaga qiziqishlarini rag'batlantirib, milliy g'oyani o'z xatti-harakatlarining ma'naviy asosiga aylantirish;
- mafkuraviy tahdidlar va ularga qarshi kurashning samarali yo'llari, usullari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

- milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish;
- mafkuraviy hurujlarning mohiyatini ochib berish;
- ma'naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura oladigan komil inson tarbiyasini kuchaytirish;
- mafkuraviy profilaktika orqali sog'lom e'tiqodni shakllantirish.

Milliy g'oya, milliy ong, milliy an'analar, urf-odatlar va turmush tarzi asosida shakllanadi. Umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilgan milliy manfaat atrofida ongli ravishda, aql-idrok yo'rig'i bilan jiplashgan g'oyagina milliy mafkuraga asoslanadi.

Milliy istiqlol g'oyasi mamlakatimizda istiqomat qilayotgan salkam 26 million aholining maqsad-muddaolari, istiqbolda tinch va farovon yashashiga kafolat beruvchi g'oyaviy kuch bo'lib, u millatni millat, xalqni xalq etib birlashtiruvchi kuchli omildir. Bugungi kunda milliy g'oya, milliy mafkura targ'iboti bilan keng jamoatchilik shug'ullanmoqda, ayniqsa, ta'lim tizimida bir qator ilmiy manbalar, darsliklar yaratilib, o'quv jarayonlarida qo'llanilmoqda va yoshlarni o'z Vataniga sodiq, mard, fidoyi, yuksak ma'naviy fazilatlar egasi bo'lishga undalmoqda. Lekin mamlakatimizda ta'lim tizimi bilan qamrab olinmagan aholiga ham milliy g'oyalarni qalblarga singdirish zarurati bor. Ta'lim bilan qamrab olinmagan aholi ongida milliy g'urur, vatanparvarlik, yurtga sadoqat, xalq ishiga kamarbastalik psixologiyasini shakllantirishning samsarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhim vazifalardandir.

Milliy g'oya har bir fuqaroning oilasi, jamiyat, el yurt oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada aks etayotganini belgilaydigan mezondir. Shuning uchun insonlarda mana shu

e'tiqodni, mas'uliyatni kuchaytirish uchun targ'ibotning samarali usullarini qo'llash zarur. Targ'ibotning samarali kechishi uchun qanday omillarga murojaat etish kerak?

Targ'ibotning eng samarali yo'llaridan biri hayot ichiga faol kirib borish, ya'ni mahallalarda insonlar bilan yuzmay yuz milliy g'oya va mafkura haqida bevosita suhbatlar olib borish zarur. Davra suhbatlariga taniqli el-yurt ishonchini oqlagan olimlar, mehnat fahriyalarini taklif etib, insonlarda Vatanga bo'lgan mehr-muhabbatni yanada shakllantirish mumkin.

Targ'ibotni samarali kechadigan jarayoni ta'lim tarbiyani oila instituti orqali olib borish ham o'z natijasini beradi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «Oila – jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega»,¹ deb belgilab qo'yilgan. Oila – har bir xalq, millatning davomiyligini saqlaydigan, qadriyatlar barqarorligini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy, barkamol qilib yetishtiradigan ijtimoiy instituttdir.

O'zbek oilasi farzand tarbiyasida o'zining boy tarixiy tajribasiga ega. Mustaqillik yillarda xuddi shu tarixiy tajribalardan foydalanishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Oila tarbiyasi – har bir xalqda doimiy muammo bo'lib, u muayyan millat va jamiyatda o'zining xususiyatlariga ega. Shunga qaramay, oila tarbiyasining maqsad va vazifalari barcha xalqlarda mushtarakdir. Bu jamiyatga yaxshi fazilatlar va hayotiy kasb-hunarga ega bo'lgan barkamol shaxsni yetkazib berishdir. Oila tarbiyasi deganda, avvalo:

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2003. 63-modda.

- oila muqaddasligini anglab yetish;
- ota-onal o'rtasidagi muhabbat va sadoqatga asoslangan munosabatlarni tarkib toptirish;
- bolani ma'naviy-axloqiy fazilatlar egasi qilib tarbiyalash;
- yosh avlodni halol mehnat qilish va kasb-hunar egalashga undash;
- ota-onaga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash;
- oilaning barqarorligi va mustahkamligini ta'minlash kabilalar tushuniladi.

Oila tarbiyasiga xos bu an'analar hozirgi kunda ham jamiyatning ma'naviy yuksalishiga ijobiy ta'sir etadigan muhim omillardir.

Ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotni hamma oilada, mahallada, keng jamoatchilikka axborot tarmoqlari, notiq klublar, jamoat tashkilotlari orqali uzatish mumkin. Bizning ijtimoiy xulq-atvorimiz, xatti-harakatlarimiz bizning dasturlarimiz bilan belgilanadi. Shuning uchun kimki, boshqa odamlarni xulq-atvori, xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatishga intilsa, ularning dasturlariga ta'sir ko'rsatish kerak. 1933–1945-yillarda fashistlar Germaniyasida «Xalq ta'limi va tashviqot vaziri» I.Gebbelsni eslasak. U nashriyot, radio, kino va barcha san'at turlari ustidan nazorat o'rnatib, uning har bir satrida fashizm g'oyasi yoritilgan materiallar bilan nemis xalqini fashistlar masifikurasiga ishontirib, uni qabul qilishga majburladi. To'g'ri bu yerda maqsad – yovuzlik edi, lekin tanlangan usulning samarali bo'lganligini tarixning achchiq sahifalari misolida ko'rish mumkin. Targ'ibot va tashviqot ham ta'lim-tarbiyasining bir ko'rinishidir, agarda to'g'ri targ'ib qilinsa, insonlarni buzg'unchi g'oyalardan asray olamiz.

Ijtimoiy so‘rovlар orqали jamoatchilik fikrini o‘рганиб, ularning bildirgan fikr-mulohazалари асосида mafkuraviy targ‘ibotni olib borish mumkin. Jamoatchilik fikrini o‘рганайотгanda asosan uchta omilga ahamiyat berish kerak.

Birinchi omil – so‘rovda ishtirok etayotganlarni mazkur so‘rovdan *ijtimoiy manfaatdorligini*;

ikkinci omil – *bahs-munozaraga* sabab bo‘ladigan vaziyat;

uchinchchi omil – ishtirok etayotganlarning mazkur fikrga nisbatan *malakalari* bo‘lishi.

Targ‘ibot va tashviqotning samarali usullaridan yana biri bu – ommaviy axborot vositasidir. Ommaviy axborot vositalari keng jamoatchilik fikriga tez va kuchli ta’sir eta oladi. Chunki har bir oilada ommaviy axborot vositalari xabarlaridan foydalaniлади va insonlarning ma’lumot olish manbayi bo‘lgan bu vosita orqали xalqimizga milliy g‘oyalarni singdirish qulayroqdir.

Biz har kuni ishonarli ma’lumotlarga boy bo‘lgan xabarlarga duch kelamiz, ulardan unchalik muhim bo‘lmagan qismi ham ta’sir etishi mumkin. Biror bir xabar, g‘oya insonning xulq-atvorini o‘zgartirishi mumkin, bunda *psixologik ta’sir etishning* оlti bosqichiga murojaat qilish kerak:

1. Xabar, g‘oya auditoriyaga berilishi kerak.
2. Berilgan xabar, fikr, g‘oya auditorianing diqqatini jalb qilishi kerak.
3. Auditoriya xabar, fikr, g‘oyaning mohiyatini tushunishi kerak.
4. Berilgan xabardan yangi g‘oya sifatida xulosa chiqarishi kerak.
5. Yangi g‘oyani yodda saqlab qolish kerak.

6. Yodda saqlangan g‘oyani o‘zining xulq-atvorida qo‘llay olishi kerak.

Ushbu psixologik ta’sir mexanizmi orqali insonlarni biror g‘oyaga ishontirib, uni ularning maslagiga aylantirishga erishish mumkin. Birinchi navbatda milliy g‘oyaning mohiyatini insonlarga tushuntirish va bu g‘oya ularni diqqatini tortishi kerak. Berilgan g‘oyani uning hayotida va jamiyatga zarur deb hisoblashishi kerak. Mazkur g‘oyani yodda saqlab, uni xulq-atvorida qo‘llay olishi kerak, shundagina psixologik ta’sir o‘z samarasini beradi.

Urf-odatlar, milliy qadriyatlarimiz orqali ham xalqimizga milliy g‘oyani targ‘ib etish mumkin. Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan-avlodga beباho meros sifatida o‘tib kelayotgan *urf-odat*, *marosim* va *bayramlar* ham milliy mafkuraning asosiy g‘oyalarini singdirishda muhim omil bo‘ladi. Insonparvar, yuksak e’tiqodli, bag‘rikeng, mehr-oqibatli insonlarni voyaga yetkazishda keng ma’nodagi tolerantlik, oilaviy munosabatlardagi insoniylik tamoyillari muhim o‘rin tutadi. Har bir oilasida muqaddas sanaladigan mehmonnavozlik, qiz va o‘g‘il bolalar tarbiyasi borasida maxsus an’analarning mavjudligi, yil mavsumiga ko‘ra barcha oila a’zolari ishtirokida o‘tkaziladigan turli ezgulikka chaqirib, sog‘lom mafkuraviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbek oilasida bola ongida sog‘lom g‘oya va bilimlar shakllanishi jarayonida oilaning kattalari – bobolar, momolar, yaqin-qarindosh urug‘lar ham bevosita ishtirok etadi. Azaliy udumga binoan bola tarbiyasida ota-onadan ham ko‘ra bobo va buvilarning ta’siri kuchliroq bo‘ladi. Ular oiladagi ma’naviy muhitning boshqaruvchilari hisoblanadi.

Badiiy adabiyot orqali xalqimizga sabr-qanoat, hallollik, vatanparvarlik, sadoqat kabi fazilatlarni qalblarga singdirish mumkin. «Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak» degan fikrni Abdulla Qahhor bildirgan. Mamlakatimiz olim va yozuvchi, shoirlarining asarlarida milliy mentalitetimizga mos g'oyalarga asoslanib, g'oya esa asarga mos va mutanosib tarzda yaratilishi kerak.

Yozuvchi A.Qahhor «Biror bir asar o'quvchida qanday ta'sir qoldirsa, uni qaysi yo'lga boshlasa, g'oyasi oshada» degan fikrni bildirgan. Darhaqiqat, hozirgi kunda yoshlarni turli yot g'oyalarga berilib ketmasliklari uchun ularni ezgu g'oyalariga undash kerak va bu g'oyalar ularning maslagiga aylanishiga erishmoq lozim. Shundagina insonlarni turli buzg'unchi g'oyalardan saqlay olamiz.

Inson shaxsini kamol toptirish oiladan boshlanadi. Har bir jamiyatda yuz beradigan o'zgarishlar oilaga o'z ta'sirini o'tkazadi, shu bilan birga oiladagi o'zgarishlar jamiyatga ta'sir etmay qolmaydi. Shunday ekan oilalarda qanchalik sog'lom muhit bo'lsa, jamiyat ravnraqi ham odimlaydi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, oilani har bir o'zbek farzandi muqaddas deb biladi. So'zimizning isboti uchun «Bola tarbiyasiga kim mas'uldir?» degan savol bilan Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi oilalarga murojaat qilganimizda, so'rovda ishtirok etganlarning 90 % – «otona», 10 % – «mактаб-mahalla» deb javob berishgan.

Ushbu javoblardan ko'rinish turibdiki, farzand tarbiyasini, avvalo, oiladan boshlash kerak. Chunki yaxshi oilada tarbiya topgan bola maktab-mahallada namunali xulqini namoyon qiladi. Inson o'zining Vatan deb atalmish ulug' bir oilaga

mansubligini his etish tuyg'usi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, balki izchil g'oyaviy tarbiya natijasida yuzaga keladi. Oiladagi totuvlik, ahillik, mehr-oqibat uzlusiz ravishda beriladigan axloqiy tarbiyaning mahsulidir. Jamiyatning turli qatlamlarini umumiyl manfaatlar asosida jipslashtirish mafkuraviy tarbiya vositasida amalga oshiriladi.

Ota-onalar farzand tarbiyasida ularni avvalo, o'z-o'zini to'g'ri anglab yetishga o'rgatishlari lozim, buning uchun esa o'zлari ham ma'lum bir ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Buyuk donishmand Suqrotning «O'z ishingni qilginu, o'z-o'zingni anglab yet» degan mashhur gapi bor. Inson o'z-o'zini anglab hetish, ya'ni o'zini, hayotini, do'stlari, jamiyatni, xalqini, madaniyatini, tarixini anglab yetish, tushunish va qadrlash demakdir. Mana shu o'z-o'zini anglab yetish tuyg'ulari orqali milliy g'urur, milliy iftixor, milliy faxr tuyg'u-lari namoyon bo'ladi. Mana shu tuyg'ularni milliy g'urur orqali anglab yetamiz. Shuning uchun ota-onsa farzandlariga mana shu tuyg'u milliy g'ururni shakllantirib borishlari lozim. Bu tuyg'u urf-odat, marosim, to'y-hasham, an'analarda o'z aksini topishi lozim.

Ajdodlarimiz o'gitidan unumli foydalanish ham ma'naviy tarbiyaning samarali usullaridan biridir. Masalan, oddiy o'zbek xonadonining mehmon kutish, kattalarni hurmat qilish, salomlashish kabi insoniy-axloqiy fazilatlari orqali bolalar tarbiyasi uzlusiz tarzda davom etadi. Pedagog Makarenko-nning «Har qanday tarbiyada izchillik bo'lishi darkor» deganda qancha ma'no bor. Agarda farzandlarimizga salomlashish odobini o'rgatsagu, ovqatlanish madaniyatini tushuntirmasak bolaning axloqiy tarbiyasi mukammal deb bo'l-

maydi. Shuning uchun ajdodlarimiz qadriyatlarini milliy urf-odatlarimiz bilan tabiiy ravishda tushuntirish lozim.

Ta'lrim bilan qamrab olinmagan **nogiron bolalari bor ota-onalarни korreksion-pedagogik savodxonligi** masalasi ham tadqiqotimiz doirasidagi muammolardan biridir.

Ma'lumki, O'zbekistonning ijtimoiy siyosatida nogironlarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish va integratsiyasi muhim o'rinni egallaydi, shunga qaramasdan mazkur muammo hanuzgacha dolzarb bo'lib qolmoqda. Respublikamizda umumiyyogronlar soni 799708 kishi (ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni bilan aniqlangan)ni tashkil etsa, jumladan, hozirgi kunda 130000dan ortiq nogiron bolasi bor oilalar mavjud. Bu oilalarning ayrimlarida bittadan ortiq nogiron bola mavjud degani.

Aholiga nogironlikning ijtimoiy va tibbiy-biologik omillarini chuqurroq olib borish hozirgi davrda dolzarb muammolardan biri, chunki nogiron bolasi bor ota-onalarga amaliy tadbirlar, ularga yo'naltirilgan maxsus korreksion-pedagogik ishlar, amaliy tajribalar, ko'nikma va shart sharoitlar yetishmasligi, shuningdek, oilasida nogiron bolalari mavjud ota-onalar yo'qoridagi sanab o'tilgan omillarga ega emasligi o'z farzandlarini ijtimoiy himoyadan mahrum qilmoqdalar.

Bu davrda «Yakshanba maktablarida» o'quv seminarlar va treninglar, suhbatlar tashkil etish. Tajriba sifatida umumiylar ichidan iqtidorli bolalarni aniqlash va ushbu bolalar bilan ishlash forma va metodlarini ota-onalarga o'rgatish.

Jamiyatimizda uzliksiz ta'limga ajralib qolgan bolalarni ta'limga jalb etish, korreksion-pedagogik tushunchaga ega bo'lmagan ota-onalar viloyat va tumanlarning uzoq qishloqlarida joylashgan, shuningdek, ular istiqomat qiladigan

tumanda nogiron bolalarga moslashtirilgan maxsus mактаб va internatlar tashkil etilmagan. Yana bir muammo bozor iqtisodiyotini ro'kach qilgan ota-onalarimiz nogiron bolasiga beriladigan nafaqani oila daromadida ishlatalishni afzal bilib, bolasini mактаб va internatlarga joylashtirmaydi, sababi mактаб va internatga joylashtirilgan nogiron bolalar ijtimoiy himoyalanib, nafaqadan ozod etiladilar. Ta'limga jalg etilmagan nogiron bolalar ichida qanchadan-qancha iqtidorli, jamiyatga foyda keltiradigan bolalar chetda qolib ketmoqda. Nogiron bolalarni tarbiyalash, parvarish qilish, sog'lom-lashtirish uchun ota-onadan katta bilim va malakaga ega bo'lishini talab etadi. Shu sababli biz tanlagan loyiha yuqoridagi muammoni hal etishga qaratilgan.

Ma'lumki, rivojlanishida nuqsoni bor bolaning tug'ilishi oilaning istiqbolini tubdan o'zgartiradi. Farzand tarbiyasida ota-onsa oldida ko'plab mas'uliyatli vazifalar ko'ndalang turadi, nuqsoni bor bolani tarbiyalashda esa ular bir necha muammolarga to'qnash keladilar. Bunday oilalarni aniqlash, alohida yordamga muhtoj bolalarni reabilitatsiya qilish va mактабга tayyorlashda ularning ota-onalariga korreksion-pedagogik yordamni berish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Davlatimizning ustuvor siyosati yosh avlodni ma'naviy shakllangan, jismonan sog'lom va aqlan barkamol qilib voyaga yetkazishdir. Bu o'rinda rivojlanishida kamchiligi bo'lgan ayrim ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar tarbiyasi alohida e'tiborda bo'lib kelgan. Bola tarbiyasi dastlab oilada o'z ota-onasining bag'rida jismonan, aqlan va ma'nан shakllanib boradi. Farzandlar tarbiyasi ko'p jihatdan oiladagi muhitga, atrofdagi kattalarning bolani tarbiyalashga bo'lgan

munosobatiga bog‘liqligi, ota-onaning jamiyat oldida mas’ul ekanligi, davlatimizning qator qonun va qarorlarida qayd etilgan.

Muhtaram Prezidentimizning «Biz sog‘lom avlod deganda nimani tasavvur qilamiz? Sog‘lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo, sog‘lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat, shu bilan birga, ruhiy, fikri sog‘lom, iymon-e’tiqodi butun, bilimli, ma’naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman. Buyuk davlatni faqatgina sog‘lom millat, sog‘lom avlodgina qura oladi» degan iboralari asnosida keng ma’noda ayollarni, onalarni asrash va ularning savodxonligini oshirish – bu degani farzandlarni asrash, naslni asrash, oxir-oqibatda millatni asrash, degan buyuk g‘oya yotadi.

Mamlakatimizda alohida ko‘makka muhtoj aholi manfaatlарини himoya qilish borasida mustaqillik yillarida qator qonuniy hujjatlar hukumatimiz, Oliy Majlis tomonidan, shaxsan Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan qabul qilinligini alohida e’tirof etish mumkin. Jumladan, yoshlikdan nogiron bo‘lib qolgan va ijtimoiy muhofazaga muhtojlarning huquqlari quyidagi qonunchilik hujjatlarida o‘z aksini topgan: «O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi Qonun» (1991-yil 18-noyabr); O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish masalalari to‘g‘risida»gi 1992-yil 17-iyul 328-sonli qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tibbiy – mehnat ekspert komissiyalari (TMƏK) va mehnatda shikastlanganlik yoki kasb kasalligi tufayli tayinlangan nafaqalarni boshqa davlatlarga o‘tkazish tartibi to‘g‘risida»gi 1994-yil 23-iyun 317-sonli qarori va boshqalar. Shuningdek, har yili qabul

qilinayotgan Davlat dasturlarida ham nogironlarni ijtimoiy himoya qilish, ularning reabilitatsiyasi va jamiyatni integratsiya qilishga qaratilgan barcha zarur chora-tadbirlarni bajarish o‘z aksini topgan. Ammo, yuqorida biz ta’kidlagan muammoga kiritgan qatlamdagi nogiron bolasi bor ota-onalar davlat tamonidan kafolatlangan o‘z huquqlari, yaratib berilayotgan imkoniyatlardan chetlanib qolgan, yetarli bilim va axborotga ega emaslar. Bunday oilada o‘sgan nogiron bolalar yoki kattalar, o‘zlarini hamisha jamiyatdan chetga olishga moyil bo‘ladilar. Bu o‘z navbatida ularni o‘z huquq va imkoniyatlardan mahrum etadi, vaholanki, ular ham nogiron bo‘lmasdan odamlar yoki ta’lim bilan kafolatlangan nogironlar singari teppa-teng o‘z huquqlaridan foydalanishlari mumkin.

«Bola huquqlari to‘g‘risida»gi Xalqaro Konvensiyaning 47-moddasiga muvofiq mustaqillikning dastlabki 1992-yilida yoq, Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib ratifikatsiya qilgan O‘zbekiston Respublikasi amalda yosh fuqarolarning inson sifatidagi barcha haq-huquqlari ta’milanishi va bu borada xalqaro miqyosda qabul qilingan majburiyatlar bajarilishini avval boshidanoq mustaqil davlat zimmasida ekanini isbotlaydi.

Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining qator qonunlari hukumat qarorlari, bola huquqlarini o‘zida keng aks ettirgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining «Oila», «Fuqarolik», «Uy-joy», «Mehnat», «Jinoyat», «Jinoyat protsessual», «Jinoyat ijroiya», «Ma’muriy huquqbazarlik» to‘g‘risidagi va boshqa Kodekslar hamda «Ta’lim to‘g‘risida»gi, «Nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish to‘g‘risida»gi, «Aholini ish bilan ta’minalash to‘g‘risida»gi,

«Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida ham bolalar huquqlari ijtimoiy jihatdan kafolatlab berilgan.

O‘zbekiston davlati mustaqillika erishgandan so‘ng, xorijiy xalqaro tashkilotlar tomonidan bolalar manfaatini ko‘zlaydigan dasturlarni bizning respublikamizda faoliyat yuritishi uchun keng yo‘l olib berdi. Shular qatorida alohida yordamga muhtoj bolalarni ta’lim va tarbiya olishi, ma’naviy rivojlanishi xalqaro miqyosda BMTning «Ta’lim hamma uchun» dekloratsiyasida ham alohida qayd qilingan. Ta’lim olishda qiyinchiligi bo‘lgan bolalarga tibbiy-psixologik-pedagogik va texnikaviy yordamlarni bolaning ilk yoshidan boshlab oilada amalga oshirilsa, boladagi nuqsonlar bartaraf etish oson kechishi olimlar tomonidan e’tirof etilgan.

1994-yilda Yunesko tashkilotchiligidagi bo‘lib o‘tgan Butunjahon konferensiyasida (Salaman konferensiyasi) aynan alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar ta’limiga oid deklaratsiya qabul qilindi. Unda inkluziv yo‘nalishning turli tahqirlaydigan holatlarga nisbatan eng samarali vosita ekanligi ta’kidlangan. Shuningdek, omma uchun maqbul bo‘lgan muhitning yaratilishi, inkluziv jamiyatning barpo etilishi hamda barchani ta’lim bilan qamrashni, albatta inkluziv yo‘nalishsiz tasavvur etish qiyin. Qolaversa, bu narsa aksariyat bolalarni haqiqiy ta’lim tizimi bilan ta’minlaydi hamda ko‘rsatilayotgan ijtimoiy ko‘makning samaradorligini oshiradi.

Nogiron bolalarni ma’naviy va jismonan barkamol inson bo‘lib yetishishi uchun pedagogik omilni, ya’ni tarbiyaning maktabgacha ta’lim jarayoniga alohida e’tibor berishni talab qiladi. Ota-onada bolani maktabga tayyorlashda undagi mavjud

bo'lgan nuqsonlarni bartaraf etishga oid korreksion-pedagogik usullarni to'g'ri qo'llay bilishi va bunda maktabgacha ta'lif muassasa murabbiylari maxsus mutaxassis pedagoglar bilan hamkorlikda ish olib borishi lozimligi maxsus ada-biyotlarda qayd etilgan.

Oilalarda salomatlik darajasi va oiladagi ijtimoiy-gigienik holatni ilmiy tahlil qilish qay darajada dolzarb bo'lsa, nogiron bolani tarbiyalayotgan oila salomatligi, ijtimoiy-tibbiy-gigienik holati, nogiron bolalarni sog'lomlashtirish, reabilitatsiya qilish hamda korreksion-pedagogik ishlarni oilada takomillashtirish ham bugungi kunning eng muhim vazifasidir.

Ta'kidlash joizki, Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazining 2001-yildan buyon o'tkazib kelayotgan tadqiqotlari amalda oilalarda bolalar salomatligini ta'minlash, nogironlikning oldini olish, ular uchun zarur va adekvat ta'lifni ta'minlashda muayyan kamchiliklar borligini ko'rsatib kelmoqda. Aynan alohida yordamga muhtoj bolalarni ta'lif bilan qamrab olishda ota-onalarning korreksion-pedagogik savodxonligini oshirish amaliy ahamiyatga molik dolzarb masaladir.

Barcha insonlarning jismoniy-ruhiy imkoniyatlari bir xil bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Bu isbot talab etmaydigan haqiqat. Hayotda to'rt muchasi sog'lom bo'l-magan bolalar ming afsuski, uchrab turadi. Xalqaro tashkilotlarning e'tirof etishlaricha, turli mamlakatlarda bunday bolalar soni 0,5 %dan 10 %gacha yetar ekan.

Bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri, aynan ta'lif bilan qamrab olinmagan nogiron bolalarni ta'lif va tarbiya bilan qamrab olish, ularning bunday jamiyatda ajrab

qolishining obyektiv hamda subyektiv sabablarini aniqlash va muammolarni bartaraf etishdir. Xalq ta'limi vazirligining tassarrufida bugungi kunda respublikamizda 84 ta maxsus-maktab va maktab internatlar faoliyat yuritadi. Ana shu maktab-internat hamda maxsus-maktablarda hammasi bo'lib 19483 nafar bola tahsil oladi. Davlat qonunchiligi ota-onalar xohish-istiklarini inobatga olgan holda, bolalarni uyda ta'lif-tarbiyaga jalb etish haqida ham bosh qotiradi, xususan, 9 mingdan ziyod nogiron bolalar individual uy ta'lif dasturi bo'yicha ta'lif oladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2004-yildagi aholi soniga ko'ra ijtimoiy himoya organlari tomonidan 5 ta «Muruvvat» uylarida 1400 ta bola panoh topganligi hamda ular og'ir ruhiy-asab kasalliklariga chaliganligi aniqlangan.

O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan har bir maxsus o'quv muassasasi borki, undagi bolalar masalalariga oid ishlarning barchasi ota-onalar roziligi asosida amalga oshadi. Inkluziv ta'lif deb nom olgan tizim esa bolalarning ta'lif olishida o'ziga xos huquqiy asosni yaratadi. Bunday ta'lif tizimi shunday falsafaga asoslanganki, hamma bolalar nogironligining og'irligiga qaramasdan, umumta'lif tizimining jonli hamda ajralmas vakillari sifatida sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lif oladi. Ammo, alohida yordamga muhtoj bolalarning maxsus ta'lif dasturi talablariga qanchalik layoqatli ekanini aniqlash ham muhim vazifalardan biri ekanligini unutmaslik kerak.

Ilmiy izlanishlardan shu narsa ayon bo'ldiki, rivojlanishida jismoniy va psixik kamchiligi bor bolalarga qancha erta yordam ko'rsatilsa, ulardagи kamchiliklar shuncha tez bartaraf etiladi yoki korreksiyalanadi. Bunday bolalar yosh organizmining potensial qobiliyatlariga tayaniladi.

Bugungi kunda umumta'lim mакtablarida nogiron bolalarni o'qitish va tarbiyalashda quyidagi kamchiliklar borligi aniqlangan:

- alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim mакtablarida tayyorlashda professionallikning yetishmasligi;
- korreksion tayyorlov dasturi, maxsus asbob-uskuna va texnika vositalarining yo'qligi;
- nogiron bolalarning ota-onalari uchun psixolog yordamining tashkil etilmaganligi;
- nogiron farzandi bor ota-onalarga birlamchi korreksion pedagogik ko'nikmani berishda maxsus pedagog va mutaxassislarning yetishmasligi.

Ko'rsatilgan sabablar umumta'lim mакtablarida nogiron bolalarni qabul qilish sharoitlari va imkoniyatlarini cheklaydi, albatta. Inkluziv ta'limni umumta'lim mакtabda nogiron bolalarga qonunchilik asossiz, ilmiy, tashkiliy, tibbiy manbasiz, texnika vositalari imkoniyatisiz singdirish mumkin emas, aks holda bu maqsadga yo'naltirilgan g'oyalar natijasida katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

2001–2005-yillar bosqichidagi reabilitatsiyaga oid bo'lgan Davlat dasturida ko'rsatilgan muammolarning ba'zilari o'z yechimini topgan. Lekin, alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar dasturini puxta ishlab chiqish taqozo etiladi. Talabga mos bo'lgan tartibdagi dastur o'z ichiga bolani parvarish qilish va tarbiyalash malakasiga ega bo'lish, shuningdek, bar-chaga kerakli bo'lgan psixologik, pedagogik hamda tibbiy bilimlarni bera oladigan ta'lim muassasalarini qamrab oladi va shu bilan birgalikda oiladagi jumboqlarni yechish va bolani uyda tarbiyalash hamda parvarish qilishni ota-ona ongiga singdirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ayni kunda ta'lif tizimi muammolari sirasiga oila muammolaridan sanalgan alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar bilan bog'liq masalalar o'zining dolzarblik xususiyatini yo'qotmagan. Aynan Toshkentdagi nogiron bolalar va ota-onalar klubiga tegishli ma'lumotlarga qaraganda, poytaxtda bunday oilalar soni 2000 dan ortiq ekanligi ma'lum bo'ldi. Bolalarmi reabilitatsiya qilish va moslashtirish haqidagi gap ketganda, albatta, to'g'ridan-to'g'ri oilasidan oladigan yordam tasavvur etiladi. Agarda, bunday oila iqtisodiy tanglik holatida bo'lsa, ijtimoiy mehnat va ta'lif olishda to'sqinliklarga duch kelsa, tabiiyki, u o'zini ruhan ojiz sezadi. Natijada, ota-onalar farzandlarining har tomonlama o'sishi hamda rivojlanishi yo'lida unga madad bo'lish o'rniga, o'z harakatlarining samara berishidan noumid bo'lib qoladi. Faqatgina nogiron farzandi bor bo'lgan oilalarning muammolari o'z yechimini topgan taqdirdagina, ularni to'liq reabilitatsiya qilish va u oilani jamiyatga integratsiyasini ta'minlashi mumkin bo'ladi.

Mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 3-11 %gacha bo'lgan bolalar tug'ma nuqson va irlsiy kasalliklar bilan tug'ilgan. Ularning deyarli yarmi bu kasalliklar oqibatida nogiron bo'lib qolishayapti. Bunga sabab ota-onalar farzandlaridagi nuqsoni juda kech sezishadi va uni reabilitatsiya qilish uchun kerakli zarur choralarini o'z vaqtida ko'rishmaydi. Shu sababli Respublikamizda nogiron bolalar soni tendensiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, quyidagi statistik ma'lumotga tayanish mumkin bo'ladi.

1993-yilda respublika bo'yicha jami nogironlar soni 173,5 ming kishini tashkil etgan, 1997-yilga borib bu ko'rsatkich 223,5 ming kishini tashkil etgan, ya'ni 1,3 martaga ko'pay-

gan. Shu jumladan, 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar soni 1993-yilda 49,9 ming kishi bo'lib, ular umumiy nogironlar sonining 28,8 %ini tashkil etgan bo'lsa, 1997-yilga borib bolalikdan nogironlar 106,0 ming kishini, ya'ni nogironlarning umumiy sonining 47,7 %ini tashkil etgan. Ushbu to'rt yil ichida bolalikdagi nogironlik 18,6 % o'sganligining kuzatilishi juda achinarli holdir (Тендер и развитие в Узбекистане. Статистический сборник, 1998 г.). 2000-yilda Respublikada 0–16 yoshgacha bo'lgan 111011 bola nogiron deb qayd etilgan, shulardan 57482 tasi o'g'il bolalar, 53529 tasi qiz bolalardir. 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalarning 71643 nafari qishloq sharoitida yashaganligi ma'lum. 0–16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar soni 2002-yilda 125339 ta, 2003-yilda 120256 ta, 2004-yilda 120621 ta qayd etilgan. 2000-yildan to 2004-yilgacha nogiron bolalar soni kamayib borgan. 2005-yilda 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar soni 119001 ta qayd etilgan bo'lib, shulardan 62969 tasi o'g'il bolalar, 56032 tasi qiz bolalardir. 16 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80700 tasi qishloq sharoitida istiqomat qilmoqda. Oldingi yillarga nisbatan 2005-yilda 16 yoshgacha nogiron bolalar soni 1620 taga kamaygan. Voyaga yetmagan bolalar o'rtasida nogironlikning asosiy qismi qishloqda yashaydigan bolalarga to'g'ri kelmoqda.

Nogironlikni keltirib chiqaruvchi kasallikkarni nazalogiya bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak (1-jadval), asab-ruhiy, tayanch-harakat tizimi, ko'z, qulqoq kasallikkari va tug'ma nuqsonlar aksariyatini tashkil etadi. Respublika bo'yicha 2005-yil ma'lumotlariga ko'ra, eng birinchi o'rinda 41957 bola bugungi kunda ruhiy-asab tizimi kasallikkari, 13534 bola tayanch harakat tizimi kasallikkari, 12265 bola ko'z kasalligi,

2958 taqon kasalligi, 6235 tug‘ma nuqson bilan, 2828 ta endokrin sistemasi kasalliklari bilan, 6758 bola tomoq kasalliklari bilan, 4841 bola tug‘ma yurak porogi bilan, 8108 ta jarroh va ortopedik kasalliklar oqibatida va qolganlari boshqa yo‘nalishdagi kasalliklardan nogiron deb topilgan¹.

Tug‘ma va nasliy patalogiyali hayotda saqlanib va yashab qolgan bolalar ichida birinchi o‘rinda psixoemotsional chetlanishlar turadi, ya’ni aqliy qoloqlik, serebral falajlar, ko‘rlik, karlik, tayanch harakat apparatining patalogiyasi, nutq buzilishlari va boshqalar kiradi.

Qayd etish kerakki, nogiron bolalar bilan amalga oshiriladigan korreksion-tuzatish ishlariiga nafaqat shifokor, pedagog, uqalovchi-massajislarni, balki birinchi o‘rinda oilada ota-onalarni jalb etish maqsadga muvofiqdir. Ming afsuski, aksariyat ota-onalar farzandidagi izdan chiqqan funksiyalarga nisbatan o‘z vaqtida zarur tiklantiruvchi chora-tadbirlarni ko‘rmasdan turib, ijobiy natijalarni kutib o‘tirishadi. Vaholanki, faqatgina ota-onagina o‘z bolasidagi nogironlik illatini bartaraf etish borasida sabr-qanoat bilan tinimsiz ishlashi va ijobiy samaraga erishishi mumkin. Aynan shunday holatlar borki, jabrlangan bolasining normal taraqqiyotini ta’minalash borasida o‘zgacha matonat va cheksiz layoqatni namoyon eta olgan, bu borada hech bir pedagogdan qolishmaydigan ota-onalar yo‘q emas.² Aytish joizki, Toshkent shahrida nogiron farzandi bor ota-onalar klub faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bu klubning maqsad va vazifasi nogiron farzandi bor ota-onalarning integratsiyalashuvini tashkil etish va ularga psixologik

¹ Keltirilgan statistik ma’lumotlar Respublika aholini ijtimoiy muhofaza qilish va mehnat vazirligidan olindi 2006-y.

² О.Г. Приходько. «Дефектология». №4, 2003 г., с. 36–39.

yordamlar berishdan iborat. Bugungi kunda ma'lumotlarga ko'ra, Toshkent shahrida ikki mingdan ortiq nogiron farzandli ota-onalar bor. Ular aynan og'ir turdag'i kasalliklar bilan og'rigan alohida yordamga muhtoj bolalar bo'lib, ko'p onalar farzandlariga qarash uchun ish joylarini yo'qotishgan. Nogiron orasida ta'limga layoqatsiz bolalar ham bor. Ularning farzandlariga oddiy ko'nikmalarni o'rgatishda ilg'or ota-onalarning tajribalarini boshqalarga o'rgatish missiyasini ilgari surishadi va bu borada hozirgi kunda ham faoliyat olib borishmoqda

Respublikamizda nogironlikning oldini olish bo'yicha bir qancha dasturlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, hanuzgacha voyaga yetmaganlar o'rtaida nogironlik holatlari mavjud. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan nogironlikni ijtimoiy reabilitatsiya qilish shaxobchalari, Markazlar, «Ota-onalar klubi»ga o'xshash davlat, nodavlat tashkilotlarining say'i - harakatlari bugungi kungi ehtiyojlarni qondirish, bu borada sezilarli ijobiy siljishlarga erishish uchun yetarli emas. Shu sababli ham nogironlikning oldini olishni eng avvalo, oiladan, ya'ni, ota-onalarning tibbiy hamda pedagogik-korreksion savodxonligini oshirishdan boshlash har tomonlama maqsadga muvofiqdir.

Nogiron bolani oilada tarbiyalash va kamol toptirish murakkab muammolardan biri bo'lib, unga eng asosiy tarbiyachi – onadan yuksak tarbiya, diqqat e'tibor, g'amxo'rlik, bardosh, ishonch, bilim, xushmuomalalik talab etiladi. Nogiron farzandi bor ona normal hamda nogiron bolalar rivojlanishi haqidagi fiziologik bilimlarga ega bo'lmoqliklari, tibbiyot xodimlari hamda defektolog-o'qituvchilar bilan uzviy

hamkorlikda bolani tarbiyalash va hayotga moslashtirish malakalariga ega bo'lmoqliklari lozim.

Rivojlanishi me'yorida bo'limgan bolalar 2 turga bo'la-nadilar:

- 1) jismoniy nuqsoni bor bolalar;
- 2) aqliy nuqsoni bor bolalar.

Jismoniy nuqsoni bor bolalarga – ko'rish, eshitish, nutq a'zolari, harakat tizimi rivojlanishida buzilishi bor bo'lgan bolalar kiradi. Perinatal patologiya, ya'ni, kichik yoshli bolalarda uchraydigan kasallik belgilari bolalar nogironligining asosiy omillaridan biri bo'libgina qolmay, balki u bolaning umumta'lim maktablarida tahsil olishi uchun bir necha qiyinchiliklarga kuzatiladikim, bu holatlar uning kela-jakdagi ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi, albatta.

Moskva shahridagi aqliy rivojlanishi va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tahsil oladigan maktab-internatlaridagi tajriba guruhlarida hamda maktabgacha ta'lim-tarbiya laboratoriya qoshida ochilgan «Ota-onalar universiteti»da ko'p-lab tadqiqotlar o'tkazilgan. Tadqiqotda oila sharoitida tarbiyalanayotgan maktabgacha yoshda bo'lgan (3-7 yoshli) yengil formadagi aqli zaif bolalar olingan. «Ota-onalar universiteti» maktabgacha ta'lim-tarbiya laboratoriya qoshida 1994-yildan beri rivojlanishida nuqsoni bor bolalar muam-molari, alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish maqsadida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. «Ota-onalar universiteti»ga ota-onalar ilk marotaba murojaat etib, ular farzandlariga korreksion-pedagogik yordam ko'rsatish maqsadida kelishgan. Bu bolalar aqli rivojlanishida nuqsoni borligi sababli Moskva shahri va viloyatlardagi biror bir

maktabgacha ta'lif muassasiga qabul qilinmagan. «Ota-onalar universiteti»ning tahliliy ma'lumotlariga ko'ra, oilada aqliy zaif bolaga tarbiya berishning murakkab pedagogik sharoitlari uning ijtimoiy, ma'naviy, jismoniy va estetik rivojlanishini ham murakkablashtirar ekan.

Bola va ota-onan o'rta-sidagi o'zaro ta'sirning bir-biriga mos kelmasligi, emotsional muloqotni o'rnata olmaslik va u bilan munosabatda bo'lish go'dakni erta yoshdanoq ijtimoiylashuv mexanizmining tabiiy yo'lini noto'g'ri talqin etishga olib keladi. Bu narsa bolaning shaxs sifatida rivojlanishi va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishiga ham ta'sir etadi. Maktabgacha korreksion pedagogik yo'nalishda (sohada) olib borilgan ishlar shuni ko'rsatadiki, maqsadli yo'naltirilgan ijtimoiy tarbiyasiz bolani atrof-muhitga «qo'shilish» muammosini hal qilib bo'lmaydi¹. Ijtimoiylashuv mexanizmi bola muloqotning turli shakllari, jamiyat tajribasini o'zlashtirish usullari, o'zi, atrof-muhit va atrofda-gilarning faoliyati hamda o'zaro munosabatlari haqidagi tasavvurni shakllantirish orqali oshiradi.

Shu tarzda, oila bilan ish olib boruvchi mutaxassis-defektologning korreksion-pedagogik ishi jamiyat tajribasini singdirish usullari hamda shakllanish vositalariga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatibgina qolmay aqli zaif bolaning ijtimoiylashuviga ijobiy ta'siri namoyon bo'ladi.

Oilada tarbiyalanayotgan aqli zaiflikning o'tta darajasida bo'lgan maktabgacha yoshdagagi bolalarning ijtimoiy o'sishini o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish ishning dastlabki muhim bosqichi bo'lib, pedagogka nafaqat bola o'sishidagi noxush sabablarni anglashiga balki tarbiya va ta'lif masalalarida ota-

¹ G.A.Mishina, 1998; F.Xayriddinova, 2002-y. va b.

onaga ko'mak bo'la oladi.¹ Bolaga ta'lim-tarbiya berishni uy sharoitida olib borish – bu juda mashaqqatli va sinchiklab ishlashni talab qiladigan mehnatdir. Bunday mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, endigina ish boshlagan pedagoglar uzoq muddat olib borilgan mashg'ulotlaridan ko'rinarli natija bo'lmanidan umidsizlikka tushib qolishadi. Lekin bunday bolalar ustida ishslash kishidan ayniqsa katta diqqat va sabr matonatni talab etadi. Bolada harakatga, mehnatga bo'lgan ishtiyoqini oshirish, hattoki, ta'kidlash unchalik lozim bo'l-magan narsalarga to'xtalish, uni qayta-qayta rag'batlantirish va uni maqtab turish, uning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirish, shuningdek bolada hamma ishni risoladagidek bajaraman degan ishonchni rivojlantirish eng muhim jihatlar sanaladi. Bolaning topshiriqqa bo'lgan ijobiy qarashini nazardan chetda qoldirish yaramaydi, uning erishayotgan oddiygina, sezilar-sezilmas muvaffaqiyatlarini ajratib ko'rsatish hamda baholab borish kerak. O'qituvchi-defektolog faoliyatining bosh g'oyasi asosida tarbiyalanuvchi qalbida hayotga nisbatan ishonch hamda umid hislarini uyg'otgan holda quvonch, shodlik, muvaffaqiyatga erishish, omad tuyg'ularini mazasini totib ko'rishga undash yotadi. Hattoki, bir martalik yutuqni qo'lga kiritishning o'zi bola hayoti va turmush tarzini o'zgartirib yuborishi mumkin.

Rossiyada uy sharoitida bolaga ta'lim-tarbiya beradigan o'qituvchilar orasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra, 32 %dan 50 %gacha o'qituvchilar o'qitish metodikasida qiyinchiliklarga duch kelgan, bola bilan muomala,

¹ А.В.Закреина. Дефектология. 2003, №1. Особенности социального развития детей дошкольного возраста с умеренной формой умственной отсталости, воспитывающихся в семье.

muloqot qilishda qiyinchiliklarni 60 % o'qituvchilar boshdan kechirganlar, 40 % pedagog-tarbiyachilar bolalarning ota-onasi bilan aloqa o'rnatma olmaganliklaridan qiyinchiliklarga uchraganliklarini ta'kidlashgan. Mutaxassislarning 50 % esa turli uslubiy qo'llanma, adabiyotlar bilan yetaricha ta'minlanmaganligi va tegishli metodik qo'llanmalarning yo'qligidan nolishgan.

Bolaga ta'lim berishni uy sharoitida yo'lga qo'yish – bu bir necha jihatga daxldor bo'lgan jarayon bo'lib, pedagog bilan hamkorlikda ishlash istagida bo'lgan, qolaversa, psixologik muhitni tashkil eta bilgan oila uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Bir necha yillar davomida tadqiqotchilar tamonidan uyda ta'lim olinayotgan bolaning oilasidagi ma'naviy-ruhiy muhiti bilan birga, onaning bolasidagi xattiharakatlarga nisbatan munosabati, farzandining ta'lim-tarbiya olish jarayonidagi ishtiroki, o'quvchi hamda ota-onalarning pedagog bilan qanchalik darajada aloqa o'rnatganligi o'rganilgan.

O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan uyda ta'lim oluvchi bolalar onalari xususida shunday xulosaga kelinganki, aksariyat hollarda (88 %) onalar qattiq asabiy holatlarni boshdan kechirib qattiq hayajon (stress)ga duchor bo'lganlar. Ba'zi ota-onalar qo'ni-qo'shni, yoru-do'stlar, qarindosh-urug' bilan aloqani uzgan holda o'z uylariga qulflanib olganlar. Ayrim otalar esa hatto o'z oilasini tark etishgan, oqibatda ahvoli og'ir bola bilan onaning yolg'iz o'zi qolib ketgan. Ammo, ko'p hollarda ona-lar bolasining ta'lim olishi jarayoniga faol qatnashadi (61 %), faqat 27 % hollarda turli sabablar bilan xarakterining muttasil ravishda bunday murakkab vaziyatni har doim ham ko'tara olmasligidan bolasining harakatlarini

unchalik kuzata olmay-di. 12 % hollarda onalar bu borada umuman, faol emas, ya'ni befarq ekanliklari ma'lum bo'lgan.

Uyda ta'lif oluvchi bolalarning aksariyatida (75 %) o'qituvchi bilan muloqot natijasida hissiy munosabatlar shakllana borar ekan. Bolalarning 25 % qismida esa bunday aloqalar mehnat orqali vujudga kelar ekan. O'qituvchi va ota-onalardagi mo'tadil aloqalar ko'p (77 %) oilalarda vujudga keladi. 11 % hollarda mehnat orqali paydo bo'ladi, 11 % hollarda umuman shakllanmaydi. Tadqiqotchilarning kuzatuviga ko'ra, «o'quvchi – ota-ona – o'qituvchi» tizimida hissiy bog'lanib, o'zaro bir-birini tushunish – ruhiy-korreksion faoliyatda muvaffaqiyat garovidir.

Ota-onan va oila a'zolari bilan aloqa o'rnatib olish birinchi vazifa bo'lib, u muhim rol o'ynaydi. Ammo, nogiron bolasi bor oilalarning tilini topib ishlash oson emas. Bunday hollarda M. Eggning maslahatlariga qulqoq tutishni tavsiya etilgan. U o'zining «Mening farzandim boshqalardek emas...» deb nomlangan kitobida shunday deydi: «Bolangizni tarbiyalashda oliyjanob vazifa zimmangizga yuklatilgan. Faqatgina siz uni ezgulikka yetaklay olasiz, uning kelajagi faqatgina sizga bog'liq. Buni siz uchun hech kim qilmaydi. Unga yordam berishingiz uchun bolangizni tushunishingiz bilan birga bu yo'lida sizdagi sabr hamda mehr-muhabbat va maqsad sari intilishingizning o'zi kifoya».

Pedagoglarning ilk galdegisi urinishlaridan biri bu ota-onaga bolaning ruhiy va jismoniy holatini tushuntirishdir, aks holda ona tomondan murakkab vaziyatlarga sabab bo‘ladigan qarshilik hamda aggressiv holatlar yuzaga kelishi mumkinligi yuqoridagi adabiyotlardagi tadqiqotlarning xulosasi sifatida keltirilgan. Lekin, birinchi uchrashuvdanoq bularni amalga

oshirish kerak emasligi aytilgan. Ayni damda oila a'zolarining ishonchini qozonish va ota-onaning hissiy jihatdan xarakter xususiyatlarini o'rganish zarurligi inobatga olingan.

Tadqiqotchilariga kuzatuvlariga ko'ra, farzandlarini adaptatsiya (moslashuv) qilishiga yordam bera olmasliklariga, aslida oilada ota-onalarning ma'lumoti past darajada ekanligi hamda iqtisodiy tanglikni boshdan kechirayotganliklari sabab bo'la oladi. Bunday ota-onalarni daf'atan, bolaga ta'lim-tarbiya berish uchun hamkorlikka jalb etish – qiyin masala. Negaki, kerakli ehtiyojlarni qondira oladigan biror narsaga erishish uchun sarf etiladigan mablag' miqdori ota-onada g'ayritabiyy xarakter yoxud yuzaki yondoshuvni keltirib chiqarishi tabiiy. Shuning uchun ham, pedagoglar birinchi o'rinda ota-ona bilan ishlashi, ularni o'zaro hamkorlikka chaqirishi, bolaga munosib bo'lgan usullar yordamida ta'lim-tarbiya berishga undashi darkor. Chunki, ota-onalar farzandlariga har jihatdan ko'mak berishidan, ta'lim-tarbiya jarayonida faol qatnashishdan manfaatdorlar. Ular o'z farzanlarining to'laqonli ravishda ta'lim-tarbiya olishi uchun intiladilar. Biroq shunday holatlar ham bo'ladiki, ko'p hollarda ota-onalar kerakli bilim va tajribaga ega bo'lmaydilar. Shuning uchun ham, pedagog bola bilan birlgilikda ota-onaga ham korreksion bilimni parallel ravishda o'rgatadi, boladagi rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib, diqqat-e'tiborni o'quvchisidagi yutuqlarga qaratishga urinadi.

Bolaga uyda ta'lim berish tajribasidan kelib chiqqan holda quyidagilar ishlab chiqilgan:

1. Bola g'azablanganda yoki arazlaganda, zinhor uni koyish yaramaydi, ma'yus, hafaxon bo'lgan kezlarda unga tanbeh berish kerak emas. Tarbiya berishning eng muhim

qoidasi bolaning o‘zini emas, balki uning qilig‘ini maqtash yoki urishish kerak.

2. Bolaning ta’lim olish jarayonida omadsizlikka uchraganini bo‘rttirib gapirmaslik kerak. U barcha uchragan qiyinchiliklarga sizning yordamingizsiz eplay olmasligiga ishonch hosil qilishi kerak, xolos.

3. Uy sharoitida ta’lim olayotgan bola turli patologik kasalliklar xuruj qilgan kunlari qat’iy ratsional ovqatlanish tartibiga amal qilishi kerak (tez anglay olmaslik, yengil ta’sirlanish, tez toliqish va boshq.).

4. Dars tayyorlash jarayonida o‘zaro ziddiyatli, bahslashish, g‘azabni qo‘zg‘atuvchi vaziyatlarni keltirib chiqarmaslik kerak.

Shunday ekan, nogiron farzandi bor ota-onalarning korreksion-pedagogik savodxonligini oshirishni yo‘lga qo‘yish har tomonlama foydalidir.

Alovida yordamga muhtoj bolalarga maxsus ta’lim berish ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda ham bunday dasturlarni amalga oshirish mavzularning mazmuni va moliyalashtirishi bilan farq qiladi. Vengriya davlati boshqa davlatlarga qaraganda imkoniyati yuqori bo‘lib, maktabgacha ta’lim xizmatining umumiy ko‘rsatgichidan ma’lum bo‘lmoqda. Masalan, Vengriyada 3 yoshdan 5 yoshgacha bolalarning 86 % bolalar bog‘chasiga borsa, Polshada bu ko‘rsatkich faqat 50 %ni tashkil qilar ekan. Bolalar bog‘chasiga borishning ijobiy tomoni shundaki, bolaning rivojlanishidagi o‘zgarishlarni va kasalliklarni o‘z vaqtida aniqlab oldini olish hamda davolashga yo‘naltiriladi. Ayrim mamlakatlarda alovida yordamga muhtoj bolalarga maktabgacha ta’lim davlat tamonidan moliyalashtirilib uyda tashkillashtirilgan. Hozirgi davrda

Vengriyada kompleks bolalar bog‘chalarida bolalarni go‘dakligidan to‘g‘ri rivojlantirish, maktabgacha ta’lim berish, reabilitatsiya qilish tashkil etilgan markazlarda olib borilmoqda.

Bundan ko‘rinib turibdiki, boshqa davlatlarda alohida yordamga muhtoj farzandi bor ota-onalarga va maktabgacha ta’lim muassasalariga bo‘lgan e’tibor bir qancha kamchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi. Ayniqsa, nogiron va alohida yordamga muhtoj bolalardagi kamchiliklar erta aniqlanib, uni shunchalik tezroq oldi olinadi.

Hozirgi kunda logopedlar, tarbiyachilar hamda psixologlar tomonidan kichik maktab yoshidagi bolalarning ko‘p-chiligi o‘z tengdoshlaridan orqada ekanligi aniqlanmoqda. Ularning aqliy rivojlanish ko‘rsatkichlari ancha past. Bu bolalar esa alohida pedagogik yordamga muhtojdirlar. Ularda o‘z harakatlarini boshqara olmaslik, diqqatning tarqoqligi, xotiraning sustligi, nutqning noaniqligi, dasturdagi vazifani o‘zlashtira olmaslik kabi kamchiliklar uchraydi. Buning asosiy sabalaridan biri bugungi kunda maktabgacha ta’lim muassasalariga ko‘p ota-onalar farzandlarini berishmaydi. Bundan tashqari, qishloq joylardagi bolalar bog‘chalarining holati talabga javob beradigan darajada emas.

Bugungi davr taraqqiyot sari qanchalik shiddat bilan odimlayotgan bo‘lsa, bizdan ham har jahbada ana shunday ilg‘orlikni, o‘sish hamda rivojlanishni talab etadi. Davr talablariga mos keladigan, har tomonlama yetuk insonni tarbiyalashda, tabiiyki, ta’lim tizimining o‘rnini beqiyos. Negaki, bugungi jamiyat intellektual salohiyatli, zamonaviy texnologiya vositalaridan xabardor bo‘lgan insonlar bilan yanada kuchlidir. Sir emaski, bunday mukammallikning ta’minlanishi uchun oiladagi muhitning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi

hamda uning mustahkamligi katta ahamiyat kasb etadi. Lekin, oilada jismonan nosog'lom bola dunyoga kelsachi? Bunday hollarda tushkunlikka tushishdan ko'ra eng asosiy vazifa o'sha nuqsonning yo'nalish va darajasiga qaratilgan choralarmi ko'rgan holda bolani parvarish qilishga kirishish oila uchun ham, o'sha nogiron bola uchun foydaliroqdir. Albatta, bu borada ota-onalarning oldida bir necha qiyinchilik va to'siqlar ko'ndalang turishi muqarrar. Bundan tashqari, bunday oila iqtisodiy tomonidan ham muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Negaki, nosog'lom bola uchun alohida parvarish, g'amxo'rlik hamda turli reabilitatsion choralarmi ko'rish kerak bo'ladi, bu jarayon ota-onanining ijtimoiy mehnat faoliyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Muhimi, ota-onadan bittasi yoki har ikkalovi bola yonida bo'lishlari kerak bo'ladi. Maktab yoshiga yetgunga qadar, bolada kerakli ko'nikma va boshlang'ich tushunchalarini shakllantirish uning kelgusida maktab o'quvchisi bo'lishiga va boshqa sog'lom bolalar kabi ta'lim olish imkoniyatini qo'lga kiritishida albatta qo'l keladi. Ammo, ming afsuski, bunday tashvishlarni boshidan kechirayotgan ota-onalarning aksariyati bu borada bosh qotirishdan ko'ra ko'proq umidsizlikka berilishadi, ular bolasining kelajagini tasavvur qila olmaydilar va farzandimiz uchun maxsus choralar ko'rishdan naf yo'q, qabilida umidsizlikka tushishadi. Aslini olganda, nogiron bolalar, albatta, biror jihat bilan, masalan, iste'dod tomonidan boshqalarga qaraganda ustunroq bo'ladilar. Qolaversa, hayotda o'z ustida ishlab mohir usta darajasiga ko'tarilgan hunarmandlarni yoxud qaysidir qirrasi bilan boshqalarga o'rnak bo'la oladigan kasb egalari yoki

qiziqish sohiblari orasida aynan nogiron bolalardan borligini kuzatish mumkin.

Ma'lumki, bolalarni tibbiy-pedagogik komissiya tomonidan ta'limga layoqatliligi tekshirilganda ta'lim olishga umuman layoqatsiz bolalar ham chiqib qolishadi. Bunday bolalar aqli zaiflikning og'ir darajasi bilan kasallangan bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tmoqchimizki, ko'p hollarda ta'limga layoqatli ammo maxsus maktab internatlarda tahsil olishi kerak bo'lgan bolalarning ta'lirndan ajralib qolib ketgan hollari tadqiqotimiz davomida kuzatildi. Bunga sabab, ota-onalar bolalarini o'zlaridan uzoqlashishini xohlashmagani uchun maxsus maktab internatga jo'natmaganligini aytishdi. Bu esa jamiyatda ta'lim olishga layoqatli lekin, ta'lim bilan qamrab olinmagan nogiron bolalar guruhini keltirib chiqaradi.

2004-yil Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi tomonidan «Alohida yordamga muhtoj bolalar» mavzusida sotsiologik tadqiqot o'tkazilgan edi. Ushbu tadqiqot Toshkent shahrida joylashgan «Muruvvat» uyi va maktab internatlarida ishlaydigan xodimlar, ushbu joylarda tarbiyalanuvchi o'quvchilar va ularning ota-onalari hamda oilaviy poliklinikalagi tibbiy maslahat komissiyalari a'zolari orasida olib borildi. Tadqiqotning maqsadi - nogironlikning kelib chiqish sabablarini aniqlash, alohida yordamga muhtoj bolalarni oidalan uzoqlashmagan holda ta'lim olishlaridagi muammolarni o'rganish hamda shifokorlar tomonidan bolalarga berilgan nogironlik statuslarini qanchalik to'g'ri va noto'g'ri ekanligini aniqlashdan iborat edi.

Olib borilgan tadqiqotlarimizning natijasi sifatida quyida gilar xulosa qilingan edi:

1. Tadqiqot davomida markaziy poliklinikalarda olib borilgan suhbat va tekshiruvlarda aniq bir xatoliklar aniqlanmagan bo'lsa ham, lekin shifokorlar tomonidan bolalarga o'z vaqtida erta tashxis qo'yish bo'yicha ayrim kamchiliklar borligi aniqlandi.

2. Alovida yordamga muhtoj bolalarni tibbiy-pedagogik komissiyadan o'tkazishda muayyan muammolar mavjudligi va haddan tashqari rasmiyatçilik holatlariga ko'ra ushbu komissiya ishining uzoq muddatgacha davom etishi aniqlandi.

3. Ko'pgina ota-onalar farzandlarini maktab internatlariiga topshirgandan so'ng, ularni faqatgina ta'tili davomida uyga olib ketishlari aniqlandi.

4. Ba'zi ota-onalar farzandlarini nogironligi tufayli hech qanday ta'lim muassasiga berishmagan va nogironlar uchun mo'ljallangan maktab-internatlar haqida eshitgandan so'ng kech, 10–12 yoshlarda farzandlarini olib kelib topshirishgan.

5. Ota-onalar alovida yordamga muhtoj farzandlaridan umidsizliklari tufayli ko'proq e'tiborlarini sog'lom farzandlariga qaratishadi va yana ko'p hollarda nogiron bolani ta'lim olishga tayyorlashda bilim va tajribasizliklari sabab bunday bolalar maxsus komissianing tekshiruvidan o'tolmagan yoki ta'limga layoqatsiz deb topilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraq-qiyotining poydevoridir». T., Sharq, 1997-y.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari taraqqiyot kafolatlari. T., Uz., 1997-y.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., Uzb. 1999-y.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot – pirovard maqsadimiz. T., O‘zbekiston. 2000. 8-tom.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta’lim to‘g‘risida. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., Sharq, 1997. 20–30-b.
6. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. O‘sha joyda. 32–62-b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., O‘zbekiston. 1992.
8. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosida tushuncha va tamoyillar. T., O‘zbekiston. 2001.
9. Munavvarov A.K. Pedagogika. T., O‘qituvchi. 1996.
10. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. T., O‘qituvchi. 1994.
11. Yo‘ldoshev J.G. Ta’lim yangilanish yo‘lida. T., O‘qituvchi. 2000.
12. Almetov N. Pedagogika. Savollar va javoblar. 2001.
13. Поласый И.П. Педагогика. В 2-х кн. М., 2001.

14. Поласый И.П. Педагогика. 100 вопросов – 100 ответов. М., 2001.
15. Харламов И.Ф. Педагогика в вопросах и ответах. М., 2001.
16. Рабочая книга социологии. М., Просвещение. 1991.
17. Рабочая книга школьного психолога. М., Просвещение. 1991.
18. Кинонова И.М. Семинарские и практические занятия по дошкольной педагогике. М., 1989.
19. Арнаутова Е.П. Педагог и семья. М., 2001.
20. Маслов Н.Ф. Рабочая книга социального педагога. 1994.
21. Karimov I.A. «Barkamol avlod orzusi». Т., «O'zbekiston», 1998-у.
22. Karimov I.A. «O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura». Т., «O'zbekiston», 1993-у.
23. To'rayeva O. «Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi». Т., «O'qituvchi», 1998-у.
24. Hasanboeva O. «Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya». Т., 1998-у.
25. Otavaliyeva U. «Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi». Т., 1994-у.
26. Munavvarov A. «Oila pedagogikasi». Т., «O'qituvchi» 1994-у.
27. Xotin-qizlar ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Т., 2002-у.

M U N D A R I J A

	KIRISH.....	3
<i>I bob.</i>	Oila pedagogikasining predmeti, maqsadi va vazifalari	5
<i>II bob.</i>	Oilada bola tarbiyasi davlat siyosatidagi ustuvor vazifalardan biri ekanligi	17
2.1.	Oila–tarbiya maskani	27
2.2.	Oila ma’naviyati	38
2.3.	Oilada vatanparvarlik tarbiyasi	48
<i>III bob.</i>	O’zbekistonda oila, davlat va jamiyat munosabat omillari	51
3.1.	Oilada ota-onaning o’rni	53
3.2.	Sog’lom oila-sog’lom turmush tarzida vujudga kelish omili.....	68
3.3.	Oila va nikohning huquqiy kafolat omili	86
3.4.	Oila xo’jaligini yuritish omili.....	93
<i>IV bob.</i>	Ma’naviy barkamol insonni shakllanishida oilaning tutgan o’rni	116
<i>V bob.</i>	Oilada komil inson tarbiyasi	122
5.1.	Sharq mutafakkirlari merosida oila va oilaviy tarbiya masalalari.....	124
5.2.	Oilada bolalarni axloqiy tarbiyalash omillari.....	134
<i>VI bob.</i>	O’zbek oilasidagi urf-odat va marosimlar.....	149

6.1.	O'zbek xalqining oilaviy marosimlari.....	152
6.2.	Diniy bayramlar.....	168
<i>VII bob.</i>	Oilada bolalarni mehnatga o'rgatish.....	202
<i>VIII bob.</i>	Oilada ekologik tarbiya.....	221
<i>IX bob.</i>	Bolani rag'batlantirish va jazolash.....	271
<i>X bob.</i>	Bolalarni oilada mакtabga tayyorlash....	287
10.1.	Bolalarmi maktabga tayyorgarlik maz-muni.....	287
<i>XI bob.</i>	Bolani maktabga tayyorligini aniqlash.... Foydalanilgan adabiyotlar.....	296 380

OILA PADAGOGIKASI

Toshkent – «ALOQACHI» – 2007

Muharrir: S. Badalboyeva
Tex. muharrir: A. Moydinov
Musahhih: S. Narziyev
Sahifalovchi: A. Shaxametov

Bosishga ruxsat etildi 12.08.2007. Qog‘oz
bichimi $60 \times 84 \frac{1}{16}$. «Timez Uz» garniturası.
Offset usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 24,5.
Nashr tabog‘i 24,0. Adadi 1000.
Buyurtma №

«Aloqachi matbaa markazi»da chop etildi.
700000, Toshkent shahar, A.Temur ko‘chasi, 108-uy.

OILLA PEDAGOGIKASI

ISBN 978-9943-326-16-3



9 789943 326163